

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

Xidiraliyev K.E., Karshibayeva L.K.

**TRANSPORT, SANOAT VA QISHLOQ XO‘JALIGI
GEOGRAFIYASI**

**5110500-“Geografiya o‘qitish metodikasi” ta‘lim yo‘nalishi talabalari
uchun darslik**

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining
2020 yil 22-maydagi №2-sonli buyrug‘iga asosan darslik sifatida
tavsiya etilgan**

Guliston-2021

UDK 332.01

BBK 65.4

X45

Xidiraliyev K.E., Karshibayeva L.K. “Transport, sanoat va qishloq xo’jaligi geografiyasi” darslik. Guliston. 2021. -177 bet.

Darslik5110500-“Geografiya o‘qitish metodikasi” ta’lim yo‘nalishidagi “Transport, sanoat va qishloq xo’jaligi geografiyasi” fani dasturi asosida tayyorlangan. Mazkur darslikda har bir davlatning iqtisodiy rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan moddiy ishlab chiqarishning asosiy tarmoqlari-transport, sanoat va qishloq xo’jaligining shakllanishi, rivojlanishi, hududiy joylashuvi xususiyatlari, tarmoqlar tarkibi va qonuniyatlari, asosiy muammolari, tarmoqlarning bozor mexanizmlari asosida rivojlanish asoslari, tarmoqlarga xos tushuncha va jarayonlar kabi masalalar qamrab olingan.

Учебник подготовлено на основе действующей учебной программы “География транспорта, промышленности и сельского хозяйства” по направлению 5110500-методика преподавание географии. Учебник охватывает основные отрасли материального производства, которые необходимы для экономического развития каждого государства. Уделено внимание-формирование, развития и регионального расположения, структуру и закономерности, основные проблемы, развития на основы рыночного механизма, связанное понятие и процессы-транспорта, промышленности и сельского хозяйства.

The textbook was prepared on the basis of the current curriculum “Geography of transport, industry and agriculture” in the direction 5110500-methodology teaching geography. The textbook covers the main branches of material production that are necessary for the economic development of every state-transport, industry and agriculture, the characteristics of the formation, development and regional location, the structure and laws of networks, the main problems, the foundations of the development of industries, specific concepts and processes.

Taqrizchilar: Geografiya fanlari doktori, professor
Kamilova Nilufar Qarshiboyevna. O’zMU
Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent
Safarov Ural Hamroyevich. Nizomiy nomidagi TDPU

Muharrir: Geografiya fanlari nomzodi, dotsent
Yuldashov Abror Ubaydullayevich. GulDU

SO‘Z BOSHI

Davlatlar ijtimoiy, iqtisodiy taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan, ishlab chiqarish tarmoqlari-transport, sanoat va qishloq xo‘jaligi, har qanday davlatning iqtisodiy rivojlanishi holatini ko‘rsatib beruvchi asosiy ko‘rsatkichlar bo‘lib hisoblanadi. Ushbu tarmoqlarni biron bir mintaqada joylashtirish uchun avvalo, ularning o‘ziga xos xususiyatlarini, ularning rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarni aniq bilish talab etiladi. Mazkur darslikda transport, sanoat va qishloq xo‘jaligining shakllanishi, rivojlanishi, hududiy joylashuvi xususiyatlari va qonuniyatlari, asosiy muammolari kabi masalalar ham qamrab olingan.

Farovon hayotimizning “Yo‘l xaritasi” hisoblangan, O‘zbekiston Respublikasini 2017-2021 yillarda rivojlantirishning Harakatlar strategiyasini uchinchi ustuvor yo‘nalishida-(Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish)-qo‘yilgan vazifalar asosida Respublikamiz transport, sanoat va qishloq xo‘jaligini ustuvor rivojlantirish dolzarb ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Bu jarayon natijalari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning 2020 yil Oliy majlisga murojaatnomasida ham chuqur ko‘rib chiqilgan. Ushbu doirada, Respublikamizning bu tarmoqlaridagi o‘zgarishlar o‘rganilib, dunyo davlatlaridagi mavjud tarmoqlar bilan qisman solishtirilgan. Shuningdek, ishlab chiqarish tarmoqlarini shakllanish va rivojlanish bosqichlari, ishlab chiqarishni ijtimoiy tashkil etish shakllari, ishlab chiqarishni joylashtirishga ta’sir etuvchi omillar, zamonaviy transport tarmoqlari, sanoatni rivojlantirish asoslari, qishloq xo‘jaligi rayonlari tiplari o‘ziga xos misollar asosida berilgan.

Jumladan, transport, sanoat va qishloq xo‘jaligi tarmoqlarining xususiyatlari, tarmoqlarning joylashtirish va rivojlantirishda zarur bo‘lgan omillar va qonuniyatlari, tarmoqlarning geografiyasi, kelib chiqish va shakllanish xususiyatlari, hududlar bo‘ylab tarqalishi, rayonlashtirish tamoyillari, tarmoqlarning iqtisodiyotdagi ahamiyati va ulushi, tarmoqlarda fan-texnika taraqqiyoti natijasida vujudga kelayotgan o‘zgarishlar, tarmoqlar ishlab chiqarishi va ekologik muammolar masalasi, tarmoqlarni bozor ta’moyillari asosida shakllantirish, joylashtirish va rivojlantirish mexanizmi o‘rganilgan.

Transport, sanoat va qishloq xo‘jaligi geografiyasi ham jamiyat haqidagi fandır. Hamma fanlardagi kabi bu fanda ham, har bir voqea va hodisalarni o‘rganishda unga avvalo falsafiy nuqtai nazar bilan yondashish kerak. Bu fan ham shu metodga tayanadi. SHuningdek, mazkur fan iqtisodiy-ijtimoiy geografiya, tabiiy geografiya, iqtisodiyot nazariyasi, mintaqaviy iqtisodiyot, ekologiya, demografiya, matematika, tarix, siyosatshunoslik, kartografiya fanlari bilan bir qator yo‘nalishlarda hamkorlik qilayotganligi misollar asosida yoritilgan. Umuman, o‘rganilayotgan xo‘jalik tarmoqlari iqtisodiy va ijtimoiy geografyaning eng asosiy mavzusi hisoblanadi.

Mazkur darslikda ba’zi juziy kamchiliklar, munozarali qarashlar va atamalar uchrashi mumkin. SHunga ko‘ra darslik haqidagi fikr-mulohazalarini bildirgan hamkasblarga mualliflar o‘z minnatdorchiliklarini bildiradilar.

**Manzilimiz: 120105. Guliston shahri, IV mavze, Universitet,
«Ekologiya va geografiya» kafedrası.**

1-MODUL. “TRANSPORT, SANOAT VA QISHLOQ XO’JALIGI GEOGRAFIYASI” KURSI MAZMUNI. ISHLAB CHIQRISH TARMOQLARINING SHAKLLANISHI VA ULARNI IJTIMOIIY TASHKIL ETISH SHAKLLARI

1.1. “Transport, sanoat va qishloq xo’jaligi geografiyasi” fani maqsadi va vazifasi. Ob’ekti va predmeti, boshqa fanlar bilan aloqadorligi, asosiy tushuncha va qonuniyatlari

Transport, sanoat va qishloq xo’jaligi geografiyasi fani, transport, sanoat va qishloq xo’jaligi ishlab chiqarishining ma’lum makon va zamonda hududiy muammolarini, joylashish, iqtisoslashish va rivojlanish qonuniyatlarini o’rganadi. Transport, sanoat va qishloq xo’jaligi xalq xo’jaligining (iqtisodiyotning) muhim tarkibiy qismlaridir. Ular jamiyat taraqqiyoti uchun zarur bo’lgan turli xil mahsulotlarni ishlab chiqaradi va iste’molchiga yetkazib beradi. Transport, sanoat va qishloq xo’jaligi iqtisodiy va ijtimoiy geografik masalalarni o’rganishda yetakchi o’rinni egallaydi.

Umuman, transport, sanoat va qishloq xo’jaligi-bugungi kunning dolzarb mavzusi hisoblanib, o’ziga xos rivojlanish mexanizmiga, istiqbollarga, muammolariga ega. Xususan bu yirik masalabutun dunyo, ayrim davlatlar va hududlarning-transport, sanoat va qishloq xo’jaligini va ular bilan uzviy bog’liq bo’lgan xalqaro iqtisodiy aloqalar sohalarini ham qamrab oladi. Bu masalani o’rganish bilan biz har bir xo’jalik tarmoqlarining jamiyat hayotida tutgan o’rni, rivojlanish va joylashish xususiyatlarini, ularning atrof-muhitga ta’siri haqida etarlicha tushuncha olamiz.

Fanning ob’ekti-har bir davlatning iqtisodiy rivojlanishi uchun zarur bo’lgan moddiy ishlab chiqarishning asosiy tarmoqlari-transport, sanoat va qishloq xo’jaligi va bu tarmoqlarining joylashuv xususiyatlari, ishlab chiqarish mexanizmi, rivojlanish masalalari va soha oldidagi muammolar. Ushbu doirada qaraydigan bo’lsak, transport, sanoat va qishloq xo’jaligi-moddiy ishlab chiqarish faoliyatining barcha turlari majmuasidir. Buning asosida mahsulotlar, energiya shaklidagi moddiy ne’matlar yaratiladi va bir joydan ikkinchi joyga tashiladi, saqlanadi, navlarga ajratiladi, qadoqlanadi, o’rab bog’lanadi, joylanadi va muomala sohasidagi vazifalar amalga oshiriladi. Bizga ma’lumki **transport**-moddiy ishlab chiqarishning asosiy tarmoqlaridan biri sifatida, xalq-xo’jaligining “qon tomiri” hisoblanib, xalq xo’jaligi va aholining yuklarga bo’lgan ehtiyojlarini, yo’lovchilarni bir joydan ikkinchi joyga harakatlanishini o’z vaqtida muttasil ta’minlab turadi. **Sanoat**–ham moddiy ishlab chiqarishning eng yirik etakchi tarmoqlaridan bo’lib, unda mehnat qurollari (vositalari), mehnat buyumlari va xalq iste’mol tovarlarining ko’pchilik qismi yaratiladi. Shuningdek, **qishloq-xo’jaligi**-ham moddiy ishlab chiqarishning asosiy tarmoqlaridan biri bo’lib, aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan va sanoatni (oziq-ovqat va engil sanoatlarni) xom ashyo bilan ta’minlaydi.

Fanning predmeti-transport, sanoat va qishloq xo’jaligi, uning ichki tarmoqlar tarkibi, ishlab chiqarish mexanizmi, joylashuv xususiyatlari va rivojlanish masalalari va soha oldidagi muammolarni ilmiy-nazariy jihatdan o’rganish, tahlil qilish va

yoritish. Agar kengroq e'tibor bersak, transport, sanoat va qishloq xo'jaligi geografiyasi-iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning muhim tarmoqlaridan hisoblanib-transport, sanoat va qishloq xo'jaligi va ularning ichki tarmoqlarini shakllanish, rivojlanish va hududiy joylashish xususiyatlari, qonuniyatlari, muammolari kabi masalalarni o'rganadi.

Fanning maqsadi-moddiy ishlab chiqarishning asosiy tarmoqlari hisoblangan transport, sanoat va qishloq xo'jaligi tizimining o'ziga xos xususiyatlari, hududiy joylashuv shakllari, rivojlanish darajasi, ularni tarmoqlarining asosiy jihatlari, sanoat hududiy joylashuvi natijasida hosil bo'ladigan turli shakllar va ishlab chiqarishning rivojlanishida muhim rol o'ynovchi omillar haqida to'laroq bilim berishdir.

Fanning vazifalari:

- transport, sanoat va qishloq xo'jaligi tizimining asosiy tarmoqlarining xususiyatlarini aniqlash;
- tarmoqlarning joylashtirish va rivojlantirishda zarur bo'lgan omillar va qonuniyatlarni o'rganish va tahlil qilish;
- transport, uning turlari, sanoat va qishloq xo'jaligi, ularning tarmoqlarini o'rganish;
- tarmoqlarni o'rganilish tarixini yoritish;
- transport, sanoat va qishloq xo'jaligi geografiyasida qo'llaniluvchi tadqiqot usullarini o'rganish va tahlil qilish;
- transport, sanoat va qishloq xo'jaligi geografiyasidagi atamalarni o'rganish;
- transport turlari, sanoat va qishloq xo'jaligi tarmoqlarining kelib chiqish va shakllanish xususiyatlarini o'rganish;
- sanoatni hududlar bo'ylab tarqalishini tahlil qilish;
- qishloq xo'jaligini rayonlashtirish tamoyillarini o'rganish;
- transport turlari, ularni hududiy tarqalish xususiyatlarini tahlil qilish;
- transport, sanoat va qishloq xo'jaligi tarmoqlarini o'rganishning ilmiy va amaliy ahamiyatini yoritish;
- tarmoqlarning iqtisodiyotdagi ahamiyati va ulushini o'rganish;
- ishlab chiqarish tarmoqlarini shakllanish va rivojlanish bosqichlarini o'rganish;
- ishlab chiqarishni ijtimoiy tashkil etish shakllarini o'rganish va tahlil etish;
- ishlab chiqarishni joylashtirishga ta'sir etuvchi omillarni yoritish;
- transport, sanoat va qishloq xo'jaligi tarmoqlarida fan-texnika taraqqiyoti natijasida vujudga kelayotgan o'zgarishlarni ilmiy jihatdan o'rganish va yoritish;
- transport, sanoat va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi va ekologik muammolar masalasini o'rganish;
- transport, sanoat va qishloq xo'jaligi tarmoqlarini bozor ta'moyillari asosida shakllantirish, joylashtirish va rivojlantirish mexanizmini o'rganish va asoslash.

Transport (lotincha so'zdan olingan bo'lib-transporto-tashiyman ma'nosini anglatadi)-xalq xo'jaligining (iqtisodiyotning) yuk va yo'lovchi tashish tarmog'idir. Transportning boshqa ishlab chiqaruvchi sohalardan farqi shundaki, u yangi mahsulot yaratmaydi, balki ishlab chiqarilgan boylikni iste'molga etkazadi. Transport yordamida sohalar, soha ichidagi tarmoqlar, tarmoq ichidagi korxonalar, hududlararo ishlab chiqarish, bir-biri bilan bog'lanib, ishlab chiqarish jarayoni maromida borishi uchun barcha sharoitlar yaratiladi. Transport ishlab chiqarish bilan iste'mol o'rtasidagi aloqani ta'minlaydi. Ishchi kuchi, mehnat qurollari va mehnat buyumlarini

bir joydan ikkinchi joyga ko‘chirib, jami iste‘mol mahsuloti ko‘lamiga ta‘sir ko‘rsatadi. Agar kengroq e‘tibor bersak, transport quyidagi aloqalarni oqilona yo‘lga qo‘ya oladi:

- sanoat va qishloq xo‘jaligi o‘rtasida;
- ishlab chiqarish va xom-ashyo o‘rtasida;
- ishlab chiqaruvchi va iste‘molchi o‘rtasida.

Haqiqatdan ham, transport vositalari yordamida boyliklar bir joydan ikkinchi joyga ko‘chirilishi natijasida iste‘molga yaqinlashadi, iste‘mol qiymatining tashkil topishi tezlashadi. Transport vositalarining o‘ziga xos xususiyatlari ulardan moddiy va nomoddiy ishlab chiqarishning hamma sohalarida keng ko‘lamda foydalanish zaruratini keltirib chiqaradi. Transport vositalaridan foydalanish mahsulot ishlab chiqarish va uni realizatsiya qilish (sotish) uchun sarflanadigan vaqtni qisqartiradi, mehnat unumdorligini oshiradi, mahsulot tannarxini kamaytiradi.

Transport vositalaridan unumli foydalanish-yo‘llar qurish, transport turlarining yuk tashish qobiliyatini oshirish, transport turlarining tezligini oshirish, ta‘mir ishlarini muntazam ravishda olib borish, yo‘l xo‘jaligi ixtiyoridagi texnikani takomillashtirish va ulardan unumli foydalanish demakdir. Kuzatishlar avtomobilning yuk ko‘tarish qobiliyati qattiq qoplamali yo‘llarda, qattiq qoplamasiz yo‘llardagiga nisbatan 25-80 %, tezligi 2-3 marta oshishini, yonilg‘i sarfini esa 2 marta kamayishini ko‘rsatadi. Shuning uchun xo‘jaliklararo va xo‘jalik ichidagi yo‘llarni rekonstruksiyalash (qayta ta‘mirlash) va o‘z muddatida ta‘mirlash, yo‘l qurilishini kengaytirish va qishloq xo‘jaligini yanada intensiv rivojlantirish uchun real sharoitlar yaratadi.

Transportning asosiy turlari temir yo‘l, dengiz, daryo, avtomobil, havo, truboprovod, elektron va ot-ulov hisoblanib, ular birgalikda yagona transport tizimini shakllantirgan. Bu tizim o‘ziga xos geografiyaga ega bo‘lib, ob‘ektiv va sub‘ektiv omillar asosida vujudga kelgan. Jumladan, jahon temir yo‘liga dastlab 1825 yili Angliyada asos solingan. Rossiyada 1837 yil, O‘zbekistonda esa 1890 (ba‘zi manbalarda 1888 yil berilgan) yil asos solingan. Temir yo‘l qurish 1970 yillargacha jahonda juda tez o‘sdı. Hozirda temir yo‘lnı yuk va yo‘lovchi tashishdagi salmog‘i kamaygan bo‘lsada, u quruqlik transportining muhim tarmog‘idir. Jahon temir yo‘l turi XX asrning boshida asosan shakllangan bo‘lib, hozirda uning umumiy uzunligi taxminan 1,2 mln. km atrofida. Jahonda tashiladigan jami yukning taxminan 16 %, yo‘lovchining 11 % temir yo‘l transportida tashiladi.

Avtomobil transporti-XX asr transporti hisoblanadi. Bu transport istalgan tomonga bora oladigan eng qulay transportdir. U yuklarnı yo‘lda tushirib ortmay bevosita iste‘molchiga to‘g‘ri etkazib bera oladi. Avtomobil transporti sanoat va qishloq xo‘jalik korxonalarini magistral transport bilan bog‘laydi. SHahar atrofida va qisqa masofaga yuk tashishda eng afzal transport hisoblanadi. SHuningdek tog‘ oldi va tog‘li rayonlar uchun katta ahamiyatga ega. Avtomobil yo‘llarining uzunligi tobora ortib bormoqda va hozirda 28 mln. km ga yaqinlashdi.

Quvur transportida asosan tabiiy gaz, neft, suv va sut (Avstriya, SHvetsiya tog‘ yaylovlarida), issiqlik (paravoy) tashiladi. Quvur transportining ish unumi quvurning yo‘g‘onligi, materialning sifatiga, gaz va neftning qanday bosim bilan harakatlanishiga bog‘liq. FTI (fan texnika inqilobi) yutuqlari hozirda 120 va hatto

undan ortiq atmosfera bosimi yaratish va shunga chidamli quvurlar ishlab chiqarish imkonini bermoqda.

Lekin atmosfera bosimiga eng chidamli quvurlarda tabiiy gaz va neft tashish faqat ayrim rivojlangan mamlakatlarga xos bo'lib, ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlarda bu ko'rsatkich juda past. Masalan, O'zbekistonda quvur transportida hozircha bosim taxminan 40 atmosferadan oshmayapti (xonadonlarimizdagi gaz quvurlarida bosim 0,5-2 atmosfera). Jahonda quvur transportining (neft va gaz quvurlari) umumiy uzunligi taxminan 2 mln. km dan ortiq. Jahonda tashiladigan barcha yukning 11 % quvur transportiga to'g'ri keladi.

Elektron transport yangi, eng yosh va ahamiyati tez o'sib borayotgan transport tarmog'idir. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda yaxshi taraqqiy etgan. Lekin ayrim rivojlanayotgan mamlakatlarda, ayniqsa, qoloq Afrika mamlakatlarida endi shakllanayotgan yoki butunlay shakllanmagan transport turidir. Elektron transportda elektr energiyasi, tovush (telefon), tasvir (internet) va turli xil belgilar tashiladi. Radio hamda teletelofon ham tashiladi. Mazkur transport turining rivojlanganlik darajasi jahon mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish darajasiga bog'liq. Elektr stansiyalarining (GES, IES, AES) bir-biriga ulanishi natijasida energetika tizimi hosil bo'ladi, ya'ni elektron transport vujudga keladi. Biroq mamlakat yoki regiondagi (mamlakatlararo) ES larning o'zaro tutashishidan, ya'ni birlashtirilishidan YAES (yagona energetika sistemasi) hosil bo'ladi.

Suv transporti, quruqlik transportidan farq qilib, jihozlanishi uchun ko'p xarajat talab qilmaydi, tabiiy suv yo'llaridan foydalanadi. U yoqilg'ini ko'p ishlatmaydi. Yuk tashish tannarxi temir va avto transportga nisbatan ancha arzon, lekin harakat tezligi past, yuk tashish mavsumiy, suv yo'lining yo'nalishi hamma vaqt ham zaruriy yo'nalishlarga to'g'ri kelavermaydi. FTI sababli suv transportining bu salbiy tomonlari kamayib bormoqda. Masalan, zamonaviy kemalarning tezligi ortib bormoqda.

Suv transporti dengiz va daryo transportiga bo'linadi. Dengiz transporti jahon transport sistemasining (tizimining) juda muhim tarkibiy qismi bo'lib, shu transportning rivojlanishi tufayli Dunyo okeani qit'alarini bir-biridan ajratib turuvchi emas, balki bog'lab turuvchi vositaga aylandi. Jahonda xalqaro tashiladigan butun yuklarning 62 %, yo'lovchining 0,5 % dengiz transportida tashiladi. Dengizda yuk tashish 2 xil bo'ladi:

-chet mamlakatlarga yuk tashish;

-kobotaj (o'z mamlakati portlari orasida) yuk tashish.

Kobotaj 2 xil bo'ladi:

1) katta kobotaj-turli dengizlar orqali yuk tashish;

2) kichik kobotaj-bir dengizda yoki yonma-yon dengizda yuk tashish.

Suv transportida tashiladigan yuk evaziga olinadigan kira haqi **fraxt** deyiladi. Kemalar har xil yuklarni tashiydigan universal (keng qamrovli) kemalardan va maxsus kemalardan-(yog'och-taxta tashuvchi, konteyner tashuvchi, refrijerator (xolodilnik qurilmalari o'rnatilgan kemalar), neft va suyultirilgan gaz tashuvchi (tanker), ko'mir va ruda tashuvchi kemalardan iborat. Dengiz transporti xalqaro savdoning deyarli 80 % ini amalga oshiradi.

Aviatsiya-transportning eng tez, eng qimmat va joy relefiga bog'liq bo'lmagan turidir. Dastlabki "samolyotni" 1885 yil rus dengiz ofitseri A.F.Mojayskiy ixtiro qildi. U bug' dvigatelli birinchi samolyot bo'lib, podsho tomonidan qo'llab-quvvatlanmadi. Ikkinchi samolyotni 1903 yil amerikalik aka-uka Raytlar yaratdi (kerosin bilan ishlaydigan). Mazkur samolyot 32 m ga uchgan. "Avis" so'zi lotincha "qush" demakdir. Havo transportining ahamiyati yil sayin ortib bormoqda. Masalan, 1948 yil havo transportida 20 mln yo'lovchi tashilgan bo'lsa, hozirda taxminan 1,5 mlrddan ortiq yo'lovchi tashiladi. Umumiy holda jahon yo'lovchi tashish miqdorining 20 % ushbu transport hissasiga to'g'ri keladi. Dastlabki samolyot bug' dvigatelli bo'lsa, hozirda turbovintli va reaktiv samolyotlar qatnamoqda. Havo yo'llarining umumiy uzunligi 8 mln km ga cho'zilgan.

Bizga ma'lumki, sanoat-bu ijtimoiy-iqtisodiy kategoriyadir. Sanoat ob'ektiv reallik (borliq) ning in'ikosi va yuksak umumlashmasidir. Uning alohida tarmoq, ya'ni ijtimoiy ishlab chiqarishning alohida sohasi bo'lib yuzaga kelishi ishlab chiqarish kuchlari va ijtimoiy mehnat taqsimotining rivoji bilan tarixiy jihatdan bog'liqdir. Sanoat ob'ektiv borliqning muhim hodisalari qatorida, ma'lum davr (vaqt va fazo) da dunyoga kelgan, muayyan qonun va qoidalar asosida rivojlangan, ma'lum miqdor va sifatlarga, zaruriyat va imkoniyatlarga ega bo'lgan hamda ziddiyatlar qurboni ham bo'lgan.

Sanoat oddiy texnik va texnologik ishlab chiqarishdan, murakkab mashinasozlikgacha bo'lgan yo'lni bosib o'tdi. XVII-XIX-asrlardagi sanoat inqilobi sanoat taraqqiyotining yangi bosqichini boshlab berdi. XVIII asr oxirida J.Uatt tomonidan bug' mashinasining ixtiro qilinishi turli mahsulotlar ishlab chiqaruvchi yirik korxonalarining ishga tushirilishiga yordam berdi. Sanoatda 450 mln.dan ko'proq aholi band. Bu ko'rsatkich dunyo qishloq xo'jaligida ishlayotganlarga nisbatan 3 marta kam.

Sanoat asosan ishlab beruvchi va undiruvchi (tog'-kon) tarmoqlardan iborat. Tarmoqlar paydo bo'lish davriga ko'ra, 3 guruhga bo'linadi:

- eski tarmoqlar (ko'mir, metallurgiya, to'qimachilik, oziq-ovqat, kemasozlik, kimyo sanoatining ayrim tarmoqlari);
- yangi tarmoqlar (avtomobil, aviatsiya, neft, o'rmon, kimyo, alyuminiy ishlab chiqarish, plastmassa, sintetik kauchuk, sun'iy tolalar ishlab chiqarish va boshqalar);
- eng yangi tarmoqlar (robotsozlik, aerokosmika, organik sintez, mikrobiologiya sanoati va boshqalar).

O'zbekiston sanoati ham o'z taraqqiyoti jarayonida bir qator bosqichlarni bosib o'tgan. Eng avvalo, uy sanoati ("ona qornidagi sanoat"), so'ngra, hunarmandchilik, ya'ni xonaki sanoat, kooperatsiya, manufaktura, fabrika, zavod kabi shakllari yuzaga kelgan. Bu erda hunarmandchilikning juda ko'p turlari, ya'ni kulolchilik, duradgorchilik, toshtarashlik, binokorlik, o'ymakorlik, kashtado'zlik, ko'nchilik, to'quvchilik va tikuvchilik, temirchilik, misgarlik va zargarlik, degrezlik (cho'yanni eritib undan turli buyumlar ishlab chiqarish), rixtagarlik (quymoq-rangli metallardan turli buyumlar quyish-masalan mis, bronza va hokazolar), zardo'zlik, bo'yoqchilik, tunukaso'zlik va boshqalar keng tarqalgan.

Bu erda hunarmandchilik ("xonaki sanoat") bronza asrida dehqonchilikdan ajralib chiqqan. Milodning dastlabki asrlarida hozirgi O'zbekiston hududida anchagina hunarmandchilik markazlari tashkil topgan. IX-X asrlarda ip, mato, gilam bo'yicha Xiva va SHosh, mis va temirdan aslaha, pichoq tayyorlash bo'yicha Farg'ona, shoyi matolar,

shisha mahsulotlar tayyorlash bo'yicha Buxoro dunyoga tanilgan. XII-XIII asrlarda rivojlanish pasayib, Temuriylar davlatining vujudga kelishi bilan hunarmandchilik yana rivoj topgan. Buxoro, Samarqand, Xiva, Toshkent, Shahrisabz kabi shaharlarning ishlab chiqarish munosabatlarida hunarmandchilik alohida ahamiyat kasb etgan. XIX asr oxiriga kelib, O'zbekistonda hunarmandchilikning 30 ga yaqin turi rivoj topgan. XX asr boshlarida esa hunarmandchilikning asosiy qismi artellarga, keyinchalik zavod va fabrikalarga, badiiy buyumlar korxonalariga aylantirilgan.

XVIII asrning 1760-1770-yillarida Angliyada ro'y bergan sanoat to'ntarilishidan keyin, O'zbekistonda asta-sekin manufakturadan mashinalashgan industriyaga o'tish boshlandi. Xomashyoga birlamchi ishlov beradigan sanoat sohalari (paxta tozalash, ipak tortish, vino, konserva, moy zavodlari) vujudga keldi. XX asrda O'zbekiston sanoatida juda katta o'zgarishlar ro'y berdi. Agar asr boshlarida sanoat mahsulotining eng muhim turlaridan 5-10 xili (paxta tolasi, xom ipak, o'simlik moyi, uzum vinosi, g'isht, ganch va boshqalar) ishlab chiqarilgan bo'lsa, hozirgi paytda yuzlab-minglab turlari tayyorlanmoqda¹.

Sanoat taraqqiyotining muhim qonuniyatlaridan biri sanoat xodimlarining madaniy-texnikaviy, ma'naviy-ma'rifiy darajasining o'sishi, ishlab chiqarish malakasi va tajribasining tinmay oshib borishidir. Sanoat mamlakat mudofa qobiliyatining moddiy bazasi, tinchlik va barqarorlikni saqlashning muhim omili, qo'shni mamlakatlar mustaqilligini, hamkorligi va birdamligini ta'minlovchi muhim sohadir. Sanoat shunday tarmoqki, barcha mamlakatlarning siyosiy, iqtisodiy va tashkiliy intilishlari, ularning xo'jalik jihatdan birlashishi, ya'ni iqtisodiy integratsiya tavsifida o'z ifodasini topadi. Natijada barcha mamlakatlarning tabiiy, mehnat va moliyaviy resurslaridan, fan-texnikaning barcha yutuqlaridan oqilona foydalanish imkoniyatlari yuzaga keladi.

Sanoat, ayniqsa og'ir sanoat butun ijtimoiy ishlab chiqarishni idustlashtirish muammolarini hal etish kalitidir. Mehnatni ijtimoiy tashkil etishning eng oliy turi-konsentratsiyaning yuqori darajasi bilan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni uyg'unlashtirish asosida ijtimoiy ishlab chiqarishni tashkillashtirishning ilg'or usullari-ixtisoslashtirish, kooperativlashtirish va kombinatlashtirish ham sanoat sohasida hukmronlik qiladi va yaxshi samaralar beradi.

Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirishni ta'minlovchi buyuk harakatlantiruvchi kuch—bu raqobat (erkin raqobat), ya'ni bellashuv, raqiblar kurashi ham sanoat sohasida rivoj topadi. Ilg'or texnika va texnologiyalardan foydalanish, materiallarning yangi turlarini yaratish, mehnat unumdorligini oshirish, ishlab chiqarishdagi mahsulotlarning raqobatbardoshligini yuqori darajaga ko'tarish, ishlab chiqarishning boshqa bir qator texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarini yaxshilash asosida uning samaradorligini ko'tarish uchun harakat va boshqa mehnat an'analari ham avvalo, sanoat sohasida vujudga keldi va kelmoqda.

O'zbekistonda mustaqillikning afzalliklari va Davlatning iqtisodiy siyosati sanoatning etakchi o'rnini yanada oshirmoqda. Islohotlarning asosiy yo'nalishlari va ularning echimini topish dastavval sanoat sohasida amalga oshirilmoqda va yaxshi samara bermoqda. Respublikamizda 2018 yil YaIM tarkibida sanoat-31,3% tashkil

¹A.Ortiqov. «Sanoat iqtisodiyoti» (darslik). –T.:TDIU. 2004.

etgan. Ushbu doirada ijtimoiy-iqtisodiy islohatlar negizida, qisqa qilib aytganda ishlab chiqarish doirasida quyidagi jarayonlar amalga oshirilib **borilmoqda**:

-Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash-ishlab chiqarishni zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash, tarkibiy jihatdan texnik va texnologik qayta tuzish, ishlab chiqarishni ma'naviy jihatdan yangilash;

-Tarkibiy o'zgarishlar-iqtisodiyotning muhim tarmoqlarini rivojlantirish, yangi o'zak tarmoqlarni barpo etish, samarali va mustaqil iqtisodiyotni shakllantirish;

-Diversifikatsiya-korxonalar va tarmoqlar faoliyat sohaslarini kengaytirish, mahsulot va xizmat turlarini yangilash, mahsulot va xizmat turlarini ko'paytirish;

-Mahalliy lashtirish-ishlab chiqarish jarayonida mahalliy xomashyo va resurslardan kengroq foydalanish, milliy korxonalar uchun butlovchi qismlarni mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan etkazib berish, importni qisqartirish evaziga valyuta resurslarini tejash.

Ishlab chiqarish kuchlari va munosabatlari taraqqiyotida sanoatning tarixiy roli beqiyosdir. Shu sababli uning rivoji va samaradorligi qanchalik yuqori bo'lsa, davlatning mavqei shunchalik kuchli bo'ladi va aholi turmush darajasi yanada yaxshilanib boradi. Sanoat va ayniqsa uning eng muhim sohasi bo'lgan og'ir sanoat, har qanday mamlakatda kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning asosi hisoblanadi. U moddiy texnika vositalarini o'zi va boshqa tarmoqlar uchun takror ishlab chiqarish bilan bir vaqtda jamiyat a'zolari o'rtasidagi ijtimoiy ishlab chiqarish munosabatlarini takomillashtirib boradi.

Hozirda Respublikamizda, sanoat qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini qayta qurishning negizi ham hisoblanadi. Uni yangi texnika bilan ta'minlash orqali, dehqon va fermer xo'jaligini iqtisodiy va madaniy jihatdan yuqori darajaga ko'tarishga, shahar bilan qishloq o'rtasidagi muhim tafovutni yo'qotishga, dehqon va fermer mehnatini industrial mehnatga aylantirishga yordam beradi.

Barcha mamlakatlarning siyosiy, iqtisodiy va tashkiliy intilishlari, ularning xo'jalik jihatdan hamkorligi sanoat sohasida ham o'z ifodasini topadi. Davlatlarning tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy resurslardan, ilm-fan va texnikaning barcha yutuqlaridan foydalanish imkoniyatlarining kengayishida sanoatning ahamiyati salmoqlikdir. Sanoat uchun uzluksiz fan-texnika taraqqiyoti va ishlab chiqarish ilm-fan yutuqlari bilan qurollanishining o'sishi xarakterlidir. Unda elektrlashtirish va elektronizatsiyalash, ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va kompyuterlashtirish hamda ximiyalashtirish sohasidagi ilg'or yutuqlardan keng foydalaniladi va ularning yutuqlari tinchlik maqsadida foydalaniladi.

Sanoat, ayniqsa uning ustuvor sohalari butun ishlab chiqarishni globalashtirish muammolarini hal etishning kalitidir. Sanoat moddiy ishlab chiqarishning bosh tarmog'i, iqtisodiyotning poydevoridir. Sanoat tabiatda uchraydigan moddiy boyliklarni qazib chiqarish va tayyorlashni, bu boyliklarni va qishloq xo'jaligida etishtirilgan mahsulotlarni qayta ishlashni o'z ichiga qamrab oladi. U barcha xalq xo'jaligi tarmoqlari uchun ishlab chiqarish kuchlarining asosiy elementlaridan biri hisoblangan "jamiyatning tabiat ustidan hukmronligini" birmuncha orttiradigan, fan-texnika taraqqiyotini belgilaydigan, inson mehnatining unumdorligini oshirishga imkon beradigan, mehnat va ishlab chiqarish qurollarini yaratadigan sohadir.

Sanoat taraqqiyoti ishlab chiqarish kuchlarining bir tomonlama rivojlanishiga xotima beradi, mamlakat va uning ajralmas qismi bo'lmish hududlarning tabiiy boyliklaridan, xomashyo va mehnat resurslaridan kengroq va har tomonlama foydalanish imkoniyatini yaratib beradi. Sanoatning vujudga kelishi va rivojlanishi mehnat taqsimotining o'sishi, ishlab chiqarishni differentsiatsiyalash va intensivlashtirish bilan chambarchas bog'liq. Keyingi 100 yil ichida sanoat ishlab chiqarishning hajmi 50 barobardan ortiq o'sdi. Bu o'sishning $\frac{3}{4}$ qismi 20 asrning ikkinchi yarmiga FTI davriga to'g'ri keladi.

Qishloq xo'jaligi moddiy ishlab chiqarishning yirik tarmog'idan hisoblanadi. U kishilik jamiyatining eng qadimgi xo'jalik sohasi hisoblanadi. Shu bilan birga, bu ishlab chiqarish tarmog'i barcha davrlarda insonning kundalik iste'mol mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondiruvchi asosiy manba bo'lib xizmat qilgan. Shu sababli, jahonda bironta mamlakat yo'qki, unda qishloq xo'jaligi va u bilan bog'liq bo'lgan o'rmon, ovchilik, baliqchilik xo'jaliklari tashkil topmagan bo'lsin. Hozirgi vaqtda bunday xo'jalik tarmoqlarida hammasi bo'lib 1,4 mlrd. dan ortiq kishi ish bilan band.

Qishloq xo'jaligining asosiy xususiyatlaridan biri, uning joylardagi tabiiy iqlim sharoiti bilan chambarchas bog'liq ekanligidir. Boshqacha aytganda, tabiiy iqlim sharoiti to'g'ri kelsagina muayyan hududlarda bug'doy, sholi, paxta, meva, choy kabi mahsulotlarni etishtirish mumkin bo'ladi. Shu sababli, qishloq xo'jalik tarkibi va tarmoqlarining hududiy joylashish holatiturlicha bo'ladi. Ishlab chiqaradigan mahsulotlari xususiyatlariga ko'ra, barcha qishloq xo'jalik tarmoqlari ikki guruhga: dehqonchilik(ziroatchilik) va chorvachilikka bo'linadi.

Shuningdek, qishloq xo'jaligi rivojlanish darajasiga ko'ra ikki turga bo'linadi: Birinchisi, rivojlangan tovar qishloq xo'jaligi bo'lib, ularda ishlab chiqariladigan mahsulotlar bozor, birinchi navbatda, tashqi bozor uchun mo'ljallangan bo'ladi. Bunday xo'jaliklar ishi intensiv tashkil qilingan zamonaviy dehqonchilik va chorvachilik sohalari bo'lishi mumkin;

Ikkinchisi, asosan, ichki xo'jalik iste'moli uchun mahsulot ishlab chiqaradigan, odatda, kam samarali qishloq xo'jaliklaridir. Bunday xo'jaliklar qadimdan keng tarqalgan bo'lganligi sababli an'anaviy qishloq xo'jaligi ham deyiladi. Ularda ish, odatda, ekstensiv holda tashkil qilingan bo'ladi. Hozirgi vaqtda bunday qoloq dehqonchilik xo'jaliklari jahonning rivojlanayotgan ko'pchilik mamlakatlarida keng tarqalgan.

Tovar qishloq xo'jaligi, asosan, iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda keng rivojlangan. Odatda, ularda FTI yutuqlaridan ustun darajada foydalanishga erishilmoqda. Ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash, elektrlashtirish, kimyolashtirish darajasi ularda juda yuqori. Bunday xo'jaliklarda endilikda ishlarni avtomatlashtirish (tarmoqlarda me'yoriy agroiklim va boshqalar) ni yaratishga katta e'tibor beriladi, mikroelektronika, seleksiya, genetika, biotexnologiyaning so'nggi yutuqlarini joriy qilish asosiy o'rin tutadi. Ularda agrar (lotincha qishloq xo'jaligidemak) ishlab chiqarish sanoat bilan bog'lanib ketgan va agrosanoat xo'jaliklariga aylangan. Ko'pchilik rivojlangan mamlakatlarda so'nggi yillarda fermerlikning o'ziga xos agrobiznes shakli yuzaga keldi.

Hozirgi vaqtda jahon yer fondining umumiy hajmi 13,4 mlrd. gektarga teng. Insoniyat uchun eng katta iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan qishloq xo'jaligida foydalanadigan yerlar jahon umumiy yer fondining 34 % ini tashkil qiladi. Jumladan, ishlov beriladigan yerlar ulushi 11 % ga, yaylovlarniki esa 23 % ga teng. Ishlov beriladigan yerlar dunyoda yetishtirilayotgan oziq-ovqat mahsulotlarning 88 % ini, yaylovlar esa 10 % ini yetkazib bermoqda. Agar kengroq e'tibor bersak, dunyoda qishloq xo'jaligida foydaladigan erlar 4480 million ga bo'lib, quruqlikning 33,4 % ni tashkil etadi. SHundan shudgorlab dehqonchilik qilinadigan erlar va ko'p yillik o'simliklar, meva va uzumzorlar 1457 million ga, yaylov va pichanzorlar 3005 million ga ni tashkil etadi. Qishloq xo'jaligida foydalaniladigan erlar-qishloq xo'jalik erlari deyiladi.

Agar qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtirish ekin maydonlarini kengaytirish va chorva mollarini sonini oshirish hisobiga ko'paysa, bunday qishloq xo'jaligi **ekstensiv** deyiladi. Aksincha qishloq xo'jaligi mahsulotining hajmini maydon birligida agrotexnika vositalaridan ko'proq masuldor zotlarini yaratish hisobiga oshsa, bunday qishloq xo'jaligi **intensiv** xo'jalik deyiladi.

Qishloq xo'jaligining o'ziga xos xususiyatlari:

-qishloq xo'jaligining ko'pgina tarmoqlarida, ayniqsa, dehqonchilikda mehnat sarfi bilan mahsulot olish o'rtasida vaqt jihatidan uzilish mavjud, ya'ni mablag' deyarli butun yil davomida sarflanadi, mahsulot esa ma'lum davrdagina olinadi. SHu munosabat bilan mehnatga haq to'lashda, ish haqi va moddiy rag'batlantirishni ishning sifati, ishlab chiqarishning pirovard natijasi bilan bog'lashda o'ziga xos muammolar yuzaga keladi. Bu muammolarni bartaraf etish yoki yumshatishning turli shakllari mavjud, xususan kooperativlar, ijarachilar, fermer xo'jaliklarini rivojlantirish, **klaster**² asosida ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, shuningdek, davlat xo'jaligida mehnatni tashkil etish va unga haq to'lashning ilg'or usullarini joriy etish va shu kabilar;

-qishloq xo'jaligida takror ishlab chiqarish fondlari, ko'proq urug'lik, oziqa, chorva mollari va shunga o'xshashlar hisobidan tashkil etilmoqda. Bu takror ishlab chiqarish maromining navbatdagi bosqichiga keng miqyosli ta'sir etib, uni kapitaltalab tarmoqqa aylantirdi, ishlab chiqarish potensialini kengaytirdi va mehnat unumdorligi sur'atlarini o'stirdi. Ayni vaqtda qishloq xo'jaligi nisbatan mayda kapitallar qo'yiladigan soha bo'lib qoldi;

-ishlab chiqarish va kapitalning to'planish darajasi jihatidan qishloq xo'jaligi sanoatdan orqada qolmoqda. Bunga avvalo, qishloq xo'jaligining o'ziga xos xususiyati tufayli korxonalarining maqbul miqyosi ancha kichikligi sabab bo'lmoqda, holbuki ko'pgina mamlakatlarda yirik korxonalar bilan bir qatorda ko'p sonli dehqon-fermer xo'jaliklari saqlanib kelmoqda. Ular asosan fermer va uning oila a'zolari kuchi bilan yuritiladi. Biroq, xo'jalik mavqei yirik fermerlar qo'lida;

-qishloq xo'jaligida ham xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlarida amal qiladigan umumiy iqtisodiy qonunlar amal qiladi. Lekin ularda tarmoqning alohida

²Klaster tushunchasini (ingliz tilida cluster-to'planish, bog'lam) ma'lum bir xususiyatlarga ega bo'lgan va mustaqil birlik sifatida qarab chiqilishi mumkin bir nechta bir turli elementlarning yig'indisi yoki birikishi sifatida talqin qilish mumkin.

xususiyatlari hisobga olingan. Qishloq xo'jaligini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyati shundaki, bunda asosiy ishlab chiqarish vositasi er hisoblanadi. Boshqa ishlab chiqarish vositalariga solishtirilsa, yer eskirmaydi, balki to'g'ri foydalanilsa, uning sifati yaxshilanib boradi;

-qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish vositalari sifatida tirik organizmlar, ya'ni hayvonlar va o'simliklar qatnashadi. Ular esa biologik qonuniyatlar asosida rivojlanadi. Demak, takror ishlab chiqarishning iqtisodiy jarayoni tirik organizmlar tabiiy rivojlanish jarayoni bilan uzviy bog'liq. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtirish jarayoni yirik maydonlarda amalga oshiriladi va turli iqlim zonalari bo'yicha yoyilgan. Pirovard natijalar qo'llanilgan resurslar miqdori va sifatini emas, balki ko'pincha ishlab chiqarish amalga oshiriladigan aniq sharoitlarga bog'liq bo'lib qoladi;

-qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining hududiy joylashuvi ishlab chiqarilgan mahsulot (bug'doy, kartoshka, qand lavlagi, sut, go'sht va hokazo) ni ham, texnika va moddiy resurslar (yoqilg'i, issiqlik-moylash materiallari, mineral o'g'itlar) ni ham tashishni qiyinlashtiradi;

-qishloq xo'jaligining eng muhim xususiyatlaridan biri shundaki, unda yaratilgan mahsulot keyinchalik ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etadi. Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish vositasi sifatida urug'lar va ekish mahsulotlari (bug'doy, kartoshka va hokazo), em-xashak hamda hayvonlar podasini qayta tiklash va kengaytirish uchun podaning katta qismi qatnashadi. Bularning barchasi inshootlar va ishlab chiqarish vazifasidagi ob'ektlar (molxona), em-xashak, urug' va ekish materiallari omborlari va hokazolarni qurish uchun qo'shimcha moddiy resurslarni talab qiladi;

-qishloq xo'jaligining eng muhim xususiyati yerda ish davri mahsulot ishlab chiqarish davri bilan bir-biriga mos kelmasligidir. Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish davri inson mehnati ostida amalga oshiriladigan jarayoni (yerni haydash, ishlov berish, ekish, o'simliklarni parvarishlash, hosilni yig'ib olish va hokazo) vaqtlari va tabiiy omillarning bevosita ta'siri ostida amalga oshadigan (o'simliklarning o'nishi, o'sishi, hosilga kirishi va hokazo) vaqt to'plamidan iborat;

-ishlab chiqarish davri va ish davrining mos kelmasligi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining mavsumiyligini asoslaydi. Mavsumiylik ishlab chiqarishni tashkil etish, texnika, mehnat resurslaridan samarali foydalanish va oxir-oqibatda butun tarmoq samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi;

-qishloq xo'jaligida mehnat taqsimoti, uning taqozosiga ko'ra, ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlari, xususan, sanoatdagiga nisbatan boshqacha tarzda yuz beradi. Yer, mehnat va moddiy resurslardan oqilona foydalanish maqsadida bu yerda o'simlikshunoslik tarmog'ini chorvachilik tarmog'i bilan hamda yordamchi ishlab chiqarish va hunarmandchilikni rivojlantirishning oqilona muvofiqligiga erishish lozim. Ijtimoiy mehnat taqsimotini takomillashtirishda alohida hududlarning o'ziga xos sharoitlarini hisobga olish zarur;

-qishloq xo'jaligining eng asosiy xususiyatlaridan biri, shubhasiz, texnikadan foydalanish darajasi va sharoiti hisoblanadi. Odatda, ishlab chiqarish vositalari (mashinalar, kombaynlar, qishloq xo'jaligi texnikasi) harakat qilishi, mehnat predmetlari esa (o'simliklar) bir joyda turishidan kelib chiqib, qishloq xo'jaligining

texnik ta'minlanganligi sanoat tarmog'idagidan keskin farq qiladi. Sanoat tarmog'iga nisbatan energetik resurslarga bo'lgan umumiy ehtiyoj bu sohada juda yuqori. Qishloq xo'jaligining hududiy tarqoqligi va mavsumiy xarakterdaligi texnika va asosiy ishlab chiqarish vositalariga bo'lgan ehtiyojni oshiradi;

-qishloq xo'jaligining o'simlikchilik va chorvachilik tarmoqlarida mehnat jarayonini tashkil qilish turlicha amalga oshiriladi. Bu erda ijrochi sanoatdagi kabi doimiy ish o'rniga ega bo'lmaydi. Qishloq xo'jaligi mahsulotini etishtirish jarayonida yil fasli va o'simlikning o'ziga xos xususiyatlariga qarab dala ishchisi va mexanizatorlar turli xil ishlarni bajarishadi. Mexanizator barcha mashina va agregatlarda ishlay olishi kerak, dehqon esa urug'lar va ekish materiallarini tayyorlash, o'simliklarni parvarish qilish, tayyorlash, hosilni yig'ib olish jarayonidagi barcha ishlarni bajara olishi lozim. Bunda ishning turi har kuni emas, balki sharoitdan kelib chiqib, muayyan bir ish kuni davomida o'zgarishi ham mumkin;

-qishloq xo'jaligining sanoat tarmoqlaridan ajralib turuvchi bu kabi xususiyatlari moddiy-texnika bazasini shakllantirish, ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish, ishlab chiqarish resurslaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini aniqlashda hisobga olinishi zarur.

Sanoat ishlab chiqarish bilan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi bir biridan farq qiladi. Ularni qo'yidagicha sanab o'tish mumkin:

-sanoatda mahsulot ishlab chiqarish uzluksiz davom etadi. Qishloq xo'jaligida mavsumiy xarakterga ega, chunki qishloq xo'jaligida mahsulot etishtirish birinchi navbatda joyning tuproq, iqlim sharoitiga, yil fasllariga, quyosh energiyasining turlicha tushishi hamda ekinlar va chorva mollari biologiyasi bilan bog'liq. Texnika va mehnatdan foydalanishdagi mavsumiylik, mahsulotdan tushadigan daromadlarning bir xil bo'lmasligi va boshqa xususiyatlar ham ana shu bilan bog'liq;

-sanoat ishlab chiqarishi ma'lum bir hududni egallagan korxonalarda zavod va fabrikalarda amalga oshiriladi. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida esa keng maydonlarda amalga oshiriladi. Shuning uchun qishloq xo'jaligida g'oyat ko'p qishloq xo'jaligi mashinalari ishlatiladi;

-qishloq xo'jaligida etishtirilgan yalpi mahsulotning 20 dan ortig'i (urug', ozuqa, yosh chorva mollari) takroriy ishlab chiqarishda qatnashadi va bu narsa o'z navbatida qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish fondini tashkil etadi;

-qishloq xo'jaligining o'ziga xos xususiyati shundaki bu tarmoqda er asosiy ishlab chiqarish vositasi hisoblanadi. Foydalanish davomida ishdan chiqarilgan va o'rnini boshqalari egallaydigan barcha ishlab chiqarish vositalaridan farq qilib, to'g'ri foydalanilgan er ishdan chiqish uyoqda tursin balki o'zini ximik va fizik xossalarini yaxshilaydi, unumdorligini oshiradi.

Har qanday fan haqiqiy fan maqomiga ega bo'lishi uchun o'zining ob'ekti, predmeti, metodi va metodologiyasi (usuli va uslubiyoti), asosiy tushuncha, kategoriya va qonuniyatlar, ilmiy maktab, markaz va yo'nalishlarga, salmoqli ilmiy asarlar, tadqiqotlarga ega bo'lishi va uning boshqa fan vakillari tomonidan tan olinishi talab etiladi. Shuningdek, mazkur fanning shakllanishida maxsus fakultet, kafedra yoki laboratoriyalarning tashkil etilishi ham katta ahamiyatga ega.

«Transport, sanoat va qishloq xo'jaligi geografiyasi» ijtimoiy-iqtisodiy ob'ektlarni, hududiy tizimlarni o'rganishda dasturli-maqsadli, tizimning tahlili,

balans (muvozanat), kartog'rafik, iqtisodiy-matematik modellashtirish, qiyosiy-geografik, iqtisodiy-geografik bashoratlash, statistik, usullaridan foydalaniladi:

-dasturiy-maqсадli usul bozor iqtisodiyoti munosabatlari sharoitida juda muhim bo'lib, tarmoqlarning, ular asosida shakllangan majmualarning kechiktirib bo'lmaydigan va umummanfaatlarni ko'zlagan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilish dasturi va maqsadi bilan o'zviy bog'liq;

-tizimning tahlil usuli bosqichma-bosqich tamoyiliga asoslangan bo'lib, har bir tarmoq va tarmoqlararo tizim, har bir hududiy tizim, ayniqsa, ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi, joylashish xususiyatlarini o'rganish bo'yicha ma'lum maqsad va vazifalarni qamrab olgan;

-balans usuli «Transport, sanoat va qishloq xo'jaligi geografiyasi» ning asosiy usullaridan biri. Ushbu usul yordamida tarmoqlarning ichki imkoniyatlariga, tarmoqlar joylashgan regionlarning resurs va mahsulotga, ishchi kuchiga bo'lgan talabini aniqlash xususan, tarmoqlar asosida ayrim hududlar o'zida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar bilan o'z ehtiyojini qondiralayotganligi yoki qondira olmayotganligi, zarur mahsulotlarni keltirish yoki olib ketish ko'lami darajasini baholash, shuningdek, region xo'jalik majmui rivojlanishidagi nomutanosiblikni va uni bartaraf etish yo'llari aniqlanadi;

-kartog'rafik usul «Transport, sanoat va qishloq xo'jaligi geografiyasi» ning o'ziga xos usullaridan hisoblanadi. Xarita–bilim manbai va o'rganish ob'ektidir. Tarmoqlar ichida, tarmoqlararo jarayonlar, hududiy, iqtisodiy geografik jarayonlar va ayrim mamlakatlar miqyosida tarmoq va tarmoqlararo ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish xususiyatlarini eng ko'rgazmali tarzda faqat geografik xarita namoyon etishi mumkin;

-iqtisodiy-matematik modellashtirish usuli ho'jalik tarmoqlarining rivojlanishi va ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish muammolari bilan bog'liq bo'lgan tadqiqotlar jarayonida keng qo'llaniladi;

-qiyosiy geografik usul qator tarmoq va tarmoqlararo birliklarni turli ko'rsatkichlar asosida bir-biri bilan taqqoslashdir;

-iqtisodiy-geografik bashoratlash usuli tarmoqlar va ularning majmualarini kelajakda rivojlanishini turli ko'rsatkichlar tahlili orqali belgilashga yordam beradi;

-statistik usuli har bir tarmoq va tarmoqlararo majmualarning ko'rsatkichlarini raqamlar asosida yoritiladi.

Transport, sanoat va qishloq xo'jaligi geografiyasifani ham jamiyat haqidagi fandir. Hamma fanlardagi kabi har bir voqea va hodisalarni o'rganishda unga avvalo falsafiy nuqtai nazari bilan yondashish kerak. Bu fan ham shu metodga tayanadi. Shuningdek, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya, tabiiy geografiya, iqtisodiyot nazariyasi, mintaqaviy iqtisodiyot, ekologiya, aholi geografiyasi va demografiya asoslari, matematika, tarix, siyosatshunoslik, kartografiya va boshqa fanlar bilan bir qator yo'nalishlarda hamkorlik qiladi.

Ayni paytda bu «qo'shni» fanlarda ham transport, sanoat va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga e'tibor kuchaymoqda. Shubhasiz, biz tarmoq, tarmoqlararo ishlab chiqarishning nafaqat joylashuvini, balki iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, demografik va ekologik tomonlarini ham hisobga olishimiz zarur. Albatda mazkur fanni o'rganishda geografik dunyo qarash ustunlikka ega bo'lishi lozim. Ya'ni har bir talaba butun

dunyo, ayrim davlat va hududlarning transport, sanoat va qishloq xo'jaligida sodir bo'layotgan o'zgarishlarni tub mohiyatini anglab etmog'i zarur.

Dastlab insonning vujudga kelishi, uning tabiat bilan munosabati, ular o'rtasidagi munosabatlar asosida ishlab chiqarishning vujudga kelishi o'ziga xosdir. Tarixiy davrlar davomida yuz bergan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy voqeyliklar ishlab chiqarish natijalarida o'zgarishlarni vujudga keltirdi.

Aynan ishlab chiqarishning dastlabki ko'rinishlari qishloq xo'jaligi, sanoat va transport tarmoqlari shakllana boshladi va o'z qonuniyatlari asosida rivojlandi. Bu qonuniyatlari asosida joylashuv, rivojlanish, takomillashuv mexanizmi yotadi. Ushbu ishlab chiqarishlarni asosida biz yuqorida aytganimizdek, "uchlik tarmoq" yotadi. "Uchlik tarmoq"-(qishloq xo'jaligi, sanoat, transport)-vaqt va makon nuqtai nazardan o'ziga xos rivojlanish asosiga, istiqboliga, muammolariga ega.

Nemis olimi F.Rattselning "Antropogeografiya" va "Siyosiy geografiya" kitoblari transport, sanoat va qishloq xo'jaligi geografiyasining vujudga kelishida o'ziga xos o'rin tutadi. Ayniqsa bu borada Germaniyada ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish bilan bog'liq tadqiqotlarning ahamiyati katta. Jumladan, I.Tyunen (1826-y.) qishloq xo'jaligi tarmoqlarini shahar atrofida halqasimon joylashtirish, A.Veber (1909-y.) sanoat korxonalarini turli omillardan kelib chiqqan holda hududiy tashkil qilinishini o'rganishgan. Keyinchalik ularning vatandoshlari V.Kristaller va A.Leshlar aholiga xizmat ko'rsatish sohalarini joylashtirish va umuman xo'jalik tarmoqlarini hududiy tashkil etishni tadqiq qilishgan. Transport, sanoat va qishloq xo'jaligi geografiyasining fan maqomida shakllanishida nemis statistikasi, "shtandort" nazariyasi va siyosiy geografiyasining ahamiyati katta bo'lgan.

Tyunen g'oyasining asosiy mohiyati yagona shahar, ya'ni iste'mol markazi atrofida qishloq xo'jalik mahsulotlarini etishtirishni hududiy tashkil qilishdan iborat. U bu g'oyani amalga tatbiq qilish uchun xo'jalik bilan shahar yoki bozor (uning misolida bu shahar-Meklenburgdagi Rostok) o'rtasidagi masofa, qishloq xo'jalik mahsulotining narxi, qiymati va er rentasiga asoslanadi. Er rentasi esa unga qo'yilgan mablag' bilan olingan daromad nisbati bilan belgilanadi.

Yuqoridagi shartlar yordamida I.Tyunen shahar atrofida qishloq xo'jaligi tarmoqlarining joylashuv tizimini yaratadi. Bu tizim adabiyotda «Tyunen xalqalari» nomi bilan mashhur. Chunki, turli mahsulotlarni etishtirishga ixtisoslashgan har xil tarmoqlar iste'mol markazi atrofida xalqasimon joylashadi. Masalan, birinchi xalqa-bog'dorchilik, sabzavotchilik va qisman sut chorvachiligi; ikkinchisi-o'rmon xo'jaligi (o'sha davrda o'tin uchun), uchinchi xalqa-kartoshka, arpa etishtirish va urug'chilik, sut chorvachiligi, to'rtinchi-yuqori unumdor g'allachilik va sut-go'sht chorvachiligi, beshinchi- g'allachilik va nihoyat, oltinchi xalqa –yaylov chorvachiligi.

I.Tyunenning xizmati shundaki, u birinchi bo'lib erdan foydalanish masalalarini ko'tarib chiqdi va ilmiy adabiyotga «iqtisodiy makon» tushunchasini kiritdi. U o'zining abstrakt modelida mahsulotning bozorga-iste'molchiga arzon va sifati buzilmagan holda etkazib berishiga katta e'tibor beradi. Shunday qilib, I.Tyunen qishloq xo'jaligi tarmoqlarini joylashtirishning dastlabki ilmiy asosini yaratuvchisi bo'ldi.

1909 yilda Tyunenning vatandoshi-Alfred Veber «Sanoat shtandorti to'g'risida» nomli asarini chop ettirdi. U o'zining diqqat-e'tiborini sanoat ishlab chiqarishini

joylashtirishga ta'sir etuvchi omillarga qaratdi. Shu maqsadda Veber omillarning ta'sir kuchiga qarab, tabaqalashtirdi, asosiy hal qiluvchi omilni aniqladi.

A.Veber sanoat shtandortining asoschisidir. Shtandort esa-korxonaning o'rnashgan joyi yoki korxonaning optimal (standart) joylashgan nuqtasi ma'nosini anglatadi. Joylashtirish omili u yoki bu korxonani qurishda ko'zda tutilgan iqtisodiy samaradorlik, foyda nuqtai nazaridan baholanadi.

Bu foyda, Veber fikricha asosan xom ashyo mahsulotni realizatsiya qilish, transport va ishchi kuchiga ketgan xarajatlar nisbati hamda asosiy ishlab chiqarish fondlari qiymatidan tashkil topadi. Keyinchalik u xomashyo va maxsulotni sotish bilan bog'liq omilni umumiy transport sarf-xarajatlariga kiritdi. Chunki, mahsulotning tannarxiga xomashyoni keltirish, mahsulotni realizatsiya qilish bilan bog'liq xarajatlar ham kiradi.

Natijada, sanoat shtandortini belgilovchi ikkita omil –transport va ishchi kuchi (mehnat resursi) olindi. Veber keyinroq ularga yana bir muhim omilni qo'shdi-u ham bo'lsa aglomeratsiya omilidir.

Transport omiliga mahsulot yoki xomashyoning vazni, tashiladigan masofa, mehnat resursida ish haqi, aglomeratsiya omilida esa korxonalarning bir joyda to'planishi hisobga olinadi.

A. Veber ilmiy adabiyotda o'zining shtandort nazariyasi, «joylashtirish omili» va «aglomeratsiya samaradorligi» tushunchalarini kiritganligi bilan mashhurdir. Aglomeratsiya samaradorligi-bu asl mohiyatiga ko'ra mujassamlashuv (kontsentratsiya) samaradorligi bo'lib, u hozirgi kunda korxonalarning yiriklashuvidan, ya'ni miqyos, masshtab iqtisodi asosida emas, balki korxonalarning kooperatsiya va ixtisoslashuv («xilma-xillik», yoki sifat iqtisodi) natijasida erishiladi.

I.Tyunen (qishloq xo'jaligi) va A.Veberning (sanoat shtandorti) g'oyalari abstrakt sharoitlarni hisobga olgan holda yaratilgan bo'lsada, ularning ilmiy ahamiyati hozirgacha yo'qolmagan. Bu oqimlarining g'oyalarini «omillar tahlili» shaklida umumlashtirish mumkin. Omillar esa hududda ayrim joylarni tanlab olish va pirovard natijada hududiy mujassamlashuv va hududiy notekisliklarni yoki geografik tengsizlikni keltirib chiqaradi. Shunday qilib, ishlab chiqarishning ikki asosiy tarmog'i, ya'ni qishloq xo'jaligi va sanoat ishlab chiqarishini joylashtirish bo'yicha ilmiy g'oyalar yaratildi.

Transport sanoat va qishloq xo'jaligi bilan birga ishlab chiqarish va uni hududiy tashkil qilishning asosi hisoblanadi. U xo'jalik tizimining «qon tomiri», harakatlantiruvchi kuchi sifatida mamlakat va rayonlar iqtisodiy aloqalarini amalga oshiradi, ularning geoiqtisodiy yaxlitligini ta'minlaydi. Transportsiz hududiy mehnat taqsimoti, mahsulotni ishlab chiqargan rayon bilan uni iste'mol qiladigan joy orasida aloqa bo'lmaydi, hududiy ishlab chiqarish majmualari ham shakllanmaydi. Umuman olganda, uslubiy tizim (sistema) va majmua (kompleks)-ni transport aloqalarisiz tasavvur qilish qiyin.

Makroiqtisodiyotning yuqoridagi uch asosiy tarmog'ini hududiy tashkil qilish shakli o'ziga xos «geografik geometriya»-ga ega. Iqtisodiy makonda sanoat alohida nuqtasimon, qishloq xo'jaligi maydon (areal) ko'rinishiga ega bo'lsa, transport hududni kesib o'tuvchi va nuqtalarni birlashtiruvchi kesim, chiziq, «o'q» vazifasini o'taydi. Ana shu uch xil shakllarning birligi geoiqtisodiy makon, ishlab chiqarish

kuchlarini joylashtirishning tashqi ko'rinishi, mintaqaviy iqtisodiyot tasvirini aks ettiradi.

Transportga turli ma'noda qarash mumkin. Masalan, u xo'jalikning alohida tarmog'i, ishlab chiqarishning hududiy tarkibiga kiruvchi to'rt elementlardan (transport, sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish) biri. Shu ma'noda transport nafaqat vosita, balki muhim makroiqtisodiyot tarmog'i hisoblanadi. Ayni vaqtda transport ishlab chiqarish infratuzilmasining asosi hamdir. Bu ma'noda transport ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish va hududiy tashkil qilishning omili ekanligi ko'rinib turibdi. Demak, transportni tarmoq hamda vosita-omil ko'rinishida o'rganish mumkin.

Ta'kidlash lozimki, ayrim hollarda transportning ana shu ikki vazifasi chalkashtirilib yuboriladi, uning makroiqtisodiyot tarmog'i va infratuzilma vazifasini bajarishi orasidagi farq sezilmay qoladi. Vaholanki, ikkinchisi birinchisi uchun xizmat qiladi, sharoit yaratadi.

N.N.Baranskiy yo'llar va shaharlar ishlab chiqarishning hududiy tarkibi va tizimi, rayon va mamlakatlar xo'jaligining «qovurg'asi», o'zagi sifatida ta'riflaganda hech qanaqa mubolag'a yo'q. Chindan ham hududning ichki tuzilishi «rentgen nuri» asosida kuzatilganda bizning ko'z o'ngimizda aynan ana shu yo'llar va shaharlar orqali gavdalanadi.

Har qanday mamlakat iqtisodiyotining salohiyati, avvalo, uning tarkibidagi sanoat ishlab chiqarishining rivojlanganligi bilan belgilanadi. Shu sababdan ham iqtisodiy geografik tadqiqotlarda sanoatni o'rganish alohida o'rin tutadi. O'z navbatida, sanoat shaharlarning vujudga kelishi va rivojlanishi, urbanizatsiya jarayoni, transport hamda hududiy ishlab chiqarish majmualarining shakllanishida asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Sanoat ham bamisoli san'atdir. Ma'lumki, san'at-badiiy tasviriy san'atda tabiiy borliq, hodisa va voqeylik sun'iy ravishda o'z shaklini, ko'rinishini o'zgartiradi. Masalan, aktyor o'zi bajarayotgan obrazga moslashsa, tasviriy va amaliy san'atda voqeylik umumlashtirilgan holda suratga, rasmga tushiriladi. Xuddi ana shu oddiy misolga o'xshab sanoatda ham tabiatdan olingan turli xil xom ashyo qayta ishlash jarayonida o'z shaklini o'zgartiradi va iste'molga tayyorlanadi.

Jamiyat taraqqiyoti bilan iste'mol buyumlari va mahsulotlariga bo'lgan talab-ehtiyoj asta-sekin ortib boradi. Natijada, qishloq xo'jaligi-chorvachilik yoki dehqonchilik mahsulotlari yetishmay qoladi. Bu avvallari hunarmandchilik va kosibchilikni, keyinchalik esa sanoat ishlab chiqarishi va undagi kooperatsiya shaklining dastlabki ko'rinishi-manufakturaga zamin yasaydi. Manufakturaning rivojlanishi hozirgi zamon industriyasiga ko'chadiki, bu jamiyat taraqqiyotida yangi davrga muvofiq keladi. Sanoatning bunday tarixiy, an'anaviy rivojlanib borishi asosan to'qimachilik tarmog'i negizida amalga oshadi. Qolgan tarmoqlar, jumladan, mashinasozlik va metallurgiya sanoatining dastlabki shakllanishi ko'proq ana shu to'qimachilik sanoatining talablari bilan bog'liq bo'lgan.

Geografiyada sanoatni o'rganish asosan ikki, bir-birini to'ldiruvchi yo'nalishlarda olib boriladi. Birinchisi-bu tarmoqlar yo'nalishi bo'lib, unda ko'proq sof iqtisodiy masalalarga e'tibor qaratiladi va tarmoqlarning tahlili ularning hududiy

tashkil etilishini yoritilishi bilan uyg'unlashtiriladi. Demak, bu yerda tadqiqot «tarmoq-hudud» tartibida amalga oshiriladi.

Ikkinchi yo'nalish iqtisodiy geografiya va ayniqsa rayon yo'nalishiga mos tushadigan hududlar doirasida amalga oshirilishidir. Bu yerda geotizm oldingi o'rinda turadi va ilmiy ish «hudud-tarmoq» yo'sinda olib boriladi.

Hozirgi paytda sanoat ishlab chiqarishini hududiy tashkil etishdagi an'anaviy omillarning ta'siri sezilarli darajada susayadi va buning evaziga infratuzilma, ekologiya va ayniqsa, iste'mol omilining ahamiyatini oshiradi. Binobarin, u yoki bu joyda ma'lum sanoat korxonasini joylashtirish faqatgina mavjud sharoitlar bilangina emas, balki ularning mahsulotiga erkin bozordagi talab bilan belgilanadi.

Qishloq xo'jaligi jamiyat rivojlanishi, ijtimoiy mehnat taqsimotining dastlabki shakllaridandir, shuning uchun bo'lsa kerak, yer yuzidagi eng qadimiy madaniyat o'choqlari (Nil daryosining quyi qismi, Mesopotamiya, Hind-Gang pasttekisligi, Xuanxe vodiysi, Movaraunnahr va boshqalar) sug'orma dehqonchiligi bilan bog'liq bo'lgan. Xo'jalikning bu turi esa o'z navbatida jamiyat taraqqiyoti, aniq fanlar rivojiga katta ta'sir ko'rsatgan.

Avvallari dehqonchilik mashg'uloti bevosita quruq iqlimli mintaqalardagi daryolar va ularning faoliyati asosida olib borilgan. Bunga Nil daryosi yaqqol misol bo'la oladi. Gerodot «Misr-Nil daryosining tuhfasini, sovg'asi» deb aytgan. Chindan ham yer sharidagi eng uzun bo'lgan bu daryo o'zining bor kuchini, tabiiy qudratini o'zining serhosil allyuvial yotqiziqlari bilan vujudga keltirgan deltasida namoyon qilgan. Bu esa dehqonchilikni rivojlantirishga qulay imkoniyatlar yaratgan. Xuddi shunga muvofiq biz «Xorazm Amu ya'ni Oks daryosining sovg'asi, natijasidir», deb ta'riflashimiz mumkin. Bu qadimiy o'lkada dastlabki sug'orish inshootlarining joriy etilishi, aniq fanlarning rivojlanish boisi ham shunda bo'lsa ajab emas.

Qishloq xo'jaligini o'rganish iqtisodiy geografiyaning to'ng'ich yo'nalishidir. Shu bois ko'pgina mamlakatlarda, jumladan, O'zbekistonda ham iqtisodiy geografiyaga oid tadqiqotlar tarixi qishloq xo'jaligini o'rganishdan boshlanadi. *Shuning uchun ham yuqorida aytib o'tilganidek, transport, sanoat va qishloq xo'jaligi geografiyasi tarixi ham aynan iqtisodiy va ijtimoiy geografiya tarixi sifatida talqin qilinishi asoslidir.*

Umuman, transport, sanoat va qishloq xo'jaligi-iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning eng asosiy mavzusi hisoblanadi. Xususan bu yirik masala jahon-transporti, sanoati va qishloq xo'jaligini va ular bilan uzviy bog'liq bo'lgan xalqaro iqtisodiy aloqalar sohalarini ham qamrab oladi. Bu masalani o'rganish bilan biz har bir xo'jalik tarmoqlarining jamiyat hayotida tutgan o'rni, rivojlanish va joylashishi xususiyatlarini, ularning atrof-muhitga ta'siri haqida atroflicha tushuncha olamiz.

Transport tarmoqlarini rivojlanishi va joylashuvi ko'pincha joyning geografik o'rni, relief sharoiti asosida amalga oshiriladi, bu jarayonning asosida iqtisodiy va ijtimoiy geografiya, geomorfologiya fan yutuqlaridan foydalanish lozim bo'ladi.

Qishloq xo'jaligini joylashtirish va rivojlantirishda tabiiy sharoitlar ichida asosiy e'tibor agroiqlimiy, tuproq, rel'ef, suv va o'simlik dunyosiga qaratiladi. O'z navbatida agroiqlimiy omillar doirasida harorat rejimi va vegetatsiya davri, yog'in-sochin miqdori va uning yil fasllari bo'yicha taqsimlanishi, shamol va qor qatlami, shuningdek, dehqonchilik uchun noqulay bo'lgan qurg'oqchilik, do'l singari ob-havo

sharoitlari ko'rib chiqiladi. Bu jarayonda bizga tabiiy geografiya, meteorologiya, o'simlikshunoslik, tuproqlar geografiyasi kabi fanlar yordam beradi.

Biror hudud sanoatini o'rganish, avvalo, ushbu viloyat yoki rayonning iqtisodiy geografik o'rni, mamlakat sanoat ishlab chiqarishi va milliy iqtisodiyotida tutgan mavqeini ko'rsatishdan boshlanadi. Mamlakat mehnat taqsimotida sanoatning qaysi tarmoqlarga ixtisoslashganligini aytib o'tiladi. Buning asosida biz doimo iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaga suyanamiz. Albatta, sanoat ishlab chiqarish uchun mineral xom ashyo sifatida turli xil konlar va ularning hududiy birikmalari yetakchi ahamiyatga ega. Buning asosida geologiya fani yutuqlari asosiy omil sifatida qaralishi lozim.

Tarix yoki tarixiy geografiya fani yutuqlari asosida, davlat yoki rayonning asosiy sanoat tarmoqlari va uning yetakchi korxonalari qachon va nima uchun aynan shu joyda joylashganligini o'rganish mumkin. Shu bilan birga statistika fani asosida maxsus statistik hisob-kitoblar va jadvallar tuzilib, sanoat ishlab chiqarishning rivojlanish jarayoni, o'sish va ko'payish sur'atlari ko'rib chiqilishi mumkin.

Tadqiqotlar ob'ekti sanoat tarmoqlaridan tashqari, alohida sanoat korxonalarini ham o'rganish mumkin. Bunda asosiy e'tibor mazkur korxonaning nima uchun aynan shu joyda qurilishi, uning xomashyo va tayyor mahsulotni tarqatish geografiyasiga qaratiladi. Shuningdek, korxonaning kadrlar bo'limidagi ma'lumotlariga asoslanib, uning ishchi xodimlarini shakllanishi, ularning ijtimoiy-demografik tarkibi tahlil etiladi. Buning asosida sanoat iqtisodiyoti, korxonalar iqtisodiyoti fanlari yutuqlaridan foydalanish lozim bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda transport, sanoat va qishloq xo'jaligi geografiyasi fani ham o'z ob'ektini yuksak darajada tadqiq qilishda, boshqa fanlar yutuqlariga tayanadi va ulardan foydalanadi.

1.2. Ishlab chiqarish tarmoqlarini shakllanish va rivojlanish bosqichlari

Transport va uni turlarini, sanoat va qishloq xo'jaligi tarmoqlarining shakllanish va rivojlanish jarayonlari inson va tabiat komponentlari o'rtasidagi munosabatlar tarixi bilan chambarchas bog'liq. Insonlarning tabiiy muhit bilan bo'lgan o'zaro aloqalari o'tgan barcha tarixiy davrlarda yuz bergan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy voqeyliklar natijasida o'zgarib borgan. Agar insonlarning eng qadimiy ongli ajdodlari (Homo sapiens) yashagan davrlarda tabiat hukmronligi kuzatilgan bo'lsa, keyinchalik ikki tomonlama munosabatlarda odamlarning ta'siri orta bordi. Tabiat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning murakkablashib borishi bevosita va bilvosita ishlab chiqarishni rivojlanish darajasi bilan chambarchas bog'liqdir. Barcha ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalarda (ibtidoiy jamoa, quldorlik, feodalistik, kapitalistik va sotsialistik) tabiat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar vaqt va makon nuqtai nazardan o'zgarib bordi. Jadvalda ko'rsatib o'tilgan har bir davr oralig'ida insonlarning tabiatga bo'lgan ta'siri orta borganini ko'rish mumkin. SHu bilan birga bosib o'tilgan davrlar davomida odamlarning ma'lum sohalariga ixtisoslashishi

moddiy ishlab chiqarish tarmoqlarining shakllanishi va rivojlana borishiga asos bo‘lib xizmat qildi (1-jadval)³.

1-jadval. Jamiyat va tabiiy muhim o‘rtasidagi munosabatlar natijasida yuzaga kelgan asosiy davrlar

T\r	Davrlar	Insonlar va tabiiy muhit o‘zaro munosabatlari xususiyatlari	Muddat oralig‘i
1	Fan-texnika taraqqiyoti yuz bergan zamonaviy davr	Ishlab chiqarishning texnik asosida tub o‘zgarishlarning yuzaga kelishi; “jamiyat-tabiiy muhit” tizimida keskin burilishlarning yuz berishi.	XX asr yarmidan boshlab
2	Sanoat inqilobi bilan bog‘liq bo‘lgan davr	Sanoat korxonolari soni va urbanizatsiya darajasining ortib borishi; Geografik qobiqqa bo‘lgan salbiy ta’sirning kuchayishi; Ekin maydonlari hajmining keskin ko‘payishi.	XVIII asr o‘rtalaridan XX asr yarmigacha
3	O‘rta asrlar davri	Agrar munosabatlarning yanada kuchayishi; O‘rmonlarning yoppasiga kesib yuborilishi; Ikkilamchi tabiiy resurslardan foydalanishga o‘tish, oykumenalar chegaralarining kengayishi.	O‘rta asrlar
4	Qishloq xo‘jaligi inqilobi bilan bog‘liq bo‘lgan davr	Insonlarning asosiy qismi dehqonchilik bilan bog‘liq sohalarda faoliyat olib bora boshlaydilar; Tabiiy landshaftlarga sekin-astalik bilan ta’sir etishning boshlanishi.	6-8 ming yillar avval
5	O‘zlashtiruvchi xo‘jalik davri	Termachilik, ovchilik, baliqchilik sohalarining yuzaga kelishi; Insonlarning tabiatga moslashuvining yuz berishi.	Taxminan 30 ming yil avval

Eng qadimgi davrda insonlar termachilik, ovchilik va baliqchilik sohalari bilan mashg‘ul bo‘lganlar. Tabiat insonga nimani in‘om etsa, odam shuni olgan, topgan yeguligi bilan qanoatlangan bo‘lib, bu holat ko‘p hollarda ularning tabiiy sharoitga moslashuvi asosida yuzaga kelgan deyish mumkin. Chunki, bu davrda odamlar

³Safarova N.I., Amanbaeva Z.A., Gapparov A.N. Moddiy ishlab chiqarish asoslari. T.: TDPU, 2013. 94 bet.

mavjud tabiiy imkoniyatlardan hayot kechirish uchun foydalanib kelgan bo'lib, tabiatni o'zgartira olish kuchiga ega bo'lmaganlar. Bunga texnik imkoniyatlar va zaruriy malakalarning chegaralanganligi asosiy sabab bo'lgan.

Eng qadimgi davrda insonlar termachilik, ovchilik va baliqchilik sohalari bilan mashg'ul bo'lganlar.

Tabiat insonga nimani in'om etsa, odam shuni olgan, topgan yeguligi bilan qanoatlangan bo'lib, bu holat ko'p hollarda ularning tabiiy sharoitga moslashuvi asosida yuzaga kelgan deyish mumkin. Chunki, bu davrda odamlar mavjud tabiiy imkoniyatlardan hayot kechirish uchun foydalanib kelgan bo'lib, tabiatni o'zgartira olish kuchiga ega bo'lmaganlar. Bunga texnik imkoniyatlar va zaruriy malakalarning chegaralanganligi asosiy sabab bo'lgan.

Olovning kashf etilishi bilan inson va tabiat munosabatlarida ilk o'zgarishlar yuz berdi. Uning natijasida yer yuzasining turli geografik mintaqalarida xo'jalik yuritish shakllari o'zgarib boshladi. Neolit davrida o'zlashtiruvchi xo'jalikda tub o'zgarishlar sodir bo'ldi, tabiatdan barcha tayyor narsalarni olgan inson endi ishlab chiqaruvchi xo'jalikka-ziroatchilik va chorvachilikka o'tdi. "Qishloq xo'jaligi inqilobi" deb nom olgan mazkur jarayon moddiy ishlab chiqarish tarmoqlari orasidagi ilk tarmoq-qishloq xo'jaligining yuzaga kelishiga sababchi bo'ldi.

Ayniqsa, bu holat Nil, Dajla va Frot, Hind va Gang, Xuanxe va YAnsze daryolari vodiylari hamda Qadimiy Rim va Qadimgi Gretsiya kabi ilk sivilizatsiyalar tarqalgan hududlarda yaqqol namoyon bo'la boshladi. Mazkur mintaqada o'zlashtiruvchi xo'jalik ko'rinishlari hisoblangan termachilik, ovchilik yoki baliqchilik sohalari son jihatdan tez ko'payib borayotgan aholini zaruriy kundalik mahsulotlar bilan ta'minlay olish qobiliyatiga ega bo'lmay qolganligi moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish uchun ehtiyoj tug'ulishiga sababchi bo'ldi.

Oykumena⁴ hududlarida yovvoyi o'simlik va hayvonlarining xonakilashtirilishi boshlandi. Buning natijasida eramizdan avvalgi X-VI ming yilliklarda o'simlik va hayvonlar madaniylashuvi natijasida yuzaga kelgan 9 ta o'choqlar (mintaqalar) paydo bo'ldi.

Mazkur mintaqalar bir-biridan geografik o'rni, tabiiy sharoiti, iqlimi va relyef xususiyatlari bilan farq qilishidan tashqari, bu hududlarning qishloq xo'jalik mahsulotlariga ixtisoslashuvi ham turli yo'nalishga egaligi bilan ajralib turgan. Ularning har birida o'z sharoitidan kelib chiqqan holda donli, dukkakli, moyli, tolali o'simliklar, sabzavot va mevalar etishtirilgan hamda qayta ishlangan. Go'shti va sutini iste'mol qilish, juni va terisidan kiyim-kechak tayyorlash maqsadida qo'y, qo'tos, tuya kabi hayvonlar uy xo'jaliklarida ko'paytirila boshlandi. Ushbu holatlar qishloq xo'jaligi va turli hunarmandchilik tarmoqlarining rivojlanishiga sababchi bo'ldi. Shu maqsadda mazkur hududlar aholisi to'g'onlar qurish, kanallar qazish, botqoqliklarni quritish, ixota daraxtzorlarni barpo etish orqali qum bo'ronlaridan himoyalani kabi eng qadimgi meliorativ jarayonlarni amalga oshira boshlaganlar. Buning natijasida atrof-muhitga bo'lgan antropogen ta'sir orta boshladi.

⁴ Oykumena (yunoncha-oyko-yashayman, turaman so'zidan olingan)-yer yuzasining aholi yashaydigan va ular tomonidan o'zlashtirilgan qismi.

Bundan tashqari, neolit davrida yuz bergan “Qishloq xo‘jalik inqilobi” jamiyatda ilk bora sinfiy tabaqalanishning shakllanishi, yerga bo‘lgan mulkchilik va quldorlik tuzumining yuzaga kelishiga imkon yatardi.

O‘rta asrlar davriga kelib “jamiyat-tabiiy muhit” tizimida mavjud aloqalarning yanada kuchayishi yuz berdi. Xo‘jalik faoliyatida iste‘mol talabi mavjud xom ashyolar bilan bir qatorda mineral va o‘rmon resurslaridan ham foydalanila boshlandi. Natijada moddiy ishlab chiqarish tarmoqlari orasida metall mehnat qurollarini ishlab chiqarish, kemasozlik, binokorlik sohalari rivojlanishi uchun asos yaratildi. Aholi sonining ko‘payib borishi erga bo‘lgan ta‘sirning yanada ortishiga sababchi bo‘ldi. Bu holat Osiyo hamda Tropik Afrikaning musson iqlimli hududlarida, Evropaning ko‘pgina davlatlarida kuzatila boshlandi.

O‘zlashtirilgan hududlarda aholining yerga bo‘lgan ta‘siri (ham ijobiy, ham salbiy) yuz berdi. Chorva mollarining ko‘plab boqilishi natijasida o‘tloq, o‘rmonlar kesilishi va olov yordamida yangi yerlar ochish jarayonlari natijasida o‘rmon maydonlarining kamayib borishi boshlandi.

Shunga qaramay o‘rta asrlarda insonning tabiiy muhitga ta‘sir etish vosita va usullari belgilangan doira ichida yuz bergan. Yerni tekshirishga qaratilgan tadbirlar, yerga ishlov berish, mineral o‘g‘itlardan foydalanish, qo‘l mehnati kabilar o‘rta asrlar qishloq xo‘jaligini tabiatni muhofaza qilish nuqtai nazaridan salbiy holatlarga deyarli ega bo‘lmagan deb hisoblash mumkin.

Er yuzining yuqori sur‘atlarda o‘zlashtirilishi o‘rta asrlar so‘ngida, bundan 200-300 yillar oldin yuz bera boshladi. Buyuk geografik kashfiyotlar oykumena chegaralarining kengayishiga sababchi bo‘ldi hamda Amerika, Avstraliya, Okeaniyaning hosildor erlarini xo‘jalik faoliyatida ishlatilishiga olib keldi. Ispaniya, Portugaliya, Buyuk Britaniya, Niderlandiya, Fransiya kabi davlatlar mazkur mintaqalarda o‘zlarning kolonial imperiyalarini tashkil etdilar.

Koloniyalardan (mustamlakalardan) keltirilyotgan qimmatbaho metallar, turli qishloq xo‘jaligi mahsulotlari Evropada mulkdorlar sarmoyasi ortishi bilan birga burjuaziyaning yuksalishi uchun turtki bo‘ldi. Ayniqsa, manufakturalar⁵ da turli mahsulotlarni ishlab chiqarishning rivojlanishi mintaqani jahonning iqtisodiy rivojlanish markazlariga aylanishiga sababchi bo‘ldi. Shimoliy Italiya shaharlarida shakllana boshlagan ishlab chiqarishning mazkur shakli G‘arbiy va Shimoliy Yevropa davlatlariga keng yoyildi hamda Angliyada o‘z yuksaklik cho‘qqisiga erishdi.

Mustamlakalar (koloniyalar) sonining ortishi manufakturalar bozori chegaralarining global miqyosida kengayishiga sababchi bo‘ldi. Mahsulotlarga bo‘lgan talabning ortishi qo‘l mehnatiga asoslangan manufakturalarda ishlab chiqarish sur‘atlarini oshirishni talab eta boshladi. Angliyada bu holat mexanizatsiyalashgan ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish orqali bartaraf etildi. Ushbu davlatning bu sohada etakchi bo‘lishiga V.V. Volskiy fikricha quyidagi omillar sababchi bo‘lgan:

⁵Manufaktura (lotincha - manus qo‘l, fakyerye- qilmoq) – iste‘mol buyumlari yoki gazlamani ommaviy miqyosda ishlab chiqarish, muayan tarmoq yoki sanoat ishlab chiqarish shakli.

- turli fan sohalaring tez su'atlar bilan rivojlanishi;
- jun, metallurgiya, kemasozlik kabi manufakturalar faoliyat ko'rsatish orqali katta malakaga ega bo'lgan ko'p sonli muxandis va mexaniklarning mavjudligi;
- yirik ishlab chiqarish korxonalarida ish olib bora oladigan sobiq dehqon va hunarmandlardan iborat bo'lgan arzon ishchi kuchiga egaligi;
- mamlakat hududida qazib olish uchun qulay bo'lgan toshko'mir va unga yaqin joylashgan temir rudalarining boy zaxiralarining XVII asrdan boshlab ishlab chiqarishda foydalanganligi;
- dunyodagi eng katta imperiya sifatida an'anaviy va yangi turdagi xom ashyolardan to'liq foydalanish imkoniyatlariga egaligi;
- Yevropa davlatlari orasida eng katta sarmoyaga egaligi bilan ajralib turganligi;
- Angliya davlatchiligida unitar tuzumning qo'llanishi va uning orollarda joylashuv holatlari bu yerda sanoatni shakllantirish uchun katta miqdorda kapital qo'yilmalari kiritishga sharoit yaratib berganligi.

XVIII asrda Angliyada yuz bergan sanoat inqilobi moddiy ishlab chiqarishning navbatdagi tarmog'ining rivojlanishi uchun zamin yaratdi. To'qimachilik mahsulotlariga bo'lgan katta talab paxta tolasini yigirish va undan mato to'qishga asoslangan ilk mashinalarni ixtiro qilinishiga sababchi bo'ldi. Keyinchalik qog'oz, qand lavlagi asosida shakar olish tarmoqlari uchun mashinalar ishlab chiqarila boshlandi. 1774-1775 yillarda J.Uatt tomonidan bug' mashinalarining ixtiro qilinishi turli mahsulotlar ishlab chiqaruvchi yirik sanoat korxonalarining-zavod va fabrikalarning ishga tushirilishiga yordam berdi. Bu ixtiro moddiy ishlab chiqarishning yana bir tarmog'i bo'lgan transportning rivojlanishi uchun ham asos bo'ldi. Bug' mashinasining transport vositalarida qo'llanishi natijasida temir yo'l va suv transportlari faoliyatining tezlashuvi yuz berdi.

Zavod, fabrika tipidagi sanoat korxonalari sonning ortishi bilan tabiiy muhitga bo'lgan inson ta'siri kuchayib bordi. Avval G'arbiy Yevropa davlatlarida keyinchalik dunyoning boshqa mintaqalarida qora metallurgiya tarmoqlarining rivojlanishi katta maydonlardagi o'rmonlarining yo'q bo'lib ketishiga sababchi bo'ldi. Keyinchalik ishlab chiqarishda yog'och ko'mir o'rniga toshko'mir va undan hosil qilinadigan kokslanuvchi ko'mir ishlatilishi atrof muhitga texnogen ta'sirni yanada kuchaytirdi.

Tabiatga texnogen ta'sir XX asrning ikkinchi yarmida yanada kuchayib ketdi. Chunki, 1960 yillarda fan, texnika va texnologiya, ishlab chiqarish hamda boshqarish sohalarida tub o'zgarishlar yasagan "Fan-texnika inqilobi" yuz berdi. Bu davrda fanning jadal rivojlanishi uning o'ziga xos ishlab chiqarish omillaridan biriga aylanishiga sababchi bo'ldi. AQSH, Yaponiya, Germaniya, Fransiya kabi davlatlar ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari uchun katta miqdordagi sarmoyalar ajrata boshladilar. Fan va texnika olamida yuz bergan tub o'zgarishlar moddiy ishlab chiqarish tarmoqlariga ham o'z ta'sirini o'tkazdi.

Ishlab chiqarishda yuz bergan eng katta o'zgarishlar birinchi navbatda, sanoatga ta'luqli bo'ldi. Natijada sanoat tarmoqlari orasida murakkab tarkibga ega bo'lgan sohalar yuzaga keldi, fantalab ishlab chiqarish tarmoqlari rivojlandi, yadro energetikasi sohasiga katta e'tibor qaratila boshlandi. Kompyuter asosida boshqarilayotgan stanok malakali ishchi tayyorlagan sanoat mahsulotlaridan sifat va son jihatdan kam bo'lgan turli mahsulotlarni ishlab chiqara boshladi. Asbobsozlik,

aniq mashinasozlik, aviasozlik kabi fantalab sanoat tarmoqlarida mahsulot ishlab chiqarish hajmi ortdi.

Yuz bergan o'zgarishlar qishloq xo'jaligi va transport sohalariga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Qishloq xo'jaligi sohalarida fan va texnika yutuqlari natijasida maxsuldorlik darajasi keskin ko'tarildi. Ayniqsa, 1960-1970 yillarda yuz bergan "yashil inqilob" don mahsuloti hosilini oshishiga sababchi bo'ldi. Bunga don seleksiyasi, irrigatsiya sohasi va kimyolashtirish jarayoni natijasida erishilgan ijobiy yutuqlar sabab bo'ldi. 1980-yillarga kelib qishloq xo'jaligi sohasida qo'lga kiritilgan natijalar oldingi o'n yilliklardagi ko'rsatkichlarning aksini ifodalay boshladi. Ayniqsa, jahon mamlakatlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtirishda kimyoviy o'g'itlardan me'yordan ortiq foydalanish ko'pgina ekologik muammolarni yuzaga keltirdi.

So'nggi yillarda qishloq xo'jaligi tarmoqlarida mahsulotlar ishlab chiqarishda biotexnologiya fani yutuqlaridan keng foydalanishga e'tibor qaratilmoqda. Gen muhandisligi yordamida yaratilgan serhosil, iqlimning turli o'zgarishlariga chidamli yangi navlarini etishtirish hamda zotdor chorva mollarni ko'paytirish dehqonchilik va chorvachilik sohalarida keng qo'llanila boshladi.

Bundan tashqari, fan texnika yutuqlaridan foydalangan holda plyonka ostidan oziqlantirish, plastmassa quvurlar yordamida sug'orish, oynali issiqxonalarini tashkil etish kabi amalga oshirilayotgan tadbirlar iqlim sharoiti noqulay bo'lgan mintaqalarda ham qishloq xo'jalik mahsulotlarini etishtirish imkonini bermoqda.

Fan texnika inqilobi moddiy ishlab chiqarishning yana bir tarmog'i bo'lgan transport sohalarida ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Natijada, avtomobil, temiryo'l, suv, havo, quvur va elektron transport sohalarida tezlik, yuk tashish quvvati oshishiga erishildi. Fan texnika taraqqiyoti transport sohalari orasidagi mehnat taqsimotining o'zgarishiga ham sababchi bo'ldi. Bundan tashqari, XX-XXI asrlar oralig'ida transport sohalarining ichki tarmoq va hudud tizimlari takomillashuvi quyidagi holatlar natijasida yuz berdi:

-yangi shosse, neft va gaz quvurlari, temir yo'l magistrallari qurilishi natijasida jahon traonsport tizimining masofaviy kengayishi yuz berdi;

-yangi sanoatlashgan davlatlar Xitoy, Hindiston, Rossiya va boshqa sobiq sotsialistik davlatlarda avtomobil bilan ta'minlanish darajasining ortishi jahon mamlkatlarida aholini tashish ko'rsatkichlari bo'yicha avtomobil transportining etakchi sohaga aylanishini ta'minladi;

-neft qazib oluvchi Yaqin SHarq mamlakatlari, G'arbiy Yevropa va Rossiya hisobiga quvur transporti bir maromda rivojlana boshladi;

-Xitoy, Hindiston va yangi sanoatlashgan davlatlar jahon mamlakatlari bo'ylab yuk tashish jarayonida katta salmoqqa ega bo'la boshladilar.

Moddiy sohada band bo'lgan aholinig iqtisodiy faol ishlab chiqarish jarayonining to'liq avtomatlashtirilishi natijasida boshqa soha-nomoddiy ishlab chiqarishda faoliyat yurita boshladilar. Bu holat ayniqsa, iqtisodi rivojlangan davlatlarda yaqqol namoyon bo'la boshladi. Nomoddiy sohalar orasida fanga bo'lgan e'tiborning kuchaytirilishi, o'zaro axborot almashinishning tezlashuvi hamda bu sohada yaratilayotgan innovatsion g'oyalar jahon xo'jaligi tarixida yangi-postindustrial davr rivojlana boshlashiga sababchi bo'ldi.

Transport, sanoat va qishloq xo'jaligi va ularning tarmoqlari tizimida yuz berayotgan siljishlar va dunyo iqtisodiyotining uch turi-bosqichi o'ziga xosdir. Haqiqatdan ham, transport, sanoat va qishloq xo'jaligi va ularning tarmoqlar tizimida sezilarli o'zgarishlar sodir bo'ldi. Tarmoq tizimini tahlil qilish va o'rganishda uning uchta bo'g'ini (qavati) ajratiladi: 1) makrotizim; 2) mezotizim; 3) mikrotizim.

Makrotizim eng yirik iqtisodiy nisbatlarni aks ettiradi va bunda ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalari, sanoat, qurilish, qishloq xo'jaligi, transport va aloqa, xalqaro savdo o'rtasidagi nisbatlar aniqlanadi. Ular u yoki bu mamlakatni iqtisodiyotning agrar, industrial yoki postindustrial turlarga ajratishga asos bo'ladi. 1950-yil dunyoning moddiy ishlab chiqarish tizimida quyidagi o'zgarishlar va siljishlar yuz berdi. Sanoat 42%, qishloq xo'jaligi 21%, xalqaro savdo 19%, transport va aloqa 10%, qurilish 8% ni tashkil etgan. Keyingi yillarda taxminan sanoat 59 %, xalqaro savdo 19 %, qishloq xo'jaligi 8 %, transport va aloqa 7 %, qurilish 7 % salmoqga ega bo'lgan. Boshqacha aytganda, o'tgan davrda sanoatning eytakchilik roli kuchaydi, qishloq xo'jaligining salmog'i sezilarli darajada pasaydi, boshqa tarmoqlar esa o'z o'rinlarini deyarli bir xil darajada saqlab qoldilar.

Mezotizim (tarmoqlararo tizim) sanoat, qishloq xo'jaligi, transport va boshqalarning ichida shakllanadigan nisbatlarni ko'rsatadi. Masalan, dunyo sanoat tizimida FTI ta'sirida tog'-kon sanoatining solmog'i pasayib, ishlab beruvchi sanoatning salmog'i oshib bormoqda. Agar ikkinchi jahon urishidan oldin ularning nisbati 15:85 bo'lgan bo'lsa, 1970 yillarda 13:87, 1990-yillarning boshida esa 8:92, hozirda taxminan 5:95 ga etdi. Bu o'zgarishlar bir tomondan, ishlab chiqarishning material sarflash hajmi kamayishi, boshqa tomondan esa, mineral xom ashyoni sun'iy xomshyo bilan almashtirishning o'sishi bilan bog'liq bo'ldi. Tog'-kon sanoati tizimida esa hozirgi paytda 2:3 yoqilg'i, ayniqsa neft qazib olishga, 1:3 ruda, qurilish materiallari va boshqalarni qazib olishga to'g'ri keladi.

Lekin bu o'rtacha umumjahon ko'rsatkichlari rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasida katta farq borligini ham bekituvchi vosita bo'lmasligi kerak. Gap shundaki G'arbning rivojlangan mamlakatlarining ko'pchiligida tog'-kon sanoati salmog'ini pasaytirishi ularning faqat rivojlanayotgan mamlakatlar yoqilg'i-xom ashyo resurslariga suyanishi asosida yuz berdi. SHu sababdan tog'-kon sanoati rivojlangan mamlakatlar sanoat ishlab chiqarishida o'rtacha 2 %, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa 14 % ni tashkil etadi (YAqin va O'rta SHarqdagi neft qazib oluvchi mamlakatlarda 40-50 %). SHu bilan bir qatorda, ayrim rivojlangan mamlakatlar, masalan, Kanada, Avstraliya, tog'-kon sanoati hissasining yuqoriligi bilan ajralib turadi. Bu holat uzoq vaqt mobaynida barcha sobiq sotsialistik tuzum mamlakatlari ehtiyojlarini keng miqyosda ta'minlab kelgan sobiq Ittifoq uchun ham xarakterli bo'lgan.

Mikrotizim (mikrotarmoq strukturasi) moddiy ishlab chiqarishning ayrim turlarida, birinchi navbatda, sanoat ishlab chiqarishda yuz berayotgan o'zgarish va siljishlarni aks ettiradi. Bunda fantalab tarmoqlar elektron hisoblash texnikasi, atom energetikasi jihozlari, mikrobiologik preparatlar ishlab chiqarish birinchi o'ringa chiqmoqda. Bularning hammasi ilmiy-texnika taraqqiyotining katalizatori rolini bajarayotgan AQSH da ana shunday fantalab yuqori texnologik ishlab chiqarishning butun ishlab beruvchi sanoat mahsulotidagi hissasi 40 % dan ko'proq, GFR, Fransiya,

Buyuk Britaniya, Italiyada esa 30-35 % ga teng.

Dunyo moddiy ishlab chiqarishi tizimida FTI ta'sirida umumiy bir biriga qarama-qarshi harakatlarga ega bo'lgan yana ikkita siljish yaqqol namoyon bo'lmoqda. Ulardan birinchisi, mikrotizim darajasida sodir bo'lib, xo'jalikning tarmoq strukturasi (tuzilishi, tarkibidagi) diversifikatsiyada (bo'linish, sochilish) o'z aksini topayotir. Ikkinchisi, tarmoqlararo komplekslar (majmualar)-yoqilg'i-energetika, mashinasozlik, agrosanoat, harbiy sanoat, aerokosmik, avtomobil majmualarining (komplekslarning) tashkil topishida namoyon bo'lmoqda.

Fanda so'nggi yillarda dunyo iqtisodiyotining **uch xili**-agrar, industrial, postindustrial tiplari to'g'risida tasavvur paydo bo'ldi.

XVII-XIX asrlardagi sanoat to'ntarishlarigacha dunyo iqtisodiyotining agrar xili hukmron bo'lgan. So'ngra u sanoatning rivojlanishi bilan bog'liq holda o'z o'rnini industrial turiga bo'shatib berdi. Lekin bunda shuni hisobga olish kerakki, hozir ham dunyoning taxminan 47% iqtisodiy faol aholisi (3,3 mlrd kishi) qishloq xo'jaligida band. Ayniqsa, bu ko'rsatqich rivojlanayotgan mamlakatlarga ta'luqli bo'lib, ularda aholining deyarli 60% qishloq xo'jaligida ishlaydi. Masalan bu ko'rsatqich Mongoliyada 30, Paragvayda 48, Nigeriyada 50, Indoneziyada 55, Hindiston va Xitoyda 60, Vetnamda 73, Efiopiyada 75, Malida 85, Ruandada 88, Nepalda 92% teng.

G'arbning rivojlangan mamlakatlarida qishloq xo'jaligida band aholi salmog'i o'rtacha 7,8%, Buyuk Britaniyada 2%, AQSH, Belgiya GFRda 3%, SHvetsiyada 4%, Avstriyada 5%, Fransiyada 7%, YAponiyada 7%, Italiyada 8%, Finlyandiyada 10%, Rossiyada 13%.

XIX asrning ikkinchi yarmi–XX asrning birinchi yarmida eng avvalo Yevropa, Shimoliy Amerika, Yaponiya va sobiq Ittifoqda ishlab chiqarishning industrial tipi shakllandi. Uning uchun YAIM va bandlik strukturasi (tuzilishida) sanoat va qurilishlarning ustivorligi xarakterli bo'lgan. Bu ikki tarmoq hissasiga G'arb mamlakatlarida band aholining o'rtacha 32%i (shu jumladan, G'arbiy Yevropada 38%, Shimoliy Amerikada 31% iga) to'g'ri keladi. Ayniqsa, bu ko'rsatqich quyidagi mamlakatlarda juda yuqori: Italiya-32, Yaponiya-34, GFR-40, Shveysariya- 43 %. Shu bilan bir qatorda bu mamlakatlarda avvaldan sanoat va qurilishning salmog'i mutassil pasayib kelmoqda va ularning birortasida ular birinchi o'rinni egallamaydi. Iqtisodiyotning industrial turi eng to'liq namoyon bo'lgan Sharqiy Yevropa va MDH mamlakatlarida bunday holat kuzatilmaydi. Albatta, bu tasodifiy hol emas, balki ma'lum iqtisodiy siyosat, industrlashtirish yo'nalishining natijasidir.

Haqiqatdan ham bugungi kunda dunyo iqtisodiyotida fan-texnika taraqqiyoti natijasida paydo bo'lgan yangi xo'jalik turlari mavjud. FTIning kengayishi va chuqurlashuvi, dunyo xo'jligiga ta'sirining kuchayishi ko'pchilik mamlakatlarda industrial turdan keyin shakllangan va postindustrial deb nom olgan (post-lotincha, «keyin» ma'nosini bildiradi) iqtisodiyotning mutlaqo yangi turi paydo bo'lishiga olib keldi. U o'z navbatida, industrialorti jamiyati, deb atalayotgan va xizmat ko'rsatish sohasi, fan va ta'lim etakchi o'rinni egallaydigan jamiyatdir.

Industrialorti jamiyatining asosiy xususiyatlarini amaliyotda fantalab ishlab chiqarishning yuqori darajasi, qudratli ilmiy-texnika potentsiali belgilab beradi. Bular esa, o'z navbatida, moddiy va nomoddiy ishlab chiqarishlar o'rtasidagi nisbatining

nomoddiy ishlab chiqarish foydasiga o'zgarishiga, ayniqsa, ishbilarmonlik va xizmat ko'rsatish sohasining (texnik xizmat ko'rsatish korxonalar, ishga tushirish-sozlash komissiyalari, marketing, maslahat firmalar va boshqalar) tez rivojlanishiga, moddiy ishlab chiqarish salmog'ining qisqarishiga, fan, ta'lim, madaniyat, sayohatchilik xizmati, sug'urta sohaslarining o'sishiga va aqliy mehnat sohasida band bo'lgan xodimlarning ko'payishiga olib keladi.

Industrialorti turiga asosan G'arb mamlakatlari kiradi. Noishlab chiqarish sohasida band aholining o'rtacha ko'rsatkichi 50% bo'lgan holda ko'pchilik mamlakatlarda u ancha yuqori. Bunda birinchi o'rinni AQSH egallaydi, mamlakatda so'nggi 15 yilda ishlab chiqarish sohasida ishlaydiganlar soni yarim million kishiga kamaygani holda, xizmat ko'rsatish sohasida esa 25 mln kishiga ko'paydi. AQSH da noishlab chiqarish sohasiga mamlakatdagi band aholining 64%, YAMD ning 70% to'g'ri keladi. Aynan shunday ko'rsatkichlar, shuningdek, Buyuk Britaniya, Shvetsiya, Kanada, Avstriya va boshqa mamlakatlarga ham ta'luqlidir. Noishlab chiqarish sohasida Yaponiyada 52%, GFRda 53%, Fransiyada 56%, Shvetsiya va Avtraliyada 60%, Kanadada 62%, Buyuk Britaniyada 63% kishi band.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning noishlab chiqarish sohasida o'rtacha 22,3% kishi mashg'ul. Bu ko'rsatkich Nepalda 8%, Bangladeshda 10%, Nigerda 10% ga teng. SHu bilan bir qatorda ayrim rivojlangan mamlakatlarda noishlab chiqarishda band kishilarning salmog'i yuqori. Bular yo ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda ancha ilgari ketgan mamlakatlar (Argentina, Meksika, Braziliya, Koreya Respublikasi 59%), yo moliyaviy faoliyat va ishbilarmonlik xizmatining yirik markazlariga aylangan neft eksportyori mamlakatlari (Liviya, Jazoir, Saudiya Arabistoni 55%), yo vositachilik faoliyati va turizmga ixtisoslashgan mamlakatlar (masalan, Bagam orollarida aholining 80%i xizmat ko'rsatish sohasida band) hisoblanadi.

Masalan, ishlab chiqarish tarmoqlarining shakllanishi va rivojlanishi Respublikamiz O'zbekistonda ham o'zgacha kechgan. O'zbekistonda ishlab chiqarish tarmoqlarining shakllanish va rivojlanish bosqichlari o'ziga xos va mos. O'zbekiston o'tmishda er kurrasidagi aholi xo'jalik faoliyati g'oyat qizg'in kechgan eng qadimiy o'lkalardan biri bo'lgan. Bunga G'arb bilan Sharq o'rtasidagi iqtisodiy taraqqiyot uchun qulay bo'lgan geografik o'rni sabab. Asrlar davomida sug'orma dehqonchilik, yaylov chorvachiligi va xilma-xil hunarmandchilikka asoslangan o'lkamiz iqtisodiyoti jahon bozorlarida o'zining ko'p turdagi qimmatli mahsulotlari bilan qatnashib kelgan. U bir zamonlar "Buyuk ipak yo'li" bo'yidagi eng gavjum bozorlar mamlakati bo'lgan.

XV-XVI asrdan e'tiboran G'arbiy va Janubiy Evropa bilan Sharqiy Osiyo davlatlari o'rtasida qulay dengiz yo'llarini ochilishi oqibatida "Buyuk ipak yo'li" inqirozga yuz tutdi. O'z vaqtida ancha bozorgir bo'lgan mahalliy mahsulotlar paxta, ipak, qorako'l, metal, zargarlik buyumlar ishlab chiqarish izdan chiqa boshladi.

XVIII asr boshlarida hozirgi O'zbekiston aholisining asosiy mahsuloti qishloq xo'jalik mahsulotlarini etishtirish bo'lib, ular asosan dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanaredilar. Sanoat mahsulotlari asosan hunarmandchilik asosida ishlab chiqarilar edi. SHaharlarda to'qimachilik, kulolchilik, zargarlik, chilangarlik, duradgorlik, badiiy buyumlar ishlab chiqarilar edi.

O'zbekiston 1991 yil 31 avgustda o'z mustaqilligini e'lon qildi va o'zining chinakam yangi taraqqiyot davrini boshladi. Mustaqillikka erishilgan dastlabki kunlardan boshlab, bir tomonlama rivojlanishga qaratilgan planli (rejali) iqtisodiyotdan voz kechib, bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyat qurish yo'liga o'tildi.

Bozor iqtisodiyoti talablari Respublikada o'rta va kichik biznes faoliyati, tadbirkorlik, ishbilarmonlik keng tus oldi, mulkchilikning turli shakllari vujudga keldi, ishlab chiqarishda davlat tasarufidagi faoliyatlar doirasi toraya borib nodavlat sohasi keng rivojlandi. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni amalga oshirilishi ustivor masalalarni hal etish ishlab chiqarishda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, makroiqtisodiy barqarorlikka erishish hamda aholi faravonligini ko'tarish borasida zarur sharoitlar yaratish imkonini bermoqda.

Bugungi kunda (2018 yil yakuni bo'yicha) Respublikamizda band aholining iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha ulushi quyidagicha ko'rsatkichga ega: sanoatda-13,5, qishloq xo'jaligida-27,3, transportda-4,8, savdoda-11,0, qurilishda-9,5, sog'liqni saqlashda-4,5, ta'limda-8,2, boshqa tarmoqlarda-21,2 %. Shuningdek, YaIM tarkibida-sanoat hisyasi-31,3 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi-28,8 % to'g'ri kelmoqda.

1.3. Ishlab chiqarishni ijtimoiy tashkil etish shakllari

Ishlab chiqarishni tashkil etishning barcha shakllari-mujassamlashuv, ixtisoslashuv, kooperatsiya va kombinatsiya, ayni paytda ijtimoiy va hududiy tomonlarga ega. Albatta, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya uchun ishlab chiqarishning hududiy tomoni etakchi rol o'ynaydi. SHunga qaramasdan, bu bir-biri bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarni uyushtirgan holda o'rganish, tahlil qilish, biridan ikkinchisiga o'ta bilish geografik fikrlashning muhim xususiyatidir.

Mujassamlashuv yoki ishlab chiqarishning to'planishi, yig'ilishi xalq xo'jaligining barcha tarmoqlariga tegishlidir. Ammo geografik jihatdan u eng avvalo sanoat, qishloq xo'jalik va transport, ya'ni moddiy sohalarda yaqqol namoyon bo'ladi. Qolaversa, iqtisodiy geografiya fanining ob'ektini aynan shu tarmoqlarning hududiy tashkil etilishi, ularning joylashish xususiyatlari belgilab beradi. Chunonchi, sanoat uchun «nuqta» yoki tugun ko'rinishida hududiy tashkil etish, qishloq xo'jaligiga areal yoki mintaqaviy (zonal), transport uchun esa lentasimon yoki chiziq shaklidagi joylashuv xosdir. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya ma'lum darajada aynan ana shu nuqtalar-sanoat markazlari va tugunlari, areal, «tasmalarni», ularning joylashuvi, aloqasi va hududiy munosabatlarini o'rganadi. Ijtimoiy ob'ektlarning hududiy tashkil etilishi esa yuqoridagi tarmoqlar joylashuvi bilan belgilanadi.

Mujassamlashuvning bu shakllari bir-biriga o'tib turadi va turli rayon yoki mamlakatlarda har xil birikmada bo'ladi. Masalan: shaharning markazlashuv darajasi ma'lum bir bosqichga etgandan keyin o'ziga xos vaziyat vujudga keladi, ya'ni endi mazkur shaharda qo'shimcha korxonalarini qurish imkoniyati qolmaydi.

Yuqorida keltirilgan mulohazalarga misol qilib Toshkent atrofida joylashgan go'sht kombinati, ToshGRES, Toshkent xalq xo'jaligi universiteti, Yadro fizikasi universiteti va hokazolarni ko'rsatish mumkin. Toshkent aholisi ehtiyoji va xo'jaligi

uchun zarur bo'lgan bu korxonalarni poytaxtda qurishning iloji yo'q, lekin ular iste'molchi, sanoat ilm-fan markaziga yaqin bo'lmog'i lozim. Bundan yana bir xulosa, ya'ni ishlab chiqarish mujassamlashuvi bilan shahar rivojlanishi o'rtasidagi munosabat kelib chiqadi. Dastlab shaharning vujudga kelish va ulg'ayishida ishlab chiqarishni joylashtirish etakchi rol o'ynaydi, keyinchalik esa shaharning o'zi ishlab chiqarishning hududiy tashkil etish omillariga aylanadi.

Mujassamlashuvning yuqori va pastligi ayni paytda ma'lum bir sohaning riojlanganlik darajasini belgilaydi. Bu erda «umumiy maxraj» bo'lib shahar, viloyat yoki boshqa bir joyda yashovchi aholining ulushi, hissasi xizmat qiladi.

Korxonalar, urbanistik va hududiy mujassamlashuv turli rayon yoki mamlakatlarda turlicha birikma hosil qiladi. Past darajadagi korxonalar yoki ishlab chiqarish mujassamlashuvi yuqori urbanistik mujassamlashuvga to'g'ri kelish hollari ham uchraydi. Bu holda shaharda mayda korxonalar soni juda ko'p bo'ladi. Aksincha, urbanistik mujassamlashuv past, ammo ishlab chiqarish mujassamlashuvi yuqori bo'lishi ham mumkin. Bunga kichikroq, masalan, Xivada katta gilam kombinatining joylashuvi misol bo'ladi.

Aynan shunday past darajadagi urbanistik mujassamlashuv yuqori hududiy mujassamlashuvga ham olib keladi. Bu holda mazkur hududda juda ko'p kichik sanoat punkti yoki markazlari mavjud bo'ladi.

Shunday qilib, yuqori darajadagi mujassamlashuv, ayniqcha o'ta yirik korxonalarni barpo etish hamma vaqt ham ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan samarali emas. Bunday hollarda xom ashyo va tayyor mahsulotni transportda tashish xarajatlari ko'payadi, ishchi-kuchi etishmaydi va eng muhimi-ekalogik muvozanat buziladi.

Xo'sh qaysi darajadagi mujassamlashuv ma'qul degan savol tug'iladi. Axir, ayni bir hajmdagi mahsulotni turli xil yiriklikdagi korxonalar, shahar yoki rayonlarda ishlab chiqarish mumkin-ku. Bu erda ham bir tomonlamalik, qat'iylik zararli va xatarlidir deb o'ylaymiz. Binobarin, turli xil yiriklikdagi korxonalar, shaharlar bo'lgani maqsadga muvofiq bo'lsa kerak. Demak, mujassamlashuv ob'ektiv qonuniyat, biroq u barcha mamlakatlarga xos va iqtisodiy samaradorlikka ega bo'lsada, uning ma'lum chegarasi, ko'lami, doirasi bo'lishi shart.

Respublikada ham faqat Toshkent va Toshkent viloyatini rivojlantirib, qolgan mintaqalar va joylarni o'z holiga qoldiraverish ham yaramaydi, albatta. Shu bois Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm, Surxondaryo, Qashqadaryo, Jizzax, Sirdaryo kabi viloyatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish zamon talabi bo'lib, bu masalalar mustaqil davlatning ilmiy asosda ishlab chiqilgan hududiy siyosatida ham o'z aksini topmog'i lozim.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish va modernizatsiyalash, eng avvalo, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha qulay shart-sharoitlar yaratish har qanday davlat uchun eng dolzarb hamda kechiktirib bo'lmaydigan masala hisoblanadi. Bunday vazifalarni amalga oshirishda erkin iqtisodiy zonalarining o'rni g'oyatda muhimdir. SHunga ko'ra, 1996 yildayoq O'zbekiston Respublikasining "Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida" gi Qonuni qabul qilinishi mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga yo'naltirilgan islohotlar uzoqni ko'zlab amalga oshirilganidan dalolat beradi.

Yangitdan tashkil etilgan “Navoiy” va “Angren” erkin industrial-iqtisodiy zonalari bugungi kunda mamlakatimizning ishlab chiqarish salohiyatini modernizatsiya qilishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirishda alohida o‘rin egallamoqda. “Navoiy” erkin industrial-iqtisodiy zonasi tashkil etilganidan buyon bu erda 12 ta korxonalar qurilib, foydalanishga topshirildi. 2012-yilda ular tomonidan qariyb 80 milliard so‘mlik mahsulot ishlab chiqarilgan. Akkumulyator simlari, avtomobil gaz balonlari, mobil va statsionar telefonlar, modemlar va internet uchun qo‘shimcha moslamalar ishlab chiqarish bo‘yicha korxonalar tashkil etish kabi yuqori texnologiyalar asosidagi yana ettita loyiha amalga oshirish ko‘zda tutilgan edi va ular amalga oshirildi.

Shu borada to‘plangan tajribani va Toshkent viloyatidagi ishlab chiqarish hamda resurs salohiyatidan foydalanish, Farg‘ona vodiysidagi korxonalar bilan barqaror iqtisodiy aloqalarni yo‘lga qo‘yishning kelajakda muhim ahamiyatga ega ekanini hisobga olgan holda, “Angren” maxsus industrial zonasini tashkil etish to‘g‘risida qaror qabul qilingan edi va loyiha bugungi kunda o‘z natijasini berdi.

Mazkur industrial zonada faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarga, kiritilgan investitsiyalar hajmiga qarab, 3-yildan 7-yilgacha bo‘lgan muddatga keng ko‘lamli soliq va bojxona imtiyozlari hamda preferensiyalar berildi, ularning infratuzilma ob‘ektlari va kommunikatsiyalarga kafolatli ravishda ulanishi ta‘minlanmoqda.

Hozirgi kunda “Angren” maxsus industrial zonasi hududida qiymati 186,0 million dollarlik 8 ta investitsiya loyihasi amalga oshirilmoqda. SHular qatorida zarurat va ehtiyoj baland bo‘lgan turli tayyor mahsulotlarni va butlovchi buyumlarni ishlab chiqarish, shuningdek, yangi shakar zavodini qurish, tayyor charm buyumlar ishlab chiqaradigan kompleksni barpo etish alohida o‘rin tutdi.

Umumiy qiymati 245 million dollarlik yana 22 ta rentabelli loyihani amalga oshirish masalalari ko‘rib chiqilmoqda va buning uchun zarur hujjatlar tayyorlanmoqda. Qo‘lga kiritgan tajribamiz shuni tasdiqlab bermoqdaki, mamlakatimizning boshqa mintaqalarida ham Navoiy va Angren kabi maxsus industrial zonalarni, zamonaviy logistika tizimlari va transport infratuzilmalarini yaratish bo‘yicha boshlagan ishlarimizni davom ettirish maqsadlarimizga javob beradi.

Ma‘lumki, mamlakatimizdagi ishlab chiqarish korxonalarini modernizatsiya qilish va yangilash, zamonaviy innovatsiyalarga asoslangan va yuksak samarali texnologiyalarni joriy etish dolzarb vazifadir. Ularni amalga oshirishda kerakli imtiyozlarga ega bo‘lgan maxsus industrial zonalarni tashkil etish yo‘lida oxirgi yillarda katta ishlar qilindi. Buning amaliy tasdig‘ini «Navoiy» va «Angren» maxsus industrial zonalari faoliyati misolida ko‘rish mumkin.

«Navoiy» erkin industrial-iqtisodiy zonasi tashkil etilganidan buyon uning hududida umumiy qiymati 100 million dollardan ziyod bo‘lgan 19 ta investitsiya loyihasi bo‘yicha ishlab chiqarish korxonalari ishga tushirildi. Jumladan, yuksak texnologiyalar asosida modem va televizorlar uchun pristavkalar, elektr energiyani elektron hisoblagichlar, yuqori kuchlanishga chidamli kabellar, issiqlik va suv isitish qozonlari, mobil va statsionar telefon apparatlari, tayyor dori vositalari va boshqa turdagi mahsulotlar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi.

2013-yilda maxsus zonadagi korxonalar tomonidan qiymati 100 milliard soʻmdan ziyod mahsulot ishlab chiqarildi va bu boradagi oʻsish surʼati 2012-yilga nisbatan 25,8 foizni tashkil etdi. «Angren» maxsus industrial zonasi hududida qisqa muddatda umumiy qiymati qariyb 44 million dollar boʻlgan 5 ta loyiha asosida energiyani tejaydigan diodli yorugʻlik lampalar, turli kattalikdagi mis quvurlar, koʻmir briketlari kabi yuksak texnologiyalar asosidagi mahsulotlar ishlab chiqarish yoʻlga qoʻyildi. SHuningdek, shakar ishlab chiqarish boʻyicha yangi zavod va boshqa korxonalar tashkil etildi.

Ayni shu yoʻnalishda toʻplangan tajribani hisobga olib, 2013 yilning mart oyida Jizzax viloyatida «Jizzax» maxsus industrial zonasi tashkil etildi. Sirdaryo viloyatida bu zonaning filiali faoliyat koʻrsata boshladi. Bugungi kunda «Jizzax» maxsus industrial zonasi hududida transport, ishlab chiqarish va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini jadal rivojlantirish boʻyicha faol ishlar olib borilmoqda. 2013 yilning oʻzida mazkur zonada Xitoy kompaniyalari ishtirokida 100 ming dona mobil telefon ishlab chiqarish, shuningdek, chorva mahsulotlarini qayta ishlash va ozuqa tayyorlash boʻyicha umumiy qiymati qariyb 6 million dollar boʻlgan dastlabki 3 ta loyiha amalga oshirildi.

Investorlarga keng soliq imtiyozlari va preferensiyalar berilgan «Angren» maxsus industrial zonasi, «Navoiy» erkin industrial-iqtisodiy zonasi, «Jizzax» maxsus industrial zonasining tashkil etilgani yuqori texnologiyalarga asoslangan korxonalarni rivojlantirish imkonini kengaytirdi. Ushbu zonalar uchun zarur tashqi muhandislik va transport infratuzilmasi toʻliq respublikamiz mablagʻlari hisobidan barpo etilgan.

Prezidentimiz **SH.Mirziyoev** mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga moʻljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yoʻnalishlariga bagʻishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisida “Navoiy” erkin iqtisodiy zonasida oʻtgan 8 yil mobaynida atiga 24 ta loyiha amalga oshirilib, ularda toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy investitsiyalar ulushi juda pastligi va atigi 900 nafar odam ishga joylashtirilganini, prinsipial jihatdan yangi asoslarda “Urgut”, “Gʻijdivon”, “Qoʻqon” va “Hazorasp” erkin iqtisodiy zonalarini tashkil qilinishi, oʻtgan yillardagi xatolarni yana takrorlashga endi yoʻl qoʻyib boʻlmasligini alohida qayd etgan. Jumladan, 2019 yil Prezidentning “Andijon-farm” erkin iqtisodiy zonasini tashkil etish boʻyicha ham farmoni chiqdi.

Haqiqatdan ham, yuqorida aytib oʻtganimizdek, markazlashuv mujassamlashuvning bir koʻrinishidir. Bu erda ishlab chiqarish korxonalarini yoki boshqa tashkilotlar va sohalarni asosan birgina shaharda joylashuvi tushuniladi. Ayni paytda mamlakat yoki xoʻjalik boshqaruvining bunday tizimi yakka hokimlik-monopolizatsiyaga olib kelishi turgan gap, bu esa maqsadga nomuvofiqdir.

Yuqoridagi maʼnoda mujassamlashuv tushunchasi hamma vaqt markaz tushunchasini ifodalaydi. SHubxasiz, bu markaz balandroq turishi, koʻzga yaqqol va darhol tashlanishi lozim. Ammo «markaz» deganda shaharlarni umuman sanoat yoki madaniyat markazi sifatida qarash ham toʻgʻri boʻlmaydi. Qolaversa, hamma shaharlar ham sanoat, madaniyat markazidir. Shuning uchun shahar aynan qaysi sanoat tarmogʻi markazi ekanligini aniqlash maʼqulroq hisoblanadi.

Ixtisoslashuv ham ishlab chiqarishni tashkil etishning muhim shakli bo'lib, u mehnat taqsimoti va iqtisodiy rayonlarni tarkib topishi bilan chambarchas bog'liq.

Uning 3 bosqichi va 3 turi mavjud. Ixtisoslashuvning 3 bosqichi deganda korxonalar, shahar yoki rayon miqyosidagi ixtisoslashuv tushuniladi. Boshqacha qilib aytganda, ularning har biriga hududiy yoki ijtimoiy mehnat taqsimoti natijasida ma'lum bir mahsulotni ishlab chiqarilishi biriktiriladi. O'z navbatida, ixtisoslashuv shu korxonalar (u jamoa xo'jaligi bo'lishi ham mumkin), shahar va rayonlarning «qiyofasini», ularning mehnat taqsimotida tutgan o'rnini belgilab beradi.

Ixtisoslashuvning 3-turi bu qism (detal), texnologik yoki yarim mahsulot (polufabrikat) va predmet (tayyor mahsulot ishlab chiqarish) ixtisoslashuvidir. Ixtisoslashuvning bunday ko'rinishlari bir-biri bilan uzviy bog'liq va ular turli hududiy bosqichda o'zgacha xususiyatga ega bo'ladi.

Ixtisoslashuv oqibatida xalq xo'jaligining tarmoqlari vujudga keladi, iqtisodiy rayonlar, shaharlarning funksional turlari shakllanadi. Shu bilan birga u tashqi transport iqtisodiy aloqalarini taqozo etadi, chunki ishlab chiqarilgan va mahalliy iste'moldan ortib qolgan mahsulot chetga chiqariladi, mazkur rayonda etishmaydigan mahsulot esa boshqa joydan keltiriladi.

Shunday tartibda mulohaza yuritib, O'zbekistondagi ixtisoslashgan tarmoqlarini aniqlash mumkin. Masalan, respublikamiz paxta tolasi, pilla, tog'-kon sanoati, qishloq xo'jaligi mashinasozligi va boshqa sohalarga ixtisoslashgan. Uni ipyoki ipak gazlamaga, neft sanoatiga ixtisoslashgan deyish bir oz mushkulroq, chunki bu mahsulotlar O'zbekistonda hozircha etarlicha ishlab chiqarilmaydi va ular mahalliy talabni to'la qondira olmaydi.

Ixtisoslashuv albatta, faqat moddiy ishlab chiqarishga tegishli emas. U barcha ijtimoiy jabhalarga ham molik xususiyatdir.

Ixtisoslashuvning ham mujassamlashuv kabi o'zining chegarasi bo'lishi lozim, o'ta tor ixtisoslashuv bir tomonlikka (ijtimoiy hayotda tor fikrlashga), yo'l xarajatlarining ko'payishiga olib keladi. Ulkan korxonalarni qurish qancha zararli bo'lsa, haddan tashqari tor ixtisoslashuv, yakkahokimlik ham shuncha xatarlidir. Afsuski, yaqin o'tmishda mamlakatimiz qudrati, uning rivojlanganlik darajasi shu «yirik», «eng katta», «yagona» kabi tushunchalar bilan ifodalandi, «birinchi» bo'lish esa ko'p hollarda qolgan barcha sohalarda qoloqlikni anglatar edi. Ammo bu mulohazalardan noto'g'ri xulosa chiqarish ham kerak emas, chunki ixtisoslashuvsiz shahar, tuman, viloyat, iqtisodiy rayon, respublikalarni, qolaversa jamiyat va kishilarning o'zini ham rivojlanishini tasavvur qilish qiyin. Shuning uchun ixtisoslashgan tarmoq bilan birgalikda boshqa yordamchi yoki ikkalamchi sohalarda ham hech bo'lmaganda mahalliy ehtiyoj doirasida rivojlangan bo'lishi lozim. Demak, ixtisoslashuv kompleks, har tomonlama rivojlanish bilan uyg'unlashuvi kerak.

Kooperatsiya pirovard natijada muayyan bir mahsulot yaratish uchun turli korxonalarining hamkorligidir. Bu korxonalar faqat bir yoki ikki tarmoqqa tegishli bo'lmasligi mumkin. SHu bilan birga kooperatsiyada hududiy birlik, barcha ixtisoslashgan korxonalarining bir joyda o'rinishuvi uncha sezilmaydi va aksincha, ularning **tarqoq** holda joylashuvi kuzatiladi.

Kooperatsiya qatnashuvchi korxonalar soni vujudga kelayotgan mahsulotning murakkabligiga bog'liq. Chunonchi, mashinamoslikda, aniqrog'i, engil va yuk

mashinalarini ishlab chiqarish uchun juda ko'p ehtiyoj qismlar, detallar kerak. Shu bois bunday mashinalarning yaratilishida yuzlab ixtisoslashgan korxonalarining ulushi bor.

Jumladan, **kombinatsiya**, kombinatlash kooperatsiyaga o'xshab korxonalar birlashmasidan iborat. Ammo bu erda tarqoq holda joylashgan birlik emas, balki ularning hududiy umumiyligi tushuniladi. Shu sababli kombinatsiyada, kooperatsiyadan farqli o'laroq, ko'proq **hududiylik** namoyon bo'ladi.

Bu ikkilik, yuzaki qaraganda bir-biriga o'xshash tushuncha o'rtasida, boshqa farqlar ham bor. Kooperatsiyada natija, maqsad, pirovard **mahsulot** bir bo'lsa, kombinatsiyada aksincha, ya'ni **xom ashyo** bo'lib, undan olinadigan mahsulot turlichadir.

Demak, kombinatlashuv ma'lum bir turdagi xom ashyoni chuqur texnologik qayta ishlash, uning chiqindilaridan to'la foydalangan holda barcha mahsulotlar ishlab chiqarishni anglatadi. Xuddi shu ma'noda kombinatsiya «to'ntarilgan» kooperatsiyadir.

Sanoatda kombinatlar bir necha texnologik jihatdan bog'liq bo'lgan yoki sexlardan tashkil topgan bo'ladi. Masalan, qora metallurgiya kombinatlari, aniqrog'i to'la siklli kombinatlar cho'yan, po'lat va prokat ishlab chiqaruvchi zavodlar birlashmasidir. Agar ularning bittasi bo'lmasa, u holda kombinat to'liq siklga ega emas.

Shunday qilib, kombinatsiya sanoat tarmoqlarining ko'pchiligiga xosdir. Faqat mashinasozlikda «kombinat» so'zini uchratmaymiz, ammo mohiyatan bu erda ham u mavjud, zotan metallardan asosiy mahsulot bilan bir qatorda keng iste'mol mollari ham ishlab chiqariladi. Masalan, Toshkentdagi Chkalov nomli aviatsiya birlashmasi samolyotdan tashqari avtomobil uchun ba'zi bir ehtiyot qismlar, bolalar aravachasi va shunga o'xshash turli xil xalq iste'mol mollarini ham ishlab chiqaradi. Mujassamlashuv yoki ixtisoslashuv ayni paytda shu sohaning rivojlanganligidan dalolat beradi. Ammo rivojlanganlik mujassamlashuvda korxonalar yoki tashkilotning kattaligi, ko'lami bilan o'lchansa, ixtisoslashuvda esa o'z ifodasini yagonaligi, noyobligi va betakrorligida topadi.

Mustaqillikni mustahkamlash va bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tish sharoitida ishlab chiqarishni tashkil etishining barcha shakllaridan to'g'ri va oqilona foydalanish zarur. Masalan, har qanday mustaqil davlatning iqtisodiy qudratini faqat kichik yoki tor darajada ixtisoslashgan korxonalar bo'yicha parchalab yuborish maqsadga muvofiq emas. Shu bois, mamlakat uchun katta, o'rta va kichik, turli darajada ixtisoslashgan korxonalarining turg'un uyushmasi, majmuasi kerak.

Hozirgi sharoitda mamlakat iqtisodiyotini ham «pastdan» ham «yuqoridan» ko'rish lozim. Binobarin, xorijiy davlatlar sarmoyalari orqali yoki ular bilan hamkorlikda barpo etilayotgan sanoat korxonalarini uchun ularga zarur bo'lgan texnologik qismlar, detallar va dastgohlarni o'zimizda tayyorlash imkoniyatlarini vujudga keltirish zamon talabidir. SHu bilan birga mavjud imkoniyat va resurslaridan to'la foydalangan holda mamlakatimiz hududida ko'proq tayyor mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalarini rivojlantirishga ahamiyat berish lozim.

Bugungi kunda, iqtisodiyotimiz oldida turgan asosiy vazifalardan biri sanoat ishlab chiqarishini jahon iqtisodiyotida o'z o'rniga ega bo'lgan raqobatbardosh

korxonalar tashkil qilish maqsadidagi tuzilmaviy qayta qurishdan iborat. Buning uchun integratsiya hamda turli tashkiliy-huquqiy shakldagi korxonalarni vaqtinchalik yoki doimiy ravishda kooperatsiya yoki konsentratsiya asosida birlashtirish amalga oshiriladi.

Kooperatsiya jarayonida konsern, konsorsium, xo‘jalik assotsiatsiyasi kabi tashkiliy shakllar vaqtinchalik yoki doimiy ravishda tuzilishi mumkin. Ushbu tuzilmaviy birliklarining mohiyatini qisqacha ko‘rib chiqamiz.

Konsern-umumiy manfaatlariga ega hamda shartnomalar, kapital va qo‘shma faoliyatda ishtirok etish bilan bog‘liq bo‘lgan korxonalarining yirik birlashuvini aks ettiradi.

Konsorsium-kompaniya va banklarning vaqtinchalik birlashuvi natijasida, yirik kapital talab qiluvchi loyihalarni amalga oshirish yoki mablag‘ni birgalikda joylashtirish maqsadlari uchun umumiy kelishuvlar asosida yuzaga keladi. Konsorsium buyurtmachilar oldidagi majburiyatlar uchun javobgar hisoblanadi.

Xo‘jalik assotsiatsiyasi-jismoniy yoki huquqiy shaxslarning o‘zaro hamkorlik yuritish maqsadida ko‘ngilli ravishda birlashuvini anglatadi va unda birlashuvga kiruvchi sub‘ektlar o‘z mustaqilligini saqlab qoladilar.

Korporatsiyalar-umumiy maqsadlarga erishish, hamkorlikda faoliyat yuritish maqsadida birlashib, mustaqil huquqiy sub‘ekt-huquqiy shaxsni tashkil qiluvchi shaxslar yig‘indisini tavsiflaydi. Ko‘pincha ular aksiyadorlik (hissadorlik) jamiyatlari shaklida tashkil qilinadi.

Korxonalarining konsentratsiya asosida birlashuvi kartel, sindikat, xolding va moliya-sanoat guruhlarini ko‘rinishida amalga oshiriladi.

Ishlab chiqarish sohasidagi **kartellar**-ishlab chiqarish masalalari, narxlar, tovarlarni sotish, ishchi kuchini yollash va shu kabi masalalar bo‘yicha kelishuvga asoslanib faoliyat yuritadi. Integratsining bu shaklida korxonalar mustaqillikni saqlab qolgan holda kooperatsiya asosida birlashadilar.

Sindikat-tijorat faoliyatini (ta‘minot, sotish, narxning paydo bo‘lishi) hamkorlikda tashkil qilishga asoslangan birlashmadir. Sindikat tarkibiga kiruvchi korxonalar huquqiy hamda xo‘jalik yuritish mustaqilliklarini saqlab qoladilar.

Trestlar-yuqori darajada markazlashganligi bilan ajralib turadi. Uning tarkibiga kiruvchi korxonalar ishlab chiqarish, tijorat va huquqiy mustaqilliklarini yo‘qotib, yagona reja asosida faoliyat yuritadi.

Xoldinglar-ishtirokchilarning moliyaviy imkoniyatlarini birlashtirish va muvofiqlashtirish hamda ishlab chiqarish quvvatlari bilan vaizifalarni tezkor ravishda amalga oshirish imkonini beruvchi boshqaruvning samarali shaklini ifodalaydi.

Integratsiya jarayonlarini amalga oshiruvchi korxonalar quyidagi maqsadlarni ko‘zlaydi:

- resurslardan yanada samaraliroq foydalanishga erishish;
- kooperatsiya asosidagi aloqalarini yangilash va mustahkamlash;
- mamlakatdagi korxonalarining tashqi bozorga chiqishi;
- ishlab chiqarishga investitsiyalarning yangi shakllarini jalb etish;
- ichki va tashqi bozordagi raqobatda muvaffaqiyat qozonish maqsadida narx va sotish bo‘yicha yagona siyosat yuritish.

Respublikamizda ishlab chiqarishni tashkil etish masalasi doimo davlat siyosati markazida bo'lmoqda. 2019-yilda mamlakatimizni rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Parlamentga Murojaatnomasida quyidagilarga alohida to'xtalib o'tilgan. 2018-yilga "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili" da, Davlat dasturi doirasida 21 trillion so'm va 1 milliard dollarga teng 76 mingta loyiha amalga oshirilishi belgilangan va oshirildi.

2019 yilda iqtisodiyot sohasida keng qamrovli iqtisodiy islohotlar negizida quyidagi maqsadlar mujassam ekani qayd etilgan:

- ochiq iqtisodiyot, sog'lom raqobat, ishbilarmonlik va investitsiya muhitini tubdan yaxshilash uchun zarur sharoitlarni yaratish;
- iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiyl sektorini jadal rivojlantirish orqali yangi ish o'rinlarini ko'paytirish;
- iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, mehnat unumdorligini oshirish orqali yuqori iqtisodiy o'sishni ta'minlash;
- "yashirin" iqtisodiyotga qarshi kurashish, uning hajmini keskin qisqartirish;
- valyutani erkinlashtirish siyosatini izchil davom ettirish, barqaror monetar siyosatni amalga oshirish;
- iqtisodiyotni rivojlantirishga doir strategik vazifalarni ro'yobga chiqarishga qodir malakali kadrlarni tayyorlash.

2019-yilda barcha manbalar hisobidan qariyb 138 trillion so'mlik yoki 2018-yilga nisbatan 16 foiz ko'p investitsiyalarni o'zlashtirish mo'ljallangan. Bu borada to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar miqdori 2018 yilga nisbatan qariyb 1,5 barobar oshirilib, 4,2 milliard dollarga etkazilishi, natijada 142 ta zamonaviy korxonalar ishga tushirilishi belgilangan. Xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish uchun mamlakatimizning investitsiya salohiyatini to'la namoyon etish choralarini ko'rish asosida, sarmoya kiritishga intiladigan investorlar uchun hududlar va tarmoqlar bo'yicha investitsiya loyihalarini puxta shakllantirish belgilangan.

Bu borada erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarida biznes subektlarini joylashtirish, ularga imtiyoz va preferensiyalar berishni tashkiliy va huquqiy jihatdan tartibga solish lozim. Birinchi navbatda, eksportga mahsulot chiqarayotgan, innovatsion va yuqori texnologik ishlab chiqarishni yo'lga qo'ygan tadbirkorlarga va chet ellik investorlarga shunday imkoniyat yaratish kerak.

Yoqilg'i-energetika, neft-gaz, kimyo, transport sohalarida davlat ishtirokini kamaytirish lozim. Iqtisodiyotni jahon bozoriga integratsiya qilish va eksportni qo'llab-quvvatlash asosida, 2019 yil eksport hajmini 30 foizga oshirib, 18 milliard dollarga etkazish belgilangan.

Shuningdek, transport-logistika tizimini takomillashtirish ham eng dolzarb masaladir. Chunki dengizga chiqish imkoniyatimiz cheklangani uchun mahsulotni eksport qilishda ko'plab qiyinchiliklar paydo bo'lmoqda. Shu bois, "Uzbekistan Erveys" va "O'zbekiston temir yo'llari" kompaniyalari tovarlarimizni eksport qilish bo'yicha zamonaviy logistika yo'nalishlarini yaratishmoqda. Eksport yuklarini qo'shni davlatlardan temir yo'l orqali imtiyozli narxlarda o'tkazish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda, muzokaralar olib borishmoqda.

Iqtisodiyotdagi tizimli o'zgarishlar natijasida yalpi ichki mahsulot tarkibida sanoatning ulushi 2019 yilda taxminan 35-37 (2018 yil 32,4 foiz) foizga ortishi belgilangan. Respublikaning 27 ta tumanida sanoatning ulushi viloyat ko'rsatkichining 1 foiziga ham etmaydi. Shu sababli, har bir tuman va shahar sanoatini rivojlantirish bo'yicha o'rta va uzoq muddatli dasturlar ishlab chiqilmoqda.

Qishloq xo'jaligi sohasini boshqarish tizimini isloh qilish, er va suv resurslaridan oqilona foydalanish borasidagi ilg'or texnologiyalarni joriy etish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash eng muhim vazifadir. Keyingi yilda klaster usulida paxta etishtirishni kamida 52 foizga etkazish uchun 48 ta paxta-to'qimachilik klasterini tashkil etish to'g'risida qaror qabul qilingan.

Shu bilan birga, g'alla va meva-sabzavot klasterlari faoliyatini har tomonlama rivojlantirish lozim. Bu soha biz uchun nisbatan yangi ekanini inobatga olib, uni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, jumladan, kredit tizimini soddalashtirish, xarajatlarni subsidiyalash, er ajratish bilan bog'liq tartiblarni qayta ko'rib chiqish talab etiladi. Urug'chilikda asl navlarni yaratish maqsadida, tajriba-seleksiya ishlarini tubdan jonlantirish lozim. Buning uchun urug'chilik va seleksiya bilan shug'ullanadigan institutlarning moddiy-texnik bazasini yaxshilash, davlat-xususiy sheriklik asosida urug'chilik klasterlarini tashkil qilish talab etiladi.

Qishloq xo'jaligi ekinlari va chorvachilik bo'yicha yangi tarmoqlarni rivojlantirishimiz zarur. Bugungi kunda fermer xo'jaliklarining yillik chorva ozuqasiga bo'lgan ehtiyojining faqat 35 foizi mahalliy imkoniyatlar hisobidan qoplanmoqda. Shu sababli yangi erlarni o'zlashtirish orqali ekin maydonlarini kengaytirish evaziga chorvaning ozuqa bazasini mustahkamlash, shuningdek, baliqchilik, parrandachilikni rivojlantirish hisobidan oziq-ovqat mahsulotlari hajmini keskin ko'paytirishimiz kerak. Jumladan, qishloq xo'jaligida suvni tejaydigan sug'orish texnologiyalarini keng qo'llash lozim. Erdan samarali foydalanib, mo'l hosil olayotgan ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklariga o'z faoliyatini kengaytirishi uchun qo'shimcha er maydonlarini ajratish lozim. Agrar sohada eng katta muammo-fermerlarning qishloq xo'jaligi sohasida etarli bilimga ega emasligidir.

O'zbekistonda ishlab chiqarishni tashkil etishning o'ziga xos mexanizmini ishlab chiqishda, ekologik xavfsizlik, suv va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga kuchli e'tibor berish lozim. Markaziy Osiyo davlatlari ekspertlari bilan birgalikda Markaziy Osiyoda suv resurslaridan oqilona foydalanish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish lozim. Hozirgi vaqtda Orol fojiasi tufayli 5,5 million gektardan ortiq maydonda Orolqum sahrosi paydo bo'ldi. Har yili 100 million tonna qum va tuz havoga ko'tarilmoqda.

Bu esa Orol halokati global muammo ekanini yana bir bor isbotlamoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Orolbo'yi mintaqasi uchun Inson xavfsizligi bo'yicha ko'p tomonlama sheriklik asosida "Trast fondi" ning tuzilishi, o'zbek diplomatiyasining katta yutug'i bo'ldi. Orol dengizining suvsiz qolgan hududida yashil o'rmonlar barpo etishga alohida e'tibor berilmoqda. Agar mustaqillik yillarida O'zbekiston bo'yicha 1 million 220 ming gektarga yaqin o'rmonzor yaratilgan bo'lsa, shundan 400 ming gektardan ortig'i aynan Orolbo'yi hududida barpo etilgan. Orol dengizining suvsiz hududida 2019 yilda yana 500 ming gektar o'rmonzor barpo etildi.

1.4. Ishlab chiqarishni joylashtirishga ta'sir etuvchi omillar

Jamiyatni inqilobiy qurish, tub iqtisodiy islohat ishlab chiqarishni tashkil qilish, turli shakllarini uyg'unlashtirish, kooperativ harakatini kuchaytirishning yangi shakllarini izlab topishni taqozo etadi. Boshqariladigan bozor iqtisodiyotiga o'tish, iqtisodiyotni davlat tasarrufidan xoli qilish, ishbilarmonlikni rivojlantirish va bozor munosabatlari rivojiga ko'maklashadigan boshqa tadbirlar iqtisodiyot samaradorligini oshirish maqsadida amalga oshiriladi. Amalga oshirilishi xalq xo'jaligi iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligini yuksaltiradigan eng muhim vazifalardan biri sifatida hozirgi bosqichda boshqarishni mahalliyashtirish, hududlar boshqaruv organlarining umumdavlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatini o'tkazishda birga harakat qilishini yo'lga qo'yish, shuningdek muhim xalq xo'jalik dasturlarida birga ishtirok etish tadbirlarini tizimini alohida ta'kidlash kerak.

Iqtisodiyot samaradorligini oshirishning eng muhim vazifalarini hal etish ishlab chiqaruvchi kuchlarni joylashtirish, ijtimoiy vazifalar echimini topish, boshqariladigan bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida esa aholini ijtimoiy himoya qilishning zarur shart-sharoitlarini yaratish va xalq turmushi darajasini oshirish muammolari bilan bog'liqdir.

Mehnat taqsimotining chuqurlashishi va kengayib borishi ishlab chiqaruvchi kuchlar taraqqiyoti bilan o'zaro bog'langan hamda shartlangan holda kechuvchi ob'ektiv jarayon bo'lib, ko'p darajada uning tabiiy sharoitlari bilan-turli xil tabiiy boyliklar mavjudligi bilan belgilandi.

Ana shu tabiiy boyliklarning makoniy tarqoqligi hududiy mehnat taqsimotining eng asosiy belgilovchi omillaridan biri tarzida namoyon bo'ladi. Ishlab chiqaruvchining (ishlab chiqarishning) rivojlanishi ishlab chiqarish unsurlarini, mehnat qurollarini, mehnat ashyolarini va jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchi bo'lgan aholini makoniy joylashtirish bilan birga kechadi.

Ishlab chiqaruvchi kuchlarni rivojlantirish va joylashtirish muayyan iqtisodiy sharoitlar hamda avvalo ishlab chiqarish usuliga bog'liq turli xil qonunlar bilan boshqariladigan yagona jarayon tarzida namoyon bo'ladi.

Ishlab chiqaruvchi kuchlar joylashuvi qonuniyatlari, o'z navbatida, mazkur qonuniyatlarning aniq rejali amaliyotda ro'yobga chiqarilishidan iborat joylashtirish prinsiplarining (tamoyillarining) nazariy asosi xizmatini o'taydilar.

Bizga ma'lumki, **ishlab chiqarish**-insoniyat jamiyatining hayot kechirishi va rivojlanishi uchun zarur moddiy ne'matlarni yaratish jarayoni. **Ishlab chiqarishni joylashtirish** esa-sanoat, qishloq xo'jaligi va transportning dunyo bo'ylab turli mamlakatlar va rayonlarda tarqalishidir. Tabiiy boyliklardan foydalanish, mehnat unumdorligi, mamlakatlar va rayonlar o'rtasidagi xo'jalik aloqalari va aholining turmush sharoiti ishlab chiqarishni joylashtirish bilan bog'liqdir.

Hozirgi sharoitda ishlab chiqaruvchi kuchlarni joylashtirish quyidagi prinsiplar (tamoyillar) bilan belgilanadi:

-Ishlab chiqarishni barcha respublika va iqtisodiy rayonlar ishlab chiqarish apparati, tabiiy hamda mehnat rezervlaridan eng samarali foydalanish vazifalariga muvofiq ravishda rejali va kompleks joylashtirish;

-Barcha respublika va xalqlarning tengligi hamda o'zaro yordami asosida iqtisodiy rayonlar o'rtasida ijtimoiy mehnat taqsimotini rivojlantirish;

-Ishlab chiqarish va xom ashyo hamda mahsulotni tashishni oqionalashtirishning barcha bosqichlarida ijtimoiy mehnatni tejash maqsadida sanoatning tegishli tarmoqlarini xom ashyo manbalariga yaqinlashtirish;

-Respublika va iqtisodiy rayonlar xo'jaligini sanoat hamda qishloq xo'jaligining ular taraqqiyoti uchun eng qulay tabiiy va iqtisodiy sharoitlar mavjud bo'lgan tarmoqlariga ixtisoslashtirib, kompleks rivojlantirish;

-Barcha respublika va iqtisodiy rayonlash iqtisodiy taraqqiyoti darajalarini baravrlashtirish;

-Iqtisodiy rayonlash va mintaqalar o'rtasida ham ular ichida ham xalq xo'jaligini hamda hududiy-ishlab chiqarish aloqalarini iqtisodiy jihatdan eng oqilona tashkil etish;

-Ishlab chiqaruvchi kuchlarni joylashtirishda mamlakat mudofa qudratini mustahkamlash talablarini hisobga olish;

-Bozor iqtisodiyoti sharoitida shahar bilan qishloq o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni tugatish va muhim tafovutlarni bartaraf etish;

-Bozor iqtisodiyoti davrida qoloq rayonlarni iqtisodiy va madaniy taraqqiyotini tezlashtirish.

Ishlab chiqaruvchi kuchlarni joylashtirishni oqionalashtirish (samarali joylashtirish) muammosining qo'yilishi umumiy qonuniyatlar va prinsiplarni ta'riflash bilan birga joylashtirishni belgilab beruvchi eng muhim omillar hamda shart-sharoitlarni ajratishni ham ko'zda tutadi.

Bizga ma'lumki, **xom ashyo** (xom materiallar)-oldindan mehnat ta'siriga uchragan va yanada qayta ishlashga muhtoj bo'lgan mehnat mahsulotlari (masalan qazib olingan ruda va hokazo).

Xom materiallar-sanoatda hali qayta ishlanmagan mehnat predmeti (ko'mir, neft, ruda, paxta, jun va hokazo)

Eng muhim o'ziga xos omillarga tabiiy sharoitlar, mehnat resurslari, ishlab chiqarishning texnika darajasi va fan-texnika taraqqiyotining sur'atlari, ishlab chiqarishni ijtimoiy tashkil etishning shakllari, energetika va transport sharoitlari, infratuzilma hamda aglomeratsiya kiradi.

EHM (Elektron hisoblash mashinalari) dan foydalanish bilan bog'liq hozirgi mintaqaviy tadqiqotlar omillarning juda keng doirasini tahlil sohasiga kiritish imkonini beradi. Chunonchi, Amerikaning «Jeneral elektrik» kompaniyasi joylashtirish joylarini aniqlashda quyidagi 3 ta guruhga birlashtirilgan 187 ta omil hisobini olib boradi:

Omillarning iqtisodiy guruhi:

1) Kapital (ko'pincha o'zgaruvchan kapital); 2) mehnat (miqdor, sifat, maoshlar, ish haqlari, kasaba uyushmasi birlashmalari, ishchi qonunchiligi, yashashning eng past darajasi); 3) yonilg'i va quvvat (me'yorlash); 4)Er (renta); 5) soliq solish (miqdorlari); 6) bank ishi (foiz hisobli maoshlar, bank operatsiyalari); 7) qurilish (ijara haqi, qurilish chiqimlari); 8) transport (mahalliy va olisga tashishlar, ta'riflar, xizmat ko'rsatish sinfi, mahalliy yuk oboroti); 9) qonunchilik (federal va mahalliy, aksioner jamiyatlari qonunchiligi); 10) bozor (sanoat faolligi koeffitsenti).

Omillarning geografik guruhi:

1) Er (mavjud er maydoni, topografiya, tuproqlar, er osti tuzilishi, zovur, aerosuratga olish); 2) iqlim (mavsumiy tebranishlar, shamollar tezligi va yoʻnalishi, quyosh radiatsiyasi miqdori namlik, yogʻinlar xarakteri-yomgʻir, qor, doʻl, boʻron va h.k.); 3) suv resurslari (miqdor, sifat manbalar); 4) xom ashyo (xarakter, joylashtirish, isteʼmolchiga boʻlgan masofa); 5) yonilgʻi va quvvat (koʻmir, neft, gaz, suv, oʻtin, atom, quvvati); 6) transport (tarmoq xili-temir yoʻl, avtomobil, suv, havo transporti, aeroportlar, quvurlar, mahalliy transport).

Omillarning ijtimoiy guruhi:

1) Aholini soni; 2) uy-joy bilan taʼminlanganlik; 3) tarqalgan mol-mulk; 4) shifokor xizmati; 5) dam olish sharoiti; 6) taʼlim olish sharoiti; 7) Xotin-qizlarning roli; 8) cherkovning roli; 9) davlat matbuoti; 10) mudofa va jinoyatlar solnomasi; 11) yongʻinga qarshi xizmat; 12) ilmiy tadqiqotlar; 13) ilmiy tadqiqotlar sharoiti va reja komissiyasining ishi; 15) ijtimoiy mavqe va madaniyatning boshqa elementlari; 16) ijtimoiy munosabatlar.

1965 yilda «Sanoat taraqqiyoti» degan Amerika jurnalida bosilib chiqqan bir maqolada joylashtirishning 700 ta omili ustida soʻz yuritiladi. 1970 yilda Missuri shtatining maʼmuriyati EHM da joylashtirish vazifalarini hal etishda 25000 ta omil hisobini olib borgan edi, bu endi ortiqcha koʻrinsada, lekin joylashtirish omillarini tavsiflash va hisobga olishga zarur eʼtibor berilganligi bejiz emas.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarishni joylashtirish oʻziga xos xususiyatiga ega. Bu borada tadbirkor albatta foydali, qoʻshimcha daromadni koʻzlaydi, davlat esa ish oʻrinlarini koʻpaytirish, mehnat resurslarini band qilish, ijtimoiy va ekologik muammolarni hal qilish, hududlar rivojlanish darajasidagi farqlarni kamaytirishga intiladi. Demak, bunday vaziyatda har ikki yoʻnalishni muvofiqlashtirgan holda masalani echish talab etiladi.

Ishlab chiqarishni joylashtirish uchun eng avvalo joy, yaʼni er, maydon kerak. Biroq, buning uchun har qanday joy ham toʻgʻri kelavermaydi. Qolaversa, hudud ham har qanday korxonaga yoki ekinlarni «istamaydi» va aksincha, xoʻjalikning barcha tarmoqlari ham toʻgʻri kelgan joyga oʻrnatilmaydi. Agar ishlab chiqarish er, maydoning imkoniyati va sharoitidan qatʼiy nazar joylashtirilsa, u holda geografik nomuvofiqlik vujudga keladi, tabiatning xususiyati inkor etiladi, «soch teskarisiga taraladi». Ayni vaqtda xoʻjalik tarmoqlarini toʻgʻridan toʻgʻri, xohlagan joyda tashkil etilsa, u koʻzda tutilgan iqtisodiy manfaatlarga olib kelmasligi, ekologik muammolarga, ortiqcha transport xarajatlariga sabab boʻlishi aniq. Koʻrinib turibdiki, ishlab chiqarish tarmoqlarini joylashtirishda ham hudud, ham tarmoq xususiyatlari inobatga olinishi zarur.

Tabiatda, goʻyoki er maydonining muayyan joylari aynan qandaydir xoʻjalik tarmogʻini joylashtirish uchun yaratilgandek. Boshqacha qilib aytganda, har bir joyning oʻziga xos va oʻziga mos funksiyasi mavjud. Binobarin, hudud «nafasi va haroratini» chuqur his qila olish, joy xususiyatini atroflicha oʻrganish talab etiladi. Tajribalar dalolat beradiki, choʻl mintaqasini haddan tashqari oʻzlashtirib, sugʻorma dehqonchilikni rivojlantirish koʻp oʻtmay oʻz oʻchini olmoqda-tuproq ikkilamchi shoʻrlanib, katta-katta maydonlar qishloq xoʻjalik oborotidan chiqib ketmoqda. Ayni

chog‘da chorva mollari em-xashaksiz, yaylovsiz qolmoqda. Ehtimol, cho‘llarning bir qismi cho‘llicha qolib, yaylovlar o‘z vazifasini o‘tagani ma’qulmidi?

Ijtimoiy hayotda har kishi o‘z ishini, vazifasini bajarganidek, tabiatda ham har bir joy o‘ziga muvofiq xo‘jalik korxonasini joylashtirishi kerak. Bu o‘rinda, joy yoki hududning sig‘imi to‘g‘risida fikr bildirish lozim. Gap shundaki, har bir joy xo‘jalik va aholini muayyan miqdorda sig‘dira oladi, undan ortig‘i esa tabiiy muvozanatni, ekologik vaziyatni buzadi. Lekin bu sig‘im darajasi, ko‘lami birday bo‘lmaydi va u doim o‘zgarib turadi.

Demak, erning o‘ziga xos qiymati bor va bu qiymat turli sharoitda turlicha. Mazkur masala bilan er kadastri shug‘ullanadi. Bu erda shuni ta’kidlash joizki, hududning iqtisodiy, demografik, ekologik sig‘imlari bir xil emas. Odatda, aholi zichligi, ya’ni 1 km² ga necha kishi to‘g‘ri kelishi hududdan foydalanishning umumiy ko‘rsatkichi bo‘lib xizmat qiladi. SHu bilan birga hudud iqtisodiy salohiyatini ham hisoblash mumkin. Qishloq xo‘jaligida bu masala oson echiladi, ya’ni bir gektar er qancha mahsulot berishi aniq. Ammo xo‘jalikning boshqa tarmoqlarida er «hosildorligi» yoki xizmati kam e’tiborga olinadi. Vaholanki, har bir gektar maydonning qancha yalpi ichki mahsulot yoki milliy daromad yaratishini ham aniqlash e’tiborlidir.

Yuqoridagilardan ma’lum bo‘ladiki, er-tabiiy boylik, resursdir. Lekin ko‘pincha erga biz oddiy sharoit sifatida qarashga odatlanganmiz, bamisoli qutichadek (unga to‘g‘ri kelgan narsani solaveramiz). Aslida esa Yer-Ona Zamin bebaho boylik, u bizning umumiy uyimiz, hayot manbaimiz. SHuning uchun Yer ham haqli ravishda e’zozlashga loyiq. Qolaversa, nafaqat dunyoviy, balki diniy jihatdan ham Er- azizdir.

Ishlab chiqarish tarmoqlarini hududiy tashkil etishga turli omillar ta’sir qiladi. Modomiki, ta’sir etuvchi omillar ko‘p ekan, so‘z ularning ta’sir darajasi to‘g‘risida borishi kerak. SHu nuqtai nazardan muayyan tarmoq yoki korxonaga uchun bir yoki ikki omil hal qiluvchi ahamiyatga ega, qolganlari esa ikkinchi, uchinchi va hokazo darajali hisoblanadi, asosiy maqsad esa ana shu asosiy omilni aniqlashdan iborat bo‘lmog‘i lozim.

Umuman aytganda, har bir korxonaga yoki qishloq xo‘jaligi ekini uchun ma’lum miqdorda xom-ashyo, er, suv, harorat, ishchi kuchi, texnika vositalari, elektro energiyasi, transport va boshqalar kerak. Bu omillarni shartli ravishda ikki katta guruhga bo‘lish **mumkin**: tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy omillar.

Tabiiy omillarga eng avvalo er va uning ustki tuzilishi, qazilma boyliklar, iqlim, suv, harorat, tuproq, o‘simlik va hayvonot dunyosi kiradi. Bu xususda tabiiy geografik bilimlar zarur bo‘ladi. Biroq, tabiiy geografiya uchun tabiat komponentlarining kelib chiqish va rivojlanish qonuniyatlarini bilish talab qilinsa, iqtisodiy geografiya va mintaqaviy iqtisodiyotda ana shu qonuniyatlarga tayangan holda bu komponentlardan xo‘jalik faoliyatida foydalanish yo‘llarini o‘rganish lozim bo‘ladi. SHu jihatdan, tabiiy sharoit va boyliklarga baho berish, tabiiy va iqtisodiy geografiya (mintaqaviy iqtisodiyot) o‘rtasidagi «ko‘prikdir».

Ishlab chiqarishni joylashtirish maqsadida tabiiy komponentlar avval «donalab» tahlil qilinadi va baholanadi. So‘ngra asosiy e’tibor tabiiy boyliklarning hududiy birikmalariga qaratiladi. Bu esa, ob’ektga kompleks, ya’ni atroflicha yondoshuvni taqozo etadi. Yana shuni ta’kidlash kerakki, ma’lum bir tabiiy

komponent qaysi bir xo‘jalik tarmog‘iga sharoit bo‘lib xizmat qilsa, boshqasi uchun u resurs «ya’ni boylikdir». Masalan, yer qishloq xo‘jaligida resurs, boshqa tarmoqlar (sanoat, transportda u asosan sharoit vazifasini o‘taydi. Ob-havo, harorat ham xuddi shunday. Yoki rekreatsiya sohasini olaylik: bu erda quyosh nuri, suv, qumlik, o‘rmonzor sharoit emas, balki resurs hisoblanadi va h.k. SHu bilan birga ilmiy texnika taraqqiyoti natijasida sharoit resursga aylanishi ham mumkin. O‘z-o‘zidan ma’lumki, ishlab chiqarishni joylashtirishda, yoki aniqrog‘i –joy tanlashda avvalambor resurs hisobga olinadi.

Hudud bo‘yicha mutaxassis unga atroflicha baho bera olishi, qaysi soha qulay, qaysinisiga esa noqulayligini aniqlashi kerak. Unutmasligimiz lozim: tabiatda umuman yomon joy yo‘q, balki nodon mutaxassis bor. Har bir joy nima uchundir qulay, maqsad–shu qulaylikni aniqlash va undan o‘z yo‘lida to‘g‘ri foydalanishni ta’minlashdir.

Masalan, yer usti tuzilishining (relyef) tekislik yoki tog‘likdan iboratligi xo‘jalikning bir tarmog‘i uchun qulaylik tug‘dirsa, ikkinchisida qiyinchilikni vujudga keltiradi. Chunonchi, agar hudud tekislik bo‘lsa, u holda bu yer qishloq xo‘jaligi, sanoat, transport va aholini joylashtirish juda qulay. Lekin, ayni paytda bunday sharoitda daryo va daryochalar mo‘l (ko‘priklarni ko‘plab qurish kerak), bu daryolarda yirik elektr stansiyalarini qurish sharoiti ham yo‘q. Tog‘lik bo‘lsa, bu yerda dam olish, tog‘-kon sanoati, suv energetikasi, o‘rmon xo‘jaligini rivojlantirish mumkin. Ammo bunday sharoit sug‘orma dehqonchilik, qayta ishlash sanoati, aholi manzilgohlarini joylashtirish uchun qulay emas. Shunga o‘xshash misollarni juda ko‘plab keltirish mumkin.

Ijtimoiy-iqtisodiy omillar aholi va mehnat resurslari, transport, ilmiy-texnika taraqqiyoti, ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasi kabilardan tashkil topadi. Aholi ayni vaqtning o‘zida ham yaratuvchi, ham iste’molchi bo‘lganligi sababli uning barcha demografik ko‘rsatkichlari–soni, o‘sishi, zichligi, yosh va jinsiy tarkibi hisobga olinadi. Jumladan, aholi soni iste’mol mollar ishlab chiqarishda, ko‘p yoki kam mehnat talab qiladigan korxonalarini qurishda ahamiyatlidir. Uning yosh va jinsiy tarkibi turli xo‘jalik tarmoqlarini joylashtirishga (sog‘liqni saqlash, maorif, aholiga xizmat ko‘rsatish, og‘ir yoki engil sanoat va h.k) o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Hozirgi kunda infratuzilma tizimining mavjudligi ishlab chiqarishni hududiy tashkil qilishda katta rol o‘ynaydi. Yo‘l, yer osti va er usti qurilmalari, elektr uzatuvchi shaxobchalar, turar joy, maishiy xizmat ko‘rsatish ob’ektlari muhayyo bo‘lgan joylar yangi ishlab chiqarishni, qo‘shma korxonalarini o‘ziga jalb qiladi. Xorijda bunday joylarni sanoat parki deb atashadi.

Infratuzilma tizimida xususan transportning o‘rni yuqori. Chunki, transportsiz ishlab chiqarish jarayonining o‘zi ham bo‘lmaydi, transport xarajati esa mahsulot tannarxiga kiradi. SHuningdek, ijtimoiy infratuzilma tarmoqlari ham ishlab chiqarishni joylashtirishda muhimdir.

Bozor iqtisodiyoti davrida ayniqsa, bozor infratuzilmasining ahamiyati katta. Bozor iqtisodiyotining o‘zi esa ishlab chiqarishni joylashtirishda hal qiluvchi omildir. Sababi-bozortalab sohalargina rivojlanadi va bozori chaqqon mahsulotlarni ishlab chiqargan tadbirkorlar engadi.

Bozor (talab va taklif) raqobat, u yoki bu mahsulot ishlab chiqaradigan makonni, bozor muhitini belgilaydi. Binobarin, talabning nafaqat miqdor jihatdan o'sib borishini, balki uning xususiylashuvini, sifatini e'tiborga olish, ixcham, harakatchan, boshqarishi oson bo'lgan kichik va o'rta korxonalarni joylashtirish bozor iqtisodiyoti uchun ayniqsa xosdir.

Bu davrda qulay investitsiya makonini yaratish ham katta mazmun kasb etadi. Infratuzilma va boshqa sharoitlarning mavjudligi, huquqiy va tashkiliy masalalarning hal etilganligi, kafolatlanganligi xorijiy sarmoyadorlarning kirib kelishiga qulaylik yaratadi. Ko'pincha investorlar huquqiy jihatdan kafolatlangan, ijtimoiy-siyosiy barqarorlik, arzon ishchi kuchi bo'lgan hududlarni qidiradilar. Qurilgan qo'shma korxonalar esa mintaqa va milliy iqtisodiyotni rivojlantirishga, uning tarmoqlar va hududiy tarkibiga sezilarli o'zgartirishlar kiritadi, turtki bo'lib xizmat qiladi.

Ishlab chiqarish tarmoqlarini hududiy tashkil qilishda joyning iqtisodiy geografik o'rniga ham ahamiyat bermoq zarur. Joyning qulayligi uning «qo'shnihilik» munosabatlarida o'z ifodasini topadi. Agar tanlangan joy yoki geografik nuqta transport bilan yaxshi bog'langan bo'lsa, xom ashyo iste'mol rayonlarga yaqin, elektr energiya va qurilish materiallari ham uzoq bo'lmasa, bu erda joylashtirilgan korxonalar albatta katta iqtisodiy samara beradi.

Joyning, ayniqsa shaharning iqtisodiy geografik o'rni aksariyat hollarda uning iqtisodiy ixtisoslashuvini belgilab beradi. Masalan, Bekobodda O'zbekiston metallurgiya zavodining joylashtirilganligi, Yangiyo'l yoki Qarshida qurilish materiallari sanoatining rivojlanganlik sababini ularning iqtisodiy geografik o'rni orqali izohlash mumkin. Guliston yoki Termizning nisbatan sust rivojlanganligi ham ma'lum darajada ularning geografik va geosiyosiy o'rinlariga bog'liq.

Umumiy holda olib qaraydigan bo'lsak, ishlab chiqarish tarmoqlarini joylashtirishda barcha shart-sharoitlar, omillar hisobga olinadi. Lekin ma'lum tarmoqni hududiy tashkil etishda barcha omillar emas, balki ulardan faqat ayrimlari yetakchi, hal yetuvchi rol o'ynaydi.

ISHLAB CHIQARISH	→	Xom ashyo
	→	YOqilg'i – energetika
	→	Ishchi kuchi
	→	Iste'mol
	→	Bozor iqtisodiyoti
	→	Ekologiya
	→	Iqtisodiy geografik o'rin
	→	Ilmiy texnika taraqqiyoti
	→	Er – suv
	→	Transport
	→	Infratuzilma
	→	Boshqa omillar

1-chizma. Ishlab chiqarishni joylashtirishga ta'sir etuvchi asosiy omillar

Jumlandan, mashinasozlik tarmog'iga kiruvchi ba'zi bir korxonalarni joylashtirishda xom ashyo (metall) ko'proq ahamiyatga ega bo'lsa, boshqasi uchun malakali ishchi kuchi muhim omil hisoblanadi. Endi yuqorida ko'rsatilgan asosiy omillarga tayanib ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishga ta'sir etuvchi omillarga qisqacha to'xtalib o'tamiz (**1-chizma**).

Xom ashyo omili. Ma'lumki, barcha mahsulot xom ashyosiz yaratilmaydi. Ammo ayrim mahsulotlarni olish uchun xom ashyo boshqalariga qaraganda ko'proq sarflanadi. Shuning uchun bunday mahsulotlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan tarmoqlar va korxonalar mumkin qadar xom ashyo rayonlariga yaqin joylashtiriladi.

Sanoatning ba'zi tarmoqlari, masalan, tog'-kon, o'rmon-yog'ochni qayta ishlash va selyuloza, baliqchilik sanoati tarmoqlarining joylashuvi xom ashyo bo'lmagan rayonlarda rivojlanmaydi.

Bunday sanoat tarmoqlarining joylashuvi bevosita foydali qazilmalar yoki tabiiy boyliklar geografiyasi bilan belgilanadi. Boshqa sanoat tarmoqlarining hududiy tashkil etilishi esa biroz murakkabroq tusga ega. Bu borada bir qator fakt (dalil) va raqamlar keltirish o'rinli (**2-jadval**).

2-jadval. Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishga ta'sir etuvchi omillar

Mahsulotlar va tarmoqlar	Xom ashyo	YOqilg'i energetika	Ishchi kuchi	Suv	Transport	Ekologiya	Iqtisodiy geografik o'rin	Iste'mol
Alyuminiy	+	++						
Misni tozalash		++						
CHO'yan	+	++						
Temir qotishmalari	+	++		+				
Po'lat	+	+						
Kaliy o'g'iti	++					+		
Fosfor o'g'iti	+					+		+
Azot o'g'iti	+					+		++
Sintetik tola		++				+		
Qishloq xo'jalik mashinalari								++
Radio, priborsozlik, aniq mashinasozlik			+				++	
Sellyuloza-qog'oz sanoati	+			+	+			+
Sement	+					+		+
Paxta tolasi	++				+			
To'qimachilik sanoati	+		+		+			
Paxta yog'i	+							
Go'sht	+					+		+
Sut	+							+

Izoh : ++ - hal qiluvchi ta'sir; + - kuchli ta'sir qiladi.

Masalan, 1 t paxta tolasini olish uchun taxminan 3 t xom paxta, 1 t paxta yog‘i uchun 5 t chigit, 1 t pista yog‘i uchun 3 t kungaboqar, 1 t shakar uchun 7 t qand lavlagisi ishlatiladi. Chunonchi, paxta tolasining oq paxtadan chiqishi 32-33 foiz, paxta yog‘ining chigitdan olinishi 19-20, shakarni qand lavlagidan tayyorlash 14-15 foiz va shunga o‘xshash. Demak, bu korxonalar xom ashyo rayonida yoxud unga yaqin maskanda joylashtirilishi shart.

Mineral o‘g‘itlar ichida kaliy o‘g‘itini ishlab chiqarish geografiyasi batamom xom ashyo omili bilan belgilanadi, chunki uni olish uchun ko‘p miqdorda kaliy tuzi sarflanadi.

Masalan, shu boisdan kelajakda Qashqadaryo viloyatining Dehqonobod tumanida mavjud kaliy xom ashyosi hisobiga kaliy o‘g‘iti ishlab chiqaradigan zavod qurilishi rejalashtirilayotgani fikrimizning isbotidir. Xom ashyoga asoslangan sanoat tarmoqlarining geografiyasini o‘rganish eng avvalo mamlakat tabiiy sharoiti va boyliklarini bilishni talab etadi. Xom ashyo omiliga asoslanib ishlab chiqarishning hududiy tashkil etish masalalari tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish, atrof–muhit tozaligini saqlash muammolarini hisobga olish maqsadga muvofiqdir.

Yoqilg‘i omili–issiqlik elektr stansiyalari, qora metallurgiya sanoatining dastlabki–cho‘yan eritish (domna pechida) bosqichini joylashtirishda asosiy rol o‘ynaydi. Ammo uning ta’siri har doim ham etakchi kuchga ega emas. Issiqlik elektrostansiyalari yoki metallurgiya zavodlari iste’mol rayonlarida ham joylashtirilishi mumkin. Bunday hol neft va uning mahsuloti mazut, tabiiy gaz asosida ishlovchi issiqlik elektr stansiyalarini qurishga taa’lluqli (yoqilg‘i quvurlarda keltirilishi iqtisodiy jihatdan ma’qulroq) bo‘ladi.

Yoqilg‘i omillarini ko‘proq metallurgiya korxonalarini joylashtirishda ko‘rish mumkin, masalan, Qozog‘iston davlatidagi Qarag‘anda to‘liq siklli metallurgiya kombinati bevosita ko‘mir havzasi rayonida joylashtirilgan. Rossiyadagi Lipetsk, Tula, Krivoy Rog kombinatlari esa ashyo, ya’ni temir rudasi konlariga yaqin qurilgan, bunda ko‘mir boshqa regionlardan olib keltriladi.

SHuningdek, ko‘mir va temir rudasini bir–biri bilan hududiy almashuvi asosida har ikkala rayonda shakllangan qora metallurgiya markazlari mavjud. Bu borada 30–yillarda amalga oshirilgan Ural–Kuznetsk kombinati (UKK) ni ko‘rsatish o‘rinli. Ushbu dastur hududiy ishlab chiqarish majmuining dastlabki ko‘rinishi bo‘lib, uni hayotga tatbiq etishda ham xom ashyo rayonida-Janubiy Ural temir rudasi konlari asosida (dunyodagi eng yirik Magnitog‘orsk metallurgiya kombinati), ham yoqilg‘i rayoni–Kuznetsk toshko‘mir havzasida, ya’ni Novokuznetskda bunday ulkan korxonalar bunyod etilgan edi.

Elektr quvvati omili. Hozirgi zamon ishlab chiqarishini, hatto transport va qishloq xo‘jaligini ham elektr quvvatisiz tasavvur qilish qiyin. Bu sohaning o‘ziga xos xususiyati shundaki, u yaratgan mahsulotni, ya’ni elektr quvvatini jamg‘arib, omborxonalariga yig‘ib bo‘lmaydi, undan ayni paytning o‘zida foydalanish kerak.

Odatda elektr quvvati omilini ishlab chiqarishning hududiy tashkil etilishida eng avvalo uning arzon turiga urg‘u beriladi. Arzon elektr quvvati suv stansiyalaridan olinadi, chunki suv suvligicha GES dan keyin ham qolaveradi. Respublikamizda ishlab chiqariladigan elektr energiyaning 80 % ziyodi issiqlik elektr stansiyalaridan olinadi. HICHM (Hududiy Ishlab Chiqarish Majmualari) shakllanishida, masalan,

Talimarjon GRES ahamiyati katta. YOqilg'i elektr stansiyalarida esa ko'mir, mazut yoki tabiiy gaz sarflanadi.

Demak, elektr quvvati bir qator sanoat korxonalarini o'z atrofiga omil sifatida "yig'ar" ekan. SHu sababli u yirik rayon va majmua hosil qilish qudratiga ega. Bizning sharoitimizda elektr quvvati yangi erlarni o'zlashtirish uchun ham kerak. Jumladan, Qarshi dashtining asosiy qismi Tolimarjondagi bir qator nasos stansiyalari vositasi bilan sug'oriladi. Elektr quvvati Norak-Tursunzoda (Regar)-G'uzor orqali keladi.

Suv va iqlim sharoiti omili ham ishlab chiqarish tarmoqlarini joylashtirishda katta ahamiyatga ega. Suv manbalari ayniqsa kimyo, yog'och-sellyuloza, metallurgiya zavodlarining faoliyatiga sezilarli ta'sir qiladi. Jumladan, cho'yan erituvchi pechlarni sovitish uchun ham suv kerak.

Suv va iqlim sharoitlari omili boshqa sanoat korxonalarini qurishda ham e'tiborga olinadi. Bu omilning ahamiyati qishloq xo'jaligi, dehqonchilik uchun katta. Chunonchi, Markaziy Osiyo, xususan O'zbekiston Respublikasida an'anaviy dehqonchilik uning issiq va quruq iqlimiy sharoitida faqat sun'iy sug'orish asosida olib boriladi. Paxta, meva, sabzavot, uzum va boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlariga suv hamda issiq iqlim (ma'lum miqdordagi vegetatsiya haroratining miqdori) juda zarur. Shu bilan birga issiq iqlim sharoitida sanoat korxonalarini ochiq usulda qurish, suv va boshqa alkogolsiz ichimliklar, ip gazlama ishlab chiqarishga o'xshash tarmoqlarni ko'proq rivojlantirish talab etiladi.

Ijtimoiy-iqtisodiy omillar ichida eng muhimi aholi va mehnat resurs omilidir. Har qanday ishlab chiqarish jarayoni ishchi kuchisiz sodir bo'lmaydi. Bu o'rinda ikki holni qayd qilish lozim. SHunday korxonalar borki, ularga son jihatdan ko'p ishchi kerak.

Masalan, tikuv fabrikasi, konserva zavodi, paxta etishtirish, uni qayta ishlash va h.k. Ayni bir paytda boshqa bir korxonalariga mehnat resurslarining miqdori ko'p bo'lishi shart emas, «oz bo'lsa ham soz bo'lsin» ma'nosida ularga malakali ishchi kuchi talab qilinadi. Mazkur korxonalar va tarmoqlar (radio yoki priborsozlik, aniq mashinasozlik va shunga o'xshash) malakali ishchi kuchi mavjud bo'lgan shaharlarda, ilmiy texnik markazlarida joylashtiriladi.

O'zbekistonda mahalliy aholi tabiiy ko'payishining yuqoriligi va uning migratsion harakatini faolsizligi mehnat zaxiralarini ko'plab shakllanishiga olib keladi. Shu sababli bizda mehnatga layoqatli aholi soni juda ko'p. Ularning miqdori qishloq joylarda va sust rivojlangan kichik shaharlarda juda yuqori. Binobarin, bunday joylarda ish o'rinlarini kengaytirish, yangi sanoat va boshqa korxonalar, madaniy-maishiy muassasalarni qurish zarur.

Ishlab chiqarishni hududiy joylashtirishda iste'molchi omili katta ahamiyatga ega. Aholi faqat ishchi kuchi emas, balki u eng avvalo iste'molchi hamdir. Bu omilning roli esa hozirgi kunda, xalqning yashash sharoiti va darajasini yaxshilash doirasida keskin oshib borishi bilan bog'liqdir. Ijtimoiy qiyinchiliklarga barham berish alohida kerak bo'lgan oziq-ovqat, kiyim-kechak va uning boshqa ehtiyojlarini qondiruvchi mahsulotlarni etarli miqyosda ishlab chiqarishni taqozo etadi. Shu sababli iste'mol omili oziq-ovqat korxonalarini o'ziga «tortadi», ya'ni bunday zavod yoki fabrikalar bevosita aholi yashovchi maskanlarda joylashtiriladi.

Iste'mol omili faqat xalq ehtiyoji bilan belgilanmaydi. Ishlab chiqarishning o'zining talabi, boshqa xil mahsulotlarning keng miqdorda sarflanishi, ularning transportda keltirishning noqulayligi ham bunday korxonalarni iste'mol rayonlarida qurilishini nazarda tutadi. Masalan, qishloq xo'jalik mashinasozligi o'sha mintaqaning ishlab chiqarish ixtisoslashuviga muvofiq shu yerda rivojlanishi zarur.

Umuman, qaysi rayon nimaga ixtisoslashsa shunga mos mashinasozlik tarmog'i bu yerda yaxshi rivojlangan bo'lishi qonuniy bir holdir. O'zbekistonda paxta teruvchi, Belorussiyada-kartoshka, Ukrainada qand lavlagi, Shimoliy Kavkaz va Volga bo'yida g'alla yig'uvchi, Qirg'izistonda pichan taxlovchi, Gruziyada choy teruvchi mashinalarni ishlab chiqarish bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Xuddi shunday, rayonlarni ma'lum yuqori sanoat tarmoqlariga ixtisoslashuvi o'sha sohalarga tegishli mashina, asbob-uskuna, jihozlar ishlab chiqarilishini talab etadi. Chunonchi, Uralda metallurgiya sanoati uchun, Bokuda-neft, Donbassda-ko'mir, Petrozavodskda-o'rmon, O'zbekistonda to'qimachilik mashinasozligi rivojlangan.

Shuningdek boshqa sanoat va qishloq xo'jaligi tarmoqlarini ham aholi yashab turgan joylarda joylashtirish maqsadga muvofiq, yoki neftni keltirib, undan benzin, kerosin, mazut va shunga o'xshash qator mahsulotlarni olish, kimyo sanoatini rivojlantirish va boshqalar.

Go'sht sanoatini joylashtirish ham o'ziga xos xususiyatga ega. Bu sanoat bevosita chorvachilik rayonlarida rivojlantirilsa, unda iste'molchiga faqat muzlatilgan go'sht keltiriladi. Bunday go'shtdan esa kolbasa, konserva va boshqa go'sht mahsulotlarini ishlab chiqarib bo'lmaydi. Agar go'sht sanoati iste'mol rayonlarida joylashtirilsa-maqsadga muvofiq bo'ladi.

Transport omili. Ishlab chiqarishni joylashtirishda juda muhim, chunki u ishlab chiqarishning bevosita davom ettiruvchi tarmog'i hisoblanadi. Transport shohobchalarisiz xom ashyo ham keltirilmaydi, mahsulot ham iste'molchilarga etkazilmaydi. Eng muhimi, hududiy mehnat taqsimoti rivojlanmaydi.

Shuning uchun transportning ahamiyati barcha boshqa omillar bilan qo'shib, uyg'unlashib ketadi va uni «sof» holda ajratib olish qiyin. Transport omillar bilan ham chambarchas bog'liq bo'lib, iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishga katta ta'sir ko'rsatadi.

Ilmiy-texnika taraqqiyotini chetlab o'tolmaymiz, albatta omilning ta'siri bir qator tarmoqlarni hududiy tashkil etilishida aniq va ravshan ko'rinadi (mashinasozlik, elektroenergetika va kimyo). Shubhasizki, mazkur sanoat tarmoqlariga tegishli ko'pgina korxonalar, ayniqsa mashinasozlik zavodlari yuksak darajada ilmiy-texnika qudratiga ega bo'lgan yirik shaharlarda joylashtiriladi.

Yuqorida ko'rilgan barcha omillarning ahamiyati katta. Ammo ularning barchasi pirovard natijada ekalogik omil bilan «hisoblashlari» kerak. Zotan vujudga kelgan vaziyat buni qat'iylik bilan talab etadi. Hozirgi kunda ayrim sanoat korxonalarining ishlashi shu nuqtai-nazardan to'xtatilganligi bejiz emas.

Ekalogik jihatdan ko'p sanoat tarmoqlari va eng avvalo kimyo, yog'och - sellyuloza, go'sht, vino, konserva, charm zavodlari, issiqlik elektr stansiyalari va shunga o'xshash korxonalar «nomaqbul» hisoblanadi. Binobarin, ular aholi joylashgan markazlardan uzoqroqda bo'lishi «SHo'rtan gaz kimyo», majmuasi,

Muborak gazni qayta ishlash zavodi va boshqa sanoat korxonalari misolida ko‘rish mumkin.

Kimyo sanoati misolida ekologik omilning ishlab chiqarishning hududiy tashkil etilishiga ta‘sirini ko‘rish mumkin, chunki bu sanoat korxonalarini joylashtirilishi chinakam erkin xususiyatga ega. Zero kimyo sanoati o‘simlik, hayvonot, mineral xom ashyosi, suv, havo (azot) asosida ham, boshqa sanoat chiqindisi (qora va rangli metallurgiya) negizida ham rivojlanishi mumkin.

Shunday qilib, kimyo sanoati korxonalarini har qacanda qursa bo‘ladi, ammo bu masalaning bitta nozik tomoni bor-bu ham bo‘lsa ekologik omildir. Bu omil bilan hozirgi kunda hisoblashmasdan iloj yo‘q, zero mamlakatimiz hududida ekologik sog‘lom joyning o‘zi juda sanoqli.

Yuqoridagi omillardan tashqari bozor iqtisodiyoti omilini ham unutmaslik kerak. Hozirgi kunda bozor iqtisodiyoti to‘g‘risida barcha - olimu oddiy xalq, katayu kichik so‘z yuritadi, ba‘zan bu ibora dissertatsiya va boshqa ilmiy ishlar nomiga ham kiritiladi. Lekin bu juda murakkab tushuncha va iqtisodiy munosabatdir. Unga xorijiy mamlakatlar, xususan Yevropa davlatlari boy tajribaga ega, chunki bu munosabat mazkur davlatlarda o‘n va yuz yillar davomida shakllanib kelgan.

Bozor iqtisodiyoti munosabatlariga birdaniga o‘tib bo‘lmaydi, buning uchun barcha shart va sharoit yaratish kerak, ya‘ni uning o‘zini moddiy, maishiy va madaniy infratuzilmasi bo‘lmog‘i lozim. Shuning uchun bu munosabatlarga o‘tish tarixan birmuncha uzoq davrni talab etadi va unga bosqichma-bosqich o‘tish, evolyusion rivojlanish iborasini qo‘llash to‘g‘riroq bo‘ladi.

Sodda qilib olganda, bozor iqtisodiyoti - bu ishlab chiqarish erkinligi va xarid erkinligidir, bu raqobatdir. Demak, ishlab chiqarishni rejali (planli) va proporsional, tekis joylashtirish o‘rniga hududiy tengsizlik, musobaqa, o‘rniga raqobat tushunchalarini qo‘llashga to‘g‘ri keladi. Bunday sharoitda ko‘p ukladli iqtisodiyot, mulkchilikning turli shakllari va sog‘lom raqobat muhitini vujudga keltirish, monopoliyaga qarshi kurash muhim ahamiyat kasb etadi.

Binobarin, bozor iqtisodiyoti omilini ishlab chiqarish tarmoqlarini hududiy tashkil etishga nisbatan tahlil etar ekanmiz, unda bu boradagi ilgari, an‘anaviy fikr yuritishlarimiz tamomila o‘zgarib ketadi.

Chunki bu sharoitda aksariyat narsani, shu jumladan nimaga ixtisoslashuvi va qacanda joylashtirishni pirovard natijada bozor, raqobat, talab va taklif belgilaydi. Davlat esa o‘zining regional (hududiy) va soliq siyosati orqali bu jarayonni boshqarib yoki tartibga solib turadi.

Ishlab chiqarishni hududiy joylashtirishda infratuzilma muhim rol o‘ynaydi. Iqtisodiyotda infratuzilma tushunchasi iqtisodiyotda yaqindagina qo‘llanilayotgan bo‘lishiga qaramay, vaqt o‘tgan sari unga tobora katta e‘tibor berilmoqda.

Infratuzilmani kategoriya sifatida keng talqin qilish u moddiy boyliklar yaratishda bevosita qatnashmasada, lekin unga ishlab chiqarish, ishlab turishni ta‘minlovchi inshootlar, ob‘ektlar, tizimlar va turli xizmatlar kiradi. Infratuzilmaning rivojlanganligi u yoki bu region xo‘jalik yo‘li bilan o‘zlashtirilganligi darajasini aks ettiradi. Infratuzilmalar ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmalarga bo‘linadi.

Ishlab chiqarish infratuzilmasi ishlab chiqarish jarayoniga ko‘proq xizmat ko‘rsatish sohalari bilan bog‘liq bo‘lgan muxandis–texnika inshootlari va ob‘ektlari,

elektr uzatish liniyalari hamda kichik stansiyalar, har xil aloqa turlari, quvurlar va h.k (suv ta'minoti ob'ektlari, turli xil sug'orish inshootlari, ulgurji savdo hamda moddiy - texnika ta'minoti muassasalari, ilmiy xarakterdagi muassasalar va axborot vositalari) kiradi.

Ijtimoiy infratuzilma aholi uchun zarur uy - joy, maishiy va ijtimoiy - madaniy sharoitlarni ta'minlash bilan bog'liq ob'ektlar jamidan iborat bo'lad. Unga uy-joy fondi, turli xil savdo va umumiy ovqatlanish, mahalliy transport, suv ta'minoti hamda kanalizatsiya tizimi, sog'liqni saqlash, ma'orif muassasalari, oliy maktab, ilmiy - tadqiqot ilmgohlari, pochta-telegraf hamda moliya muassasalari, madaniy-tomoshakorxonalar, sport-sog'lomlashtirish inshootlari, jamoat xavfsizligi va boshqa ob'ektlar hamda ijtimoiy-maishiy xarakterdagi muassasalar kiradi.

Ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma tarkibining keltirilgan ro'yxatidan ko'rinib turibdiki, uning vazifalari quyidagi ikki belgi bilan xarakterlanadi: ishlab chiqarish va aholiga har tomonlama xizmat ko'rsatish hamda foydalanishning tarmoqlararo xarakteridan iborat ekanligi.

Foydalanishning tarmoqlararo xarakteri, ayniqsa, muhimdir, chunki u rivojlangan infratuzilmalarni rayon va shaharning ishlab chiqarish ixtisoslashuvidan qat'iy-nazar barpo etish zarurligini ko'rsatadi. Tarmoqlar har qanday jamiyat tomonidan etarli darajada o'zlashtirilgan va obodonlashtirilgan hududda negiz topishi mumkin.

Infratuzilma ob'ektlari va inshootlari moddiy ne'matlar ishlab chiqarish bilan bevosita bog'liq bo'lsada, lekin shunga qaramay ishlab chiqarish bilan aholining barcha xizmat turlariga talabi keskin o'sgan fan-texnika taraqqiyoti sharoitda ular ahamiyatini kamsitib bo'lmaydi.

Ijtimoiy infratuzilma aholiga har tomonlama xizmat ko'rsatish darajasini oshirishgina emas, balki bandlik tuzilmasini yaxshilashga ham yordam beradi. Bu narsa Respublikamizning yangi o'zlashtiriladigan rayonlar uchun ayniqsa muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash mumkinki, ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirishda yuqorida keltirilgan omillar muhim ahamiyatga ega bo'lib, ishlab chiqarishni rivojlantirish va uni to'g'ri joylashtirishda katta o'ringa ega ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Dar haqiqat, xo'jalikning turli tarmoqlari o'ziga xos ekologik sig'imga ega. Asosiy ishlab chiqarish tarmoqlari-(makroiqtisodiy tizimlar-sanoat, qishloq xo'jaligi, transport) ekologik vaziyatni shakllantiruvchi eng muhim omillardir. Bu borada N.N.Kolosovskiyning energiya ishlab chiqarish sikllari g'oyasiga amal qilish ham katta samara beradi. Zero bu konsepsiya ishlab chiqarishning chiqindisiz texnologik jarayonini tashkil qilishni ko'zda tutadi.

N. N. Kolosovskiy «ishlab chiqarishning muayyan energiya va xom ashyo to'rini olish uchun asosiy bo'lgan jarayoni atrofida bir-birini to'ldirib turishi asosida vujudga kelgan tipik barqaror kombinatsiyasiga» **energiya ishlab chiqarish sikli** deb ta'rif bergan⁶. Uning fikriga ko'ra har bir sikl xom ashyo va yoqilg'i-energetika

⁶1. Soliev A., Maxamadaliev R. "Iqtisodiy geografiya asoslari". T.:Universitet. 1996.

2. Kolosovskiy N.N. Научные проблемы географии., М., 1955, 144-bet.

resurslarining u yoki bu kombinatsiyasi asosida rivojlanib, xom ashyoni qazib olish va boyitishdan to shu joyda ishlab chiqarish mumkin bo'lgan barcha xil tayyor mahsulot olishgacha bo'lgan hamma jarayonlarni o'z ichiga oladi. N. N. Kolosovskiy energiya-ishlab chiqarish sikllarining quyidagi tiplarini ajratgan:

- qora metallarning pirometallurgiya sikli;
- rangdor metallarning pirometallurgiya sikli;
- neft-energoximiya sikli;
- gidroenergiya-sanoat sikli;
- qayta ishlash industriyasi sikllari majmui;
- o'rmon-energetika sikli;
- industrial-agrar sikllar majmui;
- gidromeliorativ industrial-agrar sikl.

N. N. Kolosovskiyning energiya-ishlab chiqarish sikllari haqidagi konsepsiyasi vujudga kelgandan beri ancha vaqt o'tdi. Bu vaqt ichidasanoat, ximiyalashtirish natijasida yangi texnologik jarayonlar bilan boyidi. Yangi sikllar vujudga keldi va ilgari belgilangan sikllar tarkibiy o'zgarishlarga uchradi.

Agar sanoatning birgina o'ziga uning qishloq xo'jaligi va qurilish bilan bevosita aloqalarini hisobga olsak, energiya-ishlab chiqarish sikllari tizimining quyidagi muhim xususiyatlarini ajratish mumkin:

- yana yangi sikllarni ajratish va ularni asoslab berish;
- sikllarni muayyan hududlarga «bog'lash»;
- turli sikllar o'rtasidagi aloqalarni aniqash.

Masalan, qora metallarning pirometallurgiya siklitemir rudasi va kokslanuvchi ko'mirning katta zapaslari mavjud rayonlar, masalan, Donbass hamda Dneprbo'yi, Ural, Kuzbass va boshqalar uchun xarakterlidir.

Bu sikl xom ashyo bilan yoqilg'ini qazib olish va boyitishni, ko'mirni koksga aylantirish va bu jarayonda benzol hamda og'ir organik sintez sanoatining boshqa yarim mahsulotlarini ajratib olishni, ammiak vaatsetilen ishlab chiqarish uchun koks gazidan foydalanishni (ular asosida esa azot o'g'itlari, ammiak selitrasi, karbamid) hamda turli xil ximiya mahsulotlari (kaprolaktam, vinilatsetatdan ishlangan plastiklar va hokazolar) olishni, domna shlaklaridan foydalanib, binokorlik materiallari (ayniqsa, sement) ishlab chiqarishni, metalltalab mashinasozlikni (shu jumladan, metall konstruksiyalar ishlab chiqarishni) o'z ichiga oladi.

Qora metallar pirometallurgiyasi mamlakatning ayrim rayonlarida yoqilg'i energiyasi sanoati (isitish maqsadlarida domna gazlaridan foydalanish va elektr energiyasidan foydalanish asosida) va ko'mir-energoximiya (ko'mirni kokslash orqali) sikllari bilan chambarchas bog'liq.

Demak har qanday ishlab chiqarish vaqt va makon nuqtai nazardan o'zgaradi, uni joylashtirish qonuniyatlari, omillari o'zgarib boradi. Buni asosida albatta FTI yutuqlari turadi. Bu yutuqlar bilan hisoblashmasdan ko'zlangan maqsadga erisha olmaymiz.

2-MODUL. TRANSPORT TARMOQLARI GEOGRAFIYASI

2.1. Transport tizimi va uning rivojlanish xususiyatlari

Transport (lotincha *transporto*-tashiyman)-xalq xo'jaligining yuk va passajir tashiydigan tarmog'i hisoblanadi. Xalq xo'jaligini transportsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Transport moddiy ishlab chiqarishning asosiy tarmoqlaridan biri hisoblanadi, u barcha tarmoqlarning rivojlanishida yetakchi asosiy o'rin tutadi. Transportning ahamiyatini quyidagilarda ko'rishimiz mumkin:

- sanoat bilan qishloq xo'jalik orasidagi aloqalarda;
- qayta ishlovchi bilan undiruvchi sanoat orasidagi munosabatda;
- ishlab chiqarish bilan xom-ashyo orasidagi bog'lanishda;
- ishlab chiqarish bilan iste'molchi orasidagi aloqada;
- jahon mamlakatlari bilan turli regionlar orasidagi mahsulot va xom-ashyo almashinuvida;
- jahonda xalqaro tashqi savdo bilan ichki savdoni tashkil etishda;
- yangi hududlarni o'zlashtirishda;
- geografik mehnat taqsimotini shakllanishida.

Yangi hududlarni o'zlashtirishda, mineral resurslardan to'liq foydalanishda (ayniqsa, foydali qazilmalardan, o'rmon, yer resurslaridan) albatta transport yo'llari o'tkaziladi (Masalan, Transamazoniya, BAM-Baykal Amur Magistrali, Angren-Pop). Transport xalq xo'jaligiga xizmat qilish bilan birga ko'p miqdorda elektr energiya, yoqilg'i, metall, yog'och, qurilish materiallari, sanoat mahsulotlari va malakali mehnat resurslarini talab etadi.

Barcha yo'llar (temir yo'l, avtomobil yo'l, suv, havo, quvur, elektron), transport korxonalarini va transport vositalari birgalikda jahon transport **tizimini** tashkil etadi. Jahon transport tizimida taxminan 100 mln. dan ortiq kishi band va butun transport yo'llarining umumiy uzunligi taxminan 32 mln. km dan oshadi. Har yili jahon transportining barcha turlarida 100 mlrd.t.dan ortiq yuk va 1 trln.ga yaqin yo'lovchi tashiladi. Bu yuk va yo'lovchilarni tashishda 200 000 lokomotiv va millionlab vagonlar, 500 mln.ga yaqin avtomobillar, 80 000 kema, 10 000 dan ortiq samolyotlar qatnashadi.

FTI transportning ayrim turlari o'rtasidagi "mehnat taqsimotida" katta o'zgarishlarga olib keldi. Masalan, dengiz transportini neft va neft mahsulotlarini tashishi (ilgari odam tashigan). FTI-transport yo'llari va turlarini, yuk ko'tarish va o'tkazish, yuk sig'irish imkoniyatlarini, tezligini oshirdi. Butunlay yangi transport vositalarini yuzaga keltirdi.

Bular ayniqsa, temir yo'llarning elektrlashtirilishida, magnit maydon ustida yuruvchi tezyurar poezdlarda (Yaponiyada soatiga 550 km tezlikda yuruvchi poezd sinovdan o'tdi) elektromobillar, gaz balonli va dizelli dvigatelli texnikalarga qiziqish oshganligida kuchli sezilmoqda. Har xil transportni rivojlantirishga yuklarni konteynerlarda tashish, transportdagi mehnat unumdorligini 8-10 marta oshirib yubordi.

Dunyodagi yuk va yo'lovchi tashish geografik jihatdan juda notekis taqsimlangan. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar transporti, texnika darajasining

yuqoriligi va transport tarmoqlarining o‘zaro yuksak aloqadorligi bilan ajralib turadi. Jahon transport tarmoqlari va jahondagi yuk va yo‘lovchi tashishning 75-80 % shu mamlakatlarga to‘g‘ri keladi. Rivojlangan mamlakatlarning transport tarmoqlari bilan ta‘minlanganlik darajasi, ularning zichligi, aholining transportdan foydalanish darajasi ham eng yuqori. Rivojlanayotgan mamlakatlarning ko‘pchiligida transport qishloq xo‘jaligi kabi iqtisodiyotning qoloq tarmog‘i edi va hozir bularda ham rivojlanish kuzatilmoqda.

Transport tizimining shakllanmaganligi ularning rivojlanishiga, tabiiy resurslarning o‘zlashtirilishiga, xalqaro savdo va iqtisodiy rayonlarning shakllanishiga to‘sqinlik qiladi. Shuningdek, mazkur mamlakatlarda 1 yoki 2 xil transportning ustun turishi xarakterli. Masalan, Hindiston, Pokiston, Braziliya, Argentinada temir yo‘l, Yaqin va O‘rta Sharqda quvur transporti, Tropik Afrikada daryo transporti.

Lekin temir yo‘lda eski paravozlarni, daryolarda eski kemalarni saqlanib qolganligi taraqqiyotga kuchli ta‘sir qiladi. Ko‘p mamlakatlarda yuk tashishda ot, tuya, eshak, fil, lama, buyvollardan foydalaniladi. Jahon transport tizimining hududiy (regional) qismlari: MDH, Shimoliy Amerika, Yevropa, Lotin Amerikasi, Osiyo, Afrika, Avstraliya. Transportning ish haqi uning yuk oborotiga qarab belgilanadi. Yuk oboroti tonna-kilometr hisobida o‘lchanadi. Yuk oboroti ma‘lum vaqtda ma‘lum masofaga tashilgan yuk miqdoridir.

Transportning boshqa ishlab chiqaruvchi sohalardan farqi shundaki, u yangi mahsulot yaratmaydi, balki ishlab chiqarilgan moddiy boylikni iste‘molga etkazadi. Transport yordamida sohalar, soha ichidagi tarmoqlar, tarmoq ichidagi korxonalar bir-biri bilan bog‘lanib, ishlab chiqarish jarayoni maromida borishi uchun barcha sharoitlar yaratiladi. Transport ishlab chiqarish bilan iste‘mol o‘rtasidagi aloqani ta‘minlaydi. Ish kuchi, mehnat qurollari va mehnat buyumlarini bir joydan ikkinchi joyga ko‘chirib, jami iste‘mol mahsuloti ko‘lamiga ta‘sir ko‘rsatadi.

Transport vositalari yordamida moddiy boyliklar bir joydan ikkinchi joyga ko‘chirilishi natijasida iste‘molgacha yaqinlashadi, iste‘mol qiymatining tashkil topishi tezlashadi. Transport vositalarining o‘ziga xos xususiyatlari ulardan moddiy boylik ishlab chiqarishning hamma sohalorida keng ko‘lamda foydalanish zaruratini keltirib chiqaradi. Transport vositalaridan foydalanish mahsulot ishlab chiqarish va uni realizatsiya qilish uchun sarflanadigan vaqtni qisqartiradi, mehnat unumdorligini oshiradi, mahsulot tannarxini kamaytiradi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida va sog‘lom raqobat muhitida, avtotransport korxonalarini o‘z mijozlari, ya‘ni yuk egalari yuklarni o‘z vaqtida, sifatli tashilganligi va albatta, tashishlar va boshqa ishlar hamda xizmatlarga belgilangan narxlardan qoniqishlarini ta‘minlashga intilishlari lozim.

Xo‘jalik yuritishning ma‘muriy-buyruqbozlik sharoitida avtotransport xizmatlari uchun narx-navo (tarif) lar davlat tomonidan markazlashtirilgan holda belgilangan va har bir avtotransport korxonasi uchun yagona hisoblangan.

Oqibatda ko‘pchilik korxonalar zarar bilan ishlaganlar. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish munosabati bilan avtotransport korxonalarining narx-navo (tarif) larni belgilash tizimiga o‘zgartirishlar kiritish taqozo etilmoqda. Hozirgi kunda har bir korxonaga o‘zining narx-navo (tarif) siyosatini ishlab chiqadi, chunki tariflar doimo nazorat

ostida bo'lishi, tahlil qilinishi kerak. Zero avtotransport korxonasi tomonidan shunday narx-navo siyosati qo'llanilishi lozimki, u mijozlarni ham qoniqtirishi, shu bilan birga, korxonada foyda bilan ishlashini ham ta'minlashi lozim.

Firmalar konsepsiyasi nazariyasida narx-navo shakllanishi muhim ahamiyatga ega. Ushbu konsepsiyaning asosiy ma'nosi korxonada faoliyat ko'rsatishi va eng yuqori foyda olishga intilishidan iboratdir. Binobarin, har bir korxonada mahsulot bahosini aniqlashga qaratilgan ma'lum ishlar amalga oshirilishi lozim.

Yuk tashuvchi avtokorxonalarda ushbu ishlar, ya'ni yuk tashish, boshqa ishlar va xizmatlarga tariflarni belgilash mutaxassis-menejerlar tomonidan amalga oshirilishi lozim. Narx-navo (tarif) lar yuzasidan uzil-kesil qaror qabul qilishdan oldin menejerlar kerakli ma'lumotlarga ega bo'lishlari zarur. Menejerlarni etarli, haqiqiy va dolzarb ma'lumotlar bilan ta'minlash avtotransport korxonasida boshqaruv hisobi qay darajada yo'lga qo'yilganligi bilan belgilanadi.

Transport vositalaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi:

-bir tonna kilometr yuk tannarxi ko'rsatkichi qilingan xarajatlarni tashilgan tonna kilometrga bo'lish yo'li bilan;

-transport vositlarining soatlik yoki smenalik ish unumi ko'rsatkichi tashilgan tonna kilometr yukning sarflangan vaqtga nisbati bilan;

-mashinaning ishda bo'lish koeffitsienti ko'rsatkichi ishda bo'lgan mashina-kunlari sonini mashinaning xo'jalikda bo'lgan mashina kunlari soniga bo'lish bilan aniqlanadi;

-mashinaning yuk ko'tarish koeffitsienti ko'rsatkich umumiy tashilgan yukning yuk bilan bosilgan yo'lga nisbati bilan aniqlanadi.

Bunda avtomobilning texnik jihatdan tayorgarlik koeffitsienti, mashinalarni ishga chiqarish koeffitsienti, o'rtacha ishda bo'lgan vaqti, sutkalik o'rtacha yurgan yo'li, o'rtacha texnik tezligi, yukni o'rtacha tashish masofasi, yuk tashish mavsumiylik koeffitsienti kabi ko'rsatkichlardan ham foydalaniladi. Transport vositalaridan unumli foydalanish va ularning xarajatlarini kamaytirish avtomashina va uni boshqaruvchilarning mehnat unumdorligini oshirish, moylash va yoqilg'i materiallarini tejab-tergash, joriy ta'mir va joriy qarovlar uchun qilinadigan xarajatlarni tejashga bog'liq.

Transportning asosiy turlari temir yo'l, dengiz, daryo, avtomobil, havo, truboprovod, elektron va ot-ulov hisoblanib, ular birgalikda yagona tizimni shakllantirgan. Bu tizim o'ziga xos geografiyaga ega bo'lib, ob'ektiv va sub'ektiv omillar asosida vujudga kelgan. Ba'zan biz umumlashtirgan holda quruqlik, suv, havo va elektron (zamonaviy) transport turlariga ham ajratamiz.

Transport ayniqsa tashqi savdo bilan aloqador. Binobarin, mamlakatning savdo aloqalari, xalqaro iqtisodiy munosabatlar negizida transport tizimi yotadi. Xuddi shu o'rinda milliy iqtisodiyotini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega bo'lgan erkin iqtisodiy mintaqalarni (EIM), texnopolislarni vujudga keltirishda transport rolini ta'kidlash joiz.

Shunday qilib, ijtimoiy va iqtisodiy hayotning biror qismi yo'qki, u transport bilan bog'liq bo'lmasa. Sanoat, qishloq xo'jaligi, aholi joylashuvi, aholiga xizmat ko'rsatish tarmoqlarining hududiy tashkil etilishi transport omiliga asoslanadi.

Endi transportning o'zini joylanishiga ta'sir qiluvchi omillarni ko'rib chiqaylik. Qadimda transport, xususan dengiz va daryo transporti tabiiy sharoitga bog'liq bo'lgan. Hozir ham qit'a va mamlakatlarning qirg'oq chizig'i, shakli tabiiy holda portlarni (bandargohlarni) qurish nuqtai nazaridan qulay va noqulay bo'lishi mumkin.

Temir yo'l transportining tabiiy omillarga bog'liqligi boshqalarga qaraganda ancha kam. Dunyoning ayrim mamlakatlarida (Boliviya, Peru) temir yo'llar 4700-4800m dengiz sathidan balandlikda joylashgan tog' mintaqalarida temir yo'llar odatda daryo bo'ylab, ba'zi joylarda tunellar orqali o'tadi, murakkab sharoitda tor izli yo'llar quriladi.

Temir va avtomobil yo'llar qurilishida ko'priklar ham katta ahamiyatga ega. Ko'priklarni qurish esa tog' yoki tekislik daryolarda o'ziga xos xususiyatga ega. Tog' daryolarida ko'priklar uncha uzun emas, tekislikda esa ular uzun bo'lib, buning uchun uning tayanchi qirg'oqning qattiq jinslaridan iborat qismiga qo'yiladi. Umuman, temir yo'llarni qurish katta vaqt va mablag'ni talab qiladi, ammo ular shunga muvofiq uzoq muddat xizmat qiladi.

Tabiiy sharoit, jumladan shamol, yog'in-sochin, bulut, tuman avtomobil, havo va dengiz transportiga ancha ta'sir ko'rsatadi. Tuproq va uning fizik xususiyatlari, gidrogeologik sharoit ayniqsa qattiq qatlamli avtomobil yo'llarni qurishda e'tiborga olinadi.

Xo'jalik va aholi joylashuvi ham transport turi va tarkibiga ta'sir etadi. Jumladan, tog'-kon, og'ir sanoat rayonlarida temir yo'l, qishloq xo'jaligi rayonlarida avtomobil transporti, o'rmon xo'jaligida daryo transporti katta ahamiyatga ega bo'ladi. Sanoat va qishloq xo'jaligi yaxshi rivojlangan, aholi zich joylashgan voha va vodiylarda, shahar atrofida, rekreatsiya rayonlarida transport tizimi shunga mos ravishda mukammal holda shakllanadi.

O'z navbatida quruqlik transporti ishlab chiqarishni hududiy tashkil qilishda turli xil geometrik shakllarni vujudga keltiradi. Masalan, O'zbekiston xaritasida Toshkent-Jizzax-Bekobod, Samarqand-Buxoro-Qarshi uchburchagi, Farg'ona xalqasi yaqqol ko'zga tashlanadi. Aynan ana shu shakllar mamlakat milliy va mintaqaviy iqtisodiyotini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Transport turlari, xususan avtomobil transportini joylashtirishga ekologik omil ham katta ta'sir qiladi. Ma'lumki, hozirgi kunda, ayniqsa shahar ekologik muhitini ifloslanishida avtomobillar qatnovining o'rni yuqori. Avtomobil va samolyot qatnovlari muhitni shovqin jihatidan ham «ifloslantiradi». Bu holat ayniqsa yirik aeroport o'rnashgan joylarda juda sezilarli.

Shahar tashqarisidagi magistral avtomobil yo'llar yoqasida ham bu muhit yaxshi bo'lmaydi. Shu bois, ba'zi bir ma'lumotlarga qaraganda, katta yo'llarning ikki tarafida 50m. masofada qishloq xo'jalik ekinlari ekish maqsadga muvofiq emas.

So'nggi yillarda transport turlari ko'payib va rivojlanib bormoqda, ularning joylanishi ham o'zgarmoqda. An'anaviy temir va avtomobil, suv (daryo, dengiz va okean), havo transporti bilan bir qatorda quvur transporti ham rivojlanib bormoqda. U ko'pincha neft-gaz sanoati mavjud bo'lgan hududlardan turli iste'mol rayonlariga tarqalgan. Taraqqiy etgan mamlakatlarda esa quvurlarda hatto qattiq jinslar –temir rudasi, ko'mir kabilar ham yuboriladi («pulpoprovod»).

Barcha transport turlarining ikki asosiy vazifasi bor-yuk va passajirlar tashish. Yuk tashishda transport iqtisodiyotida tashiladigan mahsulot yoki xom-ashyoning transportabelligi (qulayligi, arzonligi), masofasi va tarkibi, qiymati hisobga olinadi. Eng arzon, odatda, dengiz (okean) transporti hisoblanadi. Undan keyingi o'rinda katta daryolardagi transport turadi. Temir yo'l transporti ham bu borada ancha arzon hisoblanadi.

Transportning o'zini ham hududiy majmualari mavjud. Bunga transport tugunlari misol bo'la oladi. Yirik transport markaz va tugunlarda o'ziga xos ob'ektlar (ta'mirlash zavodalari, omborxonalar, bevosita transport bilan bog'liq qurilish materiallari va boshqa sanoat korxonalari) joylashadi.

Bizga ma'lumki, **yo'l** transport vositalaridan oldin paydo bo'lgan va u hozirgi kunda transport ya'ni masofani kesib o'tishda infratuzilma darajasiga xizmat qiladi. Yo'llar transportsiz ham bo'laveradi, lekin aksincha emas. Binobarin, yo'llar joylanishi bu transport joylanishiga hamma vaqt ham mos kelmaydi. Transport to'ring ahamiyati eng avvalo shundaki, u hududni tashkil qiladi, mustahkamlaydi va bog'laydi.

Xitoyning global iqtisodiy kuch sifatida mavqeini mustahkamlashning kaliti bu Belt va Yo'l infratuzilmasi yoki Yangi Ipak yo'li deb nomlangan ulkan tashabbusdir. Bu birinchi marta XXR raisi Si Tszinpin tomonidan 2013 yil kuzida ilgari surilganligi sababli, 100 dan ortiq mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar Belt va Yo'l bo'yicha hamkorlik to'g'risidagi hujjatlarni imzoladilar. Bu esa Afrika, Lotin Amerikasi va Tinch okeanining janubiy mintaqasida, shuningdek, mintaqada amalga oshirish tashabbusining doirasini kengaytirdi.

2018 yil O'zbekiston transport sohasiga 13,3 ming korxonalar va tashkilotlar jalb qilingan. 1209,0 mln tonna yuk tashildi. Yuk aylanmasi 70,6 mlrd.t.km. Yuk tashishda hissa avtomobil transportiga-1068,2 mln.t.-88,3%, quvur transportiga-72,4 mln.t.-6,0%, temir yo'l transportiga-68,4 mln.t.-5,7 %, havo transportiga-13,1 ming.t.-0,001% to'g'ri kelgan. Yo'lovchi tashish-5818,1 mln.kishi, yo'lovchi aylanmasi-134426,5 mln. yo'lovchi.km. Yo'lovchi tashishda-temir yo'l transporti-22,3 mln.kishi-0,4%, avtomobil transporti-5719,1 mln.kishi-98,3%, havo transporti-2,5 mln.kishi-0,04 %, shahar elektron transporti-74,1 mln.kishi-1,3% tashkil etgan..

Transport O'zbekiston iqtisodiy rivojlanishida ham muhim shart-sharoit va omillardan biri hisoblanadi. Bu sohada (aloqa bilan birga) YaIMning 9,8 foizi yaratilmoqda, iqtisodiyotda band bo'lganlarning 1,5 foizi mehnat qilmoqda. Mamlakat transport tarmog'i temir yo'l, avtomobil, havo, quvurlar va daryo suv yo'llaridan iborat. Transportning barcha turlari yordamida respublikada har yili xalq xo'jaligi uchun zarur bo'ladigan turli-tuman yuklar va yo'lovchilar tashiladi. O'zbekistonda yiliga barcha transport turlari vositasida 1209,0 mln tonnadan oshiq yuk va 5818,1 mln yo'lovchi tashilmoqda. Respublika temir yo'l tizimida taxminan 22,3 mln yo'lovchi va 68,4 mln t turli xil yuklar tashilgan.

O'zbekistonda temir yo'llarini qurish o'zining ma'lum tarixiga ega. Mamlakat hududida birinchi temir yo'l izlari 1888 yilda Farob stantsiyasidan Samarqandgacha qurilgan bo'lib u Kaspiyorti (Krasnovods-Chorjo'y) yangi nomi (Turkmanboshi-Turkmanobod) temir yo'lining davomi edi. Uning qurilishi keyinchalik davom ettirilib 1899 yili Andijon va Toshkent shahrigacha etqazildi. 1906 yilda Toshkent-

Orenburg temir yo'li qurildi. Markaziy Osiyo jumladan, O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida XX asrning 1930-yillarda qurilgan uzunligi 1400 km dan ziyod bo'lgan Turksib (Turkiston-Sibir) temir yo'lining ishga tushishi o'z davrida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Ikkinchi jahon urushi yillarida Angren ko'mir havzasiga va Chirchiq elektrokimyo kombinatiga temir yo'l izlari qurildi.

1952-1955 yillarda Chorjo'y (Turkmanobod)-Qo'ng'iro't temir yo'li ishga tushdi. Mazkur yo'l Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonini respublikaning boshqa hududlari bilan bog'ladi. 1962 yilda Navoiy-Uchquduq temir yo'lining qurilishi Markaziy Qizilqumdagi boy mineral resurslardan foydalanish imkoniyatini yaratdi. 1972 yilda ishga tushgan 410 km Qo'ng'iro't-Beynov temir yo'li Markaziy Osiyodan Rossiyaning markaziy, janubiy va Ural mintaqalariga hamda Kavkaz hududlariga chiqish imkonini berdi. Shuningdek, ushbu yo'lning qurilishi Ustyurtdagi tabiiy resurslarini o'zlashtirishga va mazkur mintaqaning ijtimoiy iqtisodiy jihatdan rivojlanishiga imkon yaratdi. Respublikamiz temir yo'llarining uzunligi XX asrning 20-yillari boshida 1589 km ni tashkil etgan bo'lsa, hozirga kelib u 6700 km ga etdi.

O'zbekistonning siyosiy mustaqillikka erishuvi barcha sohalar qatori temir yo'l sohasida ham o'zgarishlar bo'lishiga olib keldi. Ayniqsa, temir yo'l mustaqilligini ta'minlash eng asosiy vazifa qilib qo'yildi. Shu bois, sohada qator yangi temir yo'l qurilishlari boshlandi. Ana shularning samarasi o'laroq, 2001 yilda uzunligi 500 km dan ortiq bo'lgan Uchquduq-Sultonuvays-Nukus temir yo'li ishga tushurildi. 2007 yilda G'uzor-Boysun-Qumqo'rg'on (233 km) temir yo'li ishga tushdi. Ushbu yo'lning qurilishi Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida ijobiy yutuqlarga olib kelishi shak-shubhasizdir. 2016 yili Angren-Pop yo'nalishi ishga tushdi, buning asosida Toshkent va Farg'ona iqtisodiy rayonlari o'rtasida ijtimoiy-iqtisodiy aloqalar yanada kuchaydi.

Respublikaning xorijga jumladan, Janubiy va Janubi-G'arbiy Osiyo davlatlariga chiqishida Mashhad-Seraxs-Tajan temir yo'lining qurilishi muhim voqea bo'ldi. 1996 yil 13 may Mashhad shahrida 295 kmli mazkur yo'lning ochilish marosimi bo'ldi. Bu yo'l eng qisqa masofa orqali Markaziy Osiyo mamlakatlarini Fors qo'ltig'i mamlakatlari bilan va ular orqali Janubiy va Janubi-G'arbiy Osiyoning boshqa davlatlari bilan tashqi iqtisodiy aloqalarini rivojlantirishga keng imkoniyatlar ochib beradi. Zichlik 1000 km² maydonga 94,2 km to'g'ri keladi.

O'zbekiston hududida avtomobil yo'llari tarmog'i ancha keng har 1000 km² maydonga avtomobil yo'llarining zichligi 210 km yetadi. Qator avtomobil yo'llari xalqaro va davlat ahamiyatiga ega. Hozirgi kunda avtomobil yo'llarining umumiy uzunligi 42,7 ming km dan ortiq. Shularning 98,0 foizi qattiq qoplamali yo'llardir. Mamlakatimiz hayotida muhim o'rin tutgan avtomobil yo'llari jumlasiga eng avvalo Toshkent, Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo va boshqa viloyatlar orqali o'tgan Katta O'zbek avtomobil trakti kiradi. 1940 yili qurib bitqazilgan va 700 km dan ortiq uzunlikka ega bo'lgan ushbu ravon yo'l qanchadan-qancha yuk va yo'lovchilar tashishga hamda hududlar orasida transport xizmati ko'rsatishni yaxshilashga olib keldi.

Ikkinchi Jahon urushi boshlanishdan oldin Farg'ona vodiysidagi 3 viloyat va qator shaharlarni jumladan Qo'qon, Marg'ilon, Asaka, Andijon, Namangan, Chust shaharlarini bog'lab turuvchi aylanma yo'l qayta qurildi. Shuningdek, turli davrlarda

ishga tushgan Toshkent-O'sh, Samarqand-Buxoro, Toshkent halqa yo'li, Nukus-G'uzor, Qo'ng'iroq-Beynov kabi yana qator avtomobil yo'llari ham O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida katta ahamiyat kasb etadi.

1999 yilda Toshkent-Angren-Qo'qon avtomobil yo'li (248 km) qurildi. Bu yo'l Qurama tog'idagi Qamchiq (890 m) va Rezak (368 m) tonnellaridan o'tadi. Mazkur yo'l orqali Toshkentdan Farg'ona vodiysiga tashiladigan yuklar, temir yo'lda tashiladigan yuklarga qaraganda 3-4 baravar tez etqaziladi.

O'zbekiston avtomobil transportida qo'shni uzoq xorijiy davlatlar bilan bog'lanish istiqboli ochilmoqda. Mamlakatimiz Markaziy Osiyo davlatlarining barchasi bilan xalqaro ahamiyatga molik bo'lgan yirik avtomagistrallar qurishda tashabbuskor bo'lib chiqmoqda yoki bevosita qatnashmoqda.

Jumladan, u Xitoyga (va Tinch okeani iqtisodiy rayoni ga) chiqish imkoniyatini beruvchi "Andijon-O'sh-Ergashtom-Qashqar" avtomobil yo'li hamda Hind okeaniga chiqishga imkon beradigan "Termiz -Hirot-Karachi" avtomobil yo'li qurilishida va shu yo'nalishda mavjud bo'lgan yo'llarni qayta tamirlashda o'z ulushini qo'shish bilan qatnashmoqda.

O'zbekiston Xitoy va Pokistonga olib boradigan Andijon-O'sh-Ergashtom-Qashqar, shuningdek, Buxoro-Seraxs-Mashhad-Tehron va Termiz-Hirot-Qandaxor-Karochi avtomobil yo'llarini qurish va qayta tamirlash ishlariga hissa qo'shgan holda qatnashishdan ham manfaatdor.

O'zbekistonda XX asr boshlariga qadar ot-ulov asosiy transport vositasi bo'lgan. 1901 yilda Toshkentda konka –tor temir yo'l izida otlar sudraydigan bir vagonli dastlabki shahar transporti, 1912 yilda birinchi tramvay ishga tushirildi.

1926 yili respublikada muntazam avtobuslar yordamida yo'lovchilar tashish boshlangan edi (dastlabki shaharlararo avtobuslar qatnovi 1906 yilda Farg'ona-Marg'ilon marshrutida yo'lga qo'yilgan edi). Ana shundan beri yo'lovchilar tashuvchi avtobuslar ham son, ham sifat jihatidan juda o'sib ketdi.

1977 yil Toshkentda metro qurilib ishga tushirildi. Hozirda metropolitenning 3 ta yo'nalishi (Chilonzor, O'zbekiston, Yunusobod) va 29 stansiyasi mavjud. Shahar bo'yicha sutkasiga qariyb 3 mln yo'lovchi tashilmoqda. Metropoliten takomillashtirilib, yangi yo'nalishlari shakllantirilmoqda.

Respublika havo transporti-fuqaro aviatsiyasi tarixi 1920 yillardan boshlangan. 1924 yil 20 mayda uzunligi 800 km bo'lgan Toshkent-Avliyoota (Jambul)-Pishpek (Bishkek)-Olmaota marshrutida dastlabki yo'lovchilar tashish reysi amalga oshirilgan edi. O'sha yilda suningdek, uzunligi 450 km bo'lgan Kogon-Oqto'qay-Darg'onota-Xiva hamda Buxoro-Termiz-Dushanbe havo yo'llari ochildi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin 1992 yilda "O'zbekiston havo yo'llari" milliy aviakompaniyasi tashkil etildi. Respublikaning ayniqsa xorijiy mamlakatlar bilan tashqi iqtisodiy aloqalarni yo'lga qo'yishda mamlakatning o'z havo transporti muhim rol o'ynaydi. "O'zbekiston havo yo'llari" milliy aviakompaniyasi xilma-xil tipdagi havo transporti vositalariga ega. Jumladan, unda qishloq xo'jalik ishlariga mo'ljallangan "AN-2", mahalliy yo'llarda qatnaydigan "AN-24", "YAK-40", xalqaro yo'llarda qatnaydigan "IL-76", "IL-62", "IL-86", "TU-154", "A-310", Boing kabi samolyotlar bor. Vertolyot parkida esa "MI-2", "MI-8",

"KA-26" kabi mashinalar bo'lib, ulardan mamlakat muassasalari, meteorologiya, geologiya-qidiruv ishlarida keng foydalaniladi.

"O'zbekiston havo yo'llari" milliy aviakompaniyasi tarkibida 12 ta zamonavuy aerovokzal (Toshkent, Samarqand, Buxoro, Nukus, Termiz, Andijon, Namangan, Navoiy, Urganch, Farg'ona, Qarshi, Qo'qon shaharlarida) bor. Zarafshon, Uchquduq, Sirg'ali, Shahrisabz, Sariosiyo, Qo'ng'iroq, To'rtko'l, Mo'ynoq shaharlaridagi aeroportlar viloyat markazidagi aeroportga qaraydi, YaK-40 va AN-24 samolyotlarini qabul qilishga moslashtirilgan-Toshkent, Samarqand va Termiz aeroportlari xalqaro maqomga ega. "O'zbekiston havo yo'llari" milliy aviakompaniyasi MDHning deyarli barcha yirik shaharlari va 20 dan ortiq xorijiy davlatlar (Buyuk Britaniya, AQSh, Germaniya, Niderlandiya, Isroil, Hindiston, Turkiya, BAA, Saudiya Arabistoni, Janubiy Koreya, Xitoy, Malayziya, Tailand va b.) bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'lanmoqda.

Respublika suv transporti salohiyatida Amudaryoning ulushi katta. Shu bois, birinchi marta 1950 yil Amudaryoning o'rta oqimida Surxondaryo viloyati hududida Termiz daryo porti tashkil etilgan. 1952 yilda esa Xo'jaylida kema tamirlash zavodi qurilgan. Amudaryoning quyi qismida daryo sohillarida turli yillarda Sharlavuq, To'rtko'l, Beruniy, Qoratorov, Xo'jayli bandargoh (pristan)lari qurilgan. Istiqlol sharofati bilan 1994 yildan boshlab mamlakat suv transporti xizmatini yaxshilash maqsadida bir qator tashkiliy ishlar amalga oshirila boshlandi. Jumladan, O'rta Osiyo paroxodchiligining O'zbekistondagi bo'limlari negizida "Termiz daryo porti", "Xorazm daryo porti", "Qoraqalpog'iston daryo porti" ishlab chiqarish birlashmalari tashkil etildi (1995).

Tarixga nazar tashlasak, O'zbekistonda birinchi neft quvuri 1908 yilda ishga tushganini ko'ramiz. O'sha yili Chimyon neft konidan Oltiariq neftni qayta ishlash zavodiga 20 km. lik quvur tortilgan edi. Keyinchalik mamlakatda yangi-yangi neft va gaz konlarining topilishi quvur transporti rivojlanishiga asos bo'la boshladi. Endilikda birgina Farg'ona va Oltiariq neftni qayta ishlash zavodlariga neft konlaridan jami 228,5 km. lik quvurlar o'tqazilgan.

Shuningdek, turli yillarda Surxondaryo (1947 yil Lalmikor-Qumqo'rg'on va 1969 yil Amudaryo-Amu Zang), Qashqadaryo (1977 yil G'arbiy Toshloq-Qashqadaryo stansiyasi va 72 km li Shimoliy O'rtabuloq-Oltingugurt zavodi) va Buxoro (1994 yil 100 km li Ko'kdumaloq-Qorovulbozor) viloyatlarida ham neft quvurlari qurilgan.

Mustaqillikka erishishimiz bilan ushbu boylklarga bo'lgan munosabat tubdan o'zgardi. Endilikda respublikadagi gaz uzatish bo'linmalari 7 magistral gaz quvuri tarmog'iga (Buxoro-Gazli-Toshkent-522 km; Muborak-Navoiy-112 km; Sho'rtan-ToshIES-602 km; Kalif-Dushanbe-408 km; Buxoro-Ural-489 km; O'rta Osiyo-Markaz-369 km) ega. Diametri 720-1220 mm li magistral gaz quvurlarining umumiy uzunligi 12,6 ming km bo'lib, uning to'la quvvat bilan ishlashi uchun 25 ta kompressor stansiyasi xizmat ko'rsatadi. Bugungi kunda quvur transporti orqali Qozog'istonning janubiy viloyatlari, Qirg'iziston va Tojikiston O'zbekiston tabiiy gazi bilan ta'minlanadi.

O'zbekiston transport tizimi nafaqat milliy xo'jalik rivojlanishida, balki mintaqaviy va xalqaro savdo iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishda, mintaqaviy

integratsion aloqalarni chuqurlashtirishda muhim omil bo'lib hisohlanadi. Xususan, Buyuk ipak yo'lini tiklash va undan samarali foydalanish maqsadida qabul qilingan TRASEKA dasturi doirasida mamlakatimizning tutgan o'rni yuqori. TRASEKA Evropani Markaziy Osiyoga Kavkaz orqali bog'lovchi transport karidori bo'lib, 1993 yil mayda Bryusselda Evropa Komissiyasining tashabbusi bilan qabul qilingan. Bu dasturda asosan Armaniston, Ozarbayjon, Gruzziya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston, Tojikiston, O'zbekiston qatnashmoqda. 1998 yildan bu dastur faoliyatida Bolgariya, Moldova, Ruminiya, Turkiya va Ukraina ishtirok etmoqda.

TRASEKA asosan tegishli yo'nalishlarda temir yo'l transporti xizmatini yo'lga qo'yishni maqsad qilsada, avtomobil va suv transporti tizimini takomillashtirish ham dastur tarkibiga kiritilgan. Hozirda TRASEKA yo'nalishida transport tizimidan 50 dan ortiq davlat foydalanmoqda.

2.2. Quruqlik transporti tarmoqlari

Yuqorida aytib o'tilganidek, transportning asosiy turlari temir yo'l, dengiz, daryo, avtomobil, havo, truboprovod, elektron va ot-ulov hisoblanib, ular birgalikda yagona tizimni shakllantirgan. Ularni yirik guruhlarga birlashtirish asosida quruqlik, suv, havo va elektron transport turlari shakllangan. Quruqlik transportining asosida temir yo'l, avtomobil, quvur transporti yotadi. Jumladan, jahon temir yo'lga dastlab 1825 yili Angliyada, Rossiyada 1837 yil, O'zbekistonda esa 1888 yil asos solingan. Temir yo'l qurish 1970 yillargacha jahonda juda tez o'sdi. Hozirda temir yo'lni yuk va yo'lovchi tashishdagi salmog'i kamaygan bo'lsada, u quruqlik transportining muhim tarmog'idir. Jahon temir yo'l turi XX asrning boshida asosan shakllangan bo'lib, hozirda uning umumiy uzunligi taxminan 1,3 mln. km atrofida.

Temir yo'l transporti iqlimiy sharoitlar va yil fasllari qanday bo'lishiga qaramay hamma vaqt ishlayveradi. Uning tezligi katta, ayniqsa yuk tashish tannarxi past. Temir yo'llarning elektrlashtirilishi, poezdlarning qatnov tezligi, og'irligi, yo'llarning yuk o'tkazish qobiliyati, ya'ni ularning ish unumini oshiradi. Elektrlashtirilgan temir yo'llarning uzunligi jihatdan jahondagi etakchi davlatlar AQSH, Rossiya, Germaniya, Fransiya, Italiya hisoblanadi.

Temir yo'llar, maydoni yirik mamlakatlarda boshqa transport turlariga qaraganda katta iqtisodiy foyda keltiradi. FTI sababli poezdlarning qatnov tezligi ortmoqda. Fransiyada 1955 yil soatiga (331 km), 1981 yil 380 km, 1990 yil atrofida 515 km tezlikda yurdi (Masalan, Parij-Bordo 350 km).

Jahonda tashiladigan jami yukning 16 %, yo'lovchining 11 % temir yo'l transportida tashiladi. Lekin ayrim davlatlarda bu ko'rsatkich boshqacharoq. Masalan, Rossiyada jami tashiladigan yukning 55 %, AQSH da 30,3 %, Fransiya da 10,6 %, Yaponiyada 0,2 % temir yo'llarida tashiladi. Jami yo'lovchining esa Rossiyada 33,2 %, Yaponiyada 33,9 %, Fransiya da 9 %, AQSH da 0,2 % temir yo'llarda tashiladi.

Temir yo'llarda yuk tashish tannarxi bir xil emas. Agar temir yo'llar tekislikdan o'tgan bo'lsa, yuklar ko'p va uzoq masofaga tashilsa va temir yo'llar elektrlashtirilgan bo'lsa bunday yo'llarda yuk tashish tannarxi arzonaga tushadi.

Aksincha elektrlashtirilmagan, relefi murakkab va oz yuk qisqa masofaga tashilsa, tannarxi yuqori bo'ladi.

Temir yo'llar bir yo'lli va ikki yo'lli, bir izli va ikki izli bo'ladi. Masalan, O'zbekiston temir yo'llarining barchasi bir yo'lli. YAponiyada bir izli temir yo'llar ko'p. **Temir yo'llar**, iqtisodiy, turistik, siyosiy va harbiy strategik ahamiyatga ega.

Temir yo'l paromlari va tonellari temir yo'llarda yuk va yo'lovchi tashishni bir necha marta tezlashtiradi, vaqt, yoqilg'i va ehtiyot qismlarni tejaydi (Masalan, Boku-Turkmanboshi). Jahonda taxminan 140 mamlakatda temir yo'li bo'lsada, ularning ichida "birinchi otilik" davlatlari hissasiga temir yo'llar umumiy uzunligining yarmi to'g'ri keladi. Ular, AQSH (265000 km), MDH (145000 km), Kanada, Hindiston, Xitoy, Avstraliya.

Temir yo'l tarmoqlarining zichligi (100 km² joyga 10 km) bo'yicha G'arbiy Yevropa davlatlari ajralib turadi. Ayni vaqtda temir yo'l tarmoqlari juda siyrak yoki mutlaqo yo'q (30 davlat asosan Yaqin Sharq va G'arbiy Afrikada) davlatlar ham mavjud. Temir yo'l tarmoqlarining zichligiga ko'ra jahonda Germaniya, Shveysariya, Chexiya ajralib turadi. AQSH va Buyuk Britaniyada temir yo'llar qisqarmoqda. FTI transport tarmoqlariga kuchli ta'sir qilmoqda. Masalan, dunyodagi eng tezkor haydovchisiz o'q otish poyezdi Xitoyda qatnay boshladi. 2022 yilda Pekinda bo'lib o'tadigan qishki Olimpiya o'yinlari arafasida yangi xizmat poyezdlar poytaxtdan to chang'i yo'llariga boradigan yo'lni atigi 45 daqiqada bosib o'tadi.

Xitoyning Pekin va Chjanjiakou shaharlarini bog'laydigan haydovchisiz o'q otadigan yangi poyezd soatiga 217 milya (350 km \ soat) tezlikka erisha oladi va bu dunyodagi eng tezkor avtonom poyezd hisoblanadi. Pekin-2022 Qishki Olimpiya va Paralimpiya o'yinlari arafasida ishga tushirilgan yangi xizmat poytaxt va Chjanjiakou o'rtasidagi sayohat vaqtini ko'pchiligini uch soatidan bir soatgacha qisqartiradi. Ba'zi poyezdlar 108 millik yo'lni 45 daqiqada tugatadilar.

Asl Pekin-Chjanjiakou liniyasi 1909 yilda ochilgan bo'lib, o'sha safar 8 soat davom etgan. Poyezd stantsiyalarda avtomatik ravishda aniq jadvalga o'tadi va to'xtaydi va stantsiyalar orasidagi chegaralarga qarab tezlikni o'zgartiradi. Biroq, favqulodda holatlarda kuzatuvchi xizmatchi hali ham kemada bo'ladi.

Jingjang shaharlararo temir yo'li deb ham nomlanuvchi ushbu liniya to'rt yil davomida qurib bitkazildi va 10 ta stantsiya, shu jumladan Badaling Changcheng, Buyuk Xitoy devoriga kirish uchun mavjud. Birinchi poyezd 30 dekabr kuni Pekindan Taizichengga qadar qatnay boshladi. U erda ba'zi Olimpiya chang'isi musobaqalari o'tkaziladi va Olimpiya shaharchasiga eng yaqin stantsiya hisoblanadi.

Xitoyning katta tezyurar temir yo'l tarmog'i deyarli 22000 milni tashkil qiladi va tezkor poyzdni o'z ichiga oladi, tezkor poyzd-Shanxay Maglev, tezligi soatiga 268 milya. "Biz HS2 haqida bahslashayotgan bir paytda, Xitoy butun mamlakat bo'ylab tezyurar tarmoqni yaratdi", deydi temirchi mutaxassisi Mark Smit, Seat 61 veb-saytida. "Xitoyning yuqori tezlikda harakatlanadigan liniyalari shafqatsiz ravishda samaralidir-bir marta bron qilinganingizda, shaxsiy guvohnomangizni yoki chipta eshiklariga pasportni olib qo'yishingiz kerak-bu safarga borishingiz kerak"

Rasmiy tezyurar poyezdlarni bron qilish sayti (12306 China Railway) faqatgina xitoyliklar tomonidan ishlatilishi mumkinligi sababli, Smit china-diy-travel.com saytidan foydalanishni tavsiya qiladi. CHunki ushbu yo'nalishni qisqa vaqt ichida

ro'yxatga olish kerak. Shu bilan birga, u alternativa sifatida trip.com- ni taklif qiladi , hozirda narxlar bir tomonga 9 funt atrofida ko'rsatilgan.

Dunyodagi eng tezyurar poyezdlar Xitoy poytaxti va Nanjingdan janubgacha bo'lgan 1021 km.ni soatiga o'rtacha 317,7 km tezlikda bosib o'tib, bor-yo'g'i 3 soat 13 daqiqada bosib o'tadilar.

Xitoyning tezyurar temir yo'l tarmog'i dunyodagi eng katta tarmoq bo'lib, uning uzunligi 12500 km. Xitoyning o'q poezdlari tarmog'i tez sur'atlar bilan kengayib bormoqda va yaqin orada dengiz ostida kengayadi. Pekin rasmiylari Shanxay janubidagi port shahri Ningbo bilan sharqiy qirg'oqda joylashgan Joushan bilan 77 km tezlikda temir yo'l qurishni ma'qullashdi. Bu 16,2 km suvosti tunnelini o'z ichiga oladi, bu tezyurar poyezdlar uchun birinchi mamlakatdir. Yangi yo'nalish Xitoyning mavjud tezyurar tarmog'i bilan bog'lanib, yo'lovchilarni Xanchjou shahridan-Zhejiang provintsiyasining poytaxti-Chousanga 80 daqiqada etkazib beradi. Hozirgi sayohat avtobusda 4,5 soat yoki avtomobilda 2,5 soat davom etadi. Xitoyning tezyurar temir yo'l tarmog'ini hukumat 2025 yilgacha 38000 km yo'lni egallashni maqsad qilgan .

Avtomobil yo'llarining uzunligi tobora ortib bormoqda va hozirda 28 mln. km dan ortiq. Uning taxminan yarmi 5 mamlakat, AQSH, MDH, Hindiston, Xitoy, Yaponiyaga to'g'ri keladi. Avtoyo'llar texnik holati, mavqei, avtomobil qatnovi, iqtisodiy, siyosiy va harbiy ahamiyatga ko'ra dunyo ahamiyatiga molik, davlat ahamiyatiga, viloyat (shtat, provinsiya) ahamiyatiga, rayon va mahalliy ahamiyatga ega yo'llarga bo'linadi. SHuningdek, temir-beton, asfalt, tosh, grunt yo'llarga bo'linadi.

Jahon avtoyo'llari, avtoparklar va avtotransportda yuk tashishning 90 % rivojlangan davlatlarga to'g'ri keladi. YA'ni jahonda tashiladigan jami yukning 8 %, yo'lovchining 80 % avtotransportda tashiladi. Lekin bu ko'rsatkich turli davlatlarda turlicha. Masalan, tashiladigan jami yukning AQSH da 25,4 %, Fransiyada 21,2 %, Yaponiyada 7,4 %, Rossiyada 1,5 %, yo'lovchining esa AQSH da 88,2 %, Fransiyada 84,2 %, Yaponiyada 56,9 %, Rossiyada 33 % avtotransportga to'g'ri keladi.

Bugungi kunda dunyoda eng yirik 10 ta avtomobil ishlab chiqaruvchilar ajratilgan:

1. Volkswagen guruhi. Volkswagen Group dunyodagi eng yirik avtomobil ishlab chiqaruvchisi. Volkswagen AG nomi bilan ham tanilgan ushbu nemis kompaniyasi dastlab har kungi odamlar foydalana oladigan arzon avtomobillarni ishlab chiqarishni yo'lga qo'ygan . Volkswagen nomi so'zma-so'z "Xalq avtomobili" degan ma'noni anglatadi. Volkswagen Guruhi Evropaning yetti mamlakatidan o'n ikkita brendni ishlab chiqarishni kengaytirdi.Global savdosi-10,830,625.

2. Toyota Group. Toyota Group nafaqat besh xil markadagi avtomobillar va transport vositalarini , balki sanoat uskunalari va alohida avtomobil qismlarini ham ishlab chiqaradi. Toyota kompaniyalari Ikkinchi Jahon Urushidan keyin aziyat chekdilar va keyinchalik 1950 yillarda qaytishdi. Raqobatliroq bo'lish uchun Toyota rahbariyatni amerikalik ishlab chiqaruvchilarga sayohat qilish uchun yubordi va istiqbolli g'oyalarni qayd etdi. Global savdosi-10,520,655.

3. Renault - Nissan - Mitsubishi alyansi. Renault-Nissan-Mitsubishi alyansi eng uzoq davom etgan madaniyatlararo avtomobilsozlik ittifoqi deb tan olindi . Ushbu ittifoqdagi sheriklar kuchliroq global tarmoqni yaratish uchun kuchlarni

birlashtiradilar. Ular innovatsion g'oyalar ustida muvaffaqiyatli hamkorlik qiladilar va shu bilan birga o'zlarining brendlarini kuchaytirish uchun bir-birlariga imkoniyat yaratadilar. Global savdosi-10,360,992.

4. General Motors. Asosan avtomobilsoz sifatida tanilgan General Motors turli xil transport vositalarini ishlab chiqaradigan ishlab chiqarish va yig'ish zavodlarini boshqaradi. Biroq, General Motors shuningdek moliyaviy xizmatlarni taklif qilishini ko'pchilik bilmaydi . 2018 yilda u Fortune 500-ning daromadi bo'yicha Amerikaning 10-yirik korporatsiyasi qatoriga kirdi. Uning brend tarkibiga Buick, Chevrolet, Cadillac va Hummer kabi uy nomlari kiradi. Global savdosi-8,786,987.

5. Hyundai Group. Ushbu ko'p millatli konglomerat juda xilma-xil mahsulotlarni ishlab chiqaradi va Janubiy Koreyadagi eng yirik avtomobilsozga aylandi. Hyundai Group tarkibidagi turli kompaniyalar ishlab chiqaradilar va avtomashinalardan tortib to yaxtalarga qadar stereo jihozlargacha bo'lgan hamma narsani ishlab chiqaradilar va tarqatadilar. Global savdosi-7,507,945.

6. Ford Motor Company. Ford Motor Company nafaqat eng yirik avtomobil ishlab chiqaruvchilardan biri - bu dunyodagi eng katta oilaviy biznesdir , har bir direktor kompaniyaning asoschisi Genri Ford bilan bevosita bog'liqdir. Fordning birinchi avtomobili A Model bo'lgan , ammo keyinchalik Model T avtomobili kompaniyani mashhurlikka olib borgan. U "Tushlarning kuchi" reklama kampaniyasi bilan asoschisining muvaffaqiyat tarixiga qaytgan. Global savdosi-5,734,306.

7. Honda Motor Company. Honda avtoulovi kompaniyasi Yaponiyalik muhandis va poyga haydovchisi Soichiro Xonda orzulariga asoslanib qurilgan. Uning jamoasining birinchi loyihalari velosipedda harakatlanadigan motorlarni qurish edi . Honda Motor Company "Orzularning kuchi" reklama kampaniyasi bilan o'zining asoschisining muvaffaqiyati haqidagi hikoyani davom ettirmoqda. Global savdosi-5,265,125.

8. Fiat Chrysler avtomashinalari. Fiat va Chryslerning birlashishi natijasida tashkil etilgan ushbu italyan-amerika avtomobil ishlab chiqaruvchisi Nyu-York fond birjasida ham, Borsa Italiana-da ham ro'yxatga olingan. Fiat Chrysler avtomobillari "Katta uchlik" Amerika avtomobil ishlab chiqaruvchilaridan biri hisoblanadi va dunyodagi 159 ishlab chiqarish korxonalariga ega. Global savdosi-4,840,664.

9. PSA engil avtomobillar (Groupe PSA). Ilgari PSA Peugeot Citroën deb atalgan PSA Automobiles frantsuz avtomobil ishlab chiqaruvchisi bo'lib, u avtomobillar va yuk mashinalari bilan birga velosiped va mototsikllarni ishlab chiqaradi . 2016 yildan boshlab, PSA Automobiles o'z kompaniyalari guruhiga Opel kabi istiqbolli avtomobil markalarini qo'shib , butun Evropa bo'ylab tez tarqalish rejalarini amalga oshira boshladi. Global savdosi-4,125,683.

10. Suzuki. Rasmiy Suzuki Motor Corporation nomi bilan tanilgan ushbu taniqli avtomobil ishlab chiqaruvchisi avtomobillardan tortib ATVGacha nogironlar aravachalarigacha bo'lgan hamma narsani ishlab chiqaradi. Suzuki Yaponiyaning to'rtinchi yirik avtomobil ishlab chiqaruvchisi bo'lib, 190 dan ortiq mamlakatlarda o'z avtomobillarini sotadi. Global savdosi-3,213,224.

Quvur transportida asosan tabiiy gaz, neft, suv va sut (Avstriya, Shvetsiya tog' yaylovlarida), issiqlik (paravoy) tashiladi. Quvur transportining ish unumi quvurning yo'g'onligi, materialning sifatiga, gaz va neftning qanday bosim bilan

harakatlanishiga bog'liq. FTI yutuqlari hozirda 120 va hatto undan ortiq atmosfera bosimi yaratish va shunga chidamli quvurlar ishlab chiqarish imkonini bermoqda. Lekin atmosfera bosimiga eng chidamli quvurlarda tabiiy gaz va neft tashish faqat ayrim rivojlangan mamlakatlarga xos bo'lib, ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlarda bu ko'rsatkich juda past. Masalan, O'zbekistonda quvur transportida hozircha bosim 40 atmosferadan oshmayapti (xonadonlarimizdagi gaz quvurlarida bosim 0,5-2 atm. bo'ladi).

Jahonda quvur transportining (neft va gaz quvurlari) umumiy uzunligi taxminan 2 mln km ga yaqin. Jahonda tashiladigan barcha yukning 11 % quvur transportiga to'g'ri keladi. Lekin bu ko'rsatkich Rossiyada 27,5 %, AQSHda 16,5 %, Fransiyada 5,2 %, Yaponiyada 0,2 % ni tashkil qiladi. Jahonda quvur transportining uzunligi bo'yicha etakchi regionlar, MDH (200000 km), Kanada, AQSH, Janubi-G'arbiy Osiyo mamlakatlari.

Quvur magistralining uzunligi ba'zan 5000 km gacha boradi. MDH da quvurlar orqali neftning 60 %, tabiiy gazning deyarli hammasi tashiladi. Jahonda esa tashiladigan barcha yukning 17 % i quvur transporti hissasiga to'g'ri keladi. "Do'stlik" (Drujba) neft quvur magistrali "Shimol yog'dusi" (Siyanie Severa) tabiiy gaz quvurlari MDH dagina emas, balki jahondagi eng yirik magistrallar hisoblanadi. Mazkur magistrallar orqali MDH dan Bolgariya, sobiq Yugoslaviya davlatlari, Vengriya, Chexiya, Slovakiya, Polsha, Fransiya va GFR kabi davlatlarga neft va tabiiy gaz eksport qilinadi. Mazkur mamlakatlarning neft-ximiya sanoati tarmoqlarining asosiy qismi mazkur magistrallar atroflarida joylashgan.

Quvurlarni hamma joyda, istalgan yo'nalishda yotqizish mumkin, buning ustiga uning yuborish masofasi daryo va temir yo'l transportidagiga nisbatan qisqaroq va tannarxi pastroq bo'ladi. FTI tufayli neft va gaz quvurlar dengizlar ostida ham yotqizilmoqda. Masalan, Shimoliy dengizi va O'rta Yer dengizida. 1980 yillar boshida jahonda birinchi marta qit'alararo quvur magistrali yotqizildi. Bu Jazoir-Italiya gaz quvuri bo'lib, uning uzunligi 2,5 ming km, chuqurligi 500-600 m.li dengiz tubidan o'tgan. Trassa butun O'rta dengizni kesib o'tgan bo'lib, uning yotqizilishida maxsus kemalar qatnashgan. Kelajakda quvurlardan suv yordamida qattiq materiallar (ko'mir, ruda) ni maydalangan holda tashish ko'zda tutilmoqda va loyihalari ishlanmoqda.

2.3. Suv transporti tarmoqlari

Suv transporti-transportning tabiiy suv yo'llari (daryolar, ko'llar, dengizlar, okeanlar), shuningdek sun'iy suv yo'llari (kanallar, suv omborlari) orqali yuklar va yo'lovchilar tashiydigan turi hisoblanadi. Suv transporti dengiz va ichki suv transportiga (daryo transporti, ko'l transporti) bo'linadi.

Daryo transporti, ichki suv transporti-transportning ichki tabiiy suv yo'llari (daryolar, ko'llar) va sun'iy suv yo'llari (kanallar, suv omborlari va daryolarning shlyuzlangan qismlari) da yuk va passajirlar tashiydigan turi. Daryo transporti kemalari ba'zan sohil bo'ylab suzish uchun dengizga ham chiqadi. Magistral yo'llar (jumladan, bir necha davlatning tashqi savdo yuklarini tashishga xizmat qiladigan xalqaro daryo yo'llari) ajralib turadi. Yirik kemalarda uzoq masofalarga yuk tashish,

quruqlikdagi yo'llarda yuk tashishga nisbatan arzonroq bo'lgani uchun ommaviy yuklar (yog'och-taxta, neft va b.) tashish uchun ayniqsa qulaydir.

Dengiz transporti-transportning eng qadimiy turlaridan biri bo'lib, ommaviy ravishda yuk va passajirlar tashish uchun aksari oson tabiiy suv yo'lidan (okeanlar, dengizlar va dengiz kanallaridan) foydalanadi. Dengiz transportida yuklarni tashish uchun ko'p mehnat sarflanmaydi. Dengiz transportidan foydalanish darajasi ko'p jihatdan mamlakatning geografik o'rni, uni o'rab turgan dengizlarning xarakteriga, shuningdek mamlakatning iqtisodiy taraqqiyot darajasiga bog'liq bo'ladi. Dengiz yo'llari xalqaro okean yo'llariga, regional ahamiyatga ega bo'lgan xalqaro dengiz yo'llariga va kabotaj yo'llariga bo'linadi.

Suv transporti dengiz va daryo transportiga bo'linadi. Dengiz transporti jahon transport sistemasining (tizimining) juda muhim tarkibiy qismi bo'lib, shu transportning rivojlanishi tufayli Dunyo okeani qit'alarini bir-biridan ajratib turuvchi emas, balki bog'lab turuvchi vositaga aylandi. Jahonda xalqaro tashiladigan butun yuklarning 62 %, yo'lovchining 0,5 % dengiz transportida tashiladi. Dengizda yuk tashish 2 xil bo'ladi:

1. Chet mamlakatlarga yuk tashish;
2. Kabotaj (o'z mamlakati portlari orasida).

Kabotaj 2 xil bo'ladi:

1. Katta kabotaj-turli dengizlar orqali yuk tashish;
2. Kichik kabotaj-bir dengizda, yoki yonma-yon dengizda yuk tashish.

Suv transportida tashiladigan yuk evaziga olinadigan kira haqi **fraxt** deyiladi. Kemalar har xil yuklarni tashiyveradigan universal kemalardan va maxsus kemalardan ((yog'och-taxta tashuvchi, konteyner tashuvchi, refrijerator (xolodilnik qurilmalari o'rnatilgan kemalar), neft va suyultirilgan gaz tashuvchi (tanker), ko'mir va ruda tashuvchi)) iborat.

Dengizda yuk tashishga dengiz savdo floti (DSF) xizmat qiladi, uning umumiy tonnaji 400 mln.t. dan ortiq. 1970 yillar dengiz kemalarining asosiy qismini tankerlar tashkil etar edi, endilikda tankerlar salmog'i sezilarli kamaygan. Jahon DSFda 160 ga yaqin davlat kemalari mavjud bo'lsada, lekin flotning yuk ko'tarish qobiliyati (tonnaji) jihatidan quyidagi davlatlar ajralib turadi:

- | | |
|------------------------|---------------------|
| 1. Panama (58 mln.t.); | 6. Yaponiya; |
| 2. Liberiya (54); | 7. Buyuk Britaniya; |
| 3. Gretsiya (30); | 8. Xitoy; |
| 4. Kipr; | 9. Rossiya; |
| 5. Norvegiya; | 10. AQSH. |

DSFda Liberiya va Panama flotining mavjudligiga va yetakchi ekanligiga sabab shuki, aslida iqtisodiy rivojlangan davlatlarning kemalari shu davlatlar bayrog'i ostida suzadi. Bunga sabab, kema egalarning soliqni kamroq to'lash va dengizchilarga kamroq maosh berish hisobiga mablag'ni iqtisod qilishi.

Dengizda yuk tashishning ko'payishi faqat flot tonnajining oshishiga bog'liq bo'lmay (Yaponiyada 1 mln.t.), balki portlarning yuk o'tkazish qobiliyatiga ham bog'liq. Jahondagi hamma dengiz portlarining umumiy soni 2700 dan ortadi. Lekin jahon portlari deb ataladigan (yiliga 50 mln.t. dan ortiq yuk o'tkazadigan) portlar soni 20 ta. Bularning 11 tasi yiliga 100 mln.t.dan ortiq yuk o'tkazadi. Rivojlangan

mamlakatlar uchun universal portlar, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun maxsus portlar, ya'ni tor ixtisosli portlar (neft, ruda, g'alla) xosdir.

Buyuk geografik kashfiyotlar davridan boshlab jahonda kema qatnovida Atlantika okeani 1-o'rinda turadi. Okean sohillarida 1,5 mlrd aholisi bo'lgan 70 mamlakat joylashgan. Dengizda tashiladigan yukning teng yarmi shu okeandan o'tadi va barcha dengiz portlarining 2/3 qismi shu okean bo'yida joylashgan. Dengizda yuk tashishda 2-o'rinda Tinch, 3-o'rinda Hind okeani turadi. MDHda yuk oboroti bo'yicha 1-o'rinda Qora va Azov dengizlari turadi. Jahonda eng yirik dengiz portlari, Rotterdam (bir yo'la 310 ta yirik kemani qabul qiladi, yiliga yuk oboroti 225 mln.t.), Nyu-York, Kobe (Yaponiya), Tiba (Yaponiya), Iokogama (Yaponiya), Nagoya (Yaponiya), Singapur.

Xalqaro dengiz kanallari-jahon dengiz yo'llarining eng muhim chorrahalari hisoblanadi. Masalan, Suvaysh kanali (1869 yil ochilgan), uzunligi 161 km, eni 120-150 m, chuqurligi 16 m, shlyuzsiz, 150 ming t.gacha kemalarni o'tkazadi, sutkasiga 60 ta, yiliga 20 ming kema o'tadi, yo'l vaqti 15 soat, yuk aylanmsi 340 mln.t. Yevropa bilan Osiyo portlari orasidagi masofani 9 ming km ga, 2,5-3 marta qisqartiradi. Suvaysh kanali qazilishi 10 yil davom etgan. Faqat qo'l kuchi bilan kanal qazilishida 120000 odam o'lgan. Shuning uchun kanal qazuvchilar xotirasiga monument qo'yilgan.

Panama kanali 1914 yil 15 avgustda ochilgan. Kengligi 91,5-150 m, chuqurligi 12,5, uzunligi 81,6 km, yiliga 12-15 ming kema o'tadi. Yuk oboroti 100 mln.t. 1903 yil Panama Gatun bo'yini AQSHga beradi. 1977 yil AQSH-Panama shartnomasiga muvofiq kanal Panamaga 31.12.1999 yil qaytarilishi kerak edi.

Kil kanali 1887 yil Germaniyada strategik maqsadda qazilgan. Shimoliy va Boltiq dengizlari orasidagi masofani 430 km ga qisqartiradi. Uzunligi 95 km, kengligi 102 m, chuqurligi 11 m, yillik yuk oboroti 50 mln.t.

Jahon dengiz bo'g'ozlari, Bob el-Mandeb, Katta Belt, Bosfor, Gibraltar (sutkasiga 200 ta kema o'tadi). Dardanel, Zond, Kara Darvozasi, Kattegat, Koreya, La-Mansh (sutkasiga 500 kema o'tadi). Laperuza, Magellan, Malakka, Pa-De-Kale, Skagerrak, Tayvan, Tatar, Torres, Sugaru, Florida, Eresun kanallari mavjud. Faqat mazkur bo'g'ozlar yirik dengiz kemalari uchun "torlik" va "sayozlik" qilib kelmoqda. Masalan, La-Mansh bo'g'ozining kafolatli chuqurligi 30-35 m, Bosforniki 27 m, Malakkaniki 25 m.

Eng yirik paromlar, Boku-Turmanboshi (300 km), Pusan-Simonoseki (222 km), Fransiya-Buyuk Britaniya va hokazo.

Dengiz transporti xalqaro savdoning deyarli 80 % ini amalga oshiradi. Dengiz yo'llari orqali, asosan, katta miqdordagi suyuq, quruq, sochma ko'rinishdagi yuklar tashiladi. Dengiz transportida yuk tashuv ishlari dengiz savdo floti tomonidan amalga oshiriladi. Yuk tashish hajmiga ko'ra Panama, Liberiya, Marshall orollari, Gretsiya kabi davlatlarning flotlari yetakchilik qiladi.

Asosiy dengiz yo'llari turli mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi va ularni iste'mol qiluvchi davlatlar o'rtasida tashkil qilingan. Odatda, Afrika, Lotin Amerikasi, Osiyo, Avstraliyadan turli sanoat va qishloq xo'jalik xomashyolari Yevropa, Yaponiya, Koreya Respublikasi, Shimoliy Amerika mamlakatlariga, ulardan esa aholi va xo'jalik uchun turli iste'mol mahsulotlari dunyoning barcha hududlariga yetkazib

beriladi. Dengiz transportida umumiy yuk tashish hajmining 60 % i Atlantika okeani hissasiga to'g'ri keladi. Dengiz transport vositalariga xizmat ko'rsatuvchi 2 mingdan ortiq portlar mavjud bo'lib, Shanxay, Singapur, Rotterdam portlari ular orasida yuk qabul qilish hajmiga ko'ra yetakchilik qiladi.

Dengiz transporti rivojiga xalqaro kanallar va dengiz bo'g'ozlari katta ta'sir ko'rsatadi. Xalqaro kanallar orasida Suvaysh va Panama kanallarining ahamiyati juda katta. Ular qit'alar orasidagi masofalarning qisqarishiga imkoniyat beradi. Dengiz bo'g'izlari orasida eng ko'p kemalarni o'tkazadiganlari La-Mansh, Eresunn (Zond), Gibraltar, Xormuz, Malakka, Bosfor bo'g'izlaridir.

Ichki suv transporti daryo, ko'llar hamda kanallar yordamida davlatlarning ichki hududlariga yuk va yo'lovchi tashishni amalga oshiradi. Daryo va ko'l transporti yo'llarining uzunligiga ko'ra jahonda Rossiya, Xitoy, AQSH, Braziliya, Kanada yetakchilik qiladi. Ichki suv transportidan foydalanishda yirik daryo, ko'l hamda kanallarning ahamiyati katta. Bunday daryolar qatoriga Amazonka, Missisipi, Dunay, Volga, Yanszi, Kongo va boshqalar kiradi. Ular bilan bir qatorda kemalar qatnovida Qirg'oqbo'yi (AQSH), Buyuk (Xitoy), Volga-Boltiq (Rossiya), Reyn-Mayn-Dunay (Germaniya) kanallaridan foydalaniladi.

Haqiqatdan ham, ichki suv transporti-transportning eng qadimgi turidir. Mazkur transport yuk va yo'lovchi tashishda, yo'llarning umumiy uzunligi (550 000 km) bo'yicha jahon transport sistemasida oxirgi o'rinlarda turadi. Yukning 2 %, yo'lovchining 0,5 % shu transportda tashiladi. Ichki suv transportining rivojlanishi va joylashishi birinchi navbatda kemalar suza oladigan daryo hamda ko'llarning bor-yo'qligiga bog'liq. Quruqlik transportiga qaraganda daryo transportining kamchiliklari bo'lishiga qaramay, ba'zi hududlarda daryo transporti hal qiluvchi rol o'ynaydi, masalan, Sibirda, Amazoniyada.

Daryo kemalari ko'p yuk ko'taradi va tashiladigan yuk birligiga energiyani temir yo'lga nisbatan deyarli 6 marta kam sarflaydi. Shu sababli daryolarda hajmi katta, miqdori ko'p va tez olib borishi talab etilmaydigan yuklar tashish iqtisodiy jihatdan foydali. Daryo transportida tashiladigan yuk tannarxiga sharsharalar, ostonalar va daryolarning sayozligi salbiy ta'sir ko'rsatadi. Mazkur to'siqlarga FTI sababli birmuncha barham berilmoqda.

Amazonka, Missisipi, Ob, Enisey, Kongo kabi daryolarning transport imkoniyatlari yirik temir yo'l transporti imkoniyatlaridan ham ortiq. Biroq bu imkoniyat va sharoitdan foydalanish iqtisodiy rivojlanishning umumiy darajasiga bog'liq. Shuning uchun dunyoda ichki suv yo'llarida yuk tashishda AQSH, Rossiya, Kanada, Germaniya, Fransiya, Niderlandiya, Xitoy ajralib turadi. Ayni paytda Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasining juda katta daryo shaxobchalariga jahon ichki suv yo'llarida tashiladigan yukning 5 % to'g'ri keladi. Ichki suv yo'llarning uzunligiga ko'ra 1\10 qismi sun'iy suv yo'llariga to'g'ri keladi. Ularning eng kattalari AQSH, Xitoy, Rossiyada joylashgan.

Ko'l kema qatnovining eng asosiy rayoni AQSH va Kanadadagi Buyuk ko'llar bo'lib, bu ko'llar San-Lavrentiy chuqurlatma kanali orqali okeanga tutash. Bu yo'l orqali dengiz kemalari quruqlik ichkarisiga 4000 km ga kira oladi. MDH dagi asosiy daryo yo'li Volga-Kama havzasi bo'lib, undan tashqari Dnepr, Don va Sibir daryolari katta ahamiyatga ega. Ko'llaridan Ladoga (2-jahon urushi yillarida sobiq Leningrad

(Sankt-Peterburg) shahri uchun 900 kunlik blokadada “hayot yo‘li” bo‘lgan), Onega, Kaspiy dengiz ko‘li, Balxash, Baykal muhim o‘rin tutadi.

O‘zbekistonda asosan Amudaryo, Sirdaryoda esa qisman suv transporti mavjud bo‘lib, boshqa transport tarmoqlarining taraqqiy etishi munosabati bilan suv transportining ahamiyati tobora pasayib bormoqda. Orol dengizida kema qatnovi 1980 yillargacha mavjud bo‘lib, keyingi yillarda to‘xtab qolgan.

2.4. Zamonaviy transport tarmoqlari

Bugungi kunda har bir tarmoq fan texnika inqilobi natijasida o‘zining rivojlanish yo‘nalishini o‘zgartirmoqda va takomillashtirmoqda. Jumladan, transport tizimi ham o‘zida yangi yo‘nalishlarni (elektron transport) kashf etgan holda, sifat darajasini (tezligi, ixchamligi, yuk va yo‘lovchi tashish qobiliyatini) oshirib bormoqda. So‘nggi yillarda transport turlari ko‘payib va rivojlanib bormoqda, ularning joylanishi ham o‘zgarmoqda. An’anaviy temir va avtomobil, suv (daryo, dengiz va okean), quvur transporti bilan bir qatorda havo va elektron transport ham rivojlanib bormoqda.

Havo (aviatsiya) transporti-transportning eng yosh, eng tez, eng qimmat va joy refiga bog‘liq bo‘lmagan turidir. Dastlabki “samolyotni” 1885 yil rus dengiz ofitseri A.F.Mojayskiy ixtiro qildi. Uning bug‘ dvigatelli birinchi samolyoti bo‘lib, podsho tomonidan qo‘llab-quvvatlanmadi. Ikkinchi samolyotni 1903 yil amerikalik aka-uka Raytlar yaratdi (kerosin bilan ishlaydigan). Mazkur samolyot 32 m ga uchdi. “Avis” so‘zi lotincha “qush” demakdir.

Havo transportining ahamiyati yil sayin ortib bormoqda. Masalan, 1948 yil havo transportida 20 mln yo‘lovchi tashilgan bo‘lsa, hozirda taxminan 1,5 mlrd ortiq yo‘lovchi tashiladi. Dastlabki samolyot bug‘ dvigatelli bo‘lsa, hozirda turbovintli va reaktiv samolyotlar qatnamoqda. Havo yo‘llarining umumiy uzunligi 8 mln km ga cho‘zilgan bo‘lib, ularni 25 000 tayyoragoh (aeroport) tutashtiradi.

Havo transporti yo‘lovchilar, pochta va boshqa turli yuklarni tezlik bilan tashiydigan jahondagi eng tez va qimmat transport tarmog‘i hisoblanadi. Jahon bo‘yicha havo transportida yo‘lovchi tashish miqdori yildan yilga ortib bormoqda. Hozirgi kunda jahon yo‘lovchi tashish miqdorining 20% ga yaqini ushbu transport tarmog‘iga to‘g‘ri kelmoqda. Xalqaro aloqalar so‘nggi davrlarda, ayniqsa, Yevropa bilan Shimoliy Amerika davlatlari o‘rtasida faol kechmoqda. Hisob-kitoblarga ko‘ra, Atlantika okeani ustida bir vaqtning o‘zida yuzdan ortiq havo laynerlari har ikki tomonga qarab harakatda bo‘ladi.

Mazkur transport tarmog‘ining rivojlanishida aeroportlarning o‘rni juda katta. Yo‘lovchilarni qabul qilish miqdoriga ko‘ra Atlanta (AQSH), Pekin (Xitoy), Dubay (BAA) aeroportlari peshqadam hisoblanadi. Havo transportini qaysi regionlarda va qay darajada rivojlanganligi jahondagi eng yirik 19 ta aeroport joylashgan hududga qarab ham bilsa bo‘ladi. Jahondagi eng yirik mazkur 19 aeroportni 8 tasi AQSH da, 5 tasi Xorijiy Yevropada, 1 tasi Rossiyada, 1 tasi Kanadada, 1 tasi Kubada, 1 tasi Singapurda, 1 tasi Yaponiyada, 1 tasi Avstraliyada joylashgan. Dunyodagi eng katta tayyoragoh Londondagi Xitrou tayyoragohi bo‘lib, 1 sutkada 100 000 yo‘lovchi va 700 samolyotni qabul qiladi va uchirib yuboradi. AQSH dagi eng yirik xalqaro aeroport Chikago shahridagi Xayr aeroportidir. Tezligi soatiga 2300-2500 km

bo'lgan samoliyotlar loyihalashtirilmogda. Frantsiya va Buyuk Britaniya hamkorligida ishlab chiqarilgan "Konkord" rusumli tovushdan tez uchuvchi samolyot Atlantika okeani ustidan 3 soatda uchib o'tgan.

Havo transporti transportning eng tezkor turidir. Tijorat samolyotlari soatiga 955 kilometrgacha (soatiga 593 milya) va tezyurar bo'lsa, erdan ancha yuqori tezlikda, pistonli generatsiyalangan umumiy aviatsiya samolyotlari esa 555 kilometrgacha etib borishi mumkin (soatiga 345 milya) yoki undan ko'p. Ushbu ko'rsatkich yuqori xarajat va energiya sarfini talab qiladi va aviatsiyaning atrof-muhitga, ayniqsa global iqlimga ta'sirini, transportning boshqa turlarini taqqoslashda hisobga olish kerak. Iqlim o'zgarishi bo'yicha Hukumatlararo Guruh tijorat samolyotining parvozini iqlimga ta'sirini CO₂ bilan taqqoslaganda 2-4 baravar ko'proq bo'lishini taxmin qilmoqda. Atmosfera kimyosi va yuqori balandlikdagi radiatsion majburlash effektlari tufayli chiqindilar yer darajasida amalga oshirildi.

2013 yilning oktyabridan 2014 yil sentyabrigacha bo'lgan o'n ikki oy ichida AQSh aviakompaniyalari tomonidan 16,2 milliard gallon yoqilg'i yoqilgan. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti hisob-kitoblariga ko'ra, dunyo bo'yicha bir vaqtning o'zida 500 mingga yaqin odam samolyotda. Dunyo bo'yilab tendentsiya shundan iboratki, havo orqali sayohat qiladigan odamlar sonining ko'payishi va individual ravishda buni tobora ko'payib boruvchi chastota va uzoqroq masofalar, iqlimshunoslar va boshqa tadqiqotchilar diqqat markazida bo'lgan transport havo transportidir. Tez-tez sayohat qilishning ta'siri, xususan havo orqali, bir yoki bir necha kun ichida osonlikcha yopiladigan masofa gipermobiliyat deb ataladi va ko'p yillar davomida tadqiqot va hukumatning diqqat markazida bo'lib kelgan.

Elektron transport yangi va ahamiyati tez o'sib borayotgan transport tarmog'idir. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda yaxshi taraqqiy etgan. Lekin ayrim rivojlanayotgan mamlakatlarda, ayniqsa, qoloq Afrika mamlakatlarida endi shakllanayotgan yoki butunlay shakllanmagan transport turidir. **Elektron** transportda elektr energiyasi, tovush (telefon), tasvir (internet) va turli xil belgilar tashiladi. Radio hamda teletelofon ham tashiladi. Mazkur transport turining rivojlanganlik darajasi jahon mamlakatlarining iqtisodiy rivojlanish darajasiga bog'liq. Elektr stansiyalarining (GES, IES, AES) bir-biriga ulanishi natijasida energetika tizimi hosil bo'ladi, ya'ni elektron transport vujudga keladi. Biroq mamlakat yoki regiondagi (mamlakatlararo) IES larning o'zaro tutashishidan, ya'ni birlashtirilishidan YAES (yagona energetika sistemasi) hosil bo'ladi.

XXI asrning birinchi o'n yilligida "Xalq avtomobili" yaratish ustida turli loyihalar tuzildi. Bunday avtomobil birinchi navbatda arzon bo'lishi lozim edi. Hindistonda yaratilgan shunday avtomobillar 2000 dollar turgan. Bu avtomobillarning ko'p qismlari keramika va plastikdan yasalgan, xavfsizlik darajasi past bo'lgani uchun ommalashmadi. Zamonaviy qulayliklarga ega bo'lgan avtomobillar ishlab chiqarishda Yaponiya, Germaniya, AFSH, Buyuk Britaniya, Italiya, Frantsiya, Shvettsiya mamlakatlari etakchilik qiladi. O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilgan avtomobillar ham zamonaviy talablarga yuqori darajada javob beradi.

Tez rivojlanib borayotgan jahon transporti murakkab va o'ziga xos tarmoqlar tizimini tashkil qiladi. Zamonaviy hayotimizda transportning yangi turlari kirib

kelmoqda. Bular quyidagilardan iborat: optik tola, elektron, kosmik va hokazolar. Jumladan, kabel transporti-bu ichki quvvat manbai o'rniga transport vositalarini kabel orqali tortadigan keng usul. Ko'pincha tik gradientda ishlatiladi. Oddiy echimlarga tramvay yo'llari, liftlar, eskalator va chang'i liftlari kiradi. Ulardan ba'zilari, shuningdek, konveyer transporti deb tasniflanadi .

Kosmik transport-bu kosmik kema yordamida Yer atmosferasidan kosmosga tashish. Katta hajmdagi tadqiqotlar texnologiyaga kirgan bo'lsa-da, kamdan-kam hollarda sun'iy yo'ldoshlarni orbitaga tushirish va ilmiy tajribalar o'tkazishda foydalaniladi. Biroq, inson Oyga qo'ndi va Quyosh tizimining barcha sayyoralariga zondlar yuborildi.

Uchuvchisiz havo vositasi (uchuvchisiz transport) vujudga kelmoqda. Eng kam rivojlangan mamlakatlarda dori tashish uchun ishlatilmoqda. Hozirda Amazon.com va boshqa transport kompaniyalari posilkalarni etkazib berishda uchuvchisiz samolyotlardan foydalanishni sinab ko'rishmoqda. Ushbu usul qisqa vaqt ichida kichik posilkalarni etkazib berishga imkon beradi.

Hozirda, Xitoy poytaxti Pekinda dunyodagi eng katta aeroport "Dasin" qurilishi yakunlandi. Ta'kidlanishicha, "Dasin" nafaqat aeroport, balki Xitoydagi eng katta transport **xabi** hisoblanadi. Uning qurilishiga 400 mlrd yuan (60 mlrd dollar) sarflangan. "Oltin qaqnus" ko'rinishidagi yagona terminal va million kvadrat metr maydonga ega aeroport Xitoy tashkil topganining 70 yilligi arafasida 30 sentyabrda ishga tushirilishi rejalashtirilgan. Loyihani Xitoy raisi Si Tszinpin shaxsan o'z nazoratiga olgan.

Aeroport Pekin janubida, markazdan 46 km uzoqlikda joylashgan. Uni qurishga asosiy sabab-dunyoning eng yuklangan aeroportlaridan biri "Shoudu" xalqaro aeroportini ortiqcha yuklamadan ozod qilishga intilish bo'lgan. Ikki aeroport o'rtasidagi masofa 67 kmni tashkil qiladi.

Aeroport poydevoriga tamal toshi 2014 yil 26 dekabrda qo'yilgan, qurilishi esa 2016 yil 15 martda boshlangan. Yangi aeroportda 4 ta uchish-qo'nish yo'lagi bo'ladi, u yiliga 620 mingtagacha reysni qabul qila oladi. Aeroport loyihasida uning o'tkazish qobiliyati 2025 yilga kelib 72 mln kishini tashkil qilishi ko'zda tutilgan.

Ta'kidlanishicha, aeroportni loyihalashda yo'lovchilarga maksimal qulay va samarador bo'lishi uchun barchasi "ipidan-ignasigacha" hisobga olingan. Misol uchun, aeroportning ilk ikki qavati kelish reyslari va yukni topshirish uchun mo'ljallangan: birinchisi-ichki reyslar, ikkinchisi esa xalqaro reyslar uchun. Mos ravishda, 4-qavat xalqaro jo'nash reyslari, 3-qavat esa ichki jo'nash reyslari uchun mo'ljallangan.

Aeroport tomi ham dunyodagi eng katta po'lat tom deb tan olingan, uning maydoni 25 ta standart futbol maydoniga teng. Uni loyihalashda mashhur arxitektor va dizayner Zaha Hadid ishtirok etgan. Aeroport yana bitta rekord o'rnatishga ulgurdi-u strukturaviy choklarsiz qurilgan dunyodagi eng yirik alohida bino deb topilgan.

Modul bo'yicha xulosa o'rnida qaraydigan bo'lsak, 2019-2020 yillar transportda chuqur tarkibiy islohotlar boshlandi. Toshkent metrosining Sirg'ali tarmog'i, er usti halqa yo'lining birinchi bosqichi ishga tushirilishi, temir yo'l sohasida yo'lovchi va yuk tashish, ekspluatatsiya va xizmat ko'rsatishni bir-biridan ajratish, ya'ni, tabiiy

monopoliya qismini alohida, xususiy sektorni jalb qilish mumkin bo'lgan yo'nalishlarni alohida rivojlantirish lozimligi aytilgan. Xalqaro ekspertlarning xulosasiga ko'ra, infratuzilmani yaxshilash, moslashuvchan tariflar qo'llash va yangi istiqbolli yo'nalishlarni shakllantirish hisobidan bizda tranzit salohiyatini 2019 yilgi 7 million tonnadan 2020 yil 16 million tonnaga etkazish imkoniyati mavjudligi ko'rsatilgan⁷.

3-MODUL. SANOAT TARMOQLARI GEOGRAFIYASI

3.1. Sanoat tarmoqlarini tashkil etish va rivojlantirish asoslari

Sanoat moddiy ishlab chiqarishning bosh tarmog'i, iqtisodiyotning poydevoridir. Sanoat tabiatda uchraydigan moddiy boyliklarni qazib chiqarish va tayyorlashni, bu boyliklarni va qishloq xo'jaligida etishtirilgan mahsulotlarni qayta ishlashni o'z ichiga qamrab oladi. U barcha xalq xo'jaligi tarmoqlari uchun ishlab chiqarish kuchlarining asosiy elementlaridan biri hisoblangan "jamiyatning tabiat ustidan hukmronligini" birmuncha oshiradigan, fan-texnika taraqqiyotini belgilaydigan, inson mehnatining unumdorligini oshirishga imkon beradigan, mehnat va ishlab chiqarish qurollarini yaratadigan sohadir.

Haqiqatdan ham, sanoat moddiy ishlab chiqarishning birinchi asosiy manbai hisoblanadi. Sanoat, qisqacha aytganda, asosan tabiatdan olingan xom ashyoga qayta ishlov berish natijasida o'zining dastlabki holatini o'zgartirgan mahsulot turlarini o'z ichiga oladi. Sanoat geografiyasi sanoatning tarmoqlar tarkibi va majmualarini hududiy joylashtirish qonuniyatlarini, shakllanish sharoitini va tarmoq yoki majmua sifatida o'ziga xos xususiyatlarini turli davlatlar va rayonlar doirasida o'rganadi. Jahonning barcha sanoat tarmoqlarida taxminan 350 milliondan ziyod kishi va xodimlar ishlaydi (ba'zi manbalarda 450 mln dan ortiq deb berilgan). Sanoat, uning o'ziga xos tarmoq va hududiy xususiyatlarini sanoat geografiyasi yoritadi.

Sanoat geografiyasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- sanoat rivojlanishiga sezilarli ta'sir etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy omillarni tavsiflash;
- sanoat rayonlari, tugunlari va markazlarining shakllanish omillarini o'rganish;
- sanoat tarmoqlari va majmualari shakllanish holatini o'ranish;
- ayrim sanoat tarmoqlari, majmualari holatiga va joylashishiga ta'sir etadigan texnik-iqtisodiy sharoitni tadqiq qilish;
- tarmoqlararo va rayonlararo aloqalarni o'rganish;
- mamlakat xalq xo'jaligida va iqtisodiy rayonlar shakllanishida sanoat joylashishining ahamiyatini aniqlash.

Har qanday mamlakat sanoatining asosini industirlashtirish darajasi tashkil qiladi. **Industirlashtirish-deganda ishlab chiqarishning hamma tarmoqlarida fan va texnikaning yutuqlaridan foydalanib, zamonaviy korxonalar qurib, rivojlangan sanoatni tashkil qilish tushuniladi.**

⁷O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning Oliy majlisga murojaatnomasi. "O'zbekiston ovozi"-gazetasi. №08. 2020-yil, 25-yanvar.

Industirlashtirish muayyan tarixiy va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasiga va xalqaro vaziyatga bog'liq. Dastlab industirlashtirish Buyuk Britaniyada amalga oshirildi. Bu yerda industirlashtirish to'qimachilik sanoatida qo'l mehnatini mashinalashtirishdan boshlandi, keyin og'ir sanoatni industirlashtirish amalga oshirildi. AQSH, Germaniya va boshqa davlatlar Buyuk Britaniya tajribasidan foydalanib to'qimachilik sanoatini industirlashtirishdan tezlik bilan og'ir sanoatni mashinalashtirib, markazlashgan ishlab chiqarishni tashkil qildilar.

Sanoatni (sanoat ishlab chiqarishini) tashkil qilishning asosiy shakllari (mujassamlashuv, kombinatlashuv, ixtisoslashuv, kooperatsiyalashuv ya'ni hamkorlashuv). Endi sanoatning tarkibiy qismlari va tuzilishini ko'rib chiqamiz. Avvalo bizga ma'lumki, sanoat tarmoqlari ma'lum mezonlarga asoslanadi. Tarmoqlar xom ashyo birligi, mahsulotni qaysi maqsadda yaratilganligi hamda texnologik jarayonning umumiyligiga ko'ra asoslanadi.

Sanoat tarmoqlarini ular ishlab chiqaradigan mahsulot xususiyatiga ko'ra, ya'ni mahsulotning iqtisodiy jihatdan bir maqsadga javob berish belgisiga qarab ikki guruhga bo'lishadi, og'ir va yengil sanoatga. Og'ir sanoat asosan ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqaradigan tarmoqlardan iboratdir, ya'ni unda mehnat qurollari (mashinalar, jihozlar va hokazolar) va mehnat predmetlari (xom ashyo, yoqilg'i va hokazolar) ishlab chiqariladi.

Og'ir sanoat mehnat predmetlarini (foydali qazilmalarni, gidroenergiya resurslarini) tabiatdan oladi. Shuning uchun uning katta qismini undiruvchi sanoat tarmoqlari tashkil qiladi. Uning qolgan katta qismini esa ishlov berish sanoati tarmoqlari (qora va rangdor metallurgiya, mashinasozlik, kimyo, elektronika va hokazolar) tashkil qiladi.

Og'ir sanoatda ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqarish («A» guruh) bilan birga iste'mol mollari ham ishlab chiqariladi («B» guruh). Shuning uchun og'ir sanoat mahsulotlari faqat sanoatda emas, balki aholining kundalik turmushida ham ishlatiladi.

Engil sanoat ijtimoiy ishlab chiqarishning ikkinchi bo'limiga («B» guruh) kiruvchi keng xalq iste'mollari ishlab chiqaradigan tarmoqlar guruhidan iborat. Asosiy tarmoqlari: ip-gazlama, zig'ir (tola beruvchi zig'ir asosida ishlaydi), jun, trikotaj, teri, poyabzal, mo'ynachilik, mebel, galanteriya va boshqalar.

Masalan, yuqoridagilarga qo'shimcha holda sanoat guruhlarini yoritadigan bo'lsak, sanoat ishlab chiqarishni ilmiy jihatdan asoslangan holda tahlil etish va rejalashtirish, uning samaradorligini aniqlash va boshqarish uchun tarmoqlarni tasniflash, ya'ni ma'lum guruhlariga ajratish A.Ortiqovning "Sanoat iqtisodiyoti" o'quv qo'llanmasida ham berilgan va u quyidagicha ifodalangan.

Sanoat tarmoqlarini guruhlashda asosiy e'tibor tayyorlanadigan mahsulotning iqtisodiy mazmuniga qaratiladi. **Mahsulotning iqtisodiy jihatdan bir maqsadga javob berishi belgisiga** qarab, sanoat ikki yirik guruhga bo'linadi: Ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqaruvchi ("A" guruh), iste'mol buyumlari ishlab chiqaruvchi ("B" guruh) turlarga bo'linadi.

Ma'lumki, deyarli barcha sanoat tarmoqlarida, ham ishlab chiqarish vositalari, ham iste'mol buyumlari sifatida foydalanish mumkin bo'lgan mahsulotlar tayyorlanadi. Shu sababli rejalashtirish va hisob-kitob yuritishda ba'zi bir sanoat tarmoqlari "A" yoki "B" guruhga kiritilishi mumkin. **Mehnat vositalarning mehnat buyumlariga ta'sir ko'rsatishiga qarab** sanoat qazib oluvchi va ishlov beruvchi tarmoqlarga bo'linadi. Sanoatning bunday ikki qismga bo'linishi ishlab chiqarish

aloqalarini ko'rsatishga, material va yoqilg'i-energetika resurslarini, ishlab chiqaruvchi va iste'mol qiluvchi tarmoqlar o'rtasidagi nisbatlarni asoslab berishga imkon yaratib beradi.

Ishlab chiqariladigan mahsulotning funksiyasiga(vazifasiga) binoan ham tarmoqlarni guruhlash mumkin. Bunda alohida guruhlar, bir qator tarmoqlar, masalan, yoqilg'i ishlab chiqaruvchi–yoqilg'i sanoati, oziq-ovqat mahsulotlari tayyorlovchi–oziq-ovqat sanoatiga birlashishi mumkin.

Yuqorida eslatib o'tganimizdek, sanoat yana undiruvchi va ishlov beruvchi tarmoqlarga ham bo'linadi. Undiruvchi sanoat turli xil xom ashyo va yoqilg'ini qazib oladigan hamda tayyorlaydigan tarmoqlardan iborat. Ushbu sanoatning asosiy tarmoqlari quyidagilardan iborat: tog'-kon sanoati, o'rmon-yog'ochni qayta ishlash-selyuloza, baliqchilik, ovchilik va boshqalar.

Tog'-kon sanoati foydali qazilmalarni qazish, tashish va boyitish bo'yicha ishlab chiqarish tarmoqlarini o'z ichiga oladi. Unga quyidagilar kiradi: yoqilg'i-energetika xom ashyosi, qora va rangli, kimyo hamda radioaktiv metall rudalari, tog'-kimyo (apatitlar, fosforitlar, kaliy tuzlari, oltingugurt) xom ashyosi va qurilish materiallarini qazib olish. Tog'-kon sanoati kon sanoatining tarkibiga kiradi. Kon sanoati o'z navbatida tog'-kon va qayta ishlash sanoatini o'z ichiga oladi.

Agar biz chuqurroq e'tibor bersak, undiruvchi sanoat taraqqiyotida mineral resurslarning o'rni yuqori. Hozirgi vaqtda dunyoda mineral resurslarning 200 ga yaqin turlaridan xo'jalik ehtiyojlari uchun foydalanilmoqda. Ular 3 guruhga, ya'ni yoqilg'i-energetika, rudali va noruda mineral resurslariga bo'linadi.

Masalan bugungi kunda ko'mirning aniqlangan zaxirasi-861,5 mlrd.t. yillik qazib olish-7,3 mlrd.t., neft-191,3 mlrd.t. yillik qazib olish-4,3 mlrd.t., tabiiy gaz-180 trln. m³. yillik qazib olish-3,6 trln. m³., temir rudasi-160 mlrd.t. yillik qazib olish-2,1 mlrd.t.

Mineral yoqilg'i zaxiralarning eng katta qismi ko'mirga (70-75 % gacha) to'g'ri keladi. Hozirgi vaqtda jahonda 3 600 dan ziyod ko'mir havzalari va konlari bor bo'lib, ular jami quruqlikning 15 % ini egallaydi. Yirik ko'mir havzalari ko'proq Shimoliy yarim sharda joylashgan. Ko'mirning eng yirik zaxiralari AQSH, Rossiya, Xitoy, Avstraliya, Hindiston, Germaniya, Ukraina, Qozog'iston, JAR va Indoneziya davlatlariga to'g'ri keladi.

Jahon bo'yicha 600 ga yaqin neft va gaz havzalari aniqlangan. Neft va gaz konlarining ham asosiy qismi sayyoramizning shimoliy yarim sharida joylashgan. Eng yirik neft-gaz zaxiralari Fors qo'ltig'i davlatlari, Venesuela, Shimoliy Amerika (AQSH, Kanada, Meksika), Rossiya (asosan, G'arbiy Sibir), Kasbiybo'yi mamlakatlari, Shimoliy Afrika (ayniqsa, Liviya va Jazoir), Gvineya qo'ltig'i mamlakatlari (ayniqsa, Nigeriya) hamda Xitoyda joylashgan.

Jahon iqtisodiyotida rudali (metall) qazilma resurslarining ahamiyati nihoyatda kattadir. Yer yuzida rudali mineral resurslarga boy mintaqalar, masalan, Alp-Himolay, Tinch okeanbo'yi mintaqalari mavjud. Bunday mintaqalar sanoat uchun muhim xom ashyo bazasi bo'lib xizmat qiladi va ayrim davlatlarning iqtisodiy rivojlanishini belgilaydi. Xitoy, Rossiya, AQSH, Kanada, Avstraliya, Braziliya, JAR, Qozog'iston, Hindiston, Chili, Peru jahonda qora va rangli metall xom ashyolariga eng boy mamlakatlar hisoblanadi.

Noruda mineral boyliklardan eng muhimlari osh tuzi, kaliy tuzlari, fosforit, oltingugurt, olmos, qurilish materiallari hisoblanadi. Ularning konlari qadimiy platformalarda, burmali tog'larda, sho'r ko'llarning botiqlarida ko'p uchraydi. Turli mineral tuzlarning zaxiralari bo'yicha dunyoda Rossiya, AQSH, Xitoy, Hindiston, Boliviya, Belarus, Avstraliya singari mamlakatlar yetakchilik qiladi. Olmosning katta zaxiralariga ega bo'lgan davlatlar esa Rossiya, Avstraliya, Botsvana, JAR, Kongo Demokratik Respublikasi, Kanada, Angola va boshqalardir.

Xom ashyoga ishlov beradigan yoki uni qayta ishlaydigan sanoat tarmog'i ishlov beruvchi sanoat tarmog'i deb ataladi. Xom ashyo asosan tog'-kon sanoati, qishloq xo'jaligi, o'rmon xo'jaligi, baliqchilik va boshqa tarmoqlarda qazib olinadi va tayyorlanadi. Xom ashyo sintetik yo'l bilan ham olinadi.

Ishlov beruvchi sanoatga quyidagilar kiradi: mashinasozlik, metallga ishlov berish, qora va rangli metallurgiya, neftni qayta ishlash, kimyo, elektrotexnika, elektron, yog'ochni qayta ishlash, qurilish materiallari ishlab chiqarish, qog'oz ishlab chiqarish, to'qimachilik, tikuvchilik, poyabzal, un, qandolat, konserva va boshqa sanoat tarmoqlari.

Sanoatda ishlab chiqariladigan mahsulot tannarxining asosiy qismini xom ashyoga va unga ishlov berishga ketgan sarf-xarajatlar tashkil qilsa, bunday sanoat ko'p mablag' (material) talab qiladigan ishlab chiqarish deb ataladi. Unga sanoatning quyidagi tarmoqlari kiradi: to'qimachilik, tikuvchilik, oziq-ovqat, mashinasozlik va kimyo (fosforli va kaliyli tuzlar ishlab chiqarish) sanoatining ko'p tarmoqlari kiradi. **Masalan,** tikuvchilik sanoatida xarajatlarning 80 foizdan ortig'ini, oziq-ovqat sanoatida esa 85 foizini xom ashyo tashkil qiladi. Bu shundan dalolat beradiki, ushbu sanoat tarmoqlari xom ashyo birligi mavjud hududiy birliklarda joylashtirilishi lozim. Ayrim mablag' (materialni yoki xom ashyoni) ko'p talab qiladigan tarmoqlar xom ashyo manbalariga yaqin joylashtiriladi.

Mahsulot tannarxida energiya sarf-xarajatlari katta bo'lgan ishlab chiqarish ko'p energiya talab qiladigan ishlab chiqarish deb ataladi. Masalan, alyuminiy ishlab chiqarish, qotishmalar ishlab chiqarish va hokazolar.

Sanoatning asosiy tarkibiy **qismlari** quyidagilardan iborat: energetika, mashinasozlik, metallurgiya, kimyo, o'rmon, qurilish materiallari ishlab chiqarish, yengil va mahalliy sanoat. Hozirgi paytda sanoatning elektronika va mikrobiologiya kabi eng yangi tarmoqlari ham shakllangan.

Sanoat ishlab chiqarishning joylashishiga qarab sanoat rayonlari, tugunlari, markazlari va sanoat punktlariga ajratiladi.

Sanoat punkti-sanoatni rayonlashtirishning quyi bosqichidir. U alohida joylashgan korxonadan iborat.

Bir yoki bir necha sanoat tarmoqlari to'plangan shahar yoki shaharcha sanoat markazi deb ataladi. Ko'p hollarda sanoat markazi ishlab chiqarishni yirikligi bilan ajralib turadi. Sanoat markazi ba'zi hollarda faqat industrial emas, balki transport vazifasini ham o'taydi.

Bir-biri bilan o'zaro bog'langan ishlab chiqarish korxonalari to'plangan hudud sanoat tuguni (uzeli) deb ataladi.

Sanoat tuguni bitta shahar doirasida ham bo'lishi mumkin, ko'p hollarda u bir necha shaharlardan yoki ishchi shaharchalari bilan o'ralgan shaharlar tizimidan iborat bo'ladi. Sanoat tuguniga kirgan korxonalar yagona transport tarmog'idan, energiya va suv ta'minotining umumiy manbalaridan birgalikda foydalanadi (ba'zan xom ashyo resurslari

ham umumiy bo'ladi), mehnat resurslarini ishlab chiqarishga to'laroq jalb qiladi. Bularning hammasi mehnat unumdorligini oshirishga, mablag'larni tejashga, korxonalar egallaydigan maydonlarni qisqartirishga olib keladi. Sanoat tugunlari-sanoat korxonalarini joylashtirishning ilg'or usulidir.

Sanoat tugunlari va markazlari to'plangan hududlar sanoat rayonlari deb ataladi. Mahsulot ishlab chiqarishda u yoki bu sanoatning salmog'iga qarab, undiruvchi sanoat yoki ishlov beruvchi sanoat rayonlari ajratiladi. Ularning katta-kichikligi har xil bo'ladi.

Umuman tarmoq deganda korxonalarining ma'lum o'xshash xususiyatlariga ko'ra guruhlanishi tushuniladi. Sanoat tarmoqlari odatda uch asosiy mezon asosida ajratiladi. Ular:

-Xom-ashyo birligi bo'yicha ajratilgan sanoat tarmoqlari (mashinasozlik va metallni qayta ishlash, o'rmon, yog'ochni qayta ishlash va sellyuloza-qog'oz sanoati va hokazo);

-Iste'mol birligi, ya'ni muayyan maqsadda mahsulot ishlab chiqaruvchi tarmoqlar (yengil va oziq-ovqat, qurilish, elektr energetika va boshqalar);

-Texnologik jarayon asosida tashkil etilgan sanoat tarmog'i (ximiya va neftni qayta ishlash)

Sanoatning tarmoqlar tizimi nihoyatda murakkab va u borgan sari o'zgarib bormoqda. Eng yirik tarmoqlar sifatida yoqilg'i, energetika, qora va rangli metallurgiya, ximiya va neftni qayta ishlash, mashinasozlik va metallni qayta ishlash, qurilish, o'rmon, yog'ochni qayta ishlash, sellyuloza-qog'oz, engil, oziq-ovqat, poligrafika va boshqalar ajratiladi. Ular ham o'z navbatida tarmoq va tarmoqchalardan iborat. Bu jihatdan mashinasozlik sanoatining turlanishi ayniqsa boy, faqat transport mashinasozligining o'zi bir nechta qismlarni o'z ichiga oladi.

Yuqoridagi tarmoqlar orasida eng an'anaviy, qadimiy tarixga ega bo'lgani, shubhasiz, yengil sanoatdir. U dastavval manufakturadan boshlanib, so'ngra yirik mashina industriyasiga o'tdi, boshqa sanoat tarmoqlarining rivojlanishiga turtki berdi. Albatta, oziq-ovqat, metallni qayta ishlash sanoatlari ham ancha qadimiy. Ayni vaqtda mashinasozlik, elektr energetika va ximiya nisbatan «yangiroq» bo'lib, ular hozirgi zamon ilmiy-texnika taraqqiyotini aks ettiruvchi tarmoqlar jumlasiga kiradi.

Yuqorida aytilganidek, sanoat tarmoqlari og'ir va yengil, ishlab chiqarish vositalari va iste'mol mollari ishlab chiqaruvchi yirik guruhlariga (A va V) ajratiladi. Biroq bunday ajratish shartli xususiyatga ega bo'lib, ular orasidagi farq borgan sari kamayib, «yupqalashib» bormoqda. So'nggi yillarda sanoat tarmoqlari tarkibida quyidagi o'zgarishlar sodir bo'lmoqda:

-sanoat tarmoqlarining yanada parchalanib borishi, yangi-yangi tarmoqlarning vujudga kelishi;

-tarmoqlar orasida integratsiya jarayonlarining rivojlanishi, tarmoqlararo majmualarning shakllanishi;

-fan-texnika yutuqlari bilan bevosita bog'liq tarmoqlarining tezroq rivojlanishi.

Sanoatning tarmoqlar tizimini baholashda eng avvalo uning turlanganligini (diversifikatsiyalashuvi) hamda yangi texnologiyalarga asoslangan, «yuqori qavat» tarmoqlarining mavjudligini e'tiborga olish kerak. Ba'zi rayonlar faqat tog'-kon, xom-ashyo qazib olishga ixtisoslashgan, boshqalarida esa asosan ta'mirlovchi sanoat

korxonalari bo'lishi mumkin. Tabiiyki, bunday rayonlarning sanoati yaxshi rivojlanmagan.

Ma'lumki, xalq xo'jaligini tashkil etuvchi tarmoqlar muayyan belgilarga asoslangan holda ajratiladi. Bu masalani sanoat tarmoqlari misolida ko'rish maqsadga muvofiqdir. Sanoat tarmoqlari quyidagi belgilarni hisobga olgan holda ajratiladi:

-xom ashyo birligi;

-ishlab chiqarilgan mahsulotni qaysi maqsadda ishlatilishi;

-texnologik birlik.

Xom ashyo asosida, masalan, mashinasozlik, o'rmon va barcha tog'-kon sanoat tarmoqlari ajratilgan. Mashinasozlik va metallni qayta ishlash tarmog'ida, jumladan, turli texnologiya yordamida har xil mahsulot-muzyorar kemalar yoki gigant ekskavatorlar, samolyotlardan tortib to juda kichik ignalar, naylarni ishlab chiqarish kiradi, chunki ularning asosida metall yotadi. O'rmon sanoatida ham xuddi shunday: o'rmon-yog'och negizida har xil texnologiyani qo'llab, turli maqsadlar uchun qog'oz, gugurt, qurilish materiallari, yog'och uylar, temir yo'l shpallari yoki shunga o'xshash mahsulotlar ishlab chiqariladi.

Ikkinchi belgi asosida oziq-ovqat, engil, elektroenergetika, metallurgiya, qurilish sanoati va boshqa tarmoqlar ajratiladi. Chunonchi, oziq-ovqat sanoat korxonalari turli xom ashyo va har xil texnologiyadan foydalanib, faqat bir maqsadda, ya'ni aholining oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun ishlaydi. Qolgan sanoat tarmoqlari ham shunday: metallurgiya mashinamoslikni, elektroenergetika butun xalq xo'jaligini ta'minlashga qaratilgan.

Texnologik jarayonning birligi tarmoqni belgilash uchun xizmat qiladi, xolos. Bu ham bo'lsa kimyo sanoati. Chunki unga kiruvchi barcha korxonalar har xil xom ashyo, turli maqsadni (axir, kimyo mahsulotlari barcha sohalarda, hatto kiyimimiz, yozayotgan ruchkamizda ham bor) ko'zlab ishlaydi. Ularning barchasiga umumiy mezon-bu texnologik jarayonning birligi hisoblanadi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, sanoat tarmoqlari ular ishlab chiqaradigan mahsulot xususiyatiga ko'ra ikki guruhga ajratiladi: og'ir sanoat yoki «A» guruhi va engil, oziq-ovqat sanoati yoki «B» guruh. Bu erda birinchisi ishlab chiqarish vositalarini, ikkinchisi iste'mol mollarini ishlab chiqaradi. Umumiy qonuniyat «A» guruhini «B» ga nisbatan ustuvor, tezroq rivojlanishidan iborat, chunki ishlab chiqarish vositalarisiz (mashina, qurilish materiallari, metall va hokazo) iste'mol mahsulotlari, qolaversa xalq xo'jaligini rivojlantirish qiyin.

Biroq, bu qonuniyat barcha mamlakatlarda ham birday emas. Masalan, sobiq Ittifoq xalq xo'jaligini industrialashda aynan shu maqsad ko'zlangan edi, ya'ni avval og'ir sanoat-ishlab chiqarish vositalari, so'ng qolganlari. Natijada mamlakatda juda yirik sanoat korxonalari-mashinasozlik, qora va rangli metallurgiya, ximiya zavodlari, elektr stansiyalari barpo etildi. Ular o'sha davr iqtisodiyotining o'zagini tashkil etardi. Ammo, qolgan tarmoqlarga, ijtimoiy jabhalarga e'tibor susaygan bo'lib **«eng avval iqtisod, so'ng siyosat»** g'oyasi o'ta muhim edi.

Ushbu davrda xorijiy mamlakatlarda esa industrialash boshqacha yo'sinda olib borilgan. Bu erda asta-sekinlik (evolyusiya yo'li) bilan ya'ni avval engil (tekstil), so'ngra boshqa sanoat tarmoqlari barpo etila boshlagan. Bizda traktorsozlik paxtachilik uchun kerak deb rivojlantirilgan bo'lsa, xorijda tekstil uchun mashina, dastgohlar, ular uchun esa, o'z navbatida, metall zarur degan ma'noda amalga

oshirildi (ya'ni «pastdan yuqoriga»). Qaysi bir yo'l to'g'ri bo'ldi va qanday samara berdi degan savolga bir ma'noda qat'iy javob berib bo'lmaydi, albatta. Bu masalaga tarixan va aniq yondashish lozim.

Markaziy Osiyo respublikalarida o'sha davrda, jumladan hududimizda foydali qazilmalarning ochilmaganligi, temir yo'llarning kamligi milliy ishchi kadrlarning yo'qligi qishloq xo'jaligi asosida rivojlanuvchi engil va oziq-ovqat sanoati korxonalarini qurishni talab etardi. Sanoat tarmoqlarining bunday rivojlanishi shaharlashuv jarayonining ham muhim mintaqaviy xususiyatini aniqlab berdi.

Biz og'ir sanoatning, engil va oziq-ovqat sanoatga nisbatan ustuvor rivojlanishini umumiy qonuniyat sifatida ta'kidladik, darhaqiqat, bu shunday. Shu bilan birga ma'lum davrda, vaqtincha boshqacha siyosatni qo'llashga ham to'g'ri keladi. Bunday nomunosiblik ikkala guruh rivojlanishidagi oraliq, muvozanat buzilishidan kelib chiqadi. Chunonchi, respublikamizda og'ir sanoat bilan iste'mol mollari ishlab chiqaruvchi tarmoqlar o'rtasida nomuvofiqlik vujudga keldi, ya'ni ikkinchi guruh tarmoqlar ancha orqada qolib ketdi.

Shu sababli hozirgi paytda O'zbekiston Respublikasida «B» guruh rivojlanishini faollashtirish, ichki bozorni iste'mol mollari bilan to'ldirish muhim masala bo'lib qoldi. Bu muammoni hal etilishi kun tartibidagi masala bo'lib qoldi.

Hozirgi davrda jahon sanoat tarmoqlari tarkibida quyidagi jarayonlar namoyon bo'lmoqda:

- ilmiy-texnika taraqqiyotini belgilovchi sohalarni (elektroenergetika, mashinasozlik va kimyo) ildamroq rivojlanishi;
- ilmiy texnika taraqqiyoti negizida yangi-yangi tarmoqlarning vujudga kelishi;
- tarmoqlar o'rtasidagi aloqalarning kuchayishi, tarmoqlararo majmualarning shakllanishi va hokazo.

Mustaqil mamlakatimiz xalq xo'jaligi tarkibida bir qator tarmoqlararo majmualar vujudga kelmoqda. Ular orasida yoqilg'i-energetika, metallurgiya, mashinasozlik, agrosanoat majmualarining ahamiyati katta. Zero, yoqilg'i-energetika va oziq-ovqat majmuasi yaxshi rivojlanmagan har qanday mamlakatni tom ma'noda iqtisodiy barkamol va mustaqil deb bo'lmaydi. Shu bois bu majmualarga ta'lluqli korxonalarni ko'proq va tezroq rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Metallurgiya (qora va rangli metallurgiya) majmuasini rivojlantirish ham katta ahamiyatga ega. Ayniqsa metallurgiya asosida rivojlanuvchi mashinasozlikka e'tiborni kuchaytirish lozim. Mashinasozlik korxonalari turli omillarga ko'ra joylashtiriladi. Ular orasida xom ashyo, iste'mol, malakali ishchi va iqtisodiy geografik o'rin asosiy mavqealarni egallaydi. Ko'p metallni talab qiluvchi korxonalar qora metallurgiya rayonlariga, malakali kadrlarga asoslangan mashinasozlik esa yirik, ilmiy-texnika yuqori darajada rivojlangan shaharlarda joylashadi.

Respublikamizning mustaqillikka erishishi tufayli zamonaviy mashinasozlik korxonalarini chet mamlakatlar, firmalari bilan hamkorlikda qurish tajribasi ham amalga oshirilmoqda. Jumladan, Asakada (Andijon viloyatida) Janubiy Koreya, Xorazm viloyatidagi Do'stlik (ilgari Drujba) shahrida Germaniya davlatlari bilan birgalikda yengil va yuk mashinalarini ishlab chiqaruvchi zavodlar qurildi. Qadimiy Xivada Rossiya Federatsiyasi bilan hamkorlikda «ZIL» yuk mashinalari, Samarqandda Turkiya bilan birgalikda avtobus ishlab chiqaruvchi korxonalar yaratildi,

mavjud yirik sanoat korxonalarida chet mamlakatlar sarmoyasi va texnologiyasidan foydalanilgan holda zamonaviy elektrotexnika mahsulotlari, jumladan, radio, televizor va boshqalarni ishlab chiqish yo‘lga qo‘yildi.

Bunday majmualarning shakllanishi ob‘ektiv bo‘lib, uning asosida qishloq xo‘jaligi bilan sanoatning bir-biriga yaqinlashuvi, hamkorligi (kooperatsiyasi) yotadi. Agrosanoat majmuasini to‘g‘ri rivojlantirish juda katta va keng ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik mazmunga ega. Agrosanoat majmualari ikki ko‘rinishdagi tarkibga **ega**: tarmoq va hududiy tarkib. Geografik nuqtai-nazaridan ularning hududiy tashkil etishidagi qonuniyatlarni o‘rganish muhimroqdir. Agrosanoat majmualari **dehqonchilik** va chorvachilik asosida shakllanadi.

Ilmiy adabiyotlarda va boshqaruv tizimida «**birlashma**», **assotsiatsiya**, **konsern** kabi tushunchalarni ham uchratamiz. Fikrimizcha, bunday birlashmalar ishlab chiqarish jarayonini (ayniqsa sanoat ishlab chiqarishini) tarmoq prinsipi negizini yaxshilashga va boshqarishga mo‘ljallangan. Ularga kiruvchi korxonalar asosan bir tarmoqqa tegishli bo‘lib, ayni paytda turli rayonlarda joylashgan bo‘lishi mumkin.

Ishlab chiqarishni yangicha hududiy tashkil etishda filiallashtirishning ham mavqei sezilarli darajada katta. Ularning geografiyasini, ishlab chiqarish aloqalarini o‘rganish ko‘p jihatdan, jumladan, mahalliy mehnat resurslaridan to‘laroq foydalanish muammolarini yechish nuqtai-nazaridan juda ahamiyatlidir.

Shu bilan bu filiallar o‘z iqtisodiyotini mustahkamlash asosida mustaqil korxonalar maqomini olishmoqda.

Ammo, **birlashma** va **majmua** tushunchalari bir-biriga yaqin bo‘lsada, ular o‘rtasida farq ham yo‘q emas. **Birlashma**-bu bir tarmoqqa kiruvchi yirik korxonalar yoki aksariyat hollarda turdosh bo‘lgan korxonalar turkumi, majmua esa bir emas, ikki va undan ortiq tarmoqlarning uyushmasi, ularning uyg‘un holda rivojlanishi **demakdir**.

Shu o‘rinda tarmoqlararo va hududiy majmualar to‘g‘risida ham qisqacha fikr yoritaylik. Bu erda ikkalasi ham majmua, ammo biri tarmoqlar va texnologik negizda vujudga kelsa, ikkinchisi turli tarmoqlarni muayyan bir hududda shakllanishini anglatadi. Binobarin, hududiy ishlab chiqarish majmualari tarmoqlararo majmualariga ko‘ra geografiyaga yaqinroqdir.

Ammo, bu yerda ham tizim-tarkib uslubiga muvofiq ularni bir-biriga bog‘liq holda o‘rganish lozim. Ayniqsa, hududiy ishlab chiqarish majmualarini tahlil etishda ularning ichidagi tarmoqlararo aloqalarni ochib berish nihoyatda o‘rinlidir. Shu bilan birga tarmoqlarni o‘rganishda ularning hududiy tashkil etilishiga e‘tibor berish kerak.

Shunday qilib, tarmoqlararo va hududiy majmualar sanoat geografiyasining muhim tadqiqot ob‘ektlari hisoblanadi. Tabiiyki, majmuani yoki shunga o‘xshash murakkab voqeyilikni majmuali, har tomonlama o‘rganish talab etiladi. HICHM (Hududiy ishlab chiqarish majmuasi)-muayyan hududdagi moddiy ishlab chiqaruvchi va moddiy ishlab chiqarmaydigan turli sohalarni o‘zaro chambarchas bog‘liq korxonalar majmuasi. Demak, HICHM mazmunidan ko‘rinib turibdiki, ularning shakllanishi avvalo xo‘jalik tarmoqlari va tarmoqlararo ishlab chiqarish komplekslarining (majmualarning) rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liq.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasida xalq xo'jaligining uzluksiz rivojlanishi natijasida, oldin xo'jalik tarmoqlari komplekslari (masalan: paxtachilik, chorvachilik, gazenergokimyo, neftegazenergo), irrigatsiya-melioratsiya, sabzavotchilik, kimyo, energiya ishlab chiqarish, to'qimachilik va boshqalar tarkib topib rivojlanmoqda. Natijada bir tarmoq korxonalari xom ashyodan, yoqilg'i-energiyadan, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlardan foydalanish jarayonida ikkinchi xo'jalik tarmoqlari korxonalari bilan bog'lanish natijasida 5 ta tarmoqlararo ishlab chiqarish komplekslari (majmualari) shakllanib rivojlanmoqda. Bular:

- paxta ishlab chiqarish kompleksi;
- yoqilg'i-energokimyo-kimyo kompleksi;
- rangdor metallurgiya kompleksi;
- mashinasozlik va metallsozlik kompleksi;
- binokorlik materiallari ishlab chiqarish va qurilish industriyasi kompleksi.

Yuqorida ko'rsatilgan tarmoqlararo ishlab chiqarish komplekslari O'zbekiston iqtisodiyotining barcha sohalarini o'z ichiga ololmaydi. Ulardan tashqari kompleks shaklida rivojlanayotgan ayrim xo'jalik tarmoqlari bor. Bularga to'qimachilik, tikuvchilik, transport-aloqa komplekslari kiradi.

Odatda, **tarmoqlararo** ishlab chiqarish komplekslarini nomi shu kompleksdagi yetakchi tarmoqlar nomi bilan (yuritiladi) ataladi. Ularni HICHM dan farqi joylashish nuqtai-nazaridan qaraganda shundan HICHM bir viloyat (masalan: Toshkent, Samarqand, Qarshi va boshqalar) yoki bir necha viloyat (masalan: Farg'ona, Mirzacho'l va boshqalar) hududida shakllanadi va rivojlanadi. **Tarmoqlar** ishlab chiqarish komplekslarining korxonalari esa faqat bir yoki bir necha viloyatda emas, hatto butun O'zbekiston hududida joylashishi mumkin.

Tarmoqlar va tarmoqlararo ishlab chiqarish komplekslari yetarli tabiiy va iqtisodiy imkoniyatlar, moddiy texnika bazasi, mehnat resurslari va malakali mutaxassislar mavjud bo'lsa, ilmiy-texnika taraqqiyoti asosida bozor iqtisodiyoti sharoitida taraqqiy etib, HICHM lari va respublika iqtisodiyotini rivojlanishiga imkon beradi. Yuqorida ko'rsatilgan tarmoqlararo ishlab chiqarish komplekslaridan, respublika iqtisodiyotining poydevori hisoblangan paxta ishlab chiqarish kompleksi hisoblanadi.

Sanoat geografiyasini o'rganishimiz jarayonida korxonalar o'ziga xos sub'ekt sifatida roli katta. Korxonalar o'ziga xos sub'ekt sifatida o'z ishlab chiqarish imkoniyatiga egadir. Shu o'rinda korxonalar to'g'risida qisqacha ma'lumot berib o'tsak.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga asosan, **korxonalar** bu-huquqiy shaxs maqomiga ega, mustaqil ravishda xo'jalik faoliyati yurituvchi sub'ekt bo'lib, o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulkidan foydalanish asosida iste'molchilar (xaridorlar) talabini qondirish va daromad (foyda) olish maqsadida mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqaradi va sotadi yoki ayirboshlaydi⁸.

Korxonalar-ijtimoiy talablarni qondiruvchi va sof foyda olish maqsadida mahsulot ishlab chiqaruvchi, ishlar bajaruvchi, xizmat ko'rsatuvchi mustaqil xo'jalik yurituvchi iqtisodiyot sub'ektidir.

⁸Maxmudov E.X. Isakov M.YU. «Korxonalar iqtisodiyoti» - T.: TDIU, 2006-145-b.

Zamonaviy korxonalar mustaqil xo'jalik yurituvchi sub'ekt bo'lib, ularning ishlab chiqarish vositalari va boshqa mulklari rejali iqtisodiyot sharoitlaridagidek davlatning o'zigagina tegishli bo'lmaydi. Shu sababli korxonalar *mulkchilik shakliga* ko'ra, davlat va nodavlat, *tarmoq belgilariga* ko'ra, mashinasozlik, energetika, metallurgiya, neft va gaz sanoati, qurilish kompleksi, oziq-ovqat, engil sanoat, savdo va hokazolar, *ishlab chiqarish miqyosi va xodimlar soniga* ko'ra, yirik, mikrofirma va kichik, *faoliyat yuritish muddatiga* ko'ra, uzluksiz, mavsumiy va uzlukli korxonalariga bo'linadi.

Biroq ushbu belgilardan qat'i nazar, deyarli har bir korxonalar **Nizom** asosida faoliyat yuritadi. Nizomda korxonaning nomi, manzilgohi, yuqori turuvchi organi va bu organning nomi, Nizom jamg'armasi, bank muassasalaridagi rekvizitlari, korxonalar rahbariyatining lavozimlari, rahbar shaxslarning majburiyatlari, tuzilmaviy bo'linmalar ro'yxati, hisobot tartibi va hokazolar ko'rsatilgan bo'ladi.

Korxonalar turli belgilariga ko'ra tavsiflash mumkin:

-ishlab-chiqarish va texnika munosabatlarida korxonalar—bu, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar hajmi va turlari, ularni tayyorlash texnologiyasiga miqdor va sifat jihatidan mos keluvchi mashinalar tizimi;

-ijtimoiy munosabatlarda korxonalar—bu, turli kategoriyadagi xodimlar o'rtasida ularning huquq va majburiyatlari asosida yuzaga keluvchi munosabatlar;

-tashkiliy-huquqiy munosabatlarda korxonalar huquqiy shaxs sifatida faoliyat yuritadi;

-moliyaviy-iqtisodiy munosabatlarda korxonalar—bu, tarmoqning mustaqil bo'g'ini bo'lib, o'z-o'zini moliya bilan ta'minlash, o'z-o'zini boshqarish, ya'ni bozor munosabatlari tamoyillarida faoliyat yuritadi.

Korxonalar o'ziga xos bo'lgan ma'lum xususiyatlarga ega:

-*birinchidan*, korxonalar o'ziga tegishli va xo'jalik boshqaruvidagi xususiy mulkka ega bo'lib, ushbu mulk uning faoliyati moddiy-texnikaviy imkoniyatlarini, iqtisodiy mustaqilligi va ishonchliligini ta'minlaydi;

-*ikkinchidan*, korxonalar kreditorlar, jumladan, davlat bilan o'zaro munosabatlardagi majburiyatlar yuzasidan o'z mulki bilan javob berish xususiyatiga ega bo'ladi;

-*uchinchidan*, korxonalar xo'jalik aylanmasida o'z nomidan harakat qilishi mumkin, ya'ni qonunga asosan xo'jalik faoliyati yurituvchi hamkorlar, mahsulot (ish, xizmat) iste'molchilari, xom ashyo va asbob-uskuna etkazib beruvchilar hamda boshqa huquqiy va jismoniy shaxslar bilan shartnoma tuzish huquqiga ega;

-*to'rtinchidan*, korxonalar qonunchilikka asosan sudda da'vogar va javobgar sifatida qatnashish huquqiga ega;

-*beshinchidan*, korxonalar mustaqil balans yoki smetaga ega bo'lib, ishlab chiqarish va mahsulot savdosi xarajatlarini hisobga olib boradi hamda davlat organlari tomonidan belgilangan tartibda o'z vaqtida hisobotlarni taqdim etadi;

-*oltinchidan*, korxonalar o'z nomiga ega bo'lib, unda korxonaning tashkiliy-huquqiy shakli o'z aksini topadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida korxonalar **faoliyatining asosiy yo'nalishlari** quyidagilar hisoblanadi:

-bozor va uning rivojlanish istiqbollari kompleks ravishda o'rganish yordamida, xaridorlarning mahsulot va xizmat turlariga mavjud va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan talablarini aniqlash;

-mahsulotning yangi modellari va namunalarini yaratish bo'yicha ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil qilish;
-xaridorlar talablariga mos keluvchi tovarlarni ishlab chiqarish;
-ishlab chiqarishni rejalashtirish, dasturlash, muvofiqlashtirish va moliyalashtirish;
-mahsulotni taqsimlash va sotish tizimini tashkil qilish va uni mukammallashtirish;
-korxonaning barcha faoliyatini, jumladan, ishlab chiqarish, sotish, reklama, texnik xizmat ko'rsatish va hokazolarni boshqarish.

Korxonalarining eng muhim xususiyatlari ularning qaysi tarmoqqa qarashliligi, hajmi, ishlab chiqarishning turli jabhalarini qamrab olganligi, ixtisoslashtirish darajasi va bir tipdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish miqyosi, ishlab chiqarishni tashkillashtirish usuli hamda uni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish, tashkiliy-huquqiy shakllarini prognozlashtirishga bog'liq bo'ladi.

Qaysi tarmoqqa qarashliligiga ko'ra korxonalar ishlab chiqarish va noishlab chiqarish (mashinasozlik, ko'mir qazib chiqarish, sug'urta va hokazo) sohalariga mansub bo'lishi mumkin.

Ishlab chiqarilayotgan mahsulot turi va ko'rinishiga ko'ra, korxonalar sanoat, qishloq xo'jaligi, transport, moliya-kredit va boshqalarga bo'linadi.

Texnologik umumiyligiga ko'ra, korxonalar ishlab chiqarish jarayonini uzluksiz va diskret ravishda, kimyoviy yoki mexanik jarayonlarning ustunligi asosida yurituvchilarga bo'linadi.

Tayyor mahsulotning maqsadlariga ko'ra, barcha korxonalar ikkita katta guruhga bo'linadi: ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqaruvchilar va iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar.

Foydalaniluvchi xom ashyo turiga ko'ra, sanoat korxonalari qazib chiqaruvchi va qayta ishlovchi korxonalarga taqsimlanadi.

Yil davomida ishlash muddatiga ko'ra, korxonalar mavsumiy va yil bo'yi faoliyat yurituvchilarga bo'linadi.

Hajmiga ko'ra, korxonalar yirik, mikrofirma va kichik korxonalarga taqsimlanadi.

Albatda, sanoat tarmoqlarini hududiy tashkil etish o'ziga xos xususiyatga ega. Ular iqtisodiy geografik makonda yoki xaritada nuqtasimon shaklga ega. Demak, mazkur tarmoqda ishlab chiqarish va hududiy mujassamlashuv darajasi ancha yuqori. Bu esa sanoat ishlab chiqarishining qishloq xo'jaligiga ko'ra iqtisodiy samaradorligini yuqori bo'lishiga olib keluvchi sabablardan biridir.

Sanoat korxonalarini joylashtirishga ta'sir etuvchi omillar soni ko'p. Ular asosan xom-ashyo, yoqilg'i, energetika, iste'mol, ishchi kuchi, iqtisodiy geografik o'rin va boshqalardan iborat. Bu borada ekologiya va bozor iqtisodiyoti omillarining ahamiyati tobora kuchaymoqda. Shu bilan birga qayd etish joizki, turli xil sanoat tarmoqlarini joylashtirish muayyan omillar asosida amalga oshirildi. Biz quyida sanoat ishlab chiqarishini joylashtirish masalasida omillardan emas, sanoat tarmoqlarining xususiyatlaridan kelib chiqsak. Ularni qisqacha ko'rib chiqamiz.

Yoqilg'i sanoati tog'-kon yoki qazib oluvchi sanoati toifasiga kiradi va yoqilg'i turlari, qazilma boyliklarning joylanishi, tabiiy, geoximik qonuniyatlarga asoslanadi. Sababi-ko'mir, neft, gaz, yonuvchi slanets, torf kabi tabiiy boyliklarning paydo bo'lishi va er yuzida (ostida) tarqalishi o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Elektr-energetika suv, issiqlik va atom stansiyalaridan tashkil topadi. Suv elektrostansiyalarini tekislik joyga ko‘ra tog‘ va tog‘oldi rayonlarda qurish maqsadga muvofiq. Chunki, bunday sharoitda relyef shakli–yer tuzilishining qiyaligi, tabiiy holda sharshara va tog‘lar orasidagi cho‘kmalarning mavjudligi, qulay imkoniyatlar tug‘diradi. Bundan tashqari, suv ombori qoplagan erlar qishloq xo‘jaligida deyarli ishlatilmaydi. Qishloq manzilgohlari ham yo‘q va, binobarin, ularni ko‘chirish talab etilmaydi. Suv ombori va uning atrofida sport, dam olish zonalarini tashkil qilish, bog‘dorchilik va baliqchilikni rivojlantirish, pastki hududlarda erlarni sug‘orish, kanallar qurish mumkin. Ba‘zan GESlar bilan birgalikda o‘rmon, yog‘ochni qayta ishlash va sellyuloza-qog‘oz sanoati ham rivojlanib boradi (masalan, Sibirda).

Ko‘rinib turibdiki, tog‘li rayonlarda qurilgan GES lar har tomonlama qulay, elektr energiyasi arzon. Agar shu stansiyalar tekislikda joylashtirilsa katta maydon suv ostida qolib ketadi (ehtimol, bu erda qimmatbaho qazilma boyliklar bordir) va to‘g‘on qurish katta mablag‘ talab qiladi.

Issiqlik elektr stansiyalari (IES) ikki turda bo‘ladi: IEM va GRES. Ularning bir-biridan farqi qaysi maqsadda qurilganligidadir. Foydalaniladigan yoqilg‘isi esa bir xil bo‘lishi mumkin. Masalan, IEM-«Issiqlik-elektromarkaz», ya‘ni issiqlik elektr markazi, odatda ham elektr quvvati, ham bug‘ (par) talab qiluvchi sanoat korxonalariga to‘qimachilik, neftni qayta ishlash va hokazolar yonida yoki yaqinida quriladi. Chunki, bug‘ni 15-18 km. masofadan uzoqqa jo‘natib bo‘lmaydi. Demak, bu stansiyani joylashtirishda ishlab chiqarish iste‘moli asosiy ahamiyatga ega.

Ammo, IEM larning bevosita shahar ichida qurilishi tufayli ular atrof-muhitni ifloslantiradi. Shu sababdan, ekologik jihatdan bunday stansiyalarning aholi zich joylarda qurilishi uncha ma‘qul emas. GRES lar esa («Gosudarstvennaya rayonnaya elektrostansiya») asosan elektr energiyasini beradi va shu bois ularni yirikroq va shahardan biroz uzoqroq masofada joylashtiriladi.

Atom elektrostansiyalari ko‘pincha boshqa turdagi stansiyalarni qurish imkoniyati yo‘q hududlarda joylashtiriladi. Buning uchun albatta ekologik xavfsizlik ta‘minlanishi kerak. Shuningdek, AES larning barpo etilishida ilmiy-texnika omili ham hisobga olinadi.

Masalan Respublikamizda yoqilg‘i sanoati o‘ziga xos ravishda rivojlanib bormoqda. 2018 yil neft-ishlab chiqarish-746,4 ming tonnani, gaz kondentsati-2143,6 ming tonnani, tabiiy gaz-59842,2 mln kub metrni, ko‘mir-4174,4 ming tonnani tashkil etgan.

Qora metallurgiya korxonalarini, ayniqsa cho‘yan eritish zavodlarini (domna pechida eritiladi) joylashtirishda eng avvalo yoqilg‘i va xom-ashyo katta ahamiyatga ega. Bir tonna cho‘yanni olish uchun taxminan ikki tonna temir rudasi, 1,2 tonna yoqilg‘i-kokslanuvchi ko‘mir lozim. Rudada temirning (Fe) miqdoriga, boy yoki boy emasligiga qarab zavod uch ko‘rinishda joylashtiriladi: yoqilg‘i yaqinida (temir ruda koni «boy»), xom-ashyo yaqinida (rudada Fe miqdori yuqori emas) va ikkalasining o‘rtasida (yoqilg‘i va xom-ashyo uchun transport xarajati deyarli bir xil). Uchinchi variantda suv hamda iste‘mol omillari ham e‘tiborilidir.

Qora metallurgiyaga kiruvchi ferrosplav (temir qotishmalari) zavodlari «elektrtalab» hisoblanadi: 1 t. ferrosplav uchun 8-9 ming kVtg’s. elektr energiya

sarflanadi. Binobarin, bunday zavodlar arzon elektr manbalariga yaqinroq joylashtiriladi.

Rangli metallurgiya sanoatiga kiruvchi korxonalar turli-tuman (allyuminiy, mis, kumush, oltin, qo'rg'oshin, qalay va h.k.). Ular tabiatda alohida-alohida uchramaydi. Shuning uchun rangdor metallarni qazib olishda kompleks, kombinat usuli qo'llaniladi.

Tog' metallurgiya kombinatlari xom-ashyo rayonlarida (sababi-rangdor metallar miqdori rudada juda oz) quriladi, bevosita tozalangan metall esa iste'mol rayonlarida va xususan arzon elektr energiyaga yaqin joyda o'rnatiladi: tozalangan yoki «rafinatsiya» qilingan misning bir tonnasiga 9-10 kVtg's.gacha, allyuminiyga 18-19, titan va nikel uchun 50 ming kVtg's.-gacha elektr energiyasi ishlatiladi. Shu bilan birga rangdor metallurgiya korxonalarini joylashtirishda ekologiya omilining ham o'rni sezilarli.

Mashinasozlikning tarkibi boyligi sababli, unga ta'sir qiluvchi omillar turi ham har xil. Chunonchi, metallni ko'p talab qiluvchi og'ir mashinasozlik (vagonsozlik, tog'-kon va shaxtalar uchun asbob-uskunalar va h.k.) qora metallurgiya rayonlarida kam, ammo malakali ishchi kuchi kerak bo'lgan priborsozlik, elektrotexnika, hisoblash texnikalari kabi nozik va aniq mashinasozlik fan-texnika taraqqiyoti markazlarida joylashtiriladi.

Qishloq xo'jaligi mashinasozligi ko'p hollarda iste'mol rayonlarida rivojlanadi. Masalan, yuqorida aytib o'tilganidek, O'zbekistonda paxta terimi, Ukrainada g'alla va qand lavlagi, Belorussiyada-kartoshka va zig'ir, Moldaviyada uzumchilik, Qirg'izistonda pichan o'ruvchi va preslovchi mashinalar ishlab chiqariladi. Demak, mamlakat nimaga ixtisoslashsa o'sha sohaga xizmat qiluvchi mashinasozlik tarmog'i tashkil etiladi. Bu qonuniyat boshqa tarmoqlarga ham tegishli. Chunonchi, Kareliyada o'rmon, Uralda-qora metallurgiya, Donbassda-shaxta, O'zbekistonda-to'qimachilik, Irkutskda-oltin saralash mashinasozligi rivojlangan va h.k.

Shunday qilib, mashinasozlik mahsulotiga qarab uni joylashtirishga xom-ashyo (metall), ishchi kuchi, iste'mol, ilmu-fan, geografik o'rin omillari ta'sir ko'rsatadi. Tabiiyki, dengiz kemasozligi quruqlik ichkarisida emas, port shaharlarda joylashtiriladi. Xuddi shunga o'xshash stanoksozlik, elektrotexnika, traktorsozlik kabi juda ko'p mashinasozlik tarmoqlari o'ziga xos hududiy tashkil qilish xususiyatlariga ega. Albatta, bu sanoat tarmog'i uchun kooperatsiya shakli muhimligi tufayli uning markazlari qulay transport geografik o'ringa ega bo'lishlari ham lozim.

Ximiya va neftni qayta ishlash sanoati. Asosiy ximiya uchun xom-ashyo omili uncha muhim emas. Chunki, bu sanoat turli xil xom-ashyo: o'simlik, mineral, ishlab chiqarish chiqindilari, hatto suv va havo asosida ham tashkil etilaveradi. Binobarin, ximiya sanoati katta erkinlikka ega. Ammo, unga ta'sir etuvchi boshqa kuchli omil mavjud- bu ham bo'lsa ekologiyadir.

Neftni qayta ishlash zavodlari xom-ashyo rayonlariga ko'ra iste'mol rayonlarida ko'proq uchraydi. Xom neftni keltirib turli xil mahsulot olish, ularning barchasini alohida-alohida keltirishdan ko'ra arzonroq, qulay va xavfsizroq. Ba'zan bunday zavodlar magistral neft quvurlari o'tgan joylarda ham tashkil etiladi.

Ximiya sanoati uchun suv va elektr energiyasi omili ham ahamiyatliroq. SHu sababdan bo'lsa kerak, CHirchiq yirik ximiya sanoati markaziga aylangan.

O'rmon, yog'ochni qayta ishlash va sellyuloza-qog'oz sanoatini joylashtirish ham o'ziga xos. Jumladan, yog'ochni qayta ishlash aksariyat hollarda o'rmonzorlarga yaqin joylarda amalga oshiriladi, chunki 40 foizgacha yog'och (novda va shox-shabbalar) chiqindiga ketadi. Sellyuloza-qog'oz ishlab chiqarish esa asosan uch variantda joylashtiriladi: xom ashyo rayonida, yog'och oqizuvchi daryolarning temir yo'llar bilan kesishgan nuqtasida hamda daryolarning quyilish qismida. Ko'rinib turibdiki, bu erda transport va geografik o'rin omillari katta ahamiyatga ega.

Yuqoridagi yo'nalishlar bo'yicha sellyuloza-qog'oz sanoatining joylashuvini Rossiya Federatsiyasi misolida ko'rsa bo'ladi. Masalan, Krasnoyarsk, Volgograd, Krasnokamsk, Perm, Kotlas, Balaxna, Arxangelsk va boshqalar turli variantlarda vujudga kelgan ushbu sanoat markazlaridir. Shuningdek, yog'ochni qayta ishlash sanoatiga mebelsozlik, daftar-qalam, sport buyumlari va musiqa asboblari, temir yo'l shpallari, uysozlik, gidroliz spirti olish kabi juda ko'p tarmoqlar ham kiradi. Ularning joylashtirilishi esa mahsulotning «xom-ashyo talabligi» hamda transport jihatidan qulayligiga qarab tashkil qilinadi. Ayni vaqtda, bu yerda xom-ashyo, transport, iste'mol omillari bilan birga suv sharoitlari ham e'tiborga olinadi.

Qurilish sanoati boshqa tarmoqlarga nisbatan «oldinda» borishi kerak, zero usiz yangi yerlar o'zlashtirilmaydi, korxonalar va tashkilotlar bunyod etilmaydi. G'isht, sement, cherepitsa, shifrni ishlab chiqarish ko'p jihatdan xom-ashyoga bog'liq. Shu sababdan bo'lsa kerak Rossiyaning asosiy sement sanoati markazlari -Volsk, Iskitim, Novorossiysk -atrofida buning uchun xom-ashyo, mergel, ohaktosh ko'p miqdorda mavjud. O'zbekistonda ham sement ishlab chiqarish xom-ashyo omilini e'tiborga olgan tarzda amalga oshirilgan (Bekobod, Angren, Quvasoy, Ohangaron). Bundan tashqari, sement ishlab chiqarish qora va rangli metallurgiya markazlarida ham tashkil qilinadi. Buning uchun domna pechlarining chiqindisi-shlak, alyuminiy sanoatiga tegishli glinozyom zavodlari chiqindilari ishlatiladi.

Temir-beton mahsulotlari va qurilmalarini joylashtirish iste'mol omili orqali tashkil qilinadi. Shu bois ularning geografiyasi keng bo'lib, bunday korxonalar barcha yirik shaharlarda mavjud.

Yengil sanoatni hududiy tashkil qilishda xom-ashyo, ishchi kuchi va iste'mol omillari etakchi rol o'ynaydi. Masalan, paxta tozalash va pillachilik zavodlari, jun yoki terini yuvish kabilar bevosita xom-ashyo rayonlarida joylashtiriladi. Sababi, ulardan olinadigan mahsulot birligiga juda ko'p xom-ashyo sarflanadi.

To'qimachilik, poyafzal, tikuv, trikotaj fabrikalari, gilam ishlab chiqarish mehnattalab bo'lgani uchun ular katta kichik shaharlar, rayon markazlarida quriladi. Shu bilan birga to'qimachilik korxonalari og'ir sanoat markazlarida ayollar ishchi kuchidan foydalanish maqsadida ham joylashtiriladi. Mazkur sanoatning ko'p mehnat resursini talab qilishi ayni paytda uning iste'mol rayonlarida joylashtirilishi bilan uyg'unlashib ketadi. Chunki, mehnat resursi, aholi engil sanoat mahsulotining iste'molchisidir, ular esa hamma uchun va har doim kerak.

Oziq-ovqat sanoatini joylashtirish ko'proq iste'mol omiliga qarab amalga oshiriladi (bu mahsulotlar ham barcha uchun va doimo zarur). Shuningdek, ularning transportda tashish imkoniyatlari, sifatining buzilmasligi ham inobatga olinadi. Jumladan, yog'-moy ishlab chiqarish, konserva, vino sanoati, qand lavlagi va

tamagini qayta ishlash ko‘proq xom ashyo rayonlarida, go‘sht, sut sanoati shahar joylarga yaqin quriladi. Konditer fabrikalari bevosita shaharlardan joy oladi.

Un sanoati, don mahsulotlari kombinatlari ham aksariyat hollarda kichik shaharlarda, g‘allakor rayonlarda yoki ularga yaqin bo‘lgan shaharlarda rivojlanadi. Keltirilgan undan turli xil mahsulotlarni ishlab chiqarish iste‘mol rayonlarida-shaharlarda tashkil qilinadi. Bunday markazlarda ba‘zan yirik yog‘-ekstraksiya, konserva va vino sanoati, tamaki fermentatsiya korxonalari qurilishi mumkin.

Shunday qilib, oziq-ovqat sanoatining hududiy tarkibi asosan iste‘mol va xom ashyo omillari ta‘sirida shakllanadi. Ayni vaqtda bu tarmoq qishloq xo‘jaligi bilan bevosita bog‘liqligi tufayli agrosanoat majmualari ko‘rinishida hududiy tashkil etiladi.

Poligrafiya sanoati ko‘proq shaharlarda, xususan poytaxt shaharlarda joy oladi. Sababi- bunday shaharlarga matbuot, kitob, gazeta va jurnallarni nashr qildirish o‘ziga xos vazifa (funksiya) hisoblanadi.

Biz yuqorida sanoat ishlab chiqarishini joylashtirish masalasida omillardan emas, sanoat tarmoqlarining xususiyatlaridan kelib chiqdik. Omillar ta‘siri esa umumiy holda oldingi ma‘ruzalarda bayon qilingan. Bu yerda faqat shuni eslatish lozimki, hozirgi sharoitda sanoat tarmoqlari va korxonalarni aynan qaerda joylashtirish, ularning texnik-iqtisodiy xususiyatlaridan tashqari, bozor munosabatlari-talab va taklif, soliq va kredit, narx-navo va mintaqaviy siyosatlari ta‘sirlarida amalga oshiriladi.

3-jadval. Sanoat tarmoqlarining mahsulot ishlab chiqarish tarkibi (2018 yil foiz hisobida)

№	Sanoat tarmoqlari	Yalpi sanoat mahsulotidagi ulushi (foizda)
1	Energetika sanoati	7,8
2	Yoqilg‘i sanoati	8,0
3	Metallurgiya sanoati	8,4
4	Kimyo sanoati	8,8
5	Mashinasozlik va metallni qayta ishlash sanoati	14,3
6	Selyuloza-qog‘oz va yog‘ochni qayta ishlash sanoati	2,4
7	Engil sanoati	16,3
8	Oziq-ovqat sanoati	18,9
9	Boshqa sanoat tarmoqlari	15,1

Eng muhimi joylashtirilgan korxonalar tadbirkor uchun ham, davlat uchun ham qulay va arzon bo‘lishi kerak. Qulaylik–transport xarajatlari kam, ekologik jihatdan maqbul, arzon demakdir. Kelajakda mahsulot qiymatiga, tannarxiga unga ishlatilgan xom ashyo sarf-xarajatlari, ya‘ni «resurs uchun to‘lov» ham kiritilishi kerak. Zero, bozor munosabatlari davrida u yoki bu resursni qazib olgan hududning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlari, atrof-muhitga ko‘rsatilgan zarar albatta qoplanishi

lozim. Hozirgi paytda O'zbekiston Respublikasi Makroiqtisodiyot va statistika vazirligining Statistika departamenti tasnifiga ko'ra, quyidagi sanoat tarmoqlari mavjud (**3-jadval**).

2018 yil O'zbekistonda 228,9 trl.so'm. sanoat mahsuloti ishlab chiqarildi. Sanoat ishlab chiqarishini tarkibi quyidagicha: 76,6 % ishlab chiqaradigan sanoat, 16,1 % tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, 6,4% elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, 0,9 % suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish. 2018 yil yangi tashkil etilgan korxonalar soni 11,3 ming korxonalar va tashkilotlarni tashkil etgan, jami hozirda 56,9 ming sanoat korxonalari faoliyat yuritmoqda.

3.2. Yoqilg'i-energetika majmuasi

Yoqilg'i-energetika majmuasi harqanday mamlakat yoki rayonning moddiy va nomoddiy ishlab chiqarishining asosini tashkil qiladi. Yoqilg'i-energetika sanoati xalq xo'jaligining asosiy bo'g'inlaridan bo'lib, u sanoat ishlab chiqarishini joylashtirishda muhim omil bo'lib hisoblanadi. U iqtisodiy rayonlarning ixtisoslashuvini ko'p jihatdan aniqlab beradi.

Yoqilg'i-energetika majmuasi yoqilg'i xom ashyosini qazib olish va iste'mol qilish, elektr energiya ishlab chiqarish va uni taqsimlash tarmoqlarining o'zaro va bir-biri bilan bog'langan yig'indisidir. Demak, yoqilg'i-energetika majmuasi yoqilg'i va elektroenergetika sanoatining o'zaro bir-biri bilan bog'langan tarmoqlari yig'indisidan iborat. Mamlakat yoki hudud qancha ko'p energiya ishlab chiqarsa va iste'mol qilsa, u shuncha ko'p mahsulot ishlab chiqaradi va iqtisodiy rivojlanish darajasi shuncha yuqori bo'ladi.

Yoqilg'i-energetika sanoatining xom ashyosi bo'lib, **yoqilg'i** (neft, gaz, ko'mir, torf, yonuvchi slanets, yog'och, uran) va gidroresurslar (daryo va dengiz oqimi, qalqish energiyalari) hisoblanadi. Hozirgi paytda energiyani noan'anaviy usullar bilan olishning rivojlanishi tufayli quyosh energiyasi, shamol kuchi, erning ichki issiqligi ham energetika xom ashyosi sifatida qaralmoqda.

Yoqilg'i resurslari xalq xo'jaligining barcha tarmoqlari uchun energiya ishlab chiqarishning asosiy manbai bo'lib hisoblanadi. Ammo fan va texnikaning rivojlanishi bilan u yoki bu energiya manbaining xalq xo'jaligidagi ahamiyati o'zgarib turadi. Yoqilg'ining turli xillarini bir-biri bilan taqqoslash uchun ular shartli yoqilg'iga aylantiriladi. **Shartli yoqilg'i** deb, 1 kg yoqilg'i yonganda 7 ming kkal (kg) energiya beradigan, issiqlik koeffitsenti bir deb qabul qilingan yoqilg'iga aytiladi. 1 kg toshko'mirning issiqligi 1 kg shartli yoqilg'ining issiqligiga teng.

Issiqligi kam bo'lgan yoqilg'i xom ashyolari torf, slanets, qo'ng'ir ko'mir va yog'och hisoblanadi. Shuning uchun ularni uzoq masofalarga tashib yurishning iqtisodiy foydasi yo'q. Ular mahalliy yoqilg'i bo'lib hisoblanadi. Qo'ng'ir ko'mir ham issiqlik koeffitsenti kam bo'lganligi sababli qazib olinadigan joyida va unga yaqin bo'lgan hududlarda ishlatiladi. Masalan, O'zbekistonda Angren qo'ng'ir ko'mir koni yaqinida «Angren», Nurobod shaharchasida «Yangi Angren» GRESlari qurilgan. Ushbu GRES larda ko'mir yoqilib, olingan elektroenergiya iste'molchilarga

jo'natiladi, chunki ko'mirning kuli ko'p bo'lganligi uchun uni uzoq masofaga tashish iqtisodiy jihatdan o'zini oqlamaydi.

Yoqilg'i resurslarining qiymati faqat ularning kaloriyasigagina bog'liq bo'lmay, balki undan foydalanish imkoniyatiga hamda qazib olish xarajatlariga ham bog'liq. Eng tejamli yoqilg'i xom ashyosi neft va gazdir, chunki ularni qazib olish va quvurlar orqali iste'molchiga jo'natish arzonga tushadi. Mahsulot birligini olish (yoki 1 t yoqilg'i qazib olish) uchun sarflangan va pulda ifodalangan barcha xarajatlar mahsulot tannarxi deb ataladi.

Muayyan vaqt davomida ma'lum bir hududda (mamlakat, iqtisodiy rayon, viloyat va h.k.) yoqilg'i va energiyaning turli xillarini qazib olish, xom ashyosini qayta ishlash va iste'mol qilish umumiy hajmini va tarkibini ifodalaydigan barcha ko'rsatkichlar **yoqilg'i-energetika balansideb** ataladi.

Yoqilg'i sanoati-yoqilg'i xom ashyosini qazib olish va uni iste'molchiga etkazib berish tarmoqlarini o'z ichiga oladi. Yoqilg'i sanoati ko'mir, neft, gaz, torf, yonuvchi slanets, uran rudasi qazib olish hamda yog'och tayyorlashdan iborat.

Quyosh elektr stansiyalari, yoki geliostansiyalar AQSH, Fransiya, Ispaniya, Yaponiya va Ukrainada, geotermal elektr stansiyalar AQSH (Geyzer stansiyasining quvvati 1 mln kVt), Rossiya, Filippin va Italiyada, qalqish stansiyalari Fransiya, Kanada, Rossiya, Xitoyda, shamol elektr stansiyalari AQSH va Daniyada qurilgan. Bugungi kunda bu jarayon boshqa davlatlarda ham davom ettirilmoqda.

Elektr energiyasi jahondagi barcha mamlakatlarda ishlab chiqariladi. Ammo bir yilda 100 mlrd kVt\soat elektr energiyasi ishlab chiqaradigan faqat 13 ta davlat bor (AQSH, Rossiya, Yaponiya, Kanada, Germaniya, XXR, Fransiya, Buyuk Britaniya, Italiya, Braziliya, Hindiston, Polsha, Norvegiya). O'zbekistonda bir yilda taxminan 60 mlrd. kVt\soatdan ortiq elektroenergiya ishlab chiqariladi.

Aholi jon boshiga elektr energiyasi ishlab chiqarish bo'yicha jahonda Norvegiya (26 ming kVt\soat), Kanada (17 ming kVt\soat), SHvetsiya (14 ming kVt\soat), AQSH (11 ming kVt\soat) etakchi. Rossiya, Ukraina, Vengriya, Fransiya, SHveysariya, Kanada elektr energiyasini eksport qiladi, Italiya, Niderlandiya, AQSH import qiladi.

Iste'molchilarni elektr energiyasi bilan ta'minlashda qatnashadigan va bir-biri bilan elektr liniyalari va turlari bilan bog'langan yirik elektr stansiyalar birlashmasi **energiya tizimi** deb ataladi. Energiya tizimlari quyidagi turlarga bo'linadi: lokal (shahar, rayon), zonal (rayonlararo), milliy (butun mamlakat) va xalqaro (masalan, Markaziy Osiyo) energiya tizimlari.

Demak, energetika sanoati xo'jalikning eng muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, uning rivojlanish darajasi ilmiy-texnik taraqqiyot bilan, turli mamlakatlar va hududlar aholisining turmush darajasi bilan bog'liq. Quyida biz yoqilg'i-energetika sanoatining tarkibiy qismlarini ko'rib chiqishimiz mumkin.

Yog'och tayyorlash-yog'och insoniyat tarixida bir necha ming yillar davomida asosiy yoqilg'i manbai bo'lib keldi. Natijada juda ko'p o'rmonlar yo'q bo'lib ketdi yoki maydoni keskin qisqardi. Ko'mir, neft, gaz va boshqa yoqilg'ilarga o'tilgandan keyin yog'ochni yoqilg'i sifatida ishlatish keskin kamaydi. Ammo hozirham baland tog' mintaqalarida, cho'llarda, ekvatorial-tropik mintaqalarda (janubiy o'rmon mintaqasi) joylashgan qoloq davlatlarda yog'och yoqilg'i sifatida

hamon ishlatilmoqda. Yog'och eramizning XVI asrlarigacha asosiy yoqilg'isi bo'lib keldi.

Ko'mir sanoati-ko'mir sanoati ko'mirni qazib olish (ayrim hollarda boyitish, briket qilish) va iste'molchiga etkazib berishdan iborat. XX asrning boshlaridan boshlab ko'mir insoniyatning yoqilg'iga bo'lgan ehtiyojini 70 foizini qondira boshladi (hozir 20-25 foiz). Ko'mir hozirgi paytda jahonda 60 mamlakatda qazib olinadi, ammo faqat 10 davlat (XXR, AQSH, Rossiya, Germaniya, JAR, Hindiston, Avstraliya, Chexiya, Buyuk Britaniya, Polsha) yiliga 100 mln tonnadan ortiq ko'mir qazib oladi. Jahondagi eng yirik ko'mir havzalari bo'lib, Appalachi (AQSH), Donetsk (Ukraina), Kuznetsk (Rossiya), YUqori Sileziya (Polsha), Rur (Germaniya), Fushun (XXR) hisoblanadi. Ko'mirning 90 foizi qazib olinadigan davlatda ishlatiladi, faqat 10 foizigina eksport qilinadi. Ko'mir eksport qiladigan davlatlar AQSH va JAR hisoblanadi.

Qazib olinadigan ko'mir sifati jihatidan xilma-xil bo'lib, u ayrim rayonlarning geologik tuzilishi va ko'mir hosil bo'lish jarayonlarining turli bosqichlari bilan bog'liq. Toshko'mir bilan qo'ng'ir ko'mir bir-biridan farq qiladi. Qo'ngir ko'mirning toshko'mirga aylanishi uglerod miqdorining ko'payishiga bog'liq. Toshko'mir kokslanadigan va kokslanmaydigan bo'ladi. Donetsk, Kuznetsk, Appalachi, Rur, Fushun, Qarag'anda va Pechora havzalari kokslanuvchi ko'mirga boy. Qo'ng'ir ko'mirda nam va ho'l miqdori ko'p bo'ladi, bu esa uning issiqlik berish xususiyatini kamaytirib yuboradi. SHuning uchun ulardan energetik yoqilg'i hamda kimyo sanoatida xom ashyo sifatida foydalaniladi. Yirik qo'ng'ir ko'mir havzalari Rossiya (Moskva ostonasi, Chelyabinsk), Germaniya va Xitoyda joylashgan. Ko'mir ochiq, yopiq (shaxta), gidravlik va er tagida gazga aylantirish usullarida qazib olinadi.

Ko'mir qazib olishning eng ilg'or va afzal usuli uni ochiq usulda, karerlardan qazib olishdir. Bunday usulda ishlovchilar ishchi er tagida ishlovchi ishchiga qaraganda 6 barobar ko'p miqdorda ko'mir qazib chiqaradi. Karer qancha katta bo'lsa, xarajat shuncha kam bo'ladi. Ko'mir juda ham chuqurda joylashgan va tabiiy-geografik sharoit murakkab bo'lsa, yopiq (shaxta) usulda qazib olinadi. Dastlab ko'mir asosan shu usulda qazib olingan. Hozirgi paytda ko'mirni tejamli gidravlik usulda qazib olish keng qo'llanilmoqda. Ko'p hollarda ko'mir er tagida to'g'ridan-to'g'ri gazga aylantirish yo'li bilan hamqazib olinadi. Bunda hosil bo'lgan gaz bevosita iste'molchilarga quvurlar orqali o'zatiladi.

Neft sanoati-ushbu sanoat tarmog'i XX asrning o'rtalaridan boshlab jahon yoqilg'i-energetika sanoatida etakchi o'rinni egallab kelmoqda. Neft xalq xo'jaligida g'oyat muhim ahamiyatga ega. Undan yoqilg'ining turli xillari, ko'p miqdorda kimyo mahsulotlari, surkov moylari olinadi. Ichki yonish dvigatellari bug' mashinalarini siqib chiqara boshlagandan keyin, benzin, kerosin hamda boshqa neft mahsulotlari ishlab chiqarila boshlangandan keyin, shuningdek bu mahsulotlar motor va reaktiv yoqilg'i sifatida qo'llaniladigan bo'lgandan keyin neftning yoqilg'i sifatidagi ahamiyati nihoyatda ortib ketdi. Neft mahsulotlaridan kimyo sanoatining turli tarmoqlari uchun, ayniqsa organik sintez uchun foydalanish katta ahamiyatga ega bo'lib qoldi.

Neft xom ashyo holida ishlatilmaydi, qayta ishlash natijasida, undan turli xil yoqilg'i va yangi kimyoviy mahsulotlar olinadi. Neftni qayta ishlashdan chiqqan moy

elektrostansiyalarda yoqilg'i sifatida ishlatiladi. Neftni qazib olish ko'mirni qazib olishdan o'rta hisobda 4 barobar arzon tushadi. Xalq xo'jaligining turli tarmoqlarida neftdan foydalanish juda ko'p mablag'ni tejashga imkon beradi.

Neftning tannarxiga uning qanday chuqurlikda yotgani emas, balki konning qanchalik kattaligi, bitta burg'uqudug'idan naqadar ko'p neft olish mumkinligi ko'proq ta'sir ko'rsatadi. Neft qazib olishning eng arzon usuli fontan usuli bo'lib, bunda neft quduqlardan neft-gazning bosim ta'sirida otilib chiqadi. Vaqt o'tgan sari bosim asta-sekin pasaya boradi va uni turli usullar bilan oshirib turiladi. Bosim kam yoki butunlay yo'qjohlarda neftni nasoslar yordamida qazib olinadi.

Neft jahondagi 80 ga yaqin davlatda qazib olinadi, ammo bir yilda 100 mln t dan ortiq neft qazib oladigan davlatlar bor-yo'g'i 7 ta: Rossiya, AQSH, Saudiya Arabistoni, Meksika, Buyuk Britaniya, Eron, Xitoy. Jahonda neft qazib olish bo'yicha Rossiya, AQSH va Saudiya Arabistoni etakchi hisoblanadi.

Jahondagi eng yirik neft havzalari G'arbiy Sibir (Rossiya), Texas (AQSH), Meksika qo'ltig'i (AQSH, Meksika), Fors qo'ltig'i (Eron va Arab davlatlari), SHimoliy dengiz hisoblanadi. Ammo neft zaxiralarining asosiy qismi rivojlanayotgan mamlakatlarga to'g'ri keladi. Bu esa neftni uzoq masofalarga tashishga olib keladi. Jahon dengiz transportida tashiladigan yuklarning asosiy qismini neft tashkil qiladi. Hozirgi paytda asosiy neft tashish yo'nalishlari quyidagilar: Fors qo'ltig'idan G'arbiy Yevropaga, Shimoliy Afrikadan Janubiy Yevropaga, Venesueladan Shimoliy Amerikaga, Rossiyadan Sharqiy Yevropaga.

1960 yilda neft qazib olish va uni sotish narxini tartibga solib turish maqsadida neft eksport qiluvchi davlatlar tashkiloti (OPEK) tuzildi. Ushbu tashkilotga 13 ta davlat a'zo bo'lib kirgan: Birlashgan Arab Amirliklari, Venesuela, Gabon, Jazoir, Indoneziya, Iroq, Qatar, Quvayt, Liviya, Nigeriya, Eron, Saudiya Arabistoni, Ekvador.

Neft sanoati faqat neft qazib olish bilan emas, balki uni qayta ishlash bilan ham shug'ullanadi. Hozirgi paytda neftni qayta ishlash korxonalari iste'molchiga yaqin qurilmoqda, chunki turli tayyor mahsulotlarni tashigandan ko'ra, neftni tashish arzoniga tushadi.

Gaz sanoati-asosan XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab rivojlana boshladi. Tabiiy gaz hozir jahonda 60 dan ortiq davlatlarda qazib olinadi. Ammo yiliga 50 mlrd m³ gaz qazib oladigan davlatlar faqat Rossiya, AQSH, Niderlandiya va Kanada hisoblanadi. Gaz sanoatining asosiy xususiyati shundan iboratki, u qazib olingan davlatda ishlatiladi, ya'ni kam eksport qilinadi. Gaz sanoati gazni qazib olish, qayta ishlash va uni iste'molchiga etkazish tarmoqlaridan iborat.

Gaz yoqilg'ining eng arzon turi. Gaz sanoatda ham, aholining ro'zg'orida ham ishlatiladi. Gaz tutun chiqarmaydigan yoqilg'i, u batamom yonib tugaydi va atmosferani iflos qiladigan chiqindilar ajratib chiqarmaydi. Gaz qazib olish tannarxi ko'mir tannarxidan 10-12 marta pastdir. Ayni vaqtda, gaz arzon kimyo xom ashyosi hisoblanadi. Gaz iste'molchilarga quvurlar orqali yoki suyultirilgan holda jo'natiladi.

Torf sanoati-torf qazib olish, uni qayta ishlash va iste'molchiga etkazib berishdan iborat. Torf o'simliklarni chala parchalanishi natijasida botqoqlarda kislorod miqdori kam bo'lgan sharoitda hosil bo'ladigan tog' jinsi. Tabiiy holda juda katta namlikka ega (88-94 foiz). Torf konlari asosan tekisliklarda ko'proq tarqalgan.

Torf yoqilg'i maqsadlarida, qishloq xo'jaligida, qurilish materiali sifatida ishlatiladi. Kelajakda kimyo sanoatida xom ashyo sifatida ishlatish ko'zda tutilmoqda.

Jahondagi torf konlari zaxiralarining $\frac{2}{3}$ qismi Rossiyaga to'g'ri keladi (138 mlrd tonna quruq torf) va asosan igna bargli o'rmonlar hududida tarqalgan. Torf konlari zaxirasining qolgan $\frac{1}{3}$ qismi Skandinaviya davlatlariga, Polsha, Germaniya, Irlandiya, Kanada, Indoneziya, Estoniya, Yangi Zelandiya va boshqa davlatlarga to'g'ri keladi. Torfning issiqlik berish koeffitsienti 3000-4000 kaloriya. Agar torf koksga aylantirilsa, yoki undan briketlar tayyorlansa, yoqilg'ining sifati oshadi. Uni gazga aylantirish ham mumkin. Torfdan olinadigan gaz sanoatning metallurgiya, mashinasozlik, oynasozlik va boshqa tarmoqlarida ishlatiladi. Bir tonna torfdan olingan gaz 220 kg neftga tengdir.

Yonuvchi slanets sanoati-ushbu sanoat slanetslarni qazib olish va ularni qayta ishlash tarmoqlaridan iborat. Slanetslar tarkibida 60-70 foiz organik moddalar bo'lgan gilli yoki ohaktoshli tog' jinslaridir. Tez o't oladi va tutab yonadi. Yonuvchi slanetslar tarkibida juda ko'p uchuvchan moddalar bor. Bu jihatdan ular qo'ng'ir ko'mir va hatto torfdan ustunlik qiladi. Shu sababdan ular gazlashtirish va kimyo sanoatida foydalanish uchun qulaydir.

Slanetslardan zavod sharoitida haydash yo'li bilan olinadigan smola va smolasimon suv, och rangli motor yoqilg'isi, surkov moylari, yog'ochni konservatsiya qilishda ishlatiladigan preparatlar, turli xil farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarish uchun xom ashyo bo'lib hisoblanadi. Ularni quruq haydash natijasida hosilqilinadigan slanets gazining issiqlik berish xususiyati 3800-4000 kaloriya bo'lib, undan yoqilg'i sifatida foydalaniladi. Slanetslar yonishi natijasida ho'l qimmatli yopishtiruvchi modda hosil bo'ladi. Undan sement, binokorlik g'ishti va issiqlik izolyasiyasi materiallari ishlab chiqarishda foydalaniladi.

Yonuvchi slanetslarning yirik konlari Estoniya, Rossiya, Xitoy, AQSH, Kanada, Buyuk Britaniya, Avstraliya va Qozog'istonda joylashgan. Estoniya slanets sanoati mazkur davlatni gaz bilan ta'minlaydi. Bundan tashqari, Estoniyada yonuvchi slanetslardan qattiq yoqilg'i sifatida ham, undan suyuq yoqilg'i va gaz ishlab chiqarishda ham foydalaniladi.

Uran sanoati-uran rudasini qazib olish va boyitish tarmoqlaridan iborat. Uran rudasi bu iqtisodiy jihatdan ajratib olish qulay bo'lgan miqdorda tarkibida uran va uran birikmalari bo'lgan tabiiy mineral agregatlardir. Tabiatda tarkibida urani bor 150 dan ortiq mineral bor. Yirik uran rudasi konlari Rossiyada, Chexiyada, Slovakiyada, XXR, AQSH, Kanada, JAR, Avstraliya, Fransiya, Gabon va Zair (Kongo demokratik respublikasi) da joylashgan. 1 kg uran 2,5 ming tonna ko'mir yonganda beradigan miqdorda issiqlik beradi. Uran miqdori rudaning tarkibida juda kam bo'lganligi uchun uran sanoati asosan xom ashyo manbalariga yaqin joylashtiriladi.

Elektr energiyasi sanoati-elektr energiyasini ishlab chiqarish va uni iste'molchilarga uzatish tarmoqlaridan iborat. Ushbu tarmoq mamlakat yoki iqtisodiy rayon miqyosida sanoatni joylashtirishga muhim ta'sir ko'rsatadi. Bu ta'sir ikki yo'nalishda sodir bo'ladi. Birinchi yo'nalish elektr energiyani katta masofaga uzatishdan iborat. Bu esa mamlakatning barcha hududlarida sanoatni rivojlantirishga imkon beradi. Ikkinchi yo'nalish mo'l-ko'l va arzon elektr energiyasi ishlab

chiqaradigan hududlarda energiyani ko'p talab qiladigan sanoat tarmoqlarini joylashtirishdan iborat.

Elektr energiyasini ko'p talab qiladigan sanoat tarmoqlariga titan, alyuminiy, magniy, sintetik tola, sintetik kauchuk, sintetik ammiak ishlab chiqarish kiradi. Bir tonna titan ishlab chiqarish uchun 60 ming kVt\soat, magniy uchun 26 ming kVt\soat, alyuminiy ishlab chiqarish uchun esa 20 ming kVt\soat elektr energiyasi sarf bo'ladi.

Demak, ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxining asosiy qismini energetika xarajatlari tashkil qilsa, bunday ishlab chiqarish ko'p energiya talab qiladigan ishlab chiqarish deb ataladi. Elektr energiyasini kamroq talab qiladigan tarmoqlarga qora metallurgiya (elektrometallurgiyadan tashqari), soda va qog'oz ishlab chiqarish, mashinasozlik, mebel, fanera va to'qimachilik sanoati kiradi. Elektr energiyasi sanoatini joylashtirishda quyidagi omillar hisobga olinadi:

- yoqilg'i va gidroenergetika resurslari;
- ishlab chiqarishdagi va elektr energiyani uzatishdagi texnika taraqqiyoti;
- iste'molchining joylashishi.

Ushbu tarmoqning asosiy xususiyati shundan iboratki, elektr energiya ishlab chiqarish uni iste'mol qilish bilan bir vaqtga to'g'ri keladi. Mamlakat xalq xo'jaligi yoki iqtisodiy rayon xo'jaligi uchun ishlab chiqarilgan energiya tannarxining past bo'lishi katta ahamiyatga ega. Elektr energiyaning tannarxi elektr stansiyalarda ishlatiladigan yoqilg'ini qazib olish va tashib kelishga ketadigan xarajatga bog'liq. Shu sababli, elektr stansiyalarni qurish uchun joy tanlanayotganda yoqilg'ini tashib kelishga va elektr energiyani iste'molchiga etkazib berishga ketadigan xarajatlar hisobga olinadi. Agar yoqilg'ini tashib kelish xarajati elektr energiyani uzatish xarajatidan ortiq bo'lsa, elektr stansiyani yoqilg'i manbaiga yaqin, agar energiyani uzatish qimmatga tushsa, uni iste'molchiga yaqin quriladi. Ayrim hollarda, elektr energiya juda ko'p talab qilinadigan joylarda elektr stansiyalar boshqa joydan keltiriladigan yoqilg'iga mo'ljallab quriladi.

Hozirgi paytda elektr energiyasini uzatish mumkin bo'lgan masofa yildan-yilga uzayib bormoqda. Elektr energiyani uzoq masofaga uzatish mumkinligi uni yoqilg'ining boshqa turlariga qaraganda afzalroqqilibqo'ymoqda. Bu esa qo'yidagilarni amalga oshirishga imkon beradi:

- yoqilg'ining mahalliy turlaridan to'la va har tomonlama foydalanishga;
- yirik va qudratli elektr stansiyalar qurishga;
- xo'jalikning hamma tarmoqlarida elektr energiyadan foydalanishga.

Elektr energiyasi issiqlik elektr stansiyalarda (IES), gidroelektr stansiyalarda (GES), issiqlik elektr markazlarida (IEM), atom elektr stansiyalarida (AES) va noan'anaviy elektr energiyasi olish stansiyalarida ishlab chiqariladi.

Jahonda ishlab chiqariladigan elektr energiyaning 70 foizdan ortig'i IES larda ishlab chiqariladi. Ular ancha tez va arzon quriladi. Ularning quvvatini 6 mln kVt dan oshirish mumkin. IESlarni qurishda elektr resurslari, ishlab chiqarish va transport sharoitlari, qurilish xarajatlari va muddatlari hamda stansiyani ekspluatatsiya qilish nazarda tutiladi. Ko'pchilik IESlarda elektr energiya bilan birga issiqlik energiyasi ham ishlab chiqariladi. Bunday elektr stansiyalar issiqlik elektr markazlari (IEM) deb ataladi. Ularda elektr energiya ishlab chiqarish vaqtida isigan suvni issiqxonalarini, binolarni isitishga va ishlab chiqarish ehtiyojlariga yuboriladi. Ammo isigan suvni

faqat 20 km gacha bo'lgan masofaga jo'natish mumkin, shuning uchun IEMlar asosan sanoat korxonalarida yaqinida va yirik shaharlarda quriladi. Bu soha bo'yicha Rossiya jahonda etakchi hisoblanadi.

Gidroelektr stansiyalarda (GES) energiya ishlab chiqarish to'xtovsiz oqib tushadigan suv oqimi kuchiga asoslanadi. Shuning uchun ham ularda ishlab chiqarilgan elektr energiyaning tannarxi past bo'ladi. GESlar suv oqimi energiyasini elektr energiyaga aylantirib beradigan inshootlar va jihozlar majmuidir.

Tekislik va tog' oldi daryolarida suvning to'xtovsiz oqimi asosan to'g'onlar tufayli hosilqilinadi. GES binosi to'g'on yonida, yoki ichida, ba'zi hollarda to'g'ondan pastda joylashadi. GES binosi to'g'ondan ancha pastda, ayrim hollarda er tagida joylashtiriladi. Daryo oqimi yil bo'yi energiya olishda, to'la foydalanish maqsadida suv omborlar qurish orqali tartibga solinadi. Yirik GES lar qurilganda daryo suvlaridan transport va irrigatsiya maqsadlarida ham, suv ta'minoti uchun ham foydalaniladi. Bunday inshootlar gidrouzellar deb ataladi.

Gidrouzellar elektr energiyani ishlab chiqarish, erlarni sug'orish, xo'jaliklar va aholini suv bilan ta'minlash, kemachilik va baliqchilikni rivojlantirish masalalarini hal qilishga imkon beradi. Hozirgi paytda GES larning yangi turi bo'lgan **gidroakkumulyativ elektr stansiyalar (GAES)** ham qurilmoqda. Ular energiya tizimlarida elektr energiyadan notekis foydalanish sababli quriladi. GAES lar boshqa GES lar ishlab chiqargan energiyani to'playdi (akkumulyasiya qiladi), bunda ular stansiyadan yuqorida joylashgan havzaga suvni nasoslar bilan ko'tarish uchun qurilgan tizimlardagi ortiqcha elektr energiyasidan foydalanadi (masalan, tunda). Elektr energiyaga ehtiyoj oshganda bu havzadagi suv ochib yuboriladi va hosil bo'lgan oqim kuchi tufayli GAESlarda elektr energiyasi hosilqilinadi.

Bitta daryoning o'zida bir nechta elektr stansiyalar pog'onasini (kaskad) vujudga keltirish mumkin. U suv resurslaridan ko'p marta foydalanishning eng yaxshi imkoniyatlarini yaratib beradi. Masalan, Chirchiq daryosida 19 ta, Volga daryosida esa 12 ta elektr stansiyalar pog'onasi qurilgan.

Gidroenergetika resurslarining 65 foizi rivojlanayotgan mamlakatlarga to'g'ri keladi, ammo ulardan foydalanish darajasi past. Gidroenergetika resurslaridan foydalanish darajasi AQSH, Rossiya va Norvegiyada juda yuqori. Norvegiyada elektr energiyaning 99,5 foizi GES larda ishlab chiqariladi. Bu erda GES larning asosiy qismi (200 dan ortiqrog'i) er tagida joylashgan. Jahonda ishlab chiqariladigan elektr energiyaning **20 foizi** GESlarda ishlab chiqariladi.

Atom elektr stansiyalarida (AES) jahonda ishlab chiqariladigan elektr energiyaning **15-17** foizi ishlab chiqariladi. AESlar o'zining energetika manbai bo'lmagan va yoqilg'i qimmat, lekin elektr energiya ko'p talab qilinadigan joylarda quriladi. Uning xom ashyosi bo'lib uran hisoblanadi. AESlar hozir 30 dan ortiq davlatlarda qurilgan. Birinchi AES Rossiyada (Obninsk AES i) qurilgan. AES larda elektr energiyasi ishlab chiqarish bo'yicha AQSH, Fransiya, Yaponiya, Germaniya, Rossiya yetakchi, Fransiyada elektr energiyani 70 foizdan ortig'i AES larda ishlab chiqariladi.

Noan'anaviy energiya manbalari asosida ishlaydigan elektr stansiyalarga quyosh elektr stansiyalari (QES), shamol elektr stansiyalari (SHES), geotermal elektr

stansiyalar (GeES), qalqish elektr stansiyalari (QAES), dengiz oqimi elektr stansiyalari (OES) va boshqalar kiradi.

So'nggi o'n yil ichida Xitoy o'zini qayta tiklanadigan energetikaga sarmoyalarni jalb qilib, ko'mir zavodlarini yopib, dunyoda etakchi o'rinlardan birini egallab kelmoqda. Jamoatchilik uchun qulay bo'lgan eng yirik quyosh fermalaridan biri ikkita panda shaklida qurilgan. Xitoyning shimolidagi Shansi provinsiyasida joylashgan Datong Panda elektr stantsiyasi 100 gektar maydonga tarqalgan 50 MVt quyosh energiyasidan iborat.

Bu Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot Dasturi (BMTRD) va Panda Green Energy kompaniyasining asosiy aksiyadori, China Merchants New Energy tomonidan kelishilgan sxema bo'yicha qurilgan birinchi zavod. E'lon qilingan ma'lumotlarga ko'ra, 2016 yil oxirida Xitoyda 77,4GVt quyosh energiyali PV o'rnatilgan edi, bu dunyo miqyosining to'rtinchi qismini tashkil etadi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, dunyo yoqilg'i-energetika sanoati o'ziga xos birlashma doirasida keng rivojlanib bormoqda. OPEK davlatlari (Birlashgan Arab Amirliklari, Eron, Iroq, Kuvayt, Saudiya Arabistoni, Angola, Gabon, Jazoir, Ekvatorial Gvineya, Kongo, Liviya, Nigeriya, Venesuela, Ekvador) hududida jahon neft zaxiralarining 2/3 qismi to'plangan bo'lib, yillik neft qazishning 1/3 qismi mazkur davlatlar hissasiga to'g'ri keladi.

Davlatlar orasida, neft qazib olish bo'yicha Saudiya Arabistoni (583 mln. t), Rossiya (548 mln. t), AQSH (537 mln. t), Kanada (220 mln. t) hamda Eron (200 mln. t) yetakchilik qiladi. Mazkur davlatlar hissasiga umumiy qazib olingan neftning 48,3 % i to'g'ri keladi. Saudiya Arabistoni, Rossiya, BAA, Kuvayt, Iroq kabi davlatlar yirik neft eksportyorlari hisoblansa, AQSH, Xitoy, Yaponiya, Yevropa davlatlari esa asosiy neft sotib oluvchi davlatlardir.

Gaz qazib olish bo'yicha Osiyo, Shimoliy Amerika, Yevropa mintaqalari yetakchi bo'lsa, davlatlar orasida esa AQSH (749 mlrd. m³) Rossiya (641 mlrd. m³), Eron (190 mlrd. m³), Qatar (182,8 mlrd. m³), Kanada (174 mlrd. m³) kabilar peshqadamlik qiladi.

So'nggi yillarda gaz eksportida suyultirilgan gaz bilan savdo qilish katta ahamiyat kasb etmoqda. Tabiiy gaz suyuq holatga o'tkazilishi jarayonida o'rtacha hisobda 600 marotabagacha siqiladi.

Bu esa juda katta miqdordagi gazni tashish imkonini beradi. Natijada maxsus gaz tashuvchi tankerlar yordamida uni qit'alararo eksport qilish imkoniyati paydo bo'ldi. Jahonning 30ga yaqin davlatlarida suyultirilgan gaz ishlab chiqariladi. Qatar, Avstraliya, Malayziya kabi davlatlar ular orasida yetakchilik qiladi. Yaponiya, Koreya Respublikasi, Xitoy kabi davlatlar suyultirilgan gazning asosiy iste'molchilaridir.

Ko'mir sanoati yoqilg'i-energetika tarmoqlari orasida eng birinchi shakllangan tarmoq hisoblanadi. Hozirgi vaqtda qazib chiqarilayotgan ko'mirning asosiy iste'molchisi issiqlik elektr stansiyalaridir. Qazib chiqarilayotgan ko'mir, asosan, o'sha davlatlarning o'zida iste'mol qilinadi. Qazib chiqarilayotgan ko'mirning atigi 10 % i eksportga chiqarilmoqda. Qazib olingan ko'mirning 75 % dan ortig'i Xitoy (3242 mln. t), Hindiston (708 mln. t), AQSH (672 mln. t), Avstraliya (503 mln. t), Indoneziya (460 mln. t) hissasiga to'g'ri keladi.

Elektr energetika sanoati elektr energiyasini ishlab chiqarish va iste'molchilarga yetkazib berishni o'z ichiga oladi. Xitoy (6,17 trln. kW s), AQSH (4,4 trln. kW s), Hindiston (1,4 trln. kW s), Rossiya (1,1 trln. kW s), Yaponiya (1,0 trln. kW s) elektr energiyasini eng ko'p ishlab chiqaruvchi davlatlar hisoblanadi.

Ma'lumki, elektr energiyasi ishlab chiqarishda an'anaviy (issiqlik, gidro va atom elektr energetika tarmoqlari) va noan'anaviy (quyosh, shamol, suv qalqishi, geyzerlardan olinadigan energiya va b.) energiya manbalaridan foydalaniladi. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan uch turdagi an'anaviy elektr energetika tarmoqlari, taxminan, 99 % elektr energiyasini ishlab beradi. Muqobil energiya manbalarining salmog'i esa hozircha ancha past 1%.

Niderlandiya, JAR, Polsha, Ruminiya, Meksika va boshqa davlatlarda ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasining asosiy qismi aynan IESlarga to'g'ri keladi. Tuoketuo (Xitoy), Surgut GRES-2 (Rossiya) jahondagi eng yirik IESlari hisoblanadi.

Norvegiya, Braziliya, Albaniya, Kolumbiya kabi davlatlarda elektr energiyasining asosiy qismi GESlarda ishlab chiqariladi.

Atom elektr energetikasi sanoati elektr energetikaning fan-texnika inqilobi davrida vujudga kelgan, murakkab texnologik jarayonlarni o'zida mujassamlashtirgan tarmog'idir.

Dunyodagi birinchi AES Rossiya Federatsiyasining Obninsk shahrida ishga tushirilgan edi. Hozirgi kunda jahonning 30 dan ortiq davlatida AESlar faoliyat olib bormoqda. Eng yirik AESlar Yaponiya, AQSH, Fransiya, GFR, Rossiya hududida joylashgan. Fransiya, Belgiya, Koreya Respublikasi kabi davlatlar AESlar asosida olinuvchi energiya miqdori yuqori bo'lgan davlatlar orasida peshqadamlik qiladi.

So'nggi yillarda jahon mamlakatlarida ekologik jihatdan zararsiz energiya oluvchi muqobil manbalarga talab kuchaya bormoqda. Quyosh, shamol, suv qalqishi, geotermal energiya kabilar shular jumlasidandir. Geotermal energiyadan foydalanish AQSH, Rossiya, Filippin, Italiya, Islandiya kabi davlatlarda yo'lga qo'yilgan bo'lsa, Fransiya, Kanada, Rossiya, Xitoy dengiz qalqishidan, Xitoy, Daniya, Niderlandiya, Germaniya, AQSH shamoldan elektr energiyasini ishlab chiqarish bo'yicha yetakchilik qilmoqda.

O'zbekiston yoqilg'i-energetika majmuiga-gaz, neft, ko'mir va energetika sanoatlari kiradi. Bu sanoat majmuining mamlakat sanoat ishlab chiqarishdagi hissasi 15,8 foizga teng. O'zbekistonning g'arbiy va janubiy hududlarida topilgan neft, gaz va ko'mir konlarining katta zahiralari tayanib yildan-yilga mazkur sanoat tarmoqlari tez rivojlantirilmoqda. Qidirib topilgan gaz zahiralari 2 trillion kubometrqa yaqin, ko'mir zahiralari esa 2 milliard tonnadan ortiq. Respublikamiz neft zahiralari ham boy.

Neft, gaz va elektr energiya o'z ehtiyojlarimizni to'la ta'minlabgina qolmay, ko'p miqdorda eksport ham qilinadi. Hozir bu majmua kapital mablag' sarflash hamda chet el investitsiyalarini jalb etishning eng foydali sohalaridan biri bo'lib qoldi. Mazkur sanoat majmui ikki guruhga: yoqilg'i va elektr energetika sanoatiga bo'linadi. Yoqilg'i-energetika majmuasi (**yoqilg'i sanoati** tarmoqlari: gaz, neft, ko'mir, torf, slanets va **elektroenergetika**: gidroelektrostantsiyalar, issiqlik elektrostantsiyalar, atom elektrostantsiyalar)-(4-jadval).

4-jadval. O'zbekiston Respublikasi yoqilg'i-energetika sanoat tarmoqlarida mahsulot ishlab chiqarish dinamikasi

Mahsulot turlari	O'lchov birligi	2000	2001	2002	2003	2018
Neft (gazkondensati bilan birga)	ming tonna	7534	7253	7241	7134	3000-4000
Tabiiy gaz	mlrd m ³	56,4	57,4	58,4	57,5	60,0
Ko'mir	ming tonna	2500	2711	2737	1910	4000
Elektr energiyasi	mlrd kVt.s.	46,8	47,9	49,3	48,7	60

Yoqilg'i sanoati-O'zbekiston og'ir sanoatining muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, u tabiiy gaz, neft, ko'mir qazib chiqarishni va ularni qayta ishlashni hamda tayyor mahsulotni iste'molchilarga etkazib berishni o'z ichiga oladi. 1950-yillarda O'zbekistonda jami 9 mln kub metr tabiiy gaz qazib chiqarilgan bo'lsa, endilikda yiliga qazib olinayotgan gaz 60 mlrd kub metrdan ortdi.

Respublikada 160 dan ortiq neft va gaz konlari ochilgan. Ulardan 115 tasi Buxoro-Xiva havzasida, 27 tasi Farg'ona vodiysi, 10 tasi Surxondaryo, 7 tasi Ustyurtda joylashgan. Mazkur konlarning gaz, gaz-kondensatli, gaz-neft, neft, gaz-neft kondensatli va neft-gaz kondensatli turlari mavjud.

Neft va gaz mavjud bo'lgan beshta asosiy mintaqani ajratib ko'rsatish mumkin. Bular: Ustyurt, Buxoro-Xiva, Janubi-G'arbiy Hisor, Surxondaryo, Farg'ona mintaqalaridir. Neft va gaz resurslarining zahiralari bir trillion AQSh dollaridan ziyod baholanmoqda.

Rivojlanishning hozirgi bosqichida mamlakat hududidan topilgan 70 dan ortiq neft, gaz va gazkondensatli konlardan hamda mavjud uchta ko'mir konidan (Angren, Sharg'un, Boysun) foydalanilmoqda. 50 dan ortiq neft, gaz va gazkondensat konlar esa foydalanishga tayyorlab qo'yilgan.

Xom ashyoni qayta ishlash bilan bog'liq bo'lgan yirik korxonalar Buxoro (Qorovulbozor), Qashqadaryo (Sho'rtan, Muborak), Toshkent (Angren), Surxondaryo (Sharg'un, To'da) va Farg'onada joylashgan. Mamlakatimizda birinchi neft koni 1904 yilda Farg'ona vodiysi (Chimyon) da ochilgan, o'sha paytda undan 278 m. chuqurlikdan sutkasiga 130 t. neft qazib olingan.

Shu yilning o'zida Vannovskda (hozirgi Oltiariq) neftni qayta ishlash zavodi ish boshladi. Ikkinchi jahon urushi davrida va undan keyingi yillarda Farg'ona vodiysi (Janubiy Olamushuk, Polvontosh Andijon) da va Janubiy O'zbekistonda (Xaudak, Lalmikor) yangi neft konlari ishga tushirildi. Koplab neft konlarining o'zlashtirilishi bilan 1959 yilda Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi qurildi. Mustaqillik tufayli neft sanoatida keskin burilish yuz berdi.

Buxoro va Qashqadaryo viloyatlarida ko'plab yirik (jumladan, Ko'kdumaloq) konlarning ishga tushirilishi natijasida neft qazib olish keskin o'sdi. 1992 yil Namangan viloyatida yirik Mingbuloq neft koni ochildi. 2012 yilda taxminan 4 mln. tonna neft qazib olindi. Respublikada neftning asosiy qismi (92 foizi) Qashqadaryo

viloyatida qazib chiqariladi. U biroz miqdorda Andijon, Surxondaryo, Farg'ona, Buxoro viloyatlarida ham qazib chiqariladi.

Dastlab Farg'ona vodiysida, keyinroq Surxondaryoda, 1960 yillarda Buxoro va Navoiy viloyatlarida, 1970 yillardan boshlab Qashqadaryo viloyati va Qoraqalpog'iston hududlaridan gazning g'oyat katta zahiralari topildi. Ayniqsa, respublika gaz sanoatining rivojlanishi XX asrning o'rtalarida ochilgan Jarqoq va Gazli konlari katta rol o'ynadi.

1962 yilda katta zahiraga ega bo'lgan Gazli koni ishga tushirildi. Natijada, O'zbekiston gazi shavqatsizlarcha tashib ketila boshladi. Juda qisqa muddatlada qurib bitqazilgan "Gazli-Sverdlovskiy" (Buxoro-Ural), "O'rta Osiyo-Markaz" va "Buxoro-Toshkent-Bishkek-Oлмаota" gaz quvurlari orqali sobiq Ittifoqning Evropa qismiga, Ural, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikistonga, shuningdek, Boltiqbiyi respublikalariga har yili 50 mlrd. kubometr gaz jo'natilgan.

Mustaqillik yillarida Qashqadaryo viloyatining janubi-g'arbiy qismida Sho'rtan gaz-kimyoy majmuasi qurib bitkazildi. Mazkur kombinatdan oltingugurti kamroq bo'lgan tabiiy gazni energetika ehtiyojlari uchun mintaqalarga uzatish maqsadida Sho'rtan-Sirdaryo-Toshkent gaz quvuri ishga tushirilgan. Sho'rtan gaz majmuida jahonda birinchi bo'lib molekulyar elak (g'alvir) lar qo'llanilmoqda. Mamlakatning ko'pgina gaz konlari (98 %) oltingugurtli gazdir. Hozirgi vaqtda tabiiy gazni qazib chiqarishda asosiy o'rinni Qashqadaryo (88 %) viloyati egallaydi. Oz miqdorda tabiiy gaz Buxoro (2 %), Farg'ona, Andijon va Surxondaryo viloyatlarida ham qazib chiqariladi.

Mamlakatimiz hududidan ko'mir uch joydan-Angren, Sharg'un va Boysun (To'da) dan qazib olinadi. Ularning dastlabkisidan qo'ng'ir ko'mir qazib olinsa, keyingi ikkitasidan toshko'mir qazib olinadi. O'zbekiston hududidan dastlabki ko'mir qazib olish 1930 yillarning oxirida Angren konida boshlangan. Ushbu kon Toshkent viloyatidagi Ohangaron vodiysining o'rta oqimida joylashgan. Angren ko'mir konining zahirasi respublikada topilgan barcha ko'mir zahirasining 96,5 foizini tashkil etadi. Agar mamlakatda yiliga 10 mln. tonnadan ko'mir qazib olingan taqdirda ham, Angren ko'mirining zahirasi yana 200 yilga etadi.

O'zbekistondagi ikkinchi kon Surxondaryo viloyatining tog'li qismidagi yuqori sifatli Sharg'un toshko'mir konidir. Kon dengiz sathidan 600-800 m. balandlikda yura davri yotqiziqlari orasida joylashgan. Ko'mir qatlamlarining o'rtacha qalinligi 4,5 m, ba'zilarining qalinligi 12,0 m ga etadi. Geolog E. A. Repman tomonidan 1941 yilda topilgan Sharg'un konidan 1958 yildan buyon toshko'mir qazib olinadi. Uning sifat va issiqlik quvvati Donbass, Kuzbass va Qarag'anda havzalari ko'miridan qolishmaydi.

Surxondaryoning tog'li Boysun tumanida ham yuqori quvvatli toshko'mir koni ishga tushirilgan. Boysun ko'mir konining aniqlangan zahirasi 28,7 mln t. ga teng. Ko'mir konining yillik ko'mir qazib olish quvvati 500 ming t. 1983 yilda ishga tushirilgan ushbu kondan yiliga 35-50 ming t. ko'mir qazib olinmoqda. Boysun ko'mir koni dengiz sathidan 1246 m. balandlikda joylashgan.

Mamlakatimizda qazib olinayotgan ko'mirning deyarli hammasi (97,4 foiz) qo'ng'ir ko'mir, qolgan qismi toshko'mirdir. Qazib olinayotgan ko'mirning 90-95 foizi ochiq usulda qazib olinadi.

O'zbekiston energetika tizimi umumiy o'rnatilgan quvvati 11,5 mln. kvt bo'lgan 37 issiqlik va gidravlik elektr stansiyalarda yiliga 60 mlrd. kvt soatdan ortiq elektr energiya ishlab chiqarish imkoniyatiga ega. Mamlakatda ishlab chiqarilayotgan elektr energiyaning 90 foizini issiqlik elektrostantsiya (IES) bermoqda.

O'zbekistonda elektr energiya ishlab chiqarish va undan xalq xo'jaligining turli tarmoqlarida foydalanishning o'z tarixi bor. 1923 yil Toshkent shahri yaqinidagi Bo'zsuv kanalida GES qurilishi boshlandi, uning birinchi navbati 1926 yil 1 mayda ishga tushirildi. O'sha davrda Bo'zsuv GES i Markaziy Osiyoda birinchi va yirik energetika inshooti edi.

1948 yilda Farxod GESi xalq hashari yo'li bilan qurildi. So'ngra Chirchiq-Bo'zsuv suv tarmoqlarida, Shahrixonsoy va Namangansoy daryolarida, Darg'om, Hazarbog', Qumqo'rg'on kanallarida qator GESlar qurildi. Natijada respublikaning elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyoji 1955 yilga kelib GESlar hisobida 65 foizga qondirildi. O'zbekiston daryolari orasida Chirchiq daryosining gidroenergetik quvvati katta. Shu bois, unda GESlar kaskadi 19 ta.

XX asrning 1960-yillaridan mamlakat elektr energiyasi hosil qilishni ko'paytirish asosan tabiiy gaz asosida ishlaydigan yirik IESlar hisobiga amalga oshdi. Shu davrdan keyin-birin ketinlik bilan Toshkent (quvvati 1860 ming kVt.), Navoiy (1250 ming kVt.), Taxiatosh (730 ming kVt.), Sirdaryo (3,0 mln. kVt.), Angren (484 ming kVt.), Yangi Angren (1,8 mln. kVt.) IES lari qurib, ishga tushirildi.

Hozirgi vaqtda respublikamizda mavjud bo'lgan elektrostantsiyalarda o'rnatilgan umumiy quvvat 11640 MVt ni tashkil etadi, shundan 85,3 foizi issiqlik, 14,7 foizi gidroelektr stantsiyalariga to'g'ri keladi. Respublikamizda elektr energiyasi ishlab chiqarish 2000 yildagi 46,8 mlrd. kVt. dan 2019 yilga kelib 60 mlrd. Kvt soatga etdi. Bugungi kunda taxminan elektr energiyasi ishlab chiqarishda Toshkent (45 %) va Sirdaryo (28,5 %) viloyatlari nihoyat katta ulushni egallaydi. Shuningdek, Navoiy (15 %) viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikasi (6 %), Farg'ona (2,2 %) viloyatining ham ma'lum hissasi bor.

3.3. Metallurgiya majmui

Metallurgiya xalq xo'jaligini konstruksion materiallar bilan ta'minlaydigan tarmoqdir. Metallurgiya sanoati ikki yirik tarmoqni o'z ichiga oladi: qora va rangli metallurgiya. **Qora metallurgiya sanoati**-temir rudasi qazib olish, cho'yan, po'lat eritish, prokat va ferroqotishmalar ishlab chiqarishdan iborat. Qora metallurgiya xalq xo'jaligining o'zagi hisoblanadi va uning asosiy tarmoqlari bilan bog'langan. U mashinasozlikka va qurilish industriyasiga metall beradi, qazib chiqariladigan ko'mirning katta qismini ishlatadi. Kimyo sanoatining asosiy xom ashyo manbalaridan biri hisoblanadi va qishloq xo'jaligiga tarkibida fosfor bo'lgan shlak-o'g'it beradi, temir yo'l izlari (reklar), vagonsozlik, kemasozlik, avtomobilsozlik uchun metall beradi.

Metallning asosiy qismi metallurgiya kombinatlarida ishlab chiqariladi. Metallurgiya sanoatida xom ashyoga ketma-ket ishlov beradigan kombinatlar ko'pchilikni tashkil qiladi. Bunday kombinatlarda temir rudadan domna pechlarida cho'yan eritib olinadi, suyuq cho'yan va temir-tersakdan eritish pechlarida

(konverter, marten, elektr pechlarda) po‘lat eritiladi, po‘latdan esa prokat (tayyor mahsulot) olinadi.

Fan-texnika taraqqiyoti metallurgiya sanoatida metall eritishning chiqindisiz texnologiyasini, metall olishning yangi, unumliroq usullarini joriy qilishga olib keldi, bu po‘lat sifatini oshirishni va prokatning xilma-xil turlarini olishga imkon berdi. Metall olishning eng yangi usuli metallni domnadan tashqarida olishdir.

Qora metallurgiyada ishlab chiqarishning markazlashuvi tez sur‘atlar bilan o‘tib bormoqda. Hozirgi paytda bitta yirik domnada bir qancha zavodda eritilgan miqdorda temir eritilmoqda. Ammo ilmiy-texnika inqilobi natijasida temir eritishning yangi usullari ixtiro qilinishi va ishlab chiqarishga joriy qilinishi munosabati bilan kichik-kichik metallurgiya zavodlari qurish keng takomillashmoqda (bu xususiyat Yaponiya va boshqa rivojlangan davlatlar uchun xos). Metallurgiya kombinatlari juda ko‘p xom ashyo va yoqilg‘i talab qiladi. SHuning uchun metallurgiya korxonalarini xom ashyo va yoqilg‘i manbalariga yaqin yoki ular oralig‘ida joylashtiriladi. Bir tonna cho‘yan ishlab chiqarishga sarf bo‘ladigan materiallar miqdori metallurgiyaning texnik darajasiga bog‘liq. Xom ashyo va yoqilg‘i xarajatlari cho‘yan tannarxining 80 foizini tashkil qiladi.

Kokslanuvchi ko‘mir qora metallurgiya uchun asosiy yoqilg‘i bo‘lib hisoblanadi. Tarkibida karbonat kalsiy bo‘lgan ohaktosh va dolomitlar flyus sifatida ishlatiladi. Metallni eritish paytida flyuslar metallmas jins va koks kuli bilan birgalashib domna chiqindisini hosil qiladi.

Flyus-domna pechda ruda bilan yoqilg‘i qatlamlari orasiga solinadigan modda ohaktosh, qum, dolomit va boshqalar qorishmasi. Flyus solinganda ruda orasidagi turli aralashmalar (bekorchi jins) bilan birga metallardan oson ajraladigan shlak hosil qiladi.

O‘tga chidamli materiallar (shamotdan yasaladigan buyumlar) metallurgiya pechlari qurish uchun kerak bo‘ladi. Bir tonna po‘lat eritish uchun 150 kg o‘tga chidamli material sarf bo‘ladi. Qora metallurgiya zavodlari suvni ham ko‘p ishlatadi. Suv metallurgiya agregatlarini sovitish, gazni tozalash va boshqalar uchun kerak bo‘ladi. Metallurgiya zavodining 1 tonna mahsuloti uchun 900 m³ suv ishlatiladi, agar aylanma suv ta‘minotidan foydalanilsa 15-20 m³ suv sarflanadi.

Shuning uchun metallurgiya korxonalarini joylashtirishda suv, elektr energiya, tabiiy gaz bilan ta‘minlash va tabiatni muhofaza qilish masalalari ham e‘tiborga olinadi. Umumiy ruda yoki yoqilg‘i resurslaridan foydalanuvchi va xalq xo‘jaligining metallga bo‘lgan asosiy ehtiyojini ta‘minlovchi bir guruh metallurgiya zavodlari asosiy **metallurgiya bazasi** deb ataladi.

Rossiyada Ural, Markaziy Osiyo va Sibir, Ukrainada, AQSH va Kanadada Buyuk ko‘llar atrofi, Xitoyda SHimoli-SHarq, Germaniyada Rur metallurgiya bazalari bor.

Qora metallurgiyaning asosiy xom ashyosi bo‘lgan temir rudasi hozirgi paytda 50 dan ortiq mamlakatda qazib olinadi, ammo asosiy qazib oluvchi davlatlar Rossiya, Braziliya, Xitoy, Avstraliya, AQSH, Kanada hisoblanadi. Eng yirik temir rudasi havzalari ham shu mamlakatlarda joylashgan: Krivoy Rog (Ukraina), Kursk magnit anomaliyasi-KMA (Rossiya), Itabira va Karajas (Braziliya), Akshan (Xitoy), Yuqori ko‘l (AQSH), Labrador (Kanada). Jahonda qazib olinadigan temir rudasining 50 foizi

eksport qilinadi. Boy temir rudalari tarkibida foydali metallar miqdori 50 foizdan ortiq, kambag'al rudalarda esa 25-50 foiz bo'ladi.

Umuman ruda deb tarkibida hozirgi texnika imkoniyati doirasida ajratib olish iqtisodiy jihatdan foyda beradigan miqdorda foydali komponentlari (muhim elementlar yoki minerallar) bo'lgan tog' jinslari yoki mineral agregatlarga aytiladi.

Rangli metallurgiya-rangli metallarni qazib chiqarish, boyitish, eritish hamda qotishmalar ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi. Rangli metallar ilmiy-texnika inqilobi davrida mamlakatni elektrlashtirish, uning mudofa salohiyatini mustahkamlash, atom texnikasi, aviatsiya, raketasozlikni rivojlantirish, qora metallurgiya va kimyo sanoati uchun muhim ahamiyatga egadir.

Rangli metallar 6 ta guruhga bo'linadi:

- 1) og'ir metallar (mis, qalayi, qo'rg'oshin, nikel, rux);
- 2) engil metallar (alyuminiy, magniy, titan);
- 3) qimmatbaho metallar (oltin, kumush, platina);
- 4) qiyin eruvchi metallar (volfram, molibden);
- 5) nodir metallar (uran, germaniy va boshqalar);
- 6) legirlovchi metallar (xrom, nikel, titan, vanadiy, volfram).

Ular qator xususiyatga ega bo'lib, ba'zilar (qalayi, qo'rg'oshin, nikel) korroziyaga chidamli, ayrimlari issiqqa chidamli (titan), elektr tokini yaxshi o'tkazadi (alyuminiy, mis, kumush). Bundan tashqari, ruda tarkibida rangli metallar miqdorining ozligi va bir vaqtda bir necha rangli metallarning uchrashi ularning muhim xususiyatlaridan biridir. Bu esa texnologik jarayonga va ishlab chiqarishni joylashtirishga katta ta'sir ko'rsatadi.

Og'ir metallar rudalari o'z tarkibida metall miqdorining kam bo'lishi bilan farq qiladi. Mis rudalari tarkibida odatda 0,5-2 foiz mis bo'ladi, 1 t mis olish uchun 100 t, 1 t qalayi olish uchun esa 300 t dan ortiq ruda kerak bo'ladi. Shuning uchun juda ko'p miqdordagi keraksiz jinslarni ishlatmaslik maqsadida ular oldindan boyitiladi.

Foydali qazilmalarni boyitish deganda rudaning keraksiz qo'shilmalarini chiqarib tashlash yoki yangi moddalar qo'shish yo'li bilan ularning foydali sifatini yaxshilash tushuniladi. Mis rudalarini boyitish natijasida olinadigan konsentratlar (foydali qazilmalarni boyitish natijasida hosilqilinadigan mahsulot) tarkibida metall 8 foizdan 25 foizgacha bo'ladi.

Shuning uchun og'ir metallarni boyitish va ishlab chiqarish zavodlari xom ashyo manbalariga yaqin joylashtiriladi. Demak, energiyani ko'p talab etmasligi va boyitilgan rudada misning kam (8 foizdan 25 foizgacha) bo'lishi tufayli, mis va nikel eritish zavodlari xom ashyoga yaqin joylarda quriladi.

Og'ir rangli metall rudalarining yana bir xususiyati ularning kompleksligidir. Mis, qalayi, rux, qo'rg'oshin rudalarida o'nlab boshqa metallar, hamda oltingugurt bo'ladi, shu sababli rangli metallurgiyada xom ashyoga kompleks ishlov berish kombinatlari quriladi. Masalan, Rossiyadagi Norilsk kombinatida nikel, mis va kobaltdan tashqari yana 14 xil mahsulot olinadi.

Konsentratlarni qaytargich pechlarida eritish natijasida boy mis rudalaridan yarim mahsulot-tarkibida 40 foizgacha sof mis bo'lgan shteyn olinadi. Uni qayta ishlash natijasida tarkibida 98-99 foiz metall bo'lgan qora mis olinadi.

Qo'rg'oshin, rux va qalayining boyitilgan rudalari tarkibida metall ko'p bo'ladi. SHu sababli ko'p energiya talab qiladigan rux ishlab chiqarish (qo'rg'oshin ishlab chiqarishdan farq qilib) ruda qazib olish rayonlaridagina emas, balki yoqilg'i manbalari yonida ham joylashtiriladi.

Alyuminiy ishlab chiqarish ikki asosiy jarayondan iborat, ya'ni alyuminiy oksidlari (glinozyom) ishlab chiqarish va metall-alyuminiy olish. Bir tonna glinozyom olish uchun o'rta hisobda 2,4-4,0 t boksit, 2,6 t shartli yoqilg'i va 2,0-3,5 t ohaktosh kerak bo'ladi. Nefelindan glinozyom ishlab chiqarilganda bir tonna glinozyom olish uchun 1 t nefelin, 9 t oxaktosh, 3 t yoqilg'i zarur. Shuning uchun glinozyom ishlab chiqaradigan zavodlar xom ashyo manbalariga yaqin joylashtiriladi.

Metall-alyuminiy elektroliz yo'li bilan glinozyomdan olinadi, bunda ko'p miqdorda elektr energiyasi (1 t alyuminiy olish uchun 20 ming kVt\soat) talab qilinadi. Shuning uchun engil metall bo'lgan alyuminiy zavodlari arzon elektr energiya manbalariga yaqin quriladi. 1 t alyuminiy olish uchun 2 t glinozyom, 250 kg kriolit (glinozyomning erituvchisi, dala shpatidan olinadi), 1 t elektrod (ularni tayyorlash uchun antrasit, grafit, gudron, toshko'mir unidan foydalaniladi) kerak bo'ladi. Alyuminiy turli qotishmalar tariqasida aviatsiya va avtomobil sanoatida, binokorlikda ishlatiladi. Alyuminiydan yasalgan simlarning elektr o'tkazish xususiyati mis simlarnikidan ancha past bo'lsa ham, ammo ular engil bo'lganidan katta afzalliklarga ega.

Magniy alyuminiyga qaraganda ancha engil metall, u zich qotishmalar, alyuminiy-magniy qotishmalari olishda qo'llaniladi, u yorug'lik signallari uchun material bo'lib hisoblanadi, pirotexnikada (piro-olov) ham ishlatiladi. Magniy xom ashyosi bo'lib xlorli magniy, magnezit va dolomitlar, xlormagniyli sho'r ko'llardagi rapalar (sho'r ko'llarning tuz miqdori yuqori bo'lgan suvlari) hisoblanadi. Magniy ishlab chiqarish alyuminiy ishlab chiqarishga nisbatan ko'p energiya talab qiladi (1 t magniy olish uchun 26-30 ming kVt\soat).

Nikel odatda mis, temir, kobalt bilan birgalikda uchraydi. U idish-tovoq, laboratoriya va texnika uskunalari yasashda ishlatiladi Turli xil metall buyumlarni qoplash, pardozlash (nikellash) uchun ham foydalaniladi. U temir, mis, rux va boshqa metallar bilan aralashtirilib qotishmalar ishlab chiqarishda ishlatiladi. Nikelni po'latga aralashtirganda po'latning pishiqligi ortadi. Yuqori sifatli po'lat va maxsus qotishmalar ishlab chiqarish (tanga, qurollar ishlab chiqarish, kemalarning qoplamalarini tayyorlash) munosabati bilan XIX asr oxirida nikel xalq xo'jaligida keng qo'llaniladigan bo'ldi.

Qalayi rudalari boyitilishi natijasida tarkibida 65 foiz qalayi bo'lgan konsentratlar olinadi. Boyitish korxonalarini xom ashyo manbalariga, qalayi eritish esa iste'molchiga yaqin erlarda joylashtiriladi. Texnikaning rivojlanishi bilan yangi-yangi materiallarga talab oshdi. Bunday materiallarga turli xil qiyin eriydigan va nodir metallar (titan, niobiy, berilliy, tantal, kadmiy, germaniy, orkoniy, uran va h.k.) kiradi.

Titan metali, titan qotishmalari aviatsiya texnikasida qo'llaniladi. Germaniy yarim o'tkazgich material sifatida keng miqyosida ishlatiladi. Bu materiallar radio-texnikada, elektr texnikasida, elektrvakum sanoatida juda katta va tubdan o'zgarishlar

yasamoqda. Germaniy toshko‘mir va qo‘ng‘ir ko‘mir tarkidan ajratib olinadi (miqdori 0,001-0,002 foiz).

Qimmatbaho metallarni (oltin, kumush, platina) boyitish fabrikalari ham, eritish zavodlari ham xom ashyo manbalariga yaqin joylashtiriladi. Rangli metallurgiya juda ham murakkab va xilma-xildir. Uning har bir tarmog‘i o‘ziga xos xususiyatlarga ega, bu esa ushbu tarmoq korxonalarini joylashtirishda muhim o‘rin tutadi.

Rangli metallurgiyaning boyitish korxonalari xom ashyo manbalariga yaqin joylashtiriladi. Konsentrat tarkibida metall miqdori kam bo‘lganligi metall erituvchi zavodlarni ham xom ashyo manbalariga yaqin qurishni taqozo qiladi. Rux va nikel zavodlarini joylashtirishda yoqilg‘i omili ko‘proq ta‘sir ko‘rsatadi. Elektr energiyasini juda ko‘p sarflashni talab qiladigan alyuminiy, magniy va titan zavodlarini joylashtirishda arzon elektr energiya manbalari ahamiyatga ega.

Og‘ir metallar turli maqsadlarda ishlatiladi. Misdan sof hoida ham, qalayi bilan (bronza), nikel bilan (melxior), alyuminiy bilan (duralyuminiy), rux bilan (latun) qotishma hoida ham elektrotexnikada va mashinasozlikda keng foydalaniladi. Qo‘rg‘oshin akkumulyatorlar, elektr kabellari ishlab chiqarishda va atom sanoatida ishlatiladi. Nikelning 80 foizdan ortig‘i qora metallurgiyada ishlatiladi. Temir buyumlar zanglamasligi uchun rux bilan sirlanadi. Qalayidan oq tunuka va podshipniklar yasashda foydalaniladi.

Jahonda qo‘yidagi mamlakatlarda rangli metallurgiya yaxshi rivojlangan: Rossiya, XXR, AQSH, Kanada, Avstraliya, Braziliya, Yaponiya va Yevropa davlatlarida.

Jahonda: **mis eritish** bo‘yicha AQSH, Yaponiya, Rossiya, CHili, Zambiya, Kanada, Belgiya, Germaniya, Polsha; qo‘rg‘oshin va rux eritish bo‘yicha AQSH, Yaponiya, Belgiya, Fransiya; **qalayi eritish** bo‘yicha Malayziya, Indoneziya, Braziliya; **alyuminiy eritish** bo‘yicha Rossiya, AQSH, Avstraliya, Fransiya, Vengriya, Braziliya etakchi. Yaponiya, Kanada, Norvegiyada alyuminiy sanoati chetdan keltirilgan xom ashyo asosida ishlaydi, asosiy boksit eksport qiladigan davlatlar-Avstraliya, Gvineya, Yamayka, Surinam.

Demak, rangli metallurgiya sanoati ham asosan rivojlangan davlatlarda yaxshi rivojlangan, rivojlanayotgan davlatlarda esa asosan qazib olish va boyitish korxonalari joylashgan.

Respublikamiz **metallurgiya majmui** og‘ir sanoatining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, u butun sanoat ishlab chiqarishining taxminan 8,4 % mahsulotini beradi. Ushbu sanoat majmui respublikada tarkib topgan rangli metallurgiya va qora metallurgiya sanoat tarmoqlarini o‘z ichiga oladi. **Qora metallurgiya**-temir rudasi qazib chiqarish, cho‘yan, po‘lat eritish prokat va ferrototishmalar ishlab chiqarishdan iborat.

Qora metallurgiya sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan yagona korxonalar Bekobod shahridagi O‘zbekiston metallurgiya zavodidir. Zavod qora metallurgiya mahsulotlarining eng muhim turlari (po‘lat, prokat, turli xil quvurlar) ni ishlab chiqaradi. Zavodda temir-tersak, metal chiqindilari eritiladi.

Markaziy Osiyodagi birinchi zamonaviy metallurgiya zavodi qurilishi umumxalq hashari yo‘li bilan 1946 yilda boshlangan, 1946 va 1949 yillarda zavodda

"300" va "700" prokat stanlari qurib ishga tushirilgan. 1962 yilda esa uzluksiz po'lat quyuv qurilmasi ishga tushirilgan. 1978 yil avgustda quvvati yiliga 250 ming tonna elektr bilan po'lat eritish sexi mahsulot bera boshladi.

Zavod belgisi bosilgan prokat mahsulotlari, quvurlar bilan birga 50 ga yaqin turdagi xalq iste'mol tovarlarini ishlab chiqaradi. Davr o'tishi va yangi sexlarning qurilishi bilan Bekobod metallurgiya zavodining ishlab chiqarish quvvati ortib bormoqda. Ayni paytda respublikamizda yiliga taxmanan 656,4 ming t. po'lat va 619,6 ming t. prokat ishlab chiqarilmoqda.

Keyingi yillarda O'zbekistonda ham qora metallurgiya xom ashyolari-temir, titan, marganets, xrom va boshqalarning anchagina zahiralari aniqlandi. Jumladan, cho'kindi jinsli temir ruda konlari Orolbo'yi iqtisodiy rayonida, Qizilqumda, Jizzax viloyati hududida uchraydi. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, Jizzaxning Forish tumani hududidan topilgan (1999 yil) temir ruda tarkibida 60 foiz toza temir bor. Shuningdek, qora metallurgiya sanoatini rivojlantirishga xizmat qiladigan Qoraqalpog'istonda Tebinbuloq titan-magniy koni, Zarafshon, Qoratepa marganets konlari, Tomditog', Sulton Uvaysda va Farg'ona vodiysida xrom konlari topilgan. Ana shu va boshqa konlar zahiralari aniqlash va ularni ishga tushirish natijasida kelajakda Bekobod metallurgiya zavodini to'liq siklga o'tkazish imkoniyatlari tug'iladi. Shuningdek, Markaziy Qozog'istondan temir rudalarini import qilish bu muammoni hal qilishni tezlashtirishi mumkin.

Rangdor metallurgiya respublikada metallurgiya sanoatining etakchi tarmog'i. Mahalliy mineral xom ashyo resurslari negizida XX asrning 1930-yillaridan rivojlandi. Respublikamiz hududi rangli metall xom ashyolariga juda boy. Rangli va nodir metallning yirik zahiralari Markaziy Qizilqum, Janubiy Tyanshyan, Chotqol-Qurama, Nurota, Molg'uzar, Janubiy Farg'ona mintaqalarida joylashgan. Mazkur hududlardan respublikada rangli, kamyob va qimmatbaho metallar (oltin, mis, qo'rg'oshin, rux, volfram, molibden, simob va boshqalar) konlari, Qoramazor mis qo'rg'oshin-rux, Burchmulla, Ingichka, Qo'ytosh rangli metallar, Muruntov, Marjonbuloq, Chodak, Ko'kpatas oltin, Qo'rg'oshinkon, Oltintopgan qo'rg'oshin-rux, Qalmoqqir mis konlari topilib, ular sanoat miqyosida o'zlashtirilishi bilan rangli metallurgiya sanoati shakllandi. Mazkur tarmoqning ayrim sohalari bo'yicha mamlakamiz dunyoning etakchi davlatlari qatoriga qo'shildi. O'zbekiston tasdiqlangan zahiralari va istiqbolli rudalar jihatdan MDH dagina emas, balki butun dunyoda ham etakchi o'rinni egallaydi. Masalan, oltin zahiralari bo'yicha respublika dunyoda 4-o'rinda, uni qazib olish bo'yicha 7-o'rinda, mis zahiralari bo'yicha 10-11 o'rinda, uran zahirasi bo'yicha 7-8 o'rinda turadi.

O'zbekistonda rangdor metallurgiyaning 3 ta tarmog'i yaxshi shakllangan: 1. Mis, qo'rg'oshin-rux sanoati;

2. Volfram va molibden sanoati;

3. Oltin qazib olish sanoati.

Mis, qo'rg'oshin rux sanoati asosan Angren-Olmaliq kon sanoat rayonida Qo'rg'oshinkon-Oltintopgan polimetal konlari, Qalmoqqir mis koni negizida shakllandi. Tarmoqning etakchi korxonasi to'liq metallurgiya sikliga ega bo'lgan Olmaliq kon-metallurgiya kombinatidir. Olmaliq tog'-metallurgiya kombinati mamlakat rangli metallurgiya sanoatining majmuasi va ko'rki. Mazkur kombinatda

xom ashyoni qazib olish, boyitish, pishirish, eritish, xomaki va so'ngra toza mis tayyorlash jahon andozalariga javob beradigan darajada yo'lga qo'yilgan. Kombinat mis majmuasi Qalmoqqir mis koni (1954), ruda boyitish fabrikasi (1957), metallurgiya zavodi (1962)dan va qo'rg'oshin-rux majmuasi Qo'rg'oshinkon (1950), Oltintopgan (1955), Cholota (1971) konlari, ruda boyitish fabrikasi (1954) va metallurgiya zavodi (1970) dan iborat.

Respublikamizda yiliga 83-85 ming tonnadan ortiq mis ishlab chiqarilmoqda. 1998 yilda metallurgiya majmuasini rivojlantirishga 3,9 mlrd. so'm mablag' sarflandi. Navoiy, Olmaliq tog'-metallurgiya kombinalari, O'zbekiston qattiq qotishmalar va o'tga chidamli metallar kombinati, O'zmetkombinat korxonalarini qayta qurish ishlari davom ettirilmoqda.

Birgina Olmaliq tog'-metallurgiya kombinatining xarajatlari 200 mln. AQSh dollari miqdoriga teng bo'lgan qayta qurish (rekonstruksiya) loyihasi chet el investorlari hamkorligida amalga oshirildi. Og'ir metallar-mis, qalayi, qo'rg'oshin, nikel, rux-kishilar organizmidagi immunitetni pasaytirib, kasallanish darajasining yuqori bo'lishiga ta'sir etadi, aholi va tabiat uchun katta xavf-xatar tug'diradi.

Volfram-molibden sanoatining yirik korxonasi O'zbekiston qattiq qotishmalar va o'tga chidamli metallar kombinati (Chirchiq) dir. Kombinat Ingichka (1943-Samarqand viloyati) volframi va Qo'ytosh (1937-Jizzax viloyati) volfram-molibden koni rudalari hamda mis rudalaridan ajratib olinadigan molibden negizida ishlaydi.

Kombinatda birinchi molibden quymasi 1956 yil olingan, 1957 yildan qattiq qotishmalar ishlab chiqarila boshladi. Kombinat mahsulotlari (100 turdan ortiq) elektrotexnika, po'lat eritish, kon burg'ilash sohalarida keng qo'llaniladi. 1996 yildan kombinatda respublika ehtiyojlarini to'la qondiradigan elektr lampochkalari ishlab chiqarish quvvatlari ishga tushirildi. Volframni eritish jarayoni juda yuqori (3370 gradus seltsiya).

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, dunyo metallurgiya majmuasi sanoatning tayanch tarmoqlaridan biri bo'lib, rudalarni qazib oluvchi, ularni boyituvchi, metall va metall qotishmalarga ishlov beruvchi soha hisoblanadi. Mazkur majmua foydalanadigan xomashyo va ishlab chiqaradigan mahsulotlar xususiyatlariga ko'ra ikki mustaqil tarmoqqa-qora va rangli metallurgiyaga ajratiladi.

Jahonda qazib olinadigan temir rudasining asosiy qismi Xitoy, Avstraliya, Braziliya, Hindiston va Rossiya hissasiga to'g'ri keladi (80 % dan ortiq). Osiyo qit'asi davlatlari qazib olinadigan temir rudasining deyarli 50 % ini yetkazib beradilar. Temir rudasini katta miqdorda import qiluvchi davlatlar - AQSH, Xitoy, Buyuk Britaniya, Yaponiya, GFR, Koreya Respublikasi kabilar hisoblanadi.

Rangli metallurgiya tarmoq sifatida murakkab ichki tuzilishga ega. Mazkur tarmoq 70 turga yaqin rangli metallarni qayta ishlasada, ular orasida alyuminiy, mis, qo'rg'oshin, rux ishlab chiqarish tarmoqlari ahamiyatlidir. Masalan, rangli metallurgiyaning muhim tarmog'i hisoblangan alyuminiy sanoatida Avstraliya, Xitoy, Braziliya, Indoneziya, Hindiston kabi davlatlar asosiy xomashyo - boksit yetkazib beruvchi davlatlardir. Xitoy, Rossiya, Kanada, AQSH, BAA esa tozalangan alyuminiy ishlab chiqarish bo'yicha peshqadamlik qiladi.

3.4. Mashinasozlik majmuasi

Mashinasozlik xalq xo'jaligining barcha tarmoqlari uchun jihozlar ishlab chiqaradigan o'zaro bog'langan sanoat korxonalarining murakkab tizimidan iborat. Shuning uchun har bir tarmoqni joylashtirish o'ziga xos shart-sharoitlar bo'lishini taqozo qiladi. Mashinasozlik sanoatini joylashtirishda juda ko'p omillar va sharoitlar hisobga olinadi. Ular qo'yidagilardan iborat:

Birinchi navbatda mashinasozlik zavodlarining ixtisoslashuvi va hamkorlashuvi (kooperativlashuvi), chunki ixtisoslashuv ularni joylashtirishga va mahsulot chiqaradigan rayonlarga katta ta'sir ko'rsatadi. Hozirgi paytda zamonaviy mashinalar ishlab chiqarish uchun juda ko'p miqdorda metall, plastmassa, bo'yoqlar, rezina, gazlama, yog'och-taxta kerak bo'ladi. Bitta mashinani tayyorlash uchun bir necha ming qismlar (detallar) kerak bo'ladi. Masalan, bitta samolyot 120 ming detaldan iborat. Bu qismlarning hammasini bitta korxonada ishlab chiqarish iqtisodiy jixatdan noqulaydir. Shuning uchun mashinasozlikda ixtisoslashishga katta e'tibor beriladi. Mashinasozlikda ixtisoslashishning uch turi ajratiladi:

- a) ayrim qismlarni (detallarni) ishlab chiqarishga ixtisoslashish. Masalan, g'ildiraklar, rezina-texnika buyumlari, porshenlar, podshivniklar va boshqa detallar ishlab chiqaradigan zavodlar;
- b) ma'lum bir mahsulot turini ishlab chiqarishga ixtisoslashish. Masalan, avtomobil, traktor, stanok va boshqa xil mashinalar ishlab chiqaradigan zavodlar;
- v) ayrim texnologik jarayonni bajarishga ixtisoslashish (turli xil sexlar).

Xom ashyoning xilma-xilligi va mashinalar tuzilishining xususiyatlari ayrim qismlarni ishlab chiqaruvchi bir qancha mashinasozlik korxonalarining bir-biri bilan, shuningdek boshqa tarmoqlarning metall, plastmassa, rezina va hokazolarni yetkazib beruvchi korxonalar bilan hamkorlashuvini (kooperativlashuvini) talab qiladi.

Bunday korxonalar bilan muntazam hamkorlik qilish uchun transport rivojlangan bo'lishi kerak. Shuning uchun qulay transport magistrallarining bo'lishi mashinasozlik tarmoqlarini joylashtirishda albatta hisobga olinadi.

Zamonaviy mashina ishlab chiqarish texnologik jarayonlarning murakkabligi bilan ajralib turadi. Murakkab texnologik jarayonlarni faqat yuqori malakali ishchilar ilmiy-texnik xodimlar bajarishi mumkin. SHuning uchun ham mashinalarning tannarxi shu mashina yasaladigan materiallar tannarxidan yuzlab marta ortiq bo'ladi. CHunki mashina tannarxining kattagina qismini ishchilar maoshi tashkil qiladi. SHu sababli mashinasozlikni joylashtirishda malakali ishchi va ilmiy-texnik xodimlar sonining etarli bo'lishi ham hisobga olinadi. Bunday tarmoqlarga energetika, elektrotexnika, avtomobil, aviatsiya mashinasozligi va stanoksozlikning ko'p mehnat va fan talab qiladigan sohalari kiradi.

Mashinasozlik korxonalarini joylashtirishda iste'molchi yoki rayonning ixtisoslashuvi ham muhim ta'sir ko'rsatadi. Masalan, ba'zi bir rayonlarga bug'doy o'radigan kombaynlar, ba'zilariga paxta teradigan mashinalar, ba'zilariga to'qimachilik dastgohlari kerak va h.k. Shuning uchun paxta terish mashinalari ishlab chiqarish korxonalarida, kombaynlar ishlab chiqarish donchilik rayonlarida, to'qimachilik mashinasozligi to'qimachilik rivojlangan rayonlarda

joylashtiriladi. Demak, mashinasozlik korxonalarini joylashtirishda iste'molchilar hamhisobga olinishi kerak.

Mashinasozlikning turli tarmoqlari turli miqdorda metall sarflaydi. Ba'zilar juda ko'p metall talab qiladi. Bir dona mashina ishlab chiqarish uchun ko'p miqdorda metall kerak bo'lsa, bunday mashinasozlikni ko'p metall (material) talab qiluvchi mashinasozlik deb ataladi. Bunday korxonalarini joylashtirishda metallurgiya bazasi hamhisobga olinadi. Ushbu tarmoqlarga shaxta va metallurgiya asbob uskunalari ishlab chiqaradigan korxonalar kiradi.

Demak, ayrim mashinasozlik korxonalarini joylashtirishda metallurgiya bazasi hamhisobga olinishi zarur. Mashinasozlikning ayrim tarmoqlarini joylashtirish uchun yuqoridagi omillarni bittasi kifoya qilsa, ayrimlarini joylashtirish uchun esa, bir necha omilni hisobga olishga to'g'ri keladi. Masalan, traktorsozlik metallurgiya bazasiga ham, iste'molchiga ham yaqin bo'lishi kerak.

SHunday qilib, mashinasozlik korxonalarini joylashtirishda transport sharoitlari, malakali ishchilar, iste'molchilar va yirik metallurgiya korxonalarining mavjudligi hisobga olinadi. Mashinasozlik quyidagi tarmoqlarga bo'linadi: energetika, transport, qishloq xo'jaligi, stanoksozlik, sanoatning turli tarmoqlari uchun jihozlar ishlab chiqarish, binokorlik va yo'l mashinalari, priborlar ishlab chiqarish va h.k.

Energetika mashinasozligi bug' qozonlari, bug' turbinalari, gidroturbinalar, ichki yonish dvigatellari, generatorlar, elektromotorlar, transformatorlar, yuqori voltli apparatlar, kabel va hokazolar ishlab chiqaradi.

Transport mashinasozligiga lokomotivsozlik (teplovoz va elektrovozlar ishlab chiqarish), vagonsozlik, kemasozlik, avtomobilsozlik va aviasozlik kiradi. Qishloq xo'jaligi mashinasozligi traktorsozlikni, kombaynlar, erga ishlov beruvchi, qishloq xo'jalik ekinlarini ekadigan mashinalar ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi. Stanoksozlik tarmog'ida turli xil stanoklar ishlab chiqariladi.

Bulardan tashqari, mashinasozlik sanoatiga to'qimachilik mashinasozligi, kimyo sanoati mashinasozligi, binokorlik, irrigatsiya mashinasozligi, kundalik turmushda ishlatiladigan mashinalar ishlab chiqarish va boshqalar kiradi (soat, televizor va h.k.).

Mashinasozlik sanoati ishlab chiqaradigan mahsulotning hajmi va unda band bo'lgan ishchilar soni bo'yicha ham sanoatning boshqa tarmoqlari orasida birinchi o'rinda turadi. Ammo jahon bo'yicha bu tarmoqning joylanishi juda ham notekisligi bilan ajralib turadi. Mashinasozlikning rivojlanish darajasi jihatidan jahonda AQSH, Yaponiya, G'arbiy Evropa davlatlari, Rossiya, Xitoy ajralib turadi.

Rivojlanayotgan davlatlarda mashinasozlikning ayrim tarmoqlari rivojlangan, ayrimlarida esa umuman yo'q. Ba'zilarida (Hindiston, Braziliya, Argentina) yaxshi rivojlangan. Indoneziyada, Eronda, Misrda, Jazoir, Venesuelada, Kolumbiya va Peruda ham bu tarmoq rivojlanmoqda.

Haqiqatdan ham, mashinasozlik sanoatining asosiy vazifasi iqtisodiyotning hamma sohalarini mashina va asbob-uskunalar bilan ta'minlashdan iborat. Mazkur sanoat tarmog'i metallga ishlov berish sohasi bilan birga o'z tarkibiga 200 dan ortiq ishlab chiqarish tarmoqlarini jamlaydi. Ular orasida kemasozlik, avtomobilsozlik, aviakosmik, elektronika va elektrotexnika sanoat tarmoqlari alohida ahamiyatga ega.

Kemasozlik tarmog'i mahsulotlari dengiz transportida xalqaro yuklarni tashishda katta ahamiyatga ega bo'lib, Yaponiya, Koreya Respublikasi, Xitoy ushbu sohaning yetakchilari hisoblanadi.

Avtomobilsozlik mashinasozlik sanoatining eng muhim tarmog'i hisoblanadi. Jahonning 30 ga yaqin davlatlarida avtomobillar ishlab chiqarilib, ular orasida Xitoy, Yaponiya, Germaniya, AQSH, Koreya Respublikasi kabi davlatlar yetakchilik qiladi. Rossiya, AQSH, Fransiya, XXR, Yaponiya aviaraketa-kosmik sanoati rivojlangan davlatlar qatoridan o'rin oladi.

Jahonda 4 ta yirik mashinasozlik markazlari shakllangan. Ular orasida Shimoliy Amerika mintaqasi barcha mashinasozlik tarmoqlari rivojlanganligi bilan ajralib turadi. G'arbiy Yevropa davlatlari ommaviy mashinasozlik mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan bo'lsa, Sharqiy va Janubi-sharqiy Osiyo davlatlari an'anaviy mashinasozlik mahsulotlari bilan birga yuqori texnologiyaga asoslangan fantalab mahsulotlarni ishlab chiqaradi (radio-telemexanika, maishiy xizmat texnikasi). MDH davlatlari mashinasozligida og'ir va o'rta mashinasozlik katta o'rin tutadi.

O'zbekistonda qishloq xo'jalik mashinasozligi, to'qimachilik mashinasozligi, irrigatsiya mashinasozligi yaxshi rivojlangan. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin avtomobilsozlik sanoati barpo qilindi (1996 yilda Asaka avtomobil zavodi ishga tushirildi).

Respublika, yalpi sanoat mahsulotidahissasida mashinasozlik va metalni qayta ishlash 14,3 foizni tashkil etadi. Mashinasozlik majmuasi-iqtisodiyotning barcha sohalari uchun mashina va asboblarni ishlab chiqaruvchi, aholini televizor, muzlatkich singari xilma-xil iste'mol buyumlari bilan ta'minlovchi sanoat tarmoqlari uyg'unligidir.

O'zbekiston mashinasozlik sanoatining asosiy korxonalarini 2 jahon urushi va undan keyingi davrda qurilgan. Urushdan keyin respublika xalq xo'jaligida qayta ishlash, paxtachilikni rivojlantirish keng quloq yozdi.

Paxtachilik, irrigatsiya qurilishi, neft-gaz, to'qimachilik va kimyo sanoati uchun turli xil mashinalar ishlab chiqarishga ehtiyoj ortdi. Shuning uchun ham paxta terish va paxta qator oralarida ishlatiladigan mashinalar, ekskavatorlar, ko'priqli elektr kranlar, yigirish mashinalari ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Shunday qilib, O'zbekiston mashinasozligi sanoatning ko'p tarmoqli turiga aylantirildi. Shuni ta'kidlash joizki, endilikda butun Markaziy Osiyo davlatlari mashinasozlik mahsulotining taxminan 2\3 qismi O'zbekistonda ishlab chiqarilmoqda.

Mashinasozlik majmuasining hududiy joylashuvida juda keskin tafovutlar mavjud bo'lib, bunda Toshkent shahri nihoyat katta salmoqqa (54,0 %) ega, shuningdek, Toshkent (12,1 %), Andijon (6,4 %), Samarqand va Farg'ona (5,5 %) viloyatlarining ham salmog'i anchagina. Lekin bu sohada hanuzgacha Navoiy, Jizzax, Qashqadaryo, Xorazm, Surxondaryo, Sirdaryo viloyatlarining salmog'i nihoyatda pastligicha qolmoqda. O'zbekistonda mashinasozlikning quyidagi tarmoqlari mavjud:

- Avtomobilsozlik;
- Traktorsozlik va qishloq xo'jalik mashinasozligi;
- Paxta tozalash sanoati mashinasozligi;

- To'qimachilik mashinasozligi;
- Radio elektronika va elektronika sanoati;
- Asbobsozlik;
- Kimyo va neft-kimyo mashinasozligi;
- Samolyotsozlik;
- Qurilish va yo'l mashinasozligi;
- Kommunal xo'jaligi mashinasozligi;
- Madaniy-maishiy-ro'zg'or texnikasi mashinasozligi.

Masalan, **avtomobilsozlik sanoati**-O'zbekiston mashinasozligining yangi tarmog'i bo'lib, u mustaqillikdan keyin shakllana boshladi. 1994 yilning martida "O'zavtomash" uyushmasi tashkil etildi. Uning tarkibida 20 ga yaqin sanoat korxonalari va tashkilotlar bor. Avtomobilsozlik sohasida ishlab turgan va yangi qurilayotgan zavodlar negizida avtomobil indo'striyasini barpo etish, engil va yuk avtomobillari, avtobuslar, trolleybuslar ishlab chiqarish hamda ularga ehtiyot qismlar tayyorlash vazifalari hal etilmoqda.

1992 yilda O'zbekiston Respublikasi Janubiy Koreyaning DEU korporatsiyasi bilan Asaka paxta tashiydigan tirkamalar zavodi negizida engil avtomobillar ishlab chiqaradigan "O'zDEUavto" qo'shma korxonasiga asos solindi. Bugungi kunda "UZ-Daewoo Avto", «**GM UZbekistan**» deb yuritilmoqda va o'zgarishlar kutilmoqda.

Traktorsozlik va qishloq xo'jalik mashinasozligi-bu tarmoqda traktorlar, paxta terish mashinalari, g'o'za seyalkalari, traktor tirkamalari va boshqa qishloq xo'jaligi mashinalari ishlab chiqariladi. Traktorsozlik va qishloq xo'jalik mashinasozligi mamlakatimiz hududida 1930 yillardayoq shakllana boshlagan edi. 1927 yilda Toshkentda "Boshpaxtasanoat" tashkilotining mexanika zavodi ishga tushirildi.

Paxta tozalash sanoati mashinasozligi-"O'zbekpaxtamash" birlashmasida shakllangan. Uning tarkibida Toshkent mashinasozlik zavodi (bosh korxonasi), Andijon "Tojmetall", Kattaqo'rg'on "Paxtamash", Chustdagi "Olmospaxtamash" zavodlari kiradi. Asosiy mahsulotlari (50 turdan ortiq) tayyorlash punktlari va paxta tozalash zavodlari uchun texnologik qurilmalar, paxta tolasini ajratish (jin) mashinalari, chigit saralash va tola tozalagich mashinalari, paxta uzatgichlar va boshqalar hisoblanadi.

To'qimachilik mashinasozligi. To'qimachilik, ya'ni paxtani ikkilamchi qayta ishlash uchun "O'zbekto'qimachilikmash" birlashmasida (1971y.) turli xil mashinalar ishlab chiqariladi. Birlashmada iplik tayyorlash, yigirish, halqali yigirish, yigirish-pishitish mashinalari, pillakashlik uskunalari ishlab chiqariladi.

To'qimachilik mashinasozligining asosiy korxonalari Toshkent to'qimachilik zavodi, Qo'qon to'qimachilik zavodi, Gagarin kukun mahsulotlari zavodidir (Jizzax). Gagarindagi zavod metal kukunlaridan butlovchi qismlar va ehtiyot qismlar ishlab chiqaradi. Tarmoqda 50 turdan ziyod mahsulotlar-yigirish, eshish, pishitish, kalavalash mashinalari ishlab chiqariladi.

Mamlakatda **radio elektronika va elektrotexnika sanoati** mashinasozligi ham tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Sanoatning mazkur tarmoqlariga II jahon urushi yillarida asos solingan. Toshkent kabel zavodi (hozirgi "O'zkabel" davlat aksionerlik jamiyati), Toshkent radiolampa zavodi ("Foton" aksionerlik jamiyati) aloqa dala

simlari, generatorlar, qabul qiluvchi va kuchaytiruvchi radiolampalar, Chirchiq transformator, Toshkent elektrotexnika va "Mikond" zavodlari radiodetallar, transformatorlar, elektrotexnika sanoati uchun shisha izolyatorlar va boshqa uskunalar ishlab chiqarmoqda.

"Zenit" zavodi 1986 yildan boshlab EHM lar uchun mikroelektronika elementlari, mikrosxemalar, masofadan turib boshqarish tizimlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Ushbu zavod 1991 yildan boshlab Janubiy Koreyaning "Goldstar" firmasi bilan hamkorlikda videomagnitofon va videopleerlar hamda XXX ning Sin'szyan 1-radio zavodi bilan hamkorlikda rangli televizorlar ishlab chiqarishni ham yo'lga qo'ydi.

Endilikda mamlakatda mashinasozlikning "O'zkabel'", "Foton", "Oniks", "Transformator", "O'zelektroapparat", "Andijonkabel", "Algoritm", Jizzax akkumulyator, "Signal" va boshqa zavod va birlashmalarida elektron komponentlar (ya'ni, to'g'rilovchi ustunlar, diodlar, dala tranzistorlari), mikroelektron tuzilmalar, elektron mikrofonlar, kuchlanish kuchaytirgichlar, televizor transformatorlari, kichik voltli asboblari, turli maqsadlarga mo'ljallangan kabellar, simlar, o'zgaruvchan tok elektrodvigatellari, transformatorlar, payvandlash mashinalari, elektr akkumulyatorlari, rangli televizorlar, pleerlar, radiopriyomniklar va boshqa mahsulotlar ishlab chiqariladi.

Asbobsozlik sanoati respublika mashinasozligida ma'lum ulushga ega. Asbobsozlik sanoatida mashinasozlik uchun qirquv va o'lchov asboblari, slesarsozlash asboblari va boshqa moslamalar tayyorlanadi. Tarmoqning asosiy korxonalari-Toshkent asbobsozlik va abraziv zavodlaridir.

Kimyo va neft-kimyo mashinasozligi mamlakat mashina industriyasining istiqbolli tarmog'iga aylanib bormoqda. Mazkur sanoat tarmog'ining eng yirik korxonasi 1941 yilda ishga tushgan Chirchiqdagi O'zbekiston kimyo mashinasozligi ("O'zbek-Kimyomash") zavodidir. Urushdan keyingi yillarda kimyo, mikrobiologiya, sellyuloza-qog'oz va boshqa tarmoqlar uchun uskunalar ishlab chiqargan. 1966 yildan zavod asosan kimyo mashinasozligiga ixtisoslashdi. Hozir kimyo uskunalari, trubakompressorlar, ventillyatorlar, nasoslar tayyorlanadi.

Toshkent "Kompressor" zavodida kimyo va boshqa sanoat tarmoqlari uchun ko'chma kompressorlar ishlab chiqariladi. Namangan mashinasozlik zavodida neft va gaz quduqlari uchun sanoat armaturalari, po'lat, titan qopqoqlar, zanglamas surma qopqoqlar ishlab chiqariladi.

Samolyotsozlik-Toshkent aviatsiya zavodi 1941 yili Moskva yaqinidagi Ximki shahridan ko'chirib keltirilgan korxonaga negizida bunyod bo'lgan. Urush yillarida Toshkent aviatsiya zavodida jangovar samolyotlar ishlab chiqarilgan. 1992 yildan zavod mahalliy havo yo'llarida qatnashga mo'ljallangan 64 o'rinli yangi "IL-114" samolyotini chiqara boshladi. Ushbu samolyot 1999 yil may oyida sinovdan o'tdi va xalqaro havo yo'llarida qatnashga qo'yildi.

Mazkur zavod 1996 yil may oyidan "Toshkent aviatsiya ishlab chiqarish birlashmasi"ga aylantirilgan edi. Birlashma AQSh, Rossiya, Ukraina samolyotsozlik firmalari bilan hamkorlikda yangi tipdagi samolyotlar ishlab chiqarish ustida muhim tadqiqot ishlarini olib bormoqda. O'zbekiston samolyotlari Xitoy, Rossiya va boshqa xorijiy mamlakatlarga eksport qilinmoqda. Samolyotsozlik sanoatida dunyodagi

mashhur firma va kompaniyalar (jumladan, "Boing") bilan hamkorlik yo'lga qo'yilgan.

Qurilish va yo'l qurilishi mashinasozligining asosiy korxonalari Toshkent va Andijon shaharlarida joylashgan. Bular, 1932 yilda qurilgan "O'zbekgidrostroy" (keyinchalik "Irmash", 1946 yildan Toshkent ekskavator zavodi, 1994 yildan esa "Tosheks" birlashmasi), "Podyomnik" (Toshkent), "Andijonirmash" (1956), "Andijon gidravlika mashinasozligi" (1986), "Strommashina" (Andijon) zavodlaridir.

Tarmoq korxonalarida-turli markadagi ekskavatorlar, ko'prik elektr kranlari, magnitli, ko'p tirgakli osma kranlar, to'rt oyoqli kranlar, er tekislaydigan mashinalar, yuklagichlarning osma jihozlari, gidrosilindrlar, manipulyatorlar, gidrotaqsimlagichlar, 3 tipdagi yuklagichlar, nasoslar, dizellar, turli xil ehtiyot qismlar ishlab chiqariladi.

Kommunal xo'jalik mashinasozligida Samarqand liftsozlik zavodi ish olib boradi. Zavod negizida "Vostoklift" o'zbek-rus qo'shma korxonasi tashkil etilgan, korxonada har xil yuk va passajir liftlari ishlab chiqariladi.

Madaniy-maishiy ro'zg'or texnika mashinasozligida Samarqand "Sino" sovutgichlar zavodi ishga tushirilgan (1972). Zavod Germaniyaning "Foron" firmasi bilan hamkorlikda turli sovutgichlar, kir yuvish mashinalari ishlab chiqarishni o'zlashtirdi. Samarqand kinoapparat zavodi ("Kinap") turli ruso'mli kinoapparatlar, elektr-kuch asboblari, universal kino va teatr ovoz texnika apparatlari va boshqalar ishlab chiqaradi.

3.5. Kimyo majmuasi

Kimyo sanoati xalq xo'jaligining yetakchi tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Uning joylashishi mashinasozlik sanoatining joylashini eslatadi. Kimyo sanoati o'ziga xos xususiyatlarga ega. Birinchixususiyati, tabiiy materiallardan ustun turuvchi yangi materiallar ishlab chiqarishidir. Bu materiallar arzonligi va mustahkamligi bilan ajralib turadi. Masalan, kapron ishlab chiqarish uchun tabiiy ipak tayyorlashga nisbatan 20 barobar kam mehnat sarflanadi.

Ikkinchixususiyati, ishlab chiqarishni kombinatlashtirishda katta imkoniyatlarga ega ekanligi. Chunki, ko'mir, neft, gaz, slanets, torfdan bir vaqtning o'zida ham energiya, hamqimmatli kimyo mahsulotlari olish uchun foydalanish energetika-kimyo kombinatlarini qurishga olib keldi. Kimyo sanoatini boshqa sanoat tarmoqlari bilan kombinatlashtirish natijasida maxsus ishlab chiqarishlar-koks-kimyo, neft-kimyo, slanets-kimyo sanoat tarmoqlari vujudga keldi.

Uchinchixususiyati, kimyo sanoatining keng xom ashyo manbalariga egaligidir. Turli xil foydali qazilmalar, yog'och, suv, havo, ishlab chiqarish chiqindilari ushbu sanoat uchun xom ashyo bo'lib xizmat qiladi. Ammo uning asosiy xom ashyosi maxsus tayyorlangan xom ashyo (neftni qayta ishlash, ko'mirni kokslash chiqindilari) bo'lib hisoblanadi.

Kimyo sanoati bir qancha tarmoqlardan iborat, ularning asosiylari **quyidagilar:** tog' kimyosi, asosiy kimyo, polimerlar kimyosi. Tog' kimyosi mineral xom ashyoni qazib olish bilan shug'illanadi, shuning uchun bu tarmoq korxonalari xom ashyo manbalariga yaqin bo'lgan joylarda joylashtiriladi. Asosiy kimyo

tarmog'i mineral o'g'itlar va turli xil kislotalar, tuzlar ishlab chiqaradi. Sulfat kislotasini tashib yurish qiyin, uni tashish uchun kislotaga chidamli materiallardan yasalgan maxsus sisternalar kerak bo'ladi. Ammo uning xom ashyosini tashish osonroq. Shu sababli sulfat kislotasi ishlab chiqaradigan zavodlar, kislotasi ishlatiladigan hududlarda, ya'ni iste'molchiga yaqin quriladi. Sulfat kislotasi metallurgiya kombinatlarida ham ishlab chiqariladi. Bularda sulfat kislotasi rangli metallarni eritganda chiqadigan oltingugurt gazidan olinadi.

Superfosfat zavodlari o'g'itlar iste'mol qilinadigan joylarda qiriladi. Chunki 1 t xom ashyodan 2 t o'g'it tayyorlanadi, ammo o'g'it ishlab chiqarish uchun juda ko'p sulfat kislotasi ishlatiladi. Tarkibida fosfor ko'p bo'lgan o'g'itlar ishlab chiqaruvchi yangi superfosfat zavodlari ko'proq xom ashyo manbalariga yaqin qurilmoqda, chunki xom ashyoga nisbatan tayyor mahsulotni tashish qulayroq.

Azotli va kaliyli o'g'itlar zavodlari ham xom ashyo manbalariga yaqin quriladi. Azotli o'g'itlar zavodlarida tabiiy va yo'ldosh gazlardan foydalaniladi. Shu sababli, bunday zavodlar neft qazib chiqariladigan rayonlarda, magistral gaz quvurlari o'tgan yerlarda, metallurgiya kombinatlari yonida quriladi.

Polimerlar kimyosida mahsulot birligini olish uchun ko'p miqdorda issiqlik va elektr energiyasi, suv va maxsus tayyorlangan xom ashyo sarflanadi. Shu sababli, polimerlar ishlab chiqarish neft mahsulotlari ishlab chiqaradigan, ko'mir kokslanadigan joylarda, arzon energiya, yoqilg'i va suv bor hududlarda barpo qilinadi. Tayyor mahsulot (plastmassa buyumlar) ishlab chiqaradigan korxonalar iste'molchini hisobga olib quriladi.

Jahonda kimyo sanoati rivojlanishi bo'yicha AQSH, Yaponiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya, Ispaniya, Niderlandiya, Rossiya, Xitoy etakchi hisoblanadi. Rivojlanayotgan davlatlarda yaqin vaqtlargacha tog' kimyosi etakchi edi. 1970-yillardan boshlab neft qazib olinadigan davlatlarda (YAqin SHarq, Janubi-SHarqiy Osiyo, Lotin Amerikasi davlatlarida) neft kimyosi sanoati rivojlanmoqda.

Kimyo sanoati mahsulotlarini mashinasozlik (plastmassa, oyna, rezina), to'qimachilik sanoati (tola, bo'yoqlar), qishloq xo'jaligi (o'g'itlar, zaharli moddalar), transport (motor yoqilg'isi, surtish moyi, sintetik yoqilg'i), qurilish (yopishqoq material, plyonka, oyna, plastik) oladi.

Haqiqatdan ham, jahon kimyo sanoatida to'rt asosiy mintaqaga ajralib turadi: Sharqiy Osiyo, AQSH, G'arbiy Yevropa, MDH davlatlari. Kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha ko'p holatlarda mazkur hudud davlatlari yetakchilik qiladi. Masalan, sulfat kislotasining asosiy ishlab chiqaruvchilari AQSH, Xitoy, Rossiya kabilar hisoblansa, mineral o'g'itlar ishlab chiqarishda Xitoy, AQSH, Hindiston kabilar alohida o'rinlarga ega.

O'zbekistonda mineral o'g'itlar, sulfat kislotalar, sun'iy tola, rezina, lak-bo'yoq, plastmassa buyumlar ishlab chiqaradigan tarmoqlar rivojlangan. Respublika kimyo sanoati iqtisodiyotimizda muhim o'rin egallaydi. Bir tomondan, respublikada neft, gaz, ko'mir sanoatini muntazam o'sib borishi (binobarin, kimyoviy xom ashyo miqyosi va geografiasining kengayishi), ikkinchi tomondan, xalq xo'jaligini mineral o'g'itlar, har xil kimyoviy vositalar, plastik massalar, sun'iy tola, sintetik kauchuk, lok-bo'yoq, kislotasi va ishqorlarga ehtiyoji ortib borishi mazkur sanoat tarmog'ini

rivojlantirishga ob'ektiv shart-sharoit yaratgan. Kimyo sanoati yalpi sanoat mahsulotini 8,8-foizini tashkil etadi.

Kimyo sanoati tarkibi: kimyo sanoatining xom-ashyo etkazib beruvchi tarmoqlari, neftni qayta ishlovchi tarmoqlari, gazni qayta ishlovchi tarmoqlari, metallurgiya (qora va rangli) tarmoqlari mavjud.

Shu bois, O'zbekiston kimyo sanoati tez sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. U ayniqsa, yoqilg'i-energetika sanoatining xom ashyosi mo'l bo'lgan mintaqalarda tez rivojlanmoqda. Mamlakat kimyo sanoatida 750 dan ortiq nomda mahsulot ishlab chiqariladi, tabiiy gaz, neft, ko'mir, oltingugurt, ozokerit, turli minerallar, ohaktosh, grafit, shuningdek, rangli metallurgiya va paxta-kanopni qayta ishlash korxonalari chiqitlaridan xom ashyo tarzida foydalaniladi. Respublikamizda osh va kaliy tuzlari, fosforit hamda soda xom ashyolari, magniy, natriy zahiralari nihoyatda katta. Ularning yirik konlari Tubagatan, Boybichakon, Oqpat, Xo'jaikon, Lalmikon va boshqalar kelajakda kimyo sanoatini rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Respublikada kimyo sanoatining shakllanishi 1932 yil Sho'rsuv oltingugurt konining (Farg'ona) ishga tushirilishi bilan boshlandi. Kimyo sanoatining eng yirik korxonasi Chirchiq elektrokimyo kombinati 1940 yildan mahsulot bera boshladi.

Mineral o'g'itlar-O'zbekiston kimyo sanoatining asosiy mahsulotidir. Tarmoq korxonalarida respublika qishloq xo'jaligi uchun zarur bo'lgan ammosfos, ammiak silitrasi, superfosfat, karbamid, suyultirilgan ammiak ishlab chiqariladi. Chunonchi, Chirchiq elektroqimyo kombinati, Farg'ona azotli o'g'itlar, Navoiy kimyo birlashmalarida-azotli o'g'itlar, Qo'qon superfosfat zavodi, Samarqand kimyo zavodi, Olmaliq "Ammofos" birlashmasida-ammofos, oddiy va ammoniydashgan superfosfat, quruq ammoniy kabi fosforli o'g'itlar ishlab chiqariladi.

Respublika kimyo sanoati korxonalari bir yilda 2,8 mln. t. azotli, 1,2-1,3 mln. t. fosforli o'g'itlar ishlab chiqarish quvvatiga ega. Mamlakat o'zining mineral o'g'itlarga bo'lgan ehtiyojini to'la qondiradi va ma'lum qism (o'rtacha yiliga 26-30 mln. AQSh dollariga teng miqdorda) o'g'itni chetga eksport qiladi. Biroq, O'zbekistonda kaliyli o'g'it ishlab chiqarilmas edi. Shuning uchun Qashqadaryo viloyatidagi kaliy tuzlari negizida Tubagatan kaliy zavodi qurilgan.

Sulfat kislota-kimyo sanoati tarmoqlari uchun muhim xom ashyodir. Respublikada sulfat kislota Olmaliq "Ammofos" birlashmasi, Samarqand kimyo zavodi, Navoiy kon-metallurgiya kombinati, Muborak gazni qayta ishlash majmuasida ishlab chiqariladi. **Soda sanoatining** Markaziy Osiyodagi yagona bo'lgan korxonasi Qo'ng'irotda soda zavodi bo'lib, uning yillik loyiha quvvati 210 ming t. soda.

Kimyoviy tolalar va iplar (polimerlar) ishlab chiqarish ham respublika kimyo sanoatining endi rivojlanib kelayotgan tarmoqlaridan biridir. Uning rivojlanishiga gaz sanoatidagi o'sish ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Mazkur tarmoq mahsulotlaridan-Chirchiq "Elektrokimyo sanoati" ishlab chiqarish birlashmasida kaprolaktom (yillik quvvati 80 ming t.), Farg'ona kimyo tolalar zavodida atsetat iplar, "Navoiyazot" birlashmasida nitron akril tolalari (yiliga 40 ming t.), "Farg'onaazot" birlashmasida sellyuloza atsetati (yillik quvvati 42 ming t.) ishlab chiqariladi. Bu sun'iy tolalardan gazlama, gilam, trikotaj ishlab chiqarishda foydalaniladi. 1999 yilda mamlakat iqtisodiyoti uchun 11472 t kimyoviy tolalar etkazib berilgan.

Kaprolaktamning hammasi, atsetat va nitron tolalarining deyarli 2\3 qismi respublikadan tashqariga jo'natiladi.

Gidroliz korxonalariga Farg'ona furon birikmalari, Yangiyo'l biokimyo, Andijon gidroliz zavodlari kiradi. Asosiy xom ashyo-chigit shulxasi, sholi qibig'idan texnik etil spirti, furfurool, ozuqa achitqilari (xamirturush), furil spirti va boshqa mahsulotlar olinadi. O'tgan asrning 1990-yillari boshidan bu zavodlarda g'alladan oziq-ovqat (etil) spirti ishlab chiqarish o'zlashtirildi. Hozirda oziq-ovqat, tibbiyot, atir upa va boshqa sanoat tarmoqlarini respublikaning o'zida ishlab chiqarilgan spirt bilan taminlash imkoniyati yaratilgan.

Rezina mahsulotlari Angren "O'zbekrezinatexnika" birlashmasi va Toshkent rezina texnika mahsulotlari zavodida ishlab chiqariladi. Ilgari asosan maxsus rezina mahsulotlari ishlab chiqargan "O'zbekrezinatexnika" birlashmasi 1987 yildan xalq iste'moli tovarlari ishlab chiqarishga o'tdi. 1992 yildan shinalar ishlab chiqarishni o'zlashtirishga o'tildi. Unda 1996 yildan engil avtomobillar uchun 1,5 million dona, yuk avtomobillari uchun 200 ming dona shina ishlab chiqaradigan quvvatlar ishga tushirildi.

Respublikada plasmassa va propilen mahsulotlarini qayta ishlovchi (Ohangaron "Santexlit", Jizzax plastmassa quvurlari zavodi), turli xil lak-bo'yoq mahsulotlari (Toshkent lak-bo'yoq zavodida), ro'zg'or kimyosi tovarlari ("O'zro'zg'orkimyo" birlashmasi, Olmaliq ro'zg'or kimyo zavodi, Namangan kimyo zavodi), Toshkent yog'-moy kombinati tarkibida sintetik yuvish vositalari zavodi ishlab chiqaradigan yirik korxonalar ishlab turibdi. Yiliga 125 ming t. polietilen plyonkasi va boshqa mahsulotlar ishlab chiqaradigan Sho'rtan gaz-kimyo majmuasi qurildi. O'zbekiston kimyo sanoati korxonalar va birlashmalarida Xitoy, AQSh, Yaponiya, Germaniya va Italiya firmalari bilan hamkorlikda mahalliy xom ashyolardan yangi-yangi mahsulotlar ishlab chiqarish, sanoat chiqindilarini qayta ishlashni avtomatlashtirish, kimyo sanoatining eksport imkoniyatini kengaytirish, qo'shma korxonalar qurish sohasida juda katta ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Qizilqum fosforit kombinati (quvvati 210 mln. tonnalik), Qo'ng'iro't kaustik soda zavodi, Tubagatan kaliy o'g'itlar zavodi hamda ko'pgina qo'shma korxonalar jadal sur'atlar bilan qurildi.

3.6. O'rmon va qurilish materiallari ishlab chiqarish majmuasi

O'rmon sanoati quyidagi tarmoqlarni o'z ichiga oladi: daraxt kesish, yog'ochsozlik (taxta tilish, mebel, gugurt ishlab chiqarish va h.k.) sanoati, sellyuloza-qog'oz va o'rmon-kimyo sanoati. O'rmon sanoati korxonalari bir-biri bilan chambarchas bog'langan, ya'ni birining mahsuloti ikkinchisi uchun xom ashyo bo'lib xizmat qiladi. Yog'och tayyorlash korxonalari taxta tilish zavodlariga yog'och beradi, taxta esa mebel sanoati uchun xom ashyo bo'lib xizmat qiladi. Yog'och tayyorlash korxonalari chiqindilari (shox-shabba) va yog'ochsozlik chiqitlari (qipiq, po'stloq, qirindi) o'rmon sanoatida spirt, moy va bo'yoqlar ishlab chiqarish uchun ishlatiladi. SHu sababli ham, o'rmon-kimyo kombinatlari qurish keng tarqalgan.

O'rmon sanoatining bir-biriga yaqin joylashgan va xom ashyo, energiya, transportdan birgalikda foydalanishga hamda chiqindilarni to'liq qayta ishlashga

asoslangan mustahkam ishlab chiqarish aloqalariga ega bo'lgan korxonalar o'rmon sanoati majmuasi deb ataladi.

O'rmonlar vazifasiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi: sanitariya o'rmonlari (shaharlar atrofida); tuproqni, dalalarni, suvni muhofaza qiluvchi o'rmonlar (daryolar, ko'llar, suv omborlari, kanallar bo'yida); qo'riqxonalar o'rmonlari-bunday o'rmonlarda daraxtlarni sanoat maqsadlarida kesish man qilinadi. Shu sababli, o'rmon resurslariga xo'jalik jihatdan baho berganda o'rmon bilan qoplangan butun maydon hisobga olinmaydi, balki o'rmonning sanoat uchun kesishga ruxsat etilgan maydoni hisobga olinadi. Bundan tashqari, hududni o'rmon bilan qoplanganlik darajasi (o'rmon bilan qoplangan butun maydonning shu hududning butun maydoniga nisbati) degan iqtisodiy ko'rsatkichdan foydalaniladi.

O'rmon sanoatining ayrim tarmoqlari xom ashyo manbalari yaqiniga, dengiz, daryo, temir yo'l bilan yaxshi ta'minlangan joylarga, ayrim tarmoqlari esa iste'molchiga yaqin hududlarda joylashtiriladi. Yog'och tayyorlash o'rmon sanoati ishlab chiqarishining 75 foizini tashkil qiladi. O'rmon sanoati ishlab chiqarishi bir-biri bilan bog'langan quyidagi bosqichlardan iborat:

a) yog'och tayyorlash (daraxt kesish, uni transport magistrallariga olib chiqish, qayta ishlash markazlariga etkazib berish). Bu tarmoq asosan xom ashyo manbalari yaqinida joylashtiriladi;

b) yog'ochga mexanik ishlov berish: taxta tilish, fanera, gugurt, mebel, idish ishlab chiqarish. Taxta tilish sanoati ham xom ashyo manbalariga yaqinroq joylashtiriladi.

Fanera asosan oq qayin va olxa daraxtidan tayyorlanadi, shu sababli fanera ishlab chiqarish korxonalari ko'proqaralash va keng bargli o'rmonlar tarqalgan joylarda. Hozir igna bargli daraxtlardan ham fanera ishlab chiqarilmoqda. Gugurt ishlab chiqarish sanoatida xom ashyo toq terakdan foydalaniladi. Shuning uchun gugurt korxonalari asosan shu daraxtlar tarqalgan joylarda quriladi. Mebel sanoati ko'prok iste'mol rayonlarida quriladi;

v) yog'ochga kimyoviy ishlov berish (o'rmon-kimyo): sellyuloza, qog'oz, karton, skipidar, kanifol va boshqa narsalar ishlab chiqaradi. Sellyuloza-qog'oz sanoati qog'oz, karton, qog'oz qoplar tayyorlash uchun yarim fabrikalar bo'lib xizmat qiladigan yog'och massasi va sellyuloza ishlab chiqaradi. Sellyulozadan sun'iy tola, plastmassalar, kino plyonkalar ishlanadi. Qog'oz massasi mexanik usul bilan, ya'ni suvda yaxshilab ivitilgan yog'ochni maydalab kukun qilish yo'li bilan olinadi. Sellyuloza yog'ochni termik usul bilan ishlash natijasida hosilqilinadi. Sellyuloza ishlab chiqarish ko'p miqdorda suv talab qiladi va qog'oz olish uchun ko'p elektr energiya sarf bo'ladi.

Jahonda yog'och tayyorlash bo'yicha-AQSH, Rossiya, Kanada, SHvetsiya, Finlyandiya, Braziliya, Tropic Afrika va Janubi-SHarqiy Osiyo davlatlari etakchi hisoblanadi.

Binokorlik (qurilish) sanoati qurilish uchun turli xil materiallar ishlab chiqaradi va quyidagi tarmoqlarga bo'linadi: g'isht, sement, beton, tabiiy toshlar, oyna, shifer va boshqa materiallar ishlab chiqarish. G'isht ishlab chiqarish juda keng tarqalgan. Oddiy, ichi g'ovak g'ishtlar hamda shlakobloklar ishlab chiqariladi. G'ishtni tuproq va ohakni bir-biriga qo'shib tayyorlanadi sovuqqa chidamli bo'ladi. Qurilishda qizil

g'isht bilan bir qatorda pishirilmagan silikatli g'ishtar ham ishlatiladi. Bunday g'ishtar ohak va qumni bir-biriga aralashtirib qo'yilib, keyin qozonlarda yuqori bosim ostida bug'latib tayyorlanadi.

Sement qurilishda keng ishlatiladigan material. Sement xom ashyosi bo'lib karbonatli (ohaktosh, bo'r, mergel) va gilli (gil, soz tuproq, gilli slanets) tog' jinslari hamda sement ishlab chiqarish uchun yaroqli bo'lgan qator ishlab chiqarish tarmoqlarining chiqindilari (domna kullari, nefelin maydalari va boshqalar) hisoblanadi.

Sement ishlab chiqarishda ishlatiladigan karbonat tog' jinslarining tarkibi quyidagicha bo'lishi kerak: CaO -43,5 foizdan yuqori; MgO -2,5 foizgacha; gilli tog' jinslarining tarkibi- SiO_2 -50-60 foiz; Al_2O_3 -15-20 foiz; Fe_2O_3 -6-10 foiz. Jahonda sement ishlab chiqarish bo'yicha AQSH va Rossiya etakchi. Sement zavodlari xom ashyo manbalariga yaqin joylashtiriladi.

Beton ishlab chiqarish hozirda juda keng rivojlangan. Bunda temirbeton buyumlari ishlab chiqarish muhim ahamiyatga ega. Temir-beton asosan temir armaturasi va betondan iborat. Beton xom ashyosi bo'lib qum, shag'al va sement hisoblanadi.

Oyna tayyorlash uchun kvarsli qum, soda (ishqor) va ohak ishlatiladi. Soda o'rniga glauber tuzini ishlatish mumkin. Oyna materiallarining eng keng tarqalgan turi deraza oynasidir. Bundan tashqari shisha idishlar, turli xil texnik qurilish detallari, shisha bloklar, quvurlar va plitalar tayyorlanadi. Oynasozlik zavodlarini joylashtirishda xom ashyo va yoqilg'i resurslari hisobga olinadi. Bir tonna oyna (shisha) olish uchun 1 tonna qum va 1 tonna yoqilg'i sarflanadi.

Tabiiy toshlar hamqurilishda keng qo'llaniladi. Ular marmar, granit, kvarsli porfir, ohaktosh, qumtosh, sienit, diorit, gabbro, bazaltdan iborat. Bulardan tashqari, binokorlik materiallari sanoatiga shifer, ruberoid, tayyor uy bloklari ishlab chiqarish ham kiradi.

O'zbekiston ham ko'p tarmoqli qurilish materiallari sanoatiga ega. Bu sanoatning xom ashyo resurslari respublikaning barcha mintaqalarida juda ko'p miqdorda uchraydi. Nometall xom ashyolardan-dala shpati, asbest, vollastanit, grafit, talk, abrazivlar, gips, sement xom ashyosi, kvars qumlari, g'isht xom ashyosining katta zahiralari mavjud. Jumladan, vollastanitning 50 ga yaqin, grafitning 15 dan ortiq, marmarning 20, grafitning 30 dan ortiq konlari topilgan. Qimmatbaho va ishlov beriladigan toshlardan topaz, feruza, tog' xrustalli, ametist, nefritlarning ham yirik-yirik zahiralari topilgan. Mustaqillik yillarida qurilish materiallari sanoati ham deyarli qayta qurildi, zamonaviy uskunalari, yangi texnologiya asosida jihozlantirildi. Juda ko'p qo'shma korxonalar paydo bo'ldi. Natijada ko'p miqdorda va sifatli mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi tez o'sib bormoqda.

Mamlakat qurilish materiallari sanoatiga oid korxonalarda sement, sement-asbest, devorbop materiallar, ohak, gips, temir-beton konstruksiyalari, deraza oynalari va boshqa mahsulotlar ishlab chiqariladi. Tarmoq korxonalarida 100 dan ortiq xildagi mahsulotlar tayyorlanadi. Respublika sanoat mahsulotlari umumiy hajmida qurilish materiallari sanoatining hissasi 5,5 foizni tashkil etadi. Qurilish materiallari sanoati o'z ishlab chiqarish xususiyatiga qarab bir qator tarmoqlarga bo'linadi.

Sement sanoati. Respublikadagi qurilish industriyasining birinchi korxonasi 1913 yil qurila boshlagan Xilkova sement zavodi (hozirgi Bekobod sement kombinati) dir. 1927 yili O'zbekistonda hammasi bo'lib 7,7 ming t. sement olishga muvaffaq bo'lingan. Respublikaning sementga bo'lgan ehtiyojini ortishi tufayli 1932 yilda Quvasoy sement zavodi ishga tushurildi.

Urushdan keyingi yillarda Angren (1947 y.) keyinchalik Ohangaron (1962 y.) va Navoiy (1977 y.) sement kombinalari ishga tushurildi. Mustaqillik yillarida Jizzax tsement zavodi ishga tushirildi. Hozirda respublika sement tarmog'ida yiliga 5 mln. t. dan ko'proq sement ishlab chiqaradigan 5 yirik korxonalar ishlaydi. Sement korxonalarida sementning hamma turlari, shifer, asbosement quvurlar, mineral paxta (vata) va undan tayyorlangan buyumlar, sement qum cherepitsalari va boshqa mahsulotlar ishlab chiqariladi. Respublikada yiliga 470 mln. shartli taxta (plita) hisobida shifer ishlab chiqariladi. Tekis va to'liqsimon shiferlar Ohangaron, Quvasoy, Bekobod sement kombinalarida tayyorlanadi.

Toshtaroshlik (toshga sayqal berish) ham qurilish materiallari sanoatida alohida ahamiyat kasb etadi. Bir tomoni tog'lar bilan tutashib ketgan aksariyat viloyatlarimiz hududlarida toshtaroshlik yaxshi rivojlangan. Sanoatning mazkur turi, ayniqsa, Navoiy, Samarqand, Qashqadaryo, Toshkent, Surxondaryo viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasida rivojlangan. Tabiiy toshlar (marmar va granitdan) ishlangan qoplama materiallari va bloklar Markaziy Osiyo me'morchiligida ko'p ishlatilgan. Qoplama toshlar zahiralari, xilma-xilligi va rangi bo'yicha O'zbekiston MDH mamlakatlari orasida etakchi o'rinda. Respublikada 20 ta marmar, 15 ta granit va gabbro koni borligi aniqlangan. Oq rangdan to qora ranggacha xilma-xil bezakbob toshlar olinadigan ko'plab konlar noyob tabiiy omborlar bo'lib, ular butun Evrosiyo zonasidagi eng yirik konlardir. Qoplama toshlarning (bezakbob toshlarning) umumiy zaxirasi 85 mln. kubometrdan ortib ketadi. Ular toshni qayta ishlaydigan korxonalarini yuz yillar davomida xom ashyo bilan ta'minlaydi.

Respublikada 30 dan ortiq marmar, granit, travertin (g'ovak ohaktosh), tuf (g'ovak tog' jinsi) va boshqa tog' jinsi konlari topilgan. Mamlakatimiz tabiiy toshlari zavod va kombinalarda sayqal berilishi bilan ishlab chiqarishga jo'natiladi. Ayniqsa, bu borada G'ozg'on marmarining dovrig'i juda mashhur. Respublikamizning ko'pgina shaharlarida, shuningdek, Moskva, Sankt-Peterburg, Kiyev, Novosibirsk, Boku, Bishkek va Dushanbe shaharlarida qurilgan arxitektura inshootlari hamda metro stantsiyalarida G'ozg'on marmaridan bezak sifatida foydalanilgan. Ayni paytda marmar G'ozg'on tashqari, Nurota, Zarband va Orkutsoydan, granit Langar, Sevasoy, Chorakesardan, travertin Chustdan qazib olinadi.

Tarmoqning yirik korxonalari sirasiga 1970 yilda ishga tushgan G'azalkent toshga ishlov berish kombinati (yillik quvvati 150 ming m² tosh plita), 1976-1995 yilda tashkil etilgan Toshkent toshga ishlov berish kombinati (quvvati 88 ming m²), Nukus granit-marmar zavodi (70 ming m²), "Qashqadaryomarmar" (quvvati 25 ming m²) "Samarqandmarmar" (quvvati 22 ming m²) birlashmalari va Surxondaryoda "Konpurtepa" granit kombinati kabilar kiradi. Bu korxonada ishlab chiqarilgan mahsulotlar respublika ehtiyojlarini to'la qondirib, bir qismi eksportga ham chiqariladi.

Devorbop materiallar (g'isht) sanoati sohasi qurilishda ishlatiladigan olovbardosh imorat g'ishtlari ishlab chiqariladi. Ushbu tarmoqning o'ziga xosligi shundaki, uning geografiyasi keng, ya'ni mamlakatimizning barcha viloyatlarida g'isht zavodlari ishlab turibdi. Tarmoqning eng yirik korxonalari Yangiyo'l, Chirchiq, Qiziltepa (Navoiy viloyati) va Qarshi shaharlarida joylashgan. So'nggi yillarda, ayniqsa, chet el texnologiyasiga asoslangan xususiy g'isht zavodlari ko'plab qurilmoqda.

Keramika sanoatida Angren keramika kombinati va Toshkent qurilish materiallari kombinatida barcha turdagi sopol koshinlar, gips, kanalizatsiya quvurlari va boshqa mahsulotlar tayyorlanadi.

Shisha-oina sanoatida "Quvasoyshisha" ishlab chiqarish birlashmasi va G'azalkent shisha-oina zavodi ishlaydi. Bu korxonalarda 212 mln. dona konserva shisha idishlari, 80 mln. dona butilka, 2 mln. m² dereza oynalari ishlab chiqariladi.

Qurilishni industriallashtirishda **yig'ma temir-beton ishlab chiqarishni** o'zlashtirish muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Yig'ma temir-betondan mahsulot ishlab chiqaridigan 300 ga yaqin zavod va kombinatlar ishlaydi. Bu korxonalarda respublika qurilish materiallari sanoati yalpi mahsulotining deyarli 50 foizi ishlab chiqariladi.

Qurilish materiallari sanoatining keyingi davrlarda taraqqiy etgan tarmog'i-yirik uysozlik kombinatlari bo'lib, ular deyarli barcha viloyat markazlari va katta shaharlarda qurilgan. Eng yiriklari Toshkent, Samarqand, Andijon, Chirchiq, Nukus shaharlarida joylashgan. Toshkent (Bektemir tumanida) va Jizzaxda temir-beton ariq (lotok) zavodi bor.

Yog'ochsozlik sanoati ham qurilish industriyasining tarkibiy qismi bo'lib, uning sanoat korxonalari yog'ochsozlik yoki duradgorlik, uysozlik, asbobsozlik, aravasoqlik, sandiqsozlik, o'ymakorlik singari juda ko'p tarmoqlardan tarkib topgan.

3.7. Yengil va oziq-ovqat sanoati

Yengil sanoatda keng iste'mol mollari ishlab chiqariladi va u quyidagi tarmoqlardan iborat: ip-gazlama, jut, jun, trikotaj, ko'n, poyafzal, mo'yna va boshqalar. Yengil sanoatga xom ashyoni asosan qishloq xo'jaligi etkazib beradi (paxta, zig'ir tolasi, jun, ko'n (teri, mo'yna). Hozirgi paytda kimyo sanoati mahsulotlari ham yengil sanoat xom ashyosi bo'lib hisoblanadi (sun'iy tola).

Ip-gazlama, jun gazlama, shoyi va zig'ir tolasidan gazlama ishlab chiqarish to'qimachilik sanoatini tashkil qiladi. Gazlama to'qish jarayoni bir necha bosqichlardan iborat:

- xom ashyoga dastlabki ishlov berish bosqichi, paxta tozalash, zig'ir tolasiga ishlov berish, jun yuvish (pillachilik korxonalarida amalga oshiriladi);
- ip yigirish bosqichi (ip yigiradigan korxonalarda amalga oshiriladi);
- gazlama to'qish bosqichi (to'qimachilik korxonalarida amalga oshiriladi);
- pardozlash bosqichi (bo'yash va gul bosish sexlarida amalga oshiriladi).

Ushbu barcha bosqichlar alohida-alohida joylashgan yigirish, to'qish yoki pardozlash fabrikalarida amalga oshirilishi mumkin, ammo transport xarajatlari (har bir fabrikadan yuklarni olib ketish va tushirish) mahsulot tannarxini oshirib yuboradi.

Demak, to'qimachilik ishlab chiqarishini bir korxonada-kombinatda to'plash foydaliroq bo'ladi.

Xom ashyoga dastlabki ishlov berish korxonalari xom ashyo manbalariga yaqin joylashtiriladi. To'qimachilik korxonalarida ko'proq ayollar ishlaydi, shuning uchun ushbu sanoatni aholi ko'p to'plangan shaharlarda va og'ir sanoat rivojlangan hududlarda joylashtiriladi.

Trikotaj va tikuvchilik sanoati korxonalarini joylashtirishda ular mahsulotlaridan foydalanadigan hududlar hisobga olinadi. Chunki bu sanoat uchun kerak bo'lgan kalavalarni tashish tayyor mahsulotni tashishdan qulayroq va arzonroq. Demak, to'qimachilik sanoati korxonalarini joylashtirishda iste'molchilar, mehnat resurslari va xom ashyo manbalari hisobga olinadi.

Yengil sanoatning eng muhim tarmoqlaridan biri ko'n-poyabzal sanoatidir. Tabiiy ko'n (teri) bu sanoat tarmog'i uchun xom ashyo bo'lib hisoblanadi. Bundan tashqari, sun'iy teri, rezina, parusina (kanopdan to'qilgan dag'al qalin mato), jun (piyma uchun) ham xom ashyo sifatida ishlatiladi. Chorvachilikning turli hududlarda ixtisoslashuviga qarab, ushbu sanoatning xom ashyosi xilma-xil bo'ladi. Ko'n sanoatini joylashtirishda xom ashyo manbai muhim o'rin tutadi. Ammo go'sht kombinatlarining chiqindisi hisoblangan terilar ham bu sanoatni joylashishiga ta'sir ko'rsatadi. Poyafzal sanoati iste'molchiga yaqin joylarda barpo etiladi.

Dunyo yengil sanoat aholini keng iste'mol mahsulotlari (mato, kiyim, poyabzal va boshqalar) bilan ta'minlovchi sanoat tarmog'i hisoblanadi. Ushbu tarmoq xomashyo sifatida, asosan, qishloq xo'jalik mahsulotlaridan foydalanadi. Yengil sanoatda eng yetakchi tarmoqlar to'qimachilik, tikuvchilik va charm-poyabzal tarmoqlari hisoblanadi.

Jahon to'qimachiligida beshta mintaqa shakllangan: Sharqiy Osiyo, Janubiy Osiyo, MDH davlatlari, Yevropa va AQSH. Agar Osiyo mintaqalarida paxta va ipak tolali matolar katta salmoqqa ega bo'lsa, Yevropa va AQSHda asosiy o'rinni sintetik tolali va trikotaj matolar egallaydi.

Tikuvchilik sanoati hozirgi kunda yengil sanoatning eng qimmat turdagi mahsulotlar ishlab chiqaruvchi tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Unda o'zigaxos «moda markazlari» shakllangan bo'lib, ular Parij, London, Berlin va Nyu-York shaharlaridir.

Charm-poyabzal tarmog'i teriga ishlov berish va undan turli mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Xitoy, Italiya, Hindiston, Ispaniya, AQSH, Fransiya kabi davlatlar mazkur tarmoqning yetakchi davlatlari hisoblanadi.

Oziq-ovqat sanoati-aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlaydigan 30 dan ortiq ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan bo'lib, qishloq xo'jaligi bilan chambarchas bog'langan. Oziq-ovqat sanoati joylashishida xom ashyo va iste'molchi omili muhim o'rin tutadi. Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishda xarajatning ko'p qismi qishloq xo'jalik xom ashyosiga sarf bo'ladi. Shakar ishlab chiqarishda xom ashyo xarajati 65 foiz, yog', pishloq va go'sht tayyorlashda 90 foizgacha boradi. Bir tonna shakar olish uchun 5-6 tonna qand lavlagi talab qilinadi. SHuning uchun oziq-ovqat sanoatining bir guruh korxonalari (qand, shakar, vino va h.k.lar ishlab chiqarish) xom ashyo manbalar yaqin joylarda barpo etiladi.

Demak, qand-shakar ishlab chiqarish qand lavlagi etishtiradigan joylarda, vino zavodlari uzumchilik, bog'dorchilik, sabzavotchilik, rivojlangan joylarda, sut

mahsulotlari ishlab chiqarish sut chorvachiligi rayonlarida barpo etiladi, yog‘ sanoati paxta, kungaboqar, zig‘ir, soya va boshqa moyli ekinlar ekiladigan rayonlarda barpo etiladi.

Go‘sh t kombinatlari chorvachilik rivojlangan joylarda barpo qilinadi, ammo keyingi paytlarda yirik shaharlar atrofida ham go‘sh t kombinatlari, parrandachilik fabrikalari qurilmoqda. Baliq sanoati asosan baliq ovlanadigan hududlarda rivojlangan. Oziq-ovqat sanoatining boshqa bir guruhi iste‘molchiga yaqin joylashtiriladi. Bunday tarmoqlarga non zavodlari, makaron, konditer fabrikalari kiradi.

O‘zbekiston Respublikasida eng taraqqiy etgan sanoat tarmoqlaridan biri bu oziq-ovqat sanoatidir. Sanoatning mazkur turi asosan mahalliy (qishloq xo‘jaligi) xom ashyosiga tayanadi. Umumsanoat mahsuloti hajmining 18,9 foizi oziq-ovqat sanoatiga to‘g‘ri keladi. Qishloq xo‘jaligi rivojlangan O‘zbekistonda sanoatning bu turi qadimdan shakllangan. Dastlab suv tegirmonlarida un, objuozlarda guruch, juvozlarda o‘simlik moyi, novvoyxonalarda nonlar tayyorlangan. Qandolatchilar turli xil shirinliklar, uzumdan musallas va boshqa sharbatli va suyuq ichimliklar tayyorlaganlar.

Oziq-ovqat sanoatining tarmoqlari ko‘p va xilma-xil. Unda sut va Go‘sh t, yog‘- moy va baliq mahsulotlari, un va un mahsulotlari, meva-sabzavot va konservalar, uzum va meva sharbatlari, spirt, aroq, pivo, tamaki, chanqovbosar ichimliklar va boshqa mahsulotlarni ishlab chiqarish yo‘nalishlari yo‘lga qo‘yilgan. Mamlakatimiz aholisining ehtiyojini qondirish maqsadida uning oziq-ovqat sanoati yildan-yilga ko‘p mahsulot ishlab chiqarishni taminlamoqda.

Go‘sh t sanoati - oziq-ovqat sanoatining etakchi tarmog‘idir. O‘tmishda mahalliy aholi ot go‘sh tidan qazi, qoramol go‘sh tidan uzoq saqlanadigan, qo‘g‘itilgan va qovurilgan go‘sh t mahsulotlari tayyorlashgan. 1932 yilga kelib go‘sh t sanoati respublika xalq xo‘jaligi rejasiga alohida sanoat tarmog‘i tarzida kiritilgan.

Endilikda respublikaning barcha viloyat markazlari va yirik shaharlarida go‘sh t kombinatlari ishlab turibdi. "O‘zgo‘sh tsanoat" uyushmasi tarkibida 23 ta yirik go‘sh t kombinatlari, go‘sh t etishtirishga ixtisoslashgan xo‘jaliklar, viloyat tumanlarida esa bo‘rdoqichilik yo‘nalishidagi o‘rta va kichik korxonalar bor. Mustaqillik yillarida mamlakatimizning turli mintaqalarida jamoa, davlat, shirkat va fermer xo‘jaliklari va tadbirkorlar tomonidan zamonaviy texnologiya bilan jihozlangan go‘sh t mahsulotlari va turli kolbasalar ishlab chiqaradigan ko‘pgina kombinatlar qurildi.

Sut sanoati. Respublika sut sanoati korxonalarida sariyog‘, sut-qatiq, sut konservalar, pishloq, qaymoq, muzqaymoq, brinza va boshqa mahsulotlar tayyorlanadi. O‘zbekistonda birinchi sut zavodi Toshkent shahrida 1928 yilda ishga tushirilgan. Hozirda barcha viloyatlarda tarmoq korxonalari mavjud. Eng yirik sut kombinatlari Toshkent, Samarqand, Namangan, Buxoro, Denov, Shahrixon shaharlarida joylashgan.

Yog‘-moy sanoati O‘zbekiston oziq-ovqat sanoatining etakchi tarmoqlaridan biri. Sanoatning bu tarmog‘ida paxta moyi ishlab chiqarish etakchilik qiladi. Xalqimiz qadimdan turli o‘simliklardan (kunjut, zig‘ir, maxsar) juvozlarda yog‘ olishgan. Paxta chigitidan yog‘ oladigan dastlabki zavod 1884 yil Qo‘qonda qurilgan. Ayni paytda Respublikada yiliga umumiy quvvati 3 mln. tonna moyli o‘simlik

urug'larini qayta ishlaydigan 20 dan ortiq korxonalar ishlab turibdi. Ularda asosan g'oz urug'i (chigit), kunjut, zig'ir, maxsar, soya, meva danaklari urug'laridan moy ishlab chiqariladi.

O'simlik moyi ishlab chiqarishda yiliga taxminan 2,1 mln. t. atrofida chigit ishlatiladi. Mamlakat yog'-moy sanoati oziq-ovqat sanoati yalpi mahsulotining 40 foizini beradi. Respublikamiz o'simlik moyi ishlab chiqarishda MDH da Rossiya va Ukrainadan keyin 3-o'rinda turadi. Tarmoq korxonalarida o'simlik moyidan tashqari, margarin, kirsovun, atirsovun, farmasevtika va boshqa mahsulotlar ishlab chiqariladi. Eng yirik yog'-ekstraksiya zavodlari Guliston, Kosonsoy, Farg'ona, Qo'qon, Kattaqo'rg'on, Denov, Urganchdadir. Ularning ayrimlari jumladan, Kosonsoy va Guliston yog'-ekstraksiya zavodlari sutkasiga 1200 t. chigitni qayta ishlaydi.

Mamlakat oziq-ovqat sanoatida **elevator sanoatining** ham hissasi oshib bormoqda. Bu mamlakat aholisining un va un mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini to'la qondirish bilan bog'liq jarayon taqozosidir. Yetishtirilgan donni faqat elevator xo'jaliklarida yaxshi saqlash mumkin. 1965 yilda respublikada umumiy sig'imi 674 ming t. bo'lgan 5 ta elevator va 226 ta g'alla ombori bo'lgan bo'lsa, endilikda mamlakatda taxminan 45 ta elevator bo'lib ularning umumiy g'alla sig'imi 4,5 mln. tonnaga etdi. Har yili etishtiriladigan g'allaning o'rtacha 65 foizi elevatorlarda saqlanadi. Qayta jihozlangan va yangidan qurilgan elevatorlar avtomatik dispetcherlik boshqaruvi tizimlari, g'alla haroratini avtomatik tarzda masofadan turib o'lchaydigan qurilmalar bilan jihozlangan.

Un tortish (tegirmon) sanoatining yirik korxonalari Farg'ona, Yangiyo'l un kombinatlari, Namangan, Andijon, Samarqand, Buxoro shaharlaridagi uch navli un tortadigan (240 t. sutka quvvatli) zavodlardir. Keyingi yillarda un sanoati tez sur'atlarda o'sdi. Sutkasiga 120 dan 500 tonnagacha don tortadigan 23 ta yangi korxonalar qurildi. Jizzax, Ohangaron, Qo'qon, Qarshi, Asaka, Jomboy, Taxiatosh shaharlarida yangi korxonalar ishga tushirilishi bilan korxonalarining umumiy quvvati sutkasiga 6330 t. ga etdi yoki bir yilda 1,5 mln. t. un ishlab chiqarish imkoniyatiga ega bo'ldi. Mustaqillik yillarida Oqoltin, Do'stlik, Oqtosh, Yakkabog' don mahsulotlari kombinatlari qurildi.

Non ishlab chiqarish asosan "O'zdonmahsulot" tarkibidadir. Unga 4 ta non ishlab chiqarish birlashmasi (Toshkent, Yangiyo'l, Farg'ona, Qarshi) va 21 ta non zavodi qaraydi. "O'zbekbirlashuv" tizimida ham non ishlab chiqariladi.

Bu tizimda 242 ta korxonalar, 3 mingga yaqin tandir (novvoyxona) va kichik korxonalar bor. Ularning har ikkida sutkasiga 3575 tonnadan ko'proq (300 xildan ortiq) non mahsulotlari ishlab chiqariladi.

Respublika oziq-ovqat sanoatida sholidan turli navli **guruch** ishlab chiqariladi. Guruch ishlab chiqarish xom ashyo rayonlarida yaxshi yo'lga qo'yilgan. Qoraqalpog'istonda Taxiatosh, Xo'jayli, Qonliko'l, Shumanay, Chimboy, Xorazmda Urganch, Xonqa, Bog'ot, Surxondaryoda Muzrobod guruch zavodlari tarmoqning yirik korxonalaridir.

Konserva sanoati. 1913 yilda O'zbekistonning hozirgi hududida joylashgan 3 ta konserva korxonasida 200 ming banka konserva ishlab chiqarilgan edi. O'zbekiston konserva sanoatining asosiy mahsulotlari murabbo, meva kompotlari, qiyom, sharbatlar, savzavot va poliz mahsulotlaridan qilingan konservalardan iborat.

O'zbekiston konserva zavodlarida tayyorlanadigan pomidor konservalari, pastasi, sharbati va hokazolarga respublikamizdagina emas, balki Hamdo'stlikning ko'pgina mintaqalarida ham ehtiyoj juda katta.

Qandolatchilik sanoatida turli shirinliklar va qandolat mahsulotlari ishlab chiqariladi. Masalan, konfetlar, karamel, shokolad, marmelad, undan pishirilgan qandolat mahsulotlari, sharq shirinliklari (novvot, parvarda, pechak) va boshqalar. O'zbekiston qandolat sanoatiga aloqador 60 dan ortiq korxonalar bor. Tarmoqning eng yirik korxonalari Toshkentdagi "O'rtoq" qandolat fabrikasi, Yangiyo'ldagi "Lazzat" birlashmasi, Farg'ona va Samarqand qandolat fabrikalaridir.

Sanoatning bu turini rivojlantirish aholining ehtiyojini qondirishga qaratilgan bo'lib, qand ishlab chiqarish uchun xom ashyo tarzida qand lavlagi etishtirishga kirishildi. Mamlakatimizning serqiyosh iqlimiy sharoitida qand lavlagi o'simligining qandlilik darajasi yuqori bo'lishi tabiiy.

Shuning uchun ham hukumat rejalashtirish tashkilotlari qand lavlagi etishtirish miqyosini kengaytirishga alohida e'tibor bermoqda. Xorazm, Toshkent va Samarqandda hamda boshqa viloyatlarda qand lavlagi ekish kengaytirilmoqda, ularni qayta ishlab, qand-shakar ishlab chiqarishga kirishildi. 1995-1997 yillarda Turkiya firmalari bilan hamkorlikda Xorazm viloyatining Xazorasp tumanida shakar zavodi qurildi. Zavod sutkasiga 3 ming tonna qand lavlagini qayta ishlash quvvatiga ega.

Vino va mayiz ishlab chiqarish ham oziq-ovqat sanoatining alohida tarmog'i. Mazkur tarmoqda turli nav uzumlardan mayiz, uzum qiyomlari, turli nav vino, konyak, shampan vinosi, aroq va boshqa mahsulotlar ishlab chiqariladi. Vinochilikka ixtisoslashgan sanoat korxonalarining katta qismi "O'zmevasabzavotuzumsanoat" uyushmasiga qaraydi.

Vino sanoatiga aloqador taxminan 22 ta yirik korxonalar bor. Vino mahsulotlarini tayyorlash va qo'yish bilan 56 korxonalar shug'ullanadi. Eng yirik korxonalar: "Toshkentvino", "Zarafshon" (Samarqand), "Shohrud" (Buxoro), "Mastona" (Qo'qon), "Gulbuloq" (Andijon) va boshqalar. Respublika vino sanoati bir yilga 22 mln. dal vino mahsulotlari ishlab chiqarish quvvatiga ega.

Vino sanoati korxonalarida tayyorlanayotgan oq, qizil, desert vinolar ("O'zbekiston", "Vassarga", "Buvaki", "Yumaloq" va h.k.) dunyoning xalqaro ko'rgazmalarida 100 dan ortiq oltin, kumush va bronza medallari bilan taqdirlangan. Respublikada pivo va alkogolsiz ichimliklar ishlab chiqarish ham keng rivojlangan. Sanoatni ushbu tarmog'ida yiliga 17,7 mln. dal. pivo, 20 dal. chanqovbosti ichimliklar, 380 mln. shisha mineral suv ishlab chiqariladi. Pivo va alkogolsiz ichimliklar ishlab chiqaradigan yirik korxonalariga Qibray (Toshkent) va Farg'ona chanqovbosar ichimliklar zavodlari hamda Samarqand-Pulsar qo'shma korxonasi kiradi.

Tuz sanoati O'zbekiston oziq-ovqat sanoatining eng yosh tarmoqlaridan biridir. 1990-yilgacha aholining osh tuziga bo'lgan ehtiyoji asosan chetdan (Ukraina, Qozog'iston, Turkmaniston, Rossiyadan) keltirilgan osh tuzi hisobiga qondirilgan.

Mustaqillik yillarida respublika aholisini osh tuziga bo'lgan ehtiyoji mahalliy xom ashyo hisobiga qondirilmoqda. Qoraqalpog'istonning Qo'ng'iro't tumanida yiliga 100 ming t., Surxondaryoning Sherobod tumani (Xo'jaikon) da yiliga 150-200 ming t. osh tuzi qazib olinmoqda va aholi keng iste'moliga chiqarilmoqda.

Choy sanoati. Samarqandda O'rta Osiyoda yagona choy qadoqlash fabrikasi joylashgan. 1923 yilda ishga tushgan bu korxonada, asosan Hindiston, Xitoy, Indoneziya, Gruziyadan keltiriladigan xom ashyo hisobiga ishlaydi. Korxonada chet el dastgohlari bilan jihozlangan bo'lib, yiliga 11-12 ming t. choy qadoqlaydi.

Tamaki sanoati, Tarmoqda 3 ta yirik korxonada Samarqand va Urgut tamaki fermentlash zavodlari (har birining yillik quvvati 25 ming t. tamaki) va Toshkent tamaki fabrikasi ishlab turibdi. Toshkent tamaki fabrikasida xilma-xil papiros va filtrli sigaretalar tayyorlanadi. Mazkur fabrika negizida Buyuk Britaniyaning "BAT" kompaniyasi bilan hamkorlikda qo'shma korxonada faoliyat ko'rsatmoqda.

3.8. Sanoatni rayonlashtirish asoslari

Sanoatni rayonlashtirishning mohiyati-turli katta-kichiklikdagi hududiy-ishlab chiqarish kombinatsiyalarini (uyg'unligini) ajratish va asoslab berishdan iborat. Sanoat xususiyatlariga ko'ra ajratiladigan bu kombinatsiyalar, iqtisodiyot (xo'jalik), texnika va tabiatning bir-biriga hududiy ta'siri natijasidir. Bu hududiy kombinatsiyalarning o'zi esa *birinchidan*-sanoatdagi rayon hosil qiluvchi jarayonlarning asosi bo'lsa, *ikkinchidan*-bir vaqtda sanoat, qishloq xo'jaligi, transport va qurilish korxonalarini hamda boshqa xil ishlab chiqarish korxonalaridan tashkil topgan hududiy tizimlardan ajratiladi. Binobarin, sanoatni rayonlashtirish-iqtisodiy rayonlashtirishning tarkibiy qismidir.

Agar e'tibor beradigan bo'lsak, **rayon** (fransuzcha *rayon*-bir nuqtadan taralgan)-biron-bir xususiyatlariga qarab ajratiladigan hudud: iqtisodiy, tabiiy geografik, ma'muriy rayonlar bo'ladi. Masalan, o'zining iqtisodiy-geografik o'rni, ixtisoslashishi va ishlab chiqarishining tengligi hamda o'zaro bog'liqlik darajasi bilan farq qiladigan hudud, **iqtisodiy rayon** deyiladi.

Shu ma'noda sanoatni rayonlashtirish asoslariga baho berish, rayonlashtirish muammolari to'g'risida gapirish bugungi kunning dolzarb mavzusi hisoblanadi.

Oldingi bandlarda aytib o'tilganidek, **sanoat rayoni**-sanoat-ishlab chiqarish ixtisosi yaqqol ko'rinib turadigan iqtisodiy rayon. Tuzilishiga ko'ra integral bo'lgan sanoat rayonlari, sanoatning biron-bir tarmog'iga ixtisoslashgan tarmoq rayoni (masalan, qora metallurgiya rayoni, mashinasozlik rayoni) dan farq qiladi. Sanoat rayonlari undiruvchi sanoat ustun turadigan rayonlarga va ishlov beruvchi sanoat ustun turadigan rayonlarga bo'linadi. Sanoat rayonidan tashqari sanoat markazi, sanoat korxonasi, sanoat uzeli tushunchalari ham uchraydi.

Sanoat markazi-bir yoki bir necha sanoat tarmoqlari bo'lishi bilan ajralib turadigan shahar yoki posyolka. Ko'pincha sanoat markazi ishlab chiqarishning katta hajmda bo'lishi bilan farqlanadi. Sanoat markazlar industrial vazifalarnigina emas, balki transport vazifalarini ham bajaradi.

Sanoat korxonasi-xalq xo'jaligi rejasiga muvofiq ravishda mahsulot tayyorlash, ishlab chiqarish xizmatlari ko'rsatish bilan shug'ullanadigan ayrim ishlab chiqarish xo'jalik birligi.

Sanoat uzeli-mehnat va moddiy xom ashyo resurslaridan foydalanadigan aholi manzilgohlari tizimiga injenerlik-kommunikatsion va transport inshootlari bilan

xizmat ko'rsatadigan o'zaro bog'liq sanoat korxonalari guruhi joylashgan hudud. Sanoat uzeli bir shahardan iborat bo'lishi mumkin, ko'pincha esa ikki va undan ortiq shaharlardan yoki tevarak-atrofdagi ishchi posyolkalarini o'z ichiga oladigan shaharlar sistemasidan iborat bo'ladi.

Hozirgi zamon sanoatining tuzilishi shunday bir etakchi xususiyati (tendensiyasi) bilan xarakterlanadiki, bu xususiyat ijtimoiy mehnat taqsimotining rivoji va fan-texnika taraqqiyotining jadallashuvi bilan chambarchas bog'liq. Bir tomondan, yangidan-yangi tarmoq va korxonalar shakllanib, ajralib chiqayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, tarmoqlararo va tarmoqlar ichidagi aloqalar tobora mustahkamlanib va kengayib bormoqda. Shunday qilib, sanoatning ixtisoslashuvi bilan bir vaqtda korxonalarining kooperativlashuv doirasi ham kengaymoqda.

Xuddi ana shunday jarayon sanoatning hududiy tashkil etilishi uchun ham tipikdir. Biron-bir tarmoqning texnologik jarayon bosqichlariga ko'ra hududiy bo'linishi turli tarmoqlardagi korxonalarining muayyan hududiy majmualarga ajralishi bilan birgalikda ro'y beradi. Binobarin, sanoat ham tuzilishi jihatidan, ham hududiy jihatdan tabaqalanadi (differensiatsiyalanadi), ya'ni katta-kichik qismlarga bo'linadi. Shu bilan birga qarama-qarshi hodisani-sanoatning integratsiyalashuvini, ya'ni sanoat tarkibiy qismlari («elementlari») o'zaro aloqadorligining kuchayishini ham kuzatish mumkin.

Hududiy ishlab chiqarish majmuasi bilan iqtisodiy rayon tushunchalari o'rtasida farq bo'lganidek, sanoatga xos bo'lgan hududiy-ishlab chiqarish majmualarining shakllari ham sanoatni rayonlashtirishning taksonomik birliklari bilan aynan bir xil emas. *Iqtisodiy rayonlashtirish nazariyasida ta'kidlanganidek, sanoat rayonlashtirilganda sanoat rayoni, uzeli (tuguni), markazi va punkti taksonomik jihatdan bir-biri bilan bog'liq bo'ladi.* Har bir taksonomik birlikka hududiy-ishlab chiqarish majmuasining muayyan shakli to'g'ri keladi. Sanoat rayonida «yadro» (tayanch) rolini majmua yoki guruhlanish (birgalikda yoki alohida) o'ynasa, sanoat uzeli-majmua, guruhlanishda-markaz, sanoat punktida esa-ayrim olingan korxonalar shu rolni o'ynaydi.

Turli taksonomik birliklarning o'zaro bir-biriga «bo'ysunish» darajasi har xil bo'ladi. Masalan, industrial jihatdan dastlab o'zlashtirilayotgan hudud doirasida **sanoat rayonining** tarkibiy «elementi» sanoat markazlari yoki punktlaridan, ko'pincha esa faqat sanoat markazlaridan iboratdir. Yoki bo'lmasa, markazlar va punktlar ma'lum bir holda sanoat uzellari tarkibiga kirsa, boshqa hollarda mustaqil ish yuritadi. Shunisi muhimki, punktlar sanoat markazini tashkil etmaydi. Har ikkala taksonomik birlik ma'lum ma'noda mustaqil, ya'ni avtonomdir.

Sanoat rayonlari tarmoq rayonlarga va integral rayonlarga bo'linadi: tarmoq rayonining tashkil topish mexanizmi shundan iboratki, sanoatning istalgan tarmog'i o'ziga hududniig eng optimal (qulay) joylarini tanlaydi. Bu joylar iqtisodiy va tabiiy sharoitiga ko'ra hududniig texnik-iqtisodiy talablariga hamda joylashtirish omillariga eng mos tushishi lozim.

Sanoat rayonlarini ajratish ma'lum ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Biroq uni ajratishdan maqsad ishlab chiqarishning hududiy jihatlarini tarmoqlar bo'yicha tahlil qilishdan iboratdir.

Agar sharoit bir hududda bir emas, balki bir necha tarmoq korxonalarini joylashtirish uchun qulay bo'lsa, unda tarmoq rayonlari integral sanoat rayonlarida bir-birini "qoplaydi" ki, bu erda turli tarmoqlarning nisbiy ahamiyati vujudga kelgan hududiy-ishlab chiqarish majmuasining o'ziga xos xususiyati bilan bog'liq. Biroq integral rayonlar tarmoq rayonlarining oddiy majmui emas. U butunlay yangi sifatdir, chunki tarmoqlar hududiy uyg'unlashuvining joylashish sharoiti va xususiyatlari ayrim tarmoqning joylashish sharoiti va xususiyatlaridan boshqachadir.

Tarmoq va integral rayonlarning chegaralari bir-biriga to'g'ri kelishi mutlaqo shart emas, aksincha, bir-biridan farq qilishi lozim, chunki bir tarmoq rayonining ayrim qismlari turli integral rayonlarda bo'lishi mumkin. Xuddi shu kabi, integral rayonlar bilan iqtisodiy rayonlarning chegaralari ham kamdan-kam hollarda bir-biriga to'g'ri keladi. Integral rayon yaqqol industrial ixtisoslashuvi va tarkibiga ega bo'lgan majmualar yoki guruhlashlar (gruppировkalar) asosida vujudga kelgan hududiy-ishlab chiqarish majmualaridan iborat.

Sanoat rayonlari chegaralarini asoslab berishniig murakkabligi o'ziga e'tiborni tortadi, bu narsa hudud ancha zich industrial o'zlashtirilgan joylarga ayniqsa xosdir. Bundan tashqari, shuni ham hisobga olish kerakki, sanoat rayonlari ko'pincha bir-biridan ajralib qolgan areallardan iborat bo'lib, ular har doim ham turli kattalikdagi iqtisodiy rayonlar sistemasiga «sig'avermaydi».

Sanoat rayonini asoslashda avvalo, shu rayonni boshqa rayonlardan farq qildiruvchi hududiy-ishlab chiqarish (majmualar va gruppировka) lar uyg'unlashuvining xususiyatlariga tayanish lozim. So'ngra shu yo'l bilan hosil qilingan ob'ektga aniqlik kiritish uchun ishlab chiqarishning rivojlanish istiqbollarga, uning strukturasi (tarkibida) ro'y berishi mumkin bo'lgan o'zgarishlarga, rezerv hududlardan foydalanishiga va boshqalarga e'tibor berish kerak. Bunda ichki aloqalarni o'rganish muhim ahamiyatga ega, chunki u rayonning tarkibiy elementlari o'rtasidagi mehnat taqsimoti xususiyatlarini struktura (tuzilish) jihatidagina emas, balki hudud jihatdan, ya'ni uzellar, markazlar va punktlar bo'yicha ham aniqlashga imkon beradi.

Sanoat rayonlari bir-biridan ko'plab belgilariga ko'ra, ya'ni ishlab chiqarishi va hudud masshtabiga, shakllanishining vaqti hamda sharoitlariga, xom ashyo, yoqilg'i-energetika va mehnat resurslariga, ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi bilan strukturasi, ishlab chiqarishning ichki va tashqi aloqalariga, hududiy tashkil etilishiga va boshqa xususiyatlariga ko'ra farq qiladi. Tipologik sxema ishlab chiqish uchun avvalo rayonlarni belgilari majmuiga ko'ra guruhlarga bo'lish zarur. Barcha belgilar orasida genetik (rayon hosil bo'lishining sharoitlari, shartlari va bosqichlari), funksional (ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi) hamda strukturaviy (tarkibiy «element» larning o'zaro uyg'unlashuvi xususiyatlari) belgilar etakchi rol o'ynaydi.

Sobiq Ittifoqda sanoat rayonlarining quyidagi tiplari ajratilgan:

-ilgaridan mavjud bo'lgan industrial rayonlar xom ashyo va yoqilg'i-energetika resurslari tanqis sharoitda iqtisodiy-geografik o'rning qulayligi va mehnat resurslari (avvalo malakali ish kuchi) bilan yuksak darajada ta'minlanganligi, ishlov beruvchi sanoatga ixtisoslashganligining afzalliklari tufayli vujudga kelgan. Bu rayonlarda rekonstruksiya (qayta ta'mirlash) ishlari ancha seziladi, ularga MDH ning quyidagi hududlari-Markaziy va Volga-Vyatka, Boltiqbo'yi va Shimoli-G'arb kiradi;

-ilgaridan mavjud bo'lgan industrial rayonlar xom ashyo va (yoki) yoqilg'i-energetika, shuningdek mehnat resurslari bilan nisbatai yaxshi ta'minlangan bo'lib, undiruvchi va ishlov beruvchi sanoat tarmoqlariga ixtisoslashgan, rekonstruksiya ishlari ancha seziladi. Ularga Ukraina (Donetsk-Dneprbo'yi), Shimoliy Kavkaz va Kavkazortining ayrim sanat rayonlari kiradi;

-ilgaridan mavjud bo'lgan industrial rayonlar xom ashyo resurslari keragidan ortiqcha, yoqilg'i-energetika resurslari taqchil, mehnat resurslari bilan nisbatai yaxshi ta'minlangan bo'lib, undiruvchi va ishlov beruvchi sanoat tarmoqlariga ixtisoslashgan, rekonstruksiya ishlari ancha yaxshi seziladi, bularga uralning sanoat rayonlari kiradi;

-yangi industrial rayonlar xom ashyo va (yoki) yoqilg'i-energetika taqchil bo'lgani holda iqtisodiy-geografik o'rnining qulayligi, shuningdek mehnat resurslarining mavjudligi va qishloq xo'jalik xom ashyosi bilan ta'minlanganligi hisobiga rivojlanadi, ishlov beruvchi sanoat tarmoqlariga ixtisoslashadi, bularga Ukraina, qora tuproqli markaz, Belorussiya va Moldaviyaning ayrim sanoat rayonlari kiradi;

-yangi industrial rayonlar xom ashyo, yoqilg'i-energetika va mehnat resurslari bilan yaxshi (ayrim hollarda esa ancha yaxshi) ta'minlangan bo'lib, undiruvchi va ishlov beruvchi sanoat tarmoqlariga ixtisoslashgan, bularga Volgabo'yi, Shimoliy Kavkaz, Markaziy Osiyo va Kavkazortining ayrim sanoat rayonlari kiradi;

-yangi industrial rayonlar xom ashyo va (yoki) yoqilg'i-energetika resurslari bilan yaxshi ta'minlangan, mehnat resurslari taqchil bo'lib, asosan undiruvchi sanoatga ixtisoslashgan, bularga Shimolning bir qator sanoat rayonlari kiradi;

-yangi industrial rayonlar xom ashyo va yoqilg'i-energetika resurslari nihoyatda ko'p (ortiqcha), mehnat resurslari esa taqchil bo'lib, undiruvchi va ishlov beruvchi sanoat tarmoqlariga ixtisoslashgan, bularga Sibir, Uzoq Sharq va Qozog'iston kiradi;

-xom ashyo va (yoki) yoqilg'i-energetika resurslari nihoyatda ko'p (ortiqcha), mehnat resurslari esa taqchil bo'lib, industrial jihatdan birinchi bo'lib o'zlashtirilgan rayonlar. Bu erlarda hududiy-ishlab chiqarish majmualari undiruvchi sanoat asosida shakllanmoqda, bularga Sibir, Uzoq Sharq va Qozog'istonning ayrim sanoat rayonlari kiradi.

Xulosa qilib aytganda, sanoatni rayonlashtirishda, sanoat tugunlari alohida o'rin tutib, ular sanoat rayonlashtirilishining boshqa taksonomik birliklaridan uzviy ichki aloqalari va majmualiligi bilan ajralib turadi. Sanoat tugunlarining asosiy belgilari quyidagilardan iborat: hududiy-ishlab chiqarish kombinatsiyalarining majmualilik darajasi; o'zaro aloqador korxonalarining bir butunligi; infratuzilmasining umumiyliigi; aholi turar joylari tizimining umumiyliigi; korxonalar hududiy kompanovkasining (joylashuvining) iqtisodiy samaradorligi.

Sanoat tuguni bir yoki bir necha shahar («yo'ldoshlari» bilan birga) bazasida shakllanishi mumkin. Biroq bunda quyidagi sharoitlar albatta, hisobga olinadi. Har qanday variantda bo'lmasin, sanoat tuguni korxonalarining o'zaro chambarchas bog'liq, majmua uyg'unlashuvidan iborat bo'lishi kerak.

Sanoat tugunlarini tiplarga ajratish tajribasi **Sobiq ittifoqning** turli iqtisodiy rayonlari misolida bir qancha vaziyatlarni aks ettiradi. Bular-sanoat tugunlarining asosiy ishlab chiqarish yo'nalishi, ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi va strukturasi (turli xil elementlarning uyg'unlashuvi bo'yicha), ishlab chiqarishning «yetilganlik»

(rivojlanganlik) darajasi, ishlab chiqarishni shakllantirish sharoitlari va shartlari, ishlab chiqarish ko'lamini, ya'ni mahsulot ishlab chiqarish hajmi. Bu xususiyatlar kelgusidagi guruhlashlar uchun asos bo'ladi.

Sanoat tugunlari ishlab chiqarish yo'nalishiga ko'ra undiruvchi, ishlov beruvchi va aralash tiplarga bo'linadi. Undiruvchi sanoat tugunlari odatda tor doirada ixtisoslashgan bo'lib, nisbatan oddiy strukturaga ega bo'ladi. Ular ayni vaqtda hududining kattaligiga (uning chegaralari xom ashyo hamda yoqilg'i manbalarining qanday joylashganligiga bog'liq), transport va boshqa xil kommunikatsiyalarning uzunligiga, aholi manzilgohlarining katta-kichikligiga bog'liq. Korxonalarining joylashuvi ma'lum xom ashyo manbalariga, yoqilg'i va energiya bilan chambarchas bog'liq bo'lib, asosiy vazifa ishlab chiqariladigan joylar o'rtasidagi mavjud uzilishlarga barham beruvchi samarador kommunikatsiyalar yaratishdan iboratdir.

Ishlov beruvchi sanoat tugunlari bilan aralash tipdagi sanoat tugunlari (ular ham undiruvchi, ham ishlov beruvchi sanoat tugunlari xususiyatlarini o'zida birlashtiradi) har jihatdan ancha murakkabdir. Bu erda asosiy masala o'xshash korxonalarni ixcham joylashtirish va «blokirovka qilish», ya'ni bir-biriga bog'lashdan iborat, chunki shunda sanoat mahsulotini ishlab chiqarish xarajatlari qisqaradi.

Sanoat tugunlari bu tiplarining har biri ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi hamda strukturasi qarang bo'linadi. Masalan, undiruvchi sanoat tugunlari tog'-kon (shu jumladan, ko'mir, neft-gaz va hokazolar) va tog'-kon boyitish (temir rudasini boyitish, tog'-ximiya sanoati va hokazolar) sanoat tarmoqlaridan, ishlov beruvchi sanoat tugunlari esa-mashinasozlik, mashinasozlik-ximiya, ximiya va hokazolardan, aralash tipdagi tugunlar esa ko'mir-metallurgiya, neft-ximiya, o'rmon sanoati va boshqalardan iborat.

«Yetilganlik» (rivojlanganlik) darajasiga qarab quyidagi sanoat tugunlari ajratiladi:

- tarixan tarkib topib, industriyalashtirish yillarida tubdan rekonstruksiya qilingan tugunlar;
- industriyalashtirish yillari vujudga kelgan yangi sanoat tugunlari;
- shakllanayotgan sanoat tugunlari.

Ushbu sanoat tugunlarining har bir guruhi xom ashyo va (yoki) yoqilg'i-energetika resurslari, mehnat resurslari bilan ta'minlanganlik darajasi va (yoki) transport-geografik o'rnining qulayligi, umuman, tabiiy va mehnat resurslari asosida vujudga kelgan tugunlarni o'z ichiga oladi. Barcha sanoat tugunlari ishlab chiqaradigan mahsulotining hajmiga qarab juda katta, katta va boshqa xil kichikroq tugunlarga bo'linishi mumkin.

Sanoatni rayonlashtirishda sanoat markazi, sanoat punkti va sanoat korxonalari tushunchalarini ham esdan chiqarmaslik lozim. Sanoat markazi deganda bir-biri bilan faqat transport-geografik o'rni va umumiy infratuzilmadan birgalikda foydalanishi bilan bog'langan korxonalarining hududiy-ishlab chiqarish uyg'unlashuvini tushunmoq kerak. Boshqacha qilib aytganda, bunday majmualarning yadrosi (o'zagi) sanoatning kichik guruhlaridir.

Sanoat punkti-sanoatni rayonlashtirishning quyi bosqichidir. U alohida joylashgan korxonadan iborat. Sanoatni rayonlashtirish faqat ilmiy va ta'limiy emas,

balki o'zgartiruvchi ahamiyatga ham ega. Shu sababli unga sanoatning hududiy tashkil etilishini yanada takomillashtiruvchi vosita deb qarash lozim.

Sanoat korxonalari va tarmoqlari qator omillar ta'sirida joylashtiriladi va hududiy tashkil etiladi. Bu omillarning asosiylari xom ashyo, elektr energiya, transport, mehnat resurslari, iqtisodiy geografik o'rin va boshqalar hisoblanadi. Shu bilan birga, hozirgi davrda ilmiy-texnika, iste'mol, ekologiya, bozor iqtisodiyoti kabi omillarning ahamiyati ham oshib bormoqda. Umumiy jarayon shundan iboratki, sanoat ishlab chiqarishining xom ashyo, energiya va mehnattalabligi tobora kamayib bormoqda. Bu esa mazkur soha iqtisodiy samaradorligini oshirishning eng muhim omilidir. Ayni vaqtda sanoat tarmoqlarining ilmtalab, kam metal, xom ashyo va ishchi kuchi talab qiluvchi xususiyatlari kuchayib bormoqda. Mazkur qonuniyat O'zbekistonda sanoatni rayonlashtirish muammolarini hal qilishda ham foydalaniladi.

Sanoat ishlab chiqarishi geografiyasi tom ma'noda uning hududiy tarkibi va tuzilmasidir. Shuning uchun sanoat ishlab chiqarishning hududiy tashkil etilishini, rayon va shaharlar bo'yicha taqsimlanishini o'rganish muhimdir. Agar ob'ekt mamlakat bo'lsa, sanoatning hududiy tarkibi viloyatlar kesimida, agar u viloyat bo'lsa-tuman va shaharlar darajasida tahlil olib boriladi.

Sanoatning hududiy tizimi uning joylashtirilishi natijasidir. U tarmoqlar tarkibiga nisbatan biroz inert, beqaror va kam o'zgaruvchan, ammo tarmoqlar tizimidagi yangiliklar ertami kech hududiy, geografik siljishlarga olib keladi va aksincha.

Albatta bu erda statistik ma'lumotlar o'rganilib chiqiladi, maxsus jadval va xaritalar tuziladi, mintaqaviy iqtisodga oid har xil raqamlar, boshqa hudud va mamlakat (viloyat, rayon) ko'rsatkichlari bilan taqqoslanadi vashu asosda ichki iqtisodiy tafovutlar, sanoat tugunlari va markazlari aniqlanadi, sanoat geografiyasidagi qonuniyatlar ilmiy izohlab beriladi.

Hududiy tahlilda sanoatning urbanistik tarkibiga alohida e'tibor beriladi. Sababi-sanoatning hududiy tarkibi bu, eng avvalo, uning turli yiriklardagi shaharlarda mujassamlashuvi demakdir. Shuning uchun shaharlarning sanoati, ulardagi sanoat tarmog'ining turlanishi (diversifikatsiyasi), ixtisoslashuvi, iqtisodiy samaradorligi va boshqa masalalar o'rganiladi.

Har qanday geografik tadqiqotda bo'lganidek, sanoat geografiyasini o'rganish ham uni rayonlashtirish, sanoatda shakllangan ishlab chiqarish majmualari-sanoat tuguni va sanoat aglomeratsiyalarining tahlili bilan yakunlanadi. Bu yerda sanoat rayonlashtirilishi ikki yo'nalishda olib boriladi. Birinchisi-uning oddiy hududiy (ma'muriy) tarkibi bo'lsa, ikkinchisi sanoat tarmoqlari va ularning birikmalarini mavjud hududiy tashkil etilish shakllari bo'yicha rayonlashtirishdir. Albatta, ana shu ikkinchi yo'nalish haqiqiy, real rayonlashtirish hisoblanadi.

Industrial rayonlar ichida sanoat tugun va majmualari ajratiladi. Ular ko'proq shahar aglomeratsiyalariga hududiy jihatdan muvofiq keladi. Ammo, shu bilan birga, alohida shaharlar tarkibidagi sanoat tugunlarini ajratish ham muhimdir.

Aytish joizki, xorijiy mamlakatlardagi tadqiqotlarning yutug'i, ahamiyati va amaliyligi ham ana shunday mikroiqtisodiy tahlillarni olib borishidadir. Sanoat geografiyasida uning yirik markazlariga alohida ta'rif berish talab etiladi. Sir emaski, barcha shaharlar, eng avvalo, sanoat markazlaridir. Binobarin, ularni umuman sanoat

nuqtai nazaridan emas, balki muayyan sanoat tarmoqlari bo'yicha tavsiflash lozim. Masalan, Angren, Olmaliq, Marg'ilon, Namangan, Asaka va boshqa shaharlar sanoat markazi hisoblanadi. Biroq bunday baholash ilmiy talabni to'la qanoatlantirmaydi. Shuning uchun ularni muayyan sanoat tarmog'i bo'yicha ta'riflash ma'qul: Angrenni yoqilg'i (ko'mir), Asakani mashinasozlik (avtomobilsozlik) sanoatining markazi sifatida ko'rsatish to'g'riroqdir. Ana shunday geografik vaziyat maxsus iqtisodiy xaritada tasvirlansa, yanada yaxshiroq bo'ladi.

Sanoat rivojlanishi va joylanishini geografik o'rganish ushbu sohadagi mavjud muammolarni aniqlash va ularni ilmiy asoslash bilan to'ldiriladi. Bu sohadagi muammolar turlicha bo'lishi mumkin. Chunonchi, ular tabiiy hamda mehnat resurslaridan foydalanish, xorijiy sarmoyadorlar bilan qo'shma korxonalar barpo etish, erkin iqtisodiy mintaqalarni shakllantirish masalalaridan kelib chiqadi. Xususan, sanoat rivojlanishi va hududiy tashkil etilishidagi ekologik muammolar, o'sish qutbi va markazlarini aniqlash, ustuvor yo'nalish va tarmoqlarini belgilash, o'tish davrida sanoat joylashtirilishini davlat tomonidan tartibga solib borish, sanoat tarmoq tarkibini faollashtirish muammolari nihoyatda dolzarb hisoblanadi.

Bugungi kunda sanoatni rayonlashtirishda, Mamlakatimizda kechayotgan sanoat o'zgarishlari albatta e'tiborga olinishi lozim. Mamlakatimiz iqtisodiyotida yuz berayotgan jiddiy sifat o'zgarishlari alohida e'tiborga sazovordir. Yurtimizda qabul qilingan 2011-2015-yillarda sanoatni ustuvor darajada rivojlantirish dasturi va ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga doir tarmoq dasturlarining izchil amalga oshirilishi natijasida sanoat tarkibida yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan, raqobatdosh mahsulotlar tayyorlayotgan **qayta ishlash** tarmoqlarining o'rni tobora ortib bormoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlarining 78 foizdan ortig'i aynan ana shu tarmoqlar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

2013-yilda yuqori texnologiyalarga asoslangan mashinasozlik va metallni qayta ishlash sanoati 121 foizga, qurilish materiallari sanoati 113,6 foizga, yengil sanoat 113 foizga va oziq-ovqat sanoati 109 foizga o'sgani misolida buni yaqqol ko'rish mumkin.

Iqtisodiyotimizda yuz berayotgan jiddiy tarkibiy va sifat o'zgarishlarini birgina misolda, ya'ni 2000 yilda mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotini shakllantirishda sanoat ishlab chiqarishining ulushi bor-yo'g'i 14,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2015 yilda bu ko'rsatkich 33,5 foizga etganida yaqqol ko'rish mumkin. Hozirda 36 foizni tashkil etmoqda.

Sanoat mahsuloti umumiy o'sishining qariyb 70 foizini yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan tayyor mahsulot ishlab chiqarishga yo'naltirilgan sohalar tashkil etdi. Bugungi kunda iqtisodiyotimizning lokomotiviga aylangan mashinasozlik va metallni qayta ishlash yalpi sanoat ishlab chiqarishida (19,8 foiz), kimyo va neft-kimyo sanoati (5,4 foiz), oziq-ovqat sanoati (13,2 foiz), qurilish materiallari sanoati (6,4 foiz) tashkil etdi.

Sanoat taraqqiyoti ishlab chiqarish kuchlarining bir tomonlama rivojlanishiga xotima beradi, mamlakat va uning ajralmas qismi bo'lmish viloyatlarning tabiiy boyliklaridan, xomashyo va mehnat resurslaridan kengroq va har tomonlama foydalanish imkoniyatini yaratib beradi.

Sanoatning vujudga kelishi va rivojlanishi mehnat taqsimotining o'sishi, ishlab chiqarishni differensiyalash va intensivlashtirish bilan chambarchas bog'liq.

Hozirgi zamon yirik sanoati bir biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan ko'pgina tarmoqlar va ishlab chiqarishlardan tashkil topadi. Bugungi kunda respublika sanoatida 175 tarmoq, 1500 ga yaqin yirik va o'rta sanoat korxonolari mavjud.

O'zbekiston iqtisodiyotining ko'rsatkichlari ijobiy bo'lishining eng muhim sabablari – bu mavjud sanoat tarmoqlarining kerakli hajmda saqlab qolib, yangi tarmoqlarni yaratish strategiyasi bo'ldi. Mustaqillikning birinchi yillaridanoq O'zbekiston hukumati uchun real sektorni rivojlantirish ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib hisoblanadi. Respublikamizning o'z-o'zini yoqilg'i-energetika mahsulotlari bilan ta'minlash siyosati (neft va neft mahsulotlari hamda gaz ishlab chiqarishning keskin o'sishi), qo'shimcha qiymat yaratuvchi (mashinasozlik, yog'och va yog'ochni qayta ishlash) sohalarining intensiv rivojlanishi bilan birgalikda olib borildi. SHu bilan birga, qurilish materiallari, engil va oziq-ovqat sanoatlarining rivoji ham qayd etildi.

Umuman olganda, tarmoqlar bo'yicha ishlab chiqarish tarkibida og'ir sanoat (yonilg'i-energetika majmuasi, mashinasozlik, metallurgiya) salmog'ining oshishi engil sanoat ulushi hisobiga bo'lmoqda. Natijada, mustaqil iqtisodga xos bo'lgan darajaga yaqinlashish yuz bermoqda va sobiq ittifoq mamlakatlarida qayta ixtisoslashuvdan paydo bo'layotgan yetishmovchilik va tobelikning oldini olish ta'minlanmoqda. Ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash va qo'shimcha qiymat yaratuvchi sanoat tarmoqlarini rivojlantirishga qaratilgan iqtisodiy strategiya respublikaga yaxshi natijalar keltirmoqda. O'zbekiston o'zining oltini, paxta tolasi va ipagi, nefti va gazi, samolyot va avtomobillari, paxta terish mashinasi va paxtani qayta ishlash mashinalari bilan, ekskavator va kompressorlari, vino va konservalari hamda bir qator boshqa sanoat mahsulotlari bilan dunyoga mashhurdir.

O'zbekiston respublikasining industrial qiyofasini energetika, kon-ruda, oltin qazib oluvchi, samolyotsozlik va avtomobilsozlik sanoatlari, elektrotexnika va elektron sanoatlari, ko'p tarmoqli mashinasozlik va qurilish materiallari sanoati belgilab bermoqda. Mustaqillikning 28 yilida sanoat mahsulotining hajmi bir necha martaga ko'paydi. Bu davrda faqat miqdoriy o'zgarishlargina emas, balki juda katta sifat o'zgarishlari ham sodir bo'ldi. Mamlakatimiz iqtisodiyotini tarkibiy o'zgartirish, tarmoqlarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga doir loyihalarni amalga oshirish uchun investitsiyalarni jalb qilish borasida bajarilayotgan ishlar alohida e'tiborga loyiq.

2015-yilda ana shu maqsadlarga barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan 15 milliard 800 million AQSH dollari miqdorida investitsiyalar jalb etildi va o'zlashtirildi. Bu 2014-yilga nisbatan 9,5 foiz ko'p demakdir. Jami investitsiyalarning 3 milliard 300 million dollardan ziyodi yoki 21 foizdan ortig'i xorijiy investitsiyalar bo'lib, shuning 73 foizi to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalaridir. Investitsiyalarning 67,1 foizi yangi ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etishga yo'naltirildi. Bu esa 2015-yilda umumiy qiymati 7 milliard 400 million dollar bo'lgan 158 ta yirik ishlab chiqarish ob'ekti qurilishini yakunlash va foydalanishga topshirish imkonini berdi.

Masalan, Toshkent issiqlik elektr stansiyasida 370 megavat quvvatga ega bo'lgan bug'-gaz qurilmasi barpo etildi. CHorvoq GES gidrogeneratorlari modernizatsiya qilindi, Qo'ng'iroq soda zavodida kalsiylashtirilgan soda ishlab chiqarish kengaytirildi, «Samarqandkimyo» aksiyadorlik jamiyatida 240 ming tonna

quvvatga ega bo'lgan murakkab tarkibli yangi o'g'itlar ishlab chiqarish korxonasi ishga tushirildi. Shuningdek, «Motor zavodi» aksiyadorlik jamiyatining faoliyat ko'rsatmayotgan ishlab chiqarish maydonlarida traktor tirkamalari, jumladan, katta hajmli tirkamalar, maishiy texnika uchun tarkibiy qismlar va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarish tashkil etildi.

Ana shunday muhim ob'ektlar haqida gapirganda, janubiy koreyalik investor va mutaxassislar bilan hamkorlikda Surg'il koni negizida Ustyurt gaz-kimyo majmuasi barpo etildi. Umumiy qiymati 4 milliard dollardan oshadigan ushbu majmua dunyodagi eng zamonaviy, yuqori texnologiyalar asosida ishlaydigan, yirik korxonalardan biri bo'ldi. Majmuaning ishga tushirilishi yiliga 83 ming tonna noyob polipropilen mahsulotini ishlab chiqarish imkonini beradi. Holbuki, bu mahsulot ilgari mamlakatimizga chetdan, katta valyuta hisobiga olib kelinar edi. Ayni vaqtda mazkur korxonada polietilen ishlab chiqarish hajmini 3,1 barobar ko'paytirish, mingdan ziyod yuqori malakali mutaxassislarni ish bilan ta'minlash uchun imkoniyat yaratishi bilan ulkan ahamiyatga egadir.

Xorazm viloyatida «Jeneral motors-O'zbekiston» aksiyadorlik jamiyatida umumiy qiymati qariyb 6 million dollarlik loyiha asosida «Shevrole Labo» kichik yuk mashinasi ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Bu erda yiliga fermerlarimiz va xususiy tadbirkorlarimiz uchun juda zarur bo'lgan 5 mingta ana shunday mashina ishlab chiqariladi. Shuni ta'kidlash joizki, ushbu model yangi «Xorazm avto» zavodida tayyorlanayotgan «Damas» va «Orlando» avtomobillaridan keyingi uchinchi turdagi avtomobil bo'ldi. Namangan viloyatining Pop tumanida 130 kilovat quvvatga ega bo'lgan quyosh fotoelektr stansiyasi ishga tushirildi. 2020-yilga borib mamlakatimizda har biri 100 megavat quvvatga ega yana uchta quyosh elektr stansiyasini foydalanishga topshirish rejalashtirilgan. Bugungi kunda YAIM da sanoat hissasi 36 foizni tashkil etmoqda.

Keyingi yillarda yalpi ichki mahsulot 7,8 foizga, sanoat mahsuloti hajmlari-6,6 o'sganligi qayd etib o'tilgan. Iqtisodiyotga 16,6 milliard AQSH dollari miqdorida investitsiyalar yo'naltirildi. O'zlashtirilgan xorijiy investitsiyalar va kreditlar hajmi 11,3 foizga o'sdi va 3,7 milliard dollardan oshib ketdi. Umumiy qiymati 5,2 milliard dollar bo'lgan 164 ta yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish yakunlandi. Shu jumladan, «JM O'zbekiston» aksiyadorlik jamiyatida «T-250» modeldagi engil avtomobillarni ishlab chiqarish o'zlashtirildi, Jizzax viloyatida sement zavodi kengaytirildi, Tolimarjon issiqlik energiya stansiyasida quvvati 900 MVt bo'lgan bug'-gaz qurilmalari hamda Angren issiqlik energiya stansiyasida quvvati 150 MVt bo'lgan yuqori kulli ko'mirni yoquvchi energiya bloki ishga tushirildi.

Modul bo'yicha xulosa o'rnida qaraydigan bo'lsak, 2019 yil energetika, neft-gaz tarmoqlarida chuqur tarkibiy islohotlar boshlanganligi, sanoatning 12 ta etakchi tarmog'ida modernizatsiyalash va raqobatdoshlikni kuchaytirish dasturlari jadal amalga oshirilganligi ko'rsatilgan. Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 6,6 foizga etganligi, 2020 yilda 23 milliard dollarlik investitsiyalar o'zlashtirilishi hamda 206 ta yangi yirik quvvatlar ishga tushirilishi ko'rsatilgan. Jumladan, Sho'rtan gaz-kimyo majmuasida sintetik suyuq yoqilg'i, «Navoiyazot» aksiyadorlik jamiyatida azot kislotasi, ammiak va karbamid ishlab chiqarish quvvatlari barpo etilishi, Yangi Toshkent metallurgiya zavodi ishga tushirilishi belgilangan.

Navoiy va Olmaliq tog'-kon metallurgiya kombinatlari kabi yirik sanoat korxonalarida yangi investitsion loyihalarni amalga oshirish bilan birga, ushbu korxonalarni xalqaro moliya bozorining to'laqonli ishtirokchisiga aylantirish lozimligi, buning uchun 2020 yilda xalqaro standartlar asosida moliyaviy hisobotlarni tuzish, zaxiralarni qayta hisoblash, korporativ oshkoralikni tatbiq etish kabi ishlarni yakunlash belgilangan.

Neft-gaz sohasidagi davlat korxonalarini boshqarishga xorijiy ekspertlarni jalb etib, ularning samaradorligini oshirish va xarajatlarini optimallashtirish, qarz miqdorini kamaytirishga erishish lozimligi ko'rsatilgan. 2020 yil sanoat tarmoqlarini uzluksiz xomashyo va zamonaviy infratuzilma bilan ta'minlash zarurligi, iqtisodiyotning qator muhim tarmoqlari, jumladan, kimyo, neft va gaz, energetika, elektrotexnika, qurilish materiallari, zargarlik sanoatini xomashyo bilan ta'minlash uchun, avvalo, geologiya-qidiruv sohasini tubdan rivojlantirish lozimligi aytilgan. Shuni hisobga olib, 2020 yilda istiqbolli konlarni aniqlash va mavjud zaxiralarni ko'paytirish uchun byudjetdan 2 trillion so'm mablag' ajratilishi aytilgan⁹.

4-MODUL. QISHLOQ XO'JALIGI TARMOQLARI GEOGRAFIYASI

4.1. Qishloq xo'jaligini rivojlantirish asoslari

Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi inson xo'jalik faoliyatining ilk va eng qadimgi shakllaridan biri hisoblanadi. Jahon bo'yicha hozirgi paytda, taxminan, 1,4 mlrd. kishi qishloq xo'jaligi sohasida band. Bizga ma'lumki, qishloq xo'jaligi-moddiy ishlab chiqarishning asosiy tarmoqlaridan biri bo'lib, aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan va sanoatni (yengil va oziq-ovqat sanoatlarini) xom ashyo bilan ta'minlaydi. Sanoatdan farq qilib, qishloq xo'jaligi bir qancha o'ziga xos xususiyatlarga ega:

-birinchidan, u relief, iqlim va tuproq sharoiti turlicha bo'lgan maydonlarda olib boriladi;

-ikkinchidan, qishloq xo'jaligi mavsumiydir;

-uchinchidan, tabiiy sharoit qishloq xo'jaligining rivojlanishiga, joylashishiga va ixtisoslashuviga juda katta ta'sir qiladi.

Biroq qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi o'sayotgan bo'lsada, aholining ma'lum qismi hatto o'nlab, ayrim hollarda yuz millionlab aholi to'yib ovqat emaydi. Bularga rivojlanayotgan mamlakatlar va iqtisodiy jihatdan kam ta'minlangan mamlakatlarning aholisi kiradi. Shunga bog'liq holda oziq-ovqat bilan ta'minlanishning o'sish darajasini aholi o'sish darajasiga nisbatan (2 %) emas, balki 3,5–4 % ga etkazish zarur.

Biz bilamizki, yer inson uchun har jihatdan eng ahamiyatli tabiiy resurs hisoblanadi, chunki aholining kundalik hayotiy ehtiyojlari vositalarining deyarli hammasi yerdan undirib olinadi. Hozirgi vaqtda jahon yer fondining umumiy hajmi

⁹O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning Oliy majlisga murojaatnomasi. "O'zbekiston ovozi"-gazetasi. №08. 2020-yil, 25-yanvar.

13,4 mlrd. gektarga teng. Insoniyat uchun eng katta iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan qishloq xo'jaligida foydalanadigan yerlar jahon umumiy yer fondining 34 % ini tashkil qiladi. Jumladan, ishlov beriladigan yerlar ulushi 11 % ga, yaylovlarniki esa 23 % ga teng. Ishlov beriladigan yerlar dunyoda yetishtirilayotgan oziq-ovqat mahsulotlarning 88 % ini, yaylovlar esa 10 % ini yetkazib bermoqda. Demak, yer resurslarining eng qimmatli qismi ishlov beriladigan (ekin ekiladigan) maydonlardir. Yer fondi tarkibiga, shu bilan birga, o'rmonlar (30 %), aholi punktlari va muhandislik inshootlari bilan band bo'lgan texnogen yerlar (3 %) hamda kam foydalaniladigan yoki unumsiz yerlar (33 %) kiradi.

Dehqonchilikda foydalaniladigan yerlarning eng katta maydonlari AQSH, Hindiston, Rossiya, Xitoy, Kanada, Braziliya, Qozog'iston va Ukrainaga to'g'ri keladi. XX asr davomida ishlov beriladigan maydonlar hajmi dunyo bo'yicha ikki baravar kengaytirildi. Qo'riq yerlarni o'zlashtirish, botqoqli va zaxkash yerlarni ishga solish, cho'llarga suv chiqarish yo'li bilan ekin maydonlarini kengaytirish ishlari, ayniqsa, AQSH, Kanada, Avstraliya, Rossiya, Qozog'iston, Xitoy, Braziliyada keng ko'lamda olib borildi.

Er shari iqtisodiy faol aholisining 60 % dan ortigi qishloq xo'jaligida band, agar qishloq xo'jaligiga yordam beruvchi yosh va keksalarni hisobga olsak, unda jahon aholisining 2\3 qismi qishloq xo'jaligida mashgul. Hozirgi vaqtda ham Afrika va Osiyoning ko'pgina davlatlarida aholining 70%dan ortigi qishloq xo'jaligida band. Ayrim davlatlarda, masalan, Burkina-Fasoda (G'arbiy Afrika) bu ko'rsatgich 95%ni tashkil etadi.

Sanoatlashgan va iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda qishloq xo'jaligida band aholi kamayib bormoqda. AQShda hozirgi vaqtda qishloq xo'jaligida 5% aholi band, Buyuk Britaniyada esa 2%dan kamroq aholi qishloq xo'jaligida ishlaydi.

Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining geografik joylashishiga asosiy ta'sir ko'rsatuvchi u yoki bu davlatning ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari hisoblanadi. Shuningdek, qishloq xo'jaligining joylashishiga tabiiy sharoit katta ta'sir ko'rsatadi. Uning rivojlanishi uchun yorug'lik, issiqlik, namlik va tuproqda ozuqa moddalari bo'lishi zarur. Qulay agroiklim, suv, tuproq resurslari quruqlikning hamma joyida ham uchramaydi. Tuproq, masalan, bir turdagi qishloq xo'jalik ekini uchun qulay bo'lsa, boshqasi uchun esa noqulay bo'lishi mumkin.

Qutbiy mintaqalar qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi uchun unchalik qulay emas. Subtropik va tropiklarda esa issiqlik va yorug'lik ko'p bo'lsada namlik, dengiz iqlimiga xos mamlakatlar, ya'ni mo'tadil mintaqalar joylashgan mamlakatlarda namlik etarli, ammo issiqlik etishmaydi.

Qutbiy mintaqalardagi juda ko'p joylar qor bilan qoplanib yotganligi uchun hozircha xo'jalikda foydalanilmaydi. Bu o'lkalarning janubida va shimolida bug'uchilik rivojlangan. Mo'tadil mintaqaning igna bargli o'rmonlarida ham qishloq xo'jaligini yuritish chegaralangan. Faqat ushbu o'rmonlarning janubiy qismining ochiq erlarida bir oz dehqonchilik qilinadi, ammo yoz (issiq) mavsumining qisqaligi dehqonchilikni rivojlantirishni cheklab qo'yadi. Umuman, o'rmon zonasining (tayga, aralash va keng bargli o'rmonlar) asosiy xususiyati yog'ingarchilikning ko'pligi, yozgi haroratning nisbatan pastligidir. Shu sababli, bu yerlarda dehqonchilikning ayrim tarmoqlari rivojlangan (zig'irchilik, kartoshkachilik, oziq o'simliklari va

pichanbop o'simliklar etishtirish). Ammo tuproqlari unumdor, o'simliklar asosiy oziqni tuproqdan oladi.

Jahon bo'yicha o'rmon-dasht, dasht, chala cho'l va cho'l (vohalarda) zonalarini asosiy ekin ekiladigan erlar hisoblanadi. O'rmon-dasht va dasht zonasida eng hosildor bo'lgan qora tuproqlar tarqalgan, shuning uchun ushbu zona yuqori o'zlashtirilgan hudud hisoblanadi. Chala cho'l va cho'l zonalarida sug'orma dehqonchilik rivojlangan. Bu yerlarda musbat haroratlar yig'indisi yuqori bo'lgani uchun issiqsevar ekinlar ko'proq etishtiriladi.

Dunyo er fondining umumiy maydoni—134 mln.km² (13,4 mlr.ga) bo'lib uning asosiy qismi Afrika, MDH, Xorijiy Osiyo, Shimoliy va Janubiy Amerikada joylashgan. Jon boshiga oladigan bo'lsak, aholisi nisbatan kam bo'lgan Avstraliya birinchi, aholisi eng ko'p bo'lgan Xorijiy Osiyo esa oxirgi o'rinni egallagan.

Dunyo er fondining asosiy muammolaridan biri tuproq hosildorligining kamayishi, tuproq eroziyasi, uning ifloslanishi, tabiiy o'tloqlar biologik hosildorligining yo'qolishi, sugoriladigan maydonlarning sho'rlanishi va botqoqlanishi, erlarning, turar joy, sanoat korxonalarini va transport tizimlari qurishga berilishi va h.k.lar hisoblanadi. Ba'zi hisob-kitoblarga qaraganda insoniyat hozirgacha 2 mlrd. gektar hosildor erlarni yo'qotib bo'ldi. Birgina eroziya natijasida dunyo bo'yicha har yili qishloq xo'jaligida foydalaniladigan erlardan 6-7 mln. gektari oborotdan (ishlab chiqarishdan) chiqib ketadi.

Sho'rlanish va botqoqlanish natijasida 1,5 mln gektar er ishdan chiqadi. Bu noxush ko'rinishlarning yaqqol natijasi aholi jon boshiga to'g'ri keladigan, ishlov beriladigan erlar keskin kamayib ketayotganligidir. Ko'pgina mamlakatlarda er fondini saqlab qolishga va uning tizimini yaxshilashga harakat qilinyapti. Bu masala mintaqaviy va dunyo miqyosida BMTning maxsus tashkilotlari: YuNESKO (BMTning maorif, fan va madaniyat ishlari bo'yicha tashkiloti), FAO (BMTning oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi masalalari bo'yicha tashkiloti) tomonidan nazoratga olingan.

Haqiqatdan ham, tabiiy sharoit qanday bo'lishidan qat'iy nazar, qishloq xo'jaligining rivojlanish darajasi sarf qilingan mehnatning miqdori va sifatiga, texnika va o'g'itlardan foydalanish darajasiga bog'liq. Ushbu ko'rsatkichga qarab, qishloq xo'jaligi ekstensiv va intensiv xo'jalikka bo'linadi.

Qishloq xo'jalik mahsulotlarini ekin maydonlarini kengaytirish va chorva mollari sonini oshirish hisobiga etishtirish **ekstensiv** xo'jalik deb ataladi.

Insoniyat tarixining juda katta davri mobaynida qishloq xo'jaligi asosan ekstensiv yo'l bilan rivojlandi. Yangi yerlar ko'pincha o'rmonlar hisobiga kengaytirilgan. Hozirgi davrda ham juda ko'p rivojlanayotgan davlatlarda qishloq xo'jaligi ekstensiv yo'l bilan rivojlanmoqda.

Maydon birligida (1 ga ekin maydonidan) agrotexnika vositalaridan ko'proq foydalanish yoki chorva mollarining ko'proq mahsuldor zotlarini yaratish hisobiga qishloq xo'jalik mahsulotlari etishtirish **intensiv** xo'jalik deb ataladi.

Intensiv xo'jalik rivojlangan davlatlar uchun xos bo'lib, qishloq xo'jaligida sodir bo'lgan «Yashil inqilob» ga asoslanadi. Ushbu davlatlarda asosan tovar qishloq xo'jaligi rivojlangan. Chunki bu davlatlarda qishloq xo'jaligida barcha qo'l mehnatini asosan mashinalar bajaradi. Yuqori sifatli mineral o'g'itlardan

foydalaniladi, zararkunandalarga qarshi zaharli kimyoviy dorilardan, chorva mollari kasalliklariga qarshi kurash vositalaridan keng foydalaniladi.

Mexanizatsiyalashtirish, elektrlashtirish va kimyolashtirish qishloq xo'jaligini yanada rivojlantirish va jadallashtirishning asosiy yo'lidir.

Yer qishloq xo'jaligida mehnat majmui va ayni paytda mehnat vositasi bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun yerdan to'g'ri foydalanish va uning hosildorligini saqlash qishloq xo'jaligining muhim vazifalaridan biridir.

Intensiv xo'jalikni barpo qilish uchun erlarni melioratsiya qilish, ya'ni yer holatini yaxshilash ishlarini (sug'orish, zax va botqoqlarni quritish, tuproqqa ohak solish, daraxt o'tkizish va h.k.) olib borish kerak. Bunda kompleks melioratsiya tadbirlari yaxshi natija beradi (shamol va suv eroziyasiga qarshi kurash, tuproq hosildorligini oshirish).

Qishloq xo'jaligida foydalaniladigan erlar qishloq xo'jalik erlari deb ataladi. Qishloq xo'jalik erlari quyidagi tarkibiy qismlardan iborat: xaydaladigan erlar (sug'oriladigan va lalmikor erlar); bog' va uzumzorlar; pichanzorlar va yaylovlar; o'rmonlar, butazorlar va h.k.

Jahonda sug'oriladigan erlar haydaladigan (shudgor qilinadigan) erlarning 15 foizi (230 mln ga) ni tashkil qiladi. Bu ko'rsatkich Xitoyda 30 foiz, Hindistonda 28 foiz, AQSHda 15 foiz, Pokistonda 70 foizni tashkil qiladi.

Qishloq xo'jaligi ikkita katta tarmoqdan iborat: dehqonchilik va chorvachilik. Qishloq xo'jaligi xodimlarining asosiy vazifasi xo'jalik yuritishni jadallashtirish yo'li bilan ekinlar hosildorligini va chorvachilik mahsuldorligini oshirishdir.

O'zbekiston Respublikasining umumiy er maydoni 44890,0 ming gektarni (44,4 mln gektarni tashkil etadi) tashkil etadi. Ana shundan 60 foizdan ko'prog'i qishloq xo'jaligiga tegishli maydonlardir. Qishloq xo'jaligi tasarrufidagi erlarning 3691,5 ming gektari, 10 foizga yaqini haydab ekin ekiladigan erlar, qolgan erlar pichanzor va yaylovlardan iborat. Yaylovlar 22,8 mln. gektarga teng. Bu cho'l yaylovlari sur-qo'ng'ir, qum va qumli tuproqlardan iborat. Bu erlarning taxminan yarmi sug'orilshga yaroqli erlardir. Respublikamizda qishloq xo'jaligiga ajratilgan er maydoni jami 20 473,5 ming gektar, shundan 15 590,7 ming gektari qishloq xo'jaligiga qarashli erlar, 616, 2 ming gektari dehqon va fermer xo'jaliklari erlari, 4 266,6 ming gektari boshqa erlar (qo'riqxonalar, o'rmon xo'jaliklari erlari).

Yaqin o'tmishda mamlakat qishloq xo'jaligi bir tomonlama rivojlantirilgan, "O'zbekiston-mamlakatning asosiy paxta bazasi" shiori amalda edi. Respublikamiz mustaqilligining dastlabki yilidanoq, paxta yakka-hokimligini bartaraf etishga kirishildi va "g'alla mustaqilligi"ni taminlash maqsadida dastur ishlab chiqildi.

Paxta yakkahokimligiga barham berilib, don va boshqa ozuqa ekinlari maydonlari kengaytirildi. 2005 yilda 1,5 mln. ga maydonga boshqoli don ekinlari ekildi. 6,4 mln. t. boshqoli don, jumladan, 5,9 mln. tonnadan ko'proq bug'doy hosili yig'ib olindi. 2012 yil qishloq xo'jalik ekin maydonlari tarkibi quyidagicha: don ekinlari-44,9%, texnik ekinlar-37,8%, sabzavot-poliz ekinlari va kartoshka-8,6%, em-xashak ekinlari-8,7%. Ekinlar tarkibi o'zgardi.

O'zbekistonda mustaqillik yillarida agrar sertorni isloh qilish sohasida bir qator ijobiy natijalarga erishildi. Tarmoqda mulkni davlat tasarrufidan chiqarishga va xususiy lashtirishga alohida e'tibor qaratildi. Islohotlarning birinchi bosqichida (1991-

1997 yillar) 1006 ta davlat xo'jaliklari tugatilib, ular negizida jamoa xo'jaliklari tashkil etildi. Chorvachilik fermalari, bog' va tokzorlar, kichik er maydonlari hamda issiqxonalar xususiylashtirildi.

Agrar islohotlarning 1998 yildan boshlangan ikkinchi bosqichida Oliy Majlisning IX sessiyasida (1998 yil 28-30 aprel) O'zbekiston Respublikasining "Er kodeksi to'g'risida"gi, "Qishloq xo'jaligi kooperativlari (shirkat xo'jaliklari) to'g'risida"gi, "Fermer xo'jaliklari to'g'risida"gi, "Dehqon xo'jaliklari to'g'risida"gi Qonunlar qabul qilindi. Bunday huquqiy bazaning yaratilishi iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishga zamin yaratdi.

Islohotlarning uchinchi bosqichi 2000 yildan boshlandi. Bu bosqichda birinchi navbatda past pentabelli va zarar ko'rib ishlayotgan korxonalarni fermer xo'jaliklariga aylantirish asosida qayta tashki etish mexanizmining joriy etilishi, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilarga xizmat ko'rsatuvchi zamonaviy infratuzilma tizimining barpo etilishi bilan tavsiflanadi. Faqat 2000-2003 yillarda 336 ta, shu jumladan 11 ta tumanda shirkat xo'jaliklari to'liq tugatilib, ular negizida 20 mingdan ortiq fermer xo'jaliklari tashkil etildi.

Ushbu chora-tadbirlarning natijasi o'laroq, 2004 yilda O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan fermer xo'jaliklari soni 104 mingga yaqinlashdi (2003 yilda 87,5 ming edi), ularga birlashtirilgan er maydoni 2935,3 ming gektarni tashkil etib (2003 yilda 2148,1 ming ga), bir fermerga to'g'ri keladigan er maydoni 28,2 gektarga etdi.

Ayni vaqtda dehqon xo'jaliklarining umumiy soni 4,5 mln. taga, ularga birlashtirilgan er maydoni esa 682,5 ming gektarga etdi. Bugungi kunda yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotining 59,7 foizi dehqon xo'jaliklari, 20,4 foizi fermer xo'jaliklari, 19,9 foizi qishloq xo'jaligi korxonalari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Qishloq xo'jaligining moddiy-texnika ta'minotini yaxshilash maqsadida yangi texnika, o'g'it, yoqilg'i va moylash materiallari etqazib berishni yaxshilash bo'yicha davlat dasturi ishlab chiqilgan va u bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Jumladan, chet ellardan (AQSh, Germaniya) yuqori mehnat unumdorligiga ega bo'lgan paxta teradigan, g'alla o'radigan (Keys) kombaynlari keltirildi. Ularning ayrim turlari va ehtiyot qismlarini o'zimizda ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

O'tkazilayotgan iqtisodiy islohotlardan ko'zda tutilgan bosh maqsad qishloqda haqiqiy mulkdorlar sinfini, er va mahsulotning haqiqiy egalarini shakllantirishdir. Qishloq joylarda tadbirkorlikni rivojlantirish orqali qishloq xo'jalik korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish asosiy masalalardan hisoblanadi.

Ilg'or mamlakatlar tajribasiga ko'ra, qishloq xo'jaligining yuqori darajada rivojlanishi avvalo sanoat rivoji bilan bog'liqdir. Ma'lumki, AQSh hamda Evropaning bir qator rivojlangan mamlakatlarida aholining 4-5 foizini tashkil etadigan, zamonaviy texnika va texnologiyaga ega bo'lgan fermer xo'jaliklari o'z xalqini qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan to'liq taminlab qolmasdan ularning bir qismini eksportga ham chiqaradilar.

Hozirgi vaqtda respublikamiz xalq xo'jaligida ish bilan band bo'lgan 3,8 mln. aholining salkam yarmi hamon qishloq xo'jaligi sohasida mehnat qilmoqda. Kelajakda ana shu ortiqcha mehnat resurslarini sanoatga, xizmat ko'rsatish sohasiga jalb etish iqtisodiy siyosatning muhim yo'nalishi bo'lib qolishi lozim.

Qishloq xo'jalik yuritishning yangi tashkiliy shakllari:

-qishloq xo'jalik korxonalarini-tasarrufida xo'jalik maqsadlarida foydalana oladigan er bo'lgan, zirotchilik, chorvachilik huquqiga ega bo'lgan korxonalar;

-Fermer xo'jaligi-uzoq muddat (30-50 yil) ga ijaraga olingan erda qishloq xo'jalik xomashyosi ishlab chiqaruvchi yuridik huquqqa ega tovar xo'jaligi;

-dehqon xo'jaligi-nasldan-naslga o'tuvchi shaxsiy hovli joyida qishloq xo'jalik mahsuloti etishtirish va sotish huquqiga ega oilaviy mehnatga asoslangan xo'jalik.

Respublikamizda qishloq xo'jalik ishlab chiqarish faoliyatini yanada takomillashtirish asosida, bugungi kunda hayotimizga klaster asosida ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish kirib keldi. Yuqorida aytib o'tilganidek, klasterlarni ma'lum bir xususiyatlarga ega bo'lgan va mustaqil birlik sifatida qarab chiqilishi mumkin bir nechta bir turli elementlarning yig'indisi yoki birikishi sifatida talqin qilish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil, 25 yanvardagi qaroriga muvofiq, respublika hududlarida 16 ta paxta-to'qimachilik klasteri tashkil qilinib, qariyb 159 ming gektardan ortiq ekin maydoni birlashtirilgan. 2019 yilda respublika bo'yicha klaster usulida paxta etishtirishni kamida 52 foizga etkazish uchun 48 ta paxta-to'qimachilik klasterlari tashkil etilishi rejalashtirilgan.

Masalan, mamlakatimizda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlashni tashkil etish asosida raqobatbardosh tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish, shuningdek mazkur sohada unumdorlikni oshirishga qaratilgan islohotlar izchillik bilan amalga oshirilmoqda. Bu borada, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 15 sentyabrdagi "Sirdaryo viloyatida zamonaviy paxtachilik-to'qimachilik klasterini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-3279-sonli Qarorining qabul qilinishi muhim o'rin tutdi. Mazkur qarorga asosan paxta xomashyosini etishtirish va qishloq xo'jaligi mahsulotlarining boshqa turlarini ishlab chiqarish, ularni chuqur qayta ishlash va tijorat banklari investitsiyalari hamda kreditlarini, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish hisobiga raqobatbardosh tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish bo'yicha zamonaviy klaster "**Bek cluster**" ma'suliyati cheklangan jamiyat shaklidagi qo'shma korxonalar tashkil etildi.

"Bek cluster" MChJ QK tarkibiga quyidagi tashkilotlar kiritildi:

1. Paxta xomashyosi va boshqa qishloq xo'jaligi ekinlarini etishtirish bo'yicha qishloq xo'jaligi tashkilotlari;
2. Paxta xomashyosini qayta ishlash bo'yicha tashkilot;
3. Yog'-moy mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha tashkilot;
4. To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha tashkilot;
5. Tuxum, go'sht va sut ishlab chiqarish hamda qayta ishlash bo'yicha tashkilot (chorvachilik va parrandachilik majmuasi);
6. Sabzavotlar etishtirish bo'yicha tashkilot (zamonaviy issiqxona majmuasi);
7. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash bo'yicha tashkilot.

Bunday ma'suliyati cheklangan jamiyat barcha viloyatlarda shakllantirilib borilmoqda.

4.2. Dehqonchilik tarmog'i

Dehqonchilik-qishloq xo'jaligining ekinlar etishtirish bilan shug'ullanadigan muhim tarmog'i. Dehqonchilikka don xo'jaligi, texnik ekinlar va kartoshka

etishtirish, sabzavotchilik, polizchilik, bog'dorchilik va uzumchilik kiradi. Don xo'jaligi aholini don bilan, chorvachilikni esa ozuqa bilan ta'minlaydi. Don ekinlariga bug'doy, javdar, makkajo'xori, suli, arpa, grechka, sholi va dukkakli don ekinlari kiradi. Bug'doy jahon aholisining deyarli yarmi uchun asosiy oziq manbai bo'lib hisoblanadi va don ekinlarining 28 foizini tashkil qiladi. Bug'doy pastroq haroratda o'sa boshlaydi, «qora» sovuqqa birmuncha chidamli, o'sish davri qisqa. Qurg'oqchilikka chidamli emas, ammo erta o'sa boshlagani va etilish davri qisqa bo'lgani uchun yoz quruq va issiq bo'ladigan rayonlarda ham etishtiriladi.

Bug'doy 70 dan ortiq mamlakatda etishtiriladi, ammo uning 80 foizi asosan quyidagi davlatlarda etishtiriladi: Xitoy, AQSH, Kanada, Argentina, Avstraliya, Hindiston, Rossiya. Eng yirik bug'doy ekiladigan mintaqalar AQSH va Kanada dashtlaridir.

Makkajo'xori ham don, ham oziq sifatida etishtiriladi. Ertapishar o'simlik, 10-12° haroratda o'sa boshlaydi, sovuqqa chidamsiz, sug'orilsa juda yuqori hosil beradi. Jahonda etishtiriladigan donli ekinlarning 25 foizini tashkil qiladi. Makkajo'xori etishtirish bo'yicha AQSH dunyoda birinchi o'rinda turadi. Jahon bozoriga etishtirilgan maxsulotning 10-15 foizi chiqariladi. Makkajo'xori eksport qiladigan davlatlar: AQSH, Kanada, Argentina, Avstraliya, Fransiya. Import qiladigan davlatlar: G'arbiy Yevropa davlatlari, Yaponiya, Rossiya.

Sholi ham insoniyatning yarmi uchun asosiy oziq manbai bo'lib hisoblanadi va jahonda etishtiriladigan don ekinlarida uning salmog'i 25 foizni tashkil qiladi. Suvni ko'p talab qiladi, 12-15° haroratda o'sa boshlaydi, tropik kengliklarda ko'proq ekiladi. Shu sababli, sholining 90 foizi Janubiy va Janubi-SHarqiy hamda Sharqiy Osiyo davlatlarida etishtiriladi. Jahonda etishtiriladigan sholining 38 foizi Xitoyda, 20 foizi Hindistonda ekiladi. Bundan tashqari, Yaponiya, Indoneziya, Bangladesh, Tailand, Filippin davlatlarida ham asosiy don ekini hisoblanadi.

Javdar hozirgi paytda kamroq ekiladi, u sovuqqa, qurg'oqchilikka chidamli, past haroratda o'sa boshlaydi, tez pishadi. Shimoliy o'lkalarda ko'proq ekiladi.

Suli va arpa erta pishadi. Arpa past haroratda o'sa boshlaydi, «qora» sovuqqa chidamli, tez pishadi. Suli ham past haroratda rivojlana boshlaydi, ammo o'sish davri uzoqroq, qurg'oqchilikka chidamsiz. Nordon tuproqlarda ham o'sadi. Shimoliy o'lkalarda arpa sulidan ko'proq ekiladi, chunki «qora» sovuqqa chidamli va tezpishar bo'lganligi uchun qisqa yoz sharoitida pishib etiladi. Arpa shuningdek tog'larda ham ko'p ekiladi.

Tariq birmuncha yuqori haroratda rivojlana boshlaydi, sovuqqa chidamsiz, qurg'oqchilikka chidamli. Quruq dasht, cho'l va chala cho'llarda ko'proq ekiladi.

Grechkaning o'sish davri qisqaroq (70-85 kun), rivojlanish harorati 8°. Shuning uchun kech ekiladi. Asosan o'rmon zonasining janubiy qismida ekiladi. Dukkakli don ekinlariga no'xat, mosh, loviya, yasmiq kiradi.

Sanoatda xom ashyo sifatida ishlatiladigan qishloq xo'jalik ekinlari texnik ekinlar deb ataladi. Texnik ekinlar sanoatni turli tarmoqlariga: to'qimachilik (tolali ekinlar), yog' sanoatiga (moyli ekinlar), qand sanoatiga (shakar moddasi bor ekinlar), oziq-ovqat sanoatining boshqa ba'zi bir tarmoqlariga (choy,), tamaki va farmatsevtika sanoati uchun xom ashyo beradi.

Tolali ekinlar, asosan to'qimachilik sanoati uchun xom ashyo beradi va unga paxta, zig'ir hamda kanop kiradi.

Paxtachilik. Paxta to'qimachilik sanoati uchun asosiy xom ashyo hisoblanadi. Chigit birmuncha yuqori haroratda (15°) unib chiqadi, uzoq rivojlanadi, shonalaydi, gullaydi va ko'sak tugadi. G'o'za $25-30^{\circ}$ haroratda yaxshi rivojlanadi. $17-20^{\circ}$ haroratda rivojlanishi susayadi. Shuning uchun u issiqsevar va yorug'sevar o'simlik hisoblanadi. Paxta mo'tadil mintaqaning janubiy qismlarida, tropik va subtropik mintaqalarning sug'oriladigan yerlarida yetishtiriladi. Jahonda yiliga 15-17 mln.t. paxta tolasi etishtiriladi. Asosiy paxta etishtiradigan davlatlar quyidagilar: Xitoy, AQSH, Hindiston, O'zbekiston.

Zig'irchilik. Zig'ir pastroqharoratda o'sa boshlaydi, shuning uchun ham erta ekiladi, o'sish (rivojlanish) davri qisqa. Shu xossalari bilan zig'ir qurg'oqchil hududlarda yaxshi moslashgan bo'lib, tuproq qatlamidagi bahorda to'plangan namdan foydalanib, quruqroq mavsum boshlanguncha o'z taraqqiyotini tugallay oladi. Ammo ushbu xossalari uni shimoliy rayonlarda ham keng tarqalishiga imkon beradi. Yoz salqin, yomg'irli va bulutli bo'ladigan rayonlardagina zig'ir yaxshi sifatli tola beradi va hosili yuqori bo'ladi. Bunday rayonlarda zig'irning poyasi uzun va shoxlamaydigan navlari ekiladi. Dasht zonasining yoz quruq va issiq keladigan joylarida esa zig'irning poyasi kalta va sershox navlari ekiladi, bu navlardan asosan moy olinadi.

O'rmon zonasida, ya'ni namgarchilik yuqori bo'lgan shimol va g'arbda zig'ir juda yuqori hosil beradi. Eng shimoldagi rayonlarda zig'irdan yuqori sifatli tola olinadi. Zig'ir asosan qumoq tuproqlarda yaxshi rivojlanadi.

Kanopchilik. Kanop tolasidan arqon, kanop, dag'al gazlama tayyorlanadi. Ushbu o'simlikning geografik tarqalishi juda keng. Zig'ir kabi kanop ham turli iqlim mintaqalarida etishtiriladi. Kanopning shimoliy va janubiy navlari bor. Shimoliy navlari o'rmon dasht zonasida ko'proq ekiladi. Ushbu joylarda yog'in nisbatan ko'p va kanop o'simligi sevadigan qumoq tuproqlar ko'proq tarqalgan (Masalan, O'rta Rossiya va Volga bo'yi qirlari). Kanopning janubiy navi mo'tadil mintaqaning janubida va subtropik mintaqada keng tarqalgan (Markaziy Osiyo va Kavkaz davlatlarida va h.k.)

Kauchuk (kau-daraxt, uchu-oqish, tupi tilida) tanasidan juda ko'p tabiiy kauchuk olinadigan, sharbati (lateks) bor daraxtdir (geveya, gvayula va h.k.). Tabiiy kauchukning asosiy qismi Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlarida (Malayziya, Indoneziya, Tailand) etishtiriladi.

Moyli ekinlar. Moyli ekinlarga paxta, zig'ir, kungaboqar, serept gorchisasi, soya, rijik, kunjut, tung va zaytun daraxti, araxis kiradi. Bir qancha ekinlar faqat moy olish uchun ekiladi. Ekinlarning moyi turli maqsadlarda ishlatiladi. Moyli ekinlarning chiqindisi (kunjarasi) chorva mollari uchun to'yimli oziqa bo'lib hisoblanadi.

Kungaboqar Rossiya va Ukrainada ko'proq ekiladi. Bir oz issiqsevar, qurg'oqchilikka chidamli, yog'ingarchilik kamroq bo'ladigan rayonlarda yetishtirsa bo'ladi. Jahonda kungaboqar yetishtirish bo'yicha Rossiya yetakchi o'rinda.

Soya etishtirish bo'yicha jahonda AQSH birinchi o'rinda turadi, asosan moy olish uchun ekiladi. Araxis yetishtirish bo'yicha Hindiston yetakchi bo'lib, asosan moy olish uchun ekiladi, shuning uchun bu davlat araxis moyi ishlab chiqarish

bo'yicha ham jahonda yetakchi. Zaytun daraxtidan yog' olish bo'yicha Italiya birinchi o'rinda. Kunjut issiqtalab bo'lib, Markaziy Osiyo va Kavkaz davlatlarida ko'proq ekiladi. Ovqatbop yuqori sifatli moy beradi.

Shakar olinadigan o'simliklar. Bunday o'simliklarga shakarqamish va qand lavlagi kiradi. Shakarqamish tropik mintaqada ko'proq etishtiriladi (Markaziy Amerika, Janubiy Osiyo). Jahonda shakarqamish etishtirish bo'yicha Braziliya (250 mln t), Hindiston (170 mln t), Kuba (70 mln t), Xitoy (50 mln t) va Meksika (40 mln t) yetakchi o'rinlarda turadi.

Qand lavlagi asosan shimoliy mo'tadil mintaqada etishtiriladi (Shimoliy Amerika, Yevropa). Qand lavlagi yetishtirish bo'yicha quyidagi davlatlar etakchi: Ukraina (45 mln t), Rossiya (30 mln t), Fransiya (30 mln. t), Polsha (26 mln. t), AQSH (23 mln. t).

Tamakchilik mo'tadil mintaqaning janubiy qismi va tropik mintaqalarda rivojlangan (Lotin Amerikasi, Markaziy Osiyo, Janubiy va Janubi-G'arbiy Osiyo davlatlari).

Choy subtropik va tropik mintaqalarda yetishtiriladi (Hindiston, Xitoy, SHriLanka, Indoneziya va h.k.).

Kartoshka yetishtirish. Kartoshka asosan mo'tadil mintaqada yetishtiriladi (Shimoliy Amerika va Yevropa davlatlari). Kartoshka yetishtirish bo'yicha Rossiya, Polsha, Xitoy yetakchi o'rinlarda turadi.

Bog'dorchilik mo'tadil, subtropik va tropik mintaqalarda ko'proq tarqalgan va tabiiy sharoitga qarab turli xil mevalar etishtiriladi. Uzum etishtirishda Italiya, banan, apelsin va limon yetishtirishda Braziliya, apelsin va limon yetishtirishda AQSH, mandarin yetishtirishda Yaponiya birinchi o'rinda turadi.

Sabzavot ekinlariga sabzi, piyoz, turp, sholg'om, pomidor, qalampir va boshqalar kiradi. Barcha davlatlarda shahar atrofida yaxshi rivojlangan.

Poliz ekinlariga qovun, tarvuz, handalak, qovoq, bodring kiradi. Bularning hammasi (bodringdan tashqari) issiqsevar ekin hisoblanadi va asosan mo'tadil mintaqaning janubiy qismida, subtropik va tropik mintaqalarda yetishtiriladi. Afrikaning janubiy tropik mintaqalarida yovvoyi tarvuzlar etishtiriladi.

Demak, dehqonchilikda tuproqsharoiti juda muhim omil bo'lib hisoblanar ekan. Ekinlarning rivojlanishiga, hosildorligiga yorug'lik, issiqlik va namlikning yetarli bo'lishi katta ta'sir ko'rsatadi. O'simliklarning har bir turi +10° haroratdan yuqori bo'lgan o'rtacha sutkalik haroratning ma'lum miqdorini va kerakli namlik olishi kerak.

Dehqonchilik O'zbekiston qishloq xo'jaligining etakchi tarmog'i bo'lib unda qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining 53,2 foizi yaratiladi. Mamlakatimiz tabiiy sharoitining o'ziga xosligi shundaki, uning turli hudud va mintaqalarida sug'orma va lalmikor dehqonchilik bilan shug'ullanish imkoniyatining mavjudligidir. Adir zonalarida lalmikor dehqonchilik (bug'doy, arpa, no'xat, kunjut, zig'ir, ozuqabop ekinlar, bog'dorchilik) qilinadi.

Sug'orma dehqonchilikda lalmikor dehqonchilikka nisbatan 3-5 marta ko'proq hosil olinadi va erdan samarali foydalanishni ta'minlaydi. Respublikamizda dehqonchilik yalpi mahsulotining 98,5 foizini sug'orma dehqonchilikdan olinadi. Sug'oriladigan erlarga asosan texnika ekinlari (paxta, kanop, tamaki qand lavlagi),

don ekinlari (bug'doy, sholi, makkajo'xori, dukkakli don ekinlari), sabzavot, kartoshka, poliz ekinlari, uzum va meva etishtiriladi. O'zbekistonda sug'oriladigan erlar maydoni XX asr davomida muntazam oshib kelgan. Agar 1914 yilda sug'oriladigan erlar Respublikamizda 1,8 mln. gektarni tashkil etgan bo'lsa, Mirzacho'l, Qarshi, Jizzax, O'rtacho'l, Surxon-Sherobod cho'llarining o'zlashtirilishi va Markaziy Farg'onada yangi erlar ochilishi bilan ayni paytda 4,2 mln. gektardan oshdi.

Paxtachilik-Respublika qishloq xo'jaligining asosiy tarmog'idir. Uning mamlakat iqtisodiyotida ahamiyati juda katta bo'lib asosiy valyuta tushumlari shu sohaga to'g'ri keladi. Paxtachilikning pirovard asosiy mahsuloti – paxta tolasi va paxta moyidir. 1 tonna paxta xom ashyosidan o'rtacha 320-350 kg tola (3500 m² gazlama), 10 kg momiq, 620 kg chigit olinadi. O'z navbatida 620 kg chigitdan 110 kg moy, 225 kg kunjara, 175 kg shulxa 35 kg lint, 30 kg tuk (delint) chiqadi. Umuman paxtadan sanoat usulida 1200 dan ortiq mahsulotlar ishlab chiqarish mumkin.

O'zbekistonning barcha mintaqalarida vegetatsiya davrining uzoqliligi o'rta tolali g'o'zani, Buxoro, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida ingichka tolali g'o'zani etishtirish imkonini beradi.

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ng O'zbekiston hukumati paxta yakka hokimligini bartaraf etishga katta ahamiyat bera boshladi. Birinchi navbatda ekin maydonlarining tarkibi o'zgartirildi. 1991 yildan boshlab paxta maydonlari qisqartirilib ular o'rniga g'alla, sabzavot, poliz va boshqa ekinlar ekila boshladi. Shuningdek, paxtachilik sohasidagi asosiy vazifa-respublikada "paxta-beda-g'alla", "paxta-g'alla" almashlab ekishni joriy etish va o'rtacha hosildorlikni 30-35 sentnerga etkazish va paxtadan tola chiqishini esa 33 foizgacha oshirish dolzarb vazifa qilib qo'yilgan.

Mutaxassislarning hisob-kitoblariga qaraganda, birgina mineral o'g'itning o'zi g'o'za hosildorligini 40 foizgacha oshiradi. Shuning uchun ham g'o'za maydonlarida turli xil mineral va organik o'g'itni ishlatish, gerbitsid, pestitsid, defoliantlarning ilmiy asoslangan me'yorlarini qo'llash rivojlanishning hozirgi bosqichida ayniqsa dolzarbdir.

Kanopchilik-Respublikada 1936 yildan boshlangan. Shu yilda Toshkent viloyatining Quyi Chirchiq tumanida 6980 ga maydonga kanop ekildi, 19,7 s\ga hosil olindi va 13,8 ming tonna kanop poyasi tayyorlandi. 1937 yildan Toshkent viloyatining Yuqori Chirchiq tumani, 1950-1956 yillarda Surxondaryo, Samarqand viloyatlari va Qoraqalpog'istondagi xo'jaliklarda ham kanop etishtirish yo'lga qo'yildi. 1971 yilda Toshkent viloyatining Yuqori Chirchiq, O'rta Chirchiq, Oqqo'rg'on, Bo'stonliq va Quyi Chirchiq tumanlarida ekilib, respublikada eng yuqori marra-360 ming tonna kanop poyasi yetishtirildi. 1972 yildan kanop maydonlari qisqarib bordi. Hozir asosan Yuqori va Quyi Chirchiq tumanlarida ekilib, yiliga o'rtacha 6,5 ming tonna kanop poyasi etishtiriladi. Poyasidan olinadigan toladan gazlama, o'rov materiallari, qop, brezent, kanop arqon, kanop ip tayyorlanadi. Yetishtirilgan kanop poyasi "Toshkentkanop-sanoatsotish" uyushmasi tizimidagi kanop (lub) zavodlarida qayta ishlanib, kanop tolasi olinadi. Ayni paytda ushbu uyushmaga qarashli 6 ta lub zavodlari faoliyat ko'rsatmoqda.

Tamakichilik-qishloq xo'jaligining serdaromadsohasi bo'lib unga asosan Samarqand viloyatining Urgut tumani ixtisoslashgan. Tamaki qisman Qashqadaryo viloyatining Kitob, Shahrisabz va Yakkabog' tumanlarida ham ekiladi. 1995 yildan boshlab jahonning ko'plab sigareta ishlab chiqaruvchi kompaniyalari katta ehtiyoj sezadigan Virjiniya, Parley navlari, xushbo'y turk va bolgar tamakilari ham ekilmoqda. Etishtirilgan tamaki Urgut tamaki fermentlash fabrikasida qayta ishlanadi. Toshkent va Samarqand sigareta fabrikalarini xom ashyo bilan ta'minlaydi. Samarqandda Buyuk Britaniyaning "British Amerikan Tobakko" kompaniyasi bilan hamkorlikda qurilgan (1996) yangi tamaki fabrikasi "O'zBAT aksiyadorlik jamiyati" ham mahalliy xom ashyo asosida ishlaydi.

G'allachilik. O'zbekiston azal-azaldan aholisini don, un va un mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini o'z ichki imkoniyatlari hisobiga qondirib kelgan va bug'doy etishtirishda yangi-yangi serhosil navlar yaratib, katta tajriba orttirgan mamlakatlardan biridir. Biroq sobiq Ittifoq davrida bug'doy va arpa maydonlari keskin qisqarib bordi, ular sug'oriladigan zonadan siqib chiqarilib asosan ekstensiv rivojlanishga ega bo'lgan lalmikor hududlarda yetishtirildi. Ikkinchi jahon urushidan oldin bug'doy va arpa qariyb 1,5 mln ga erga ekilgan (1940 y). Bug'doy va arpa barcha g'alla ekinlari maydonining 90 foizdan ortiqrog'ini tashkil etar edi. 1970 yilda 640 ming ga bug'doy va 387,4 ming ga arpa ekildi, hosildorlik 8,5 s/ga, yalpi hosil 1 mln tonnani tashkil etdi. 2013 yil 7,8 mln tonna g'alla etishtirildi.

Makkajo'xorichilik. O'zbekistonda XX asrning ikkinchi yarmidan rivojlana boshladi. Respublikaning tuproq-iqlim sharoitiga ko'ra bahorda va ikkinchi marotaba ekinzorlardan bo'shagan erlarga yozda ekiladi. Uni odatda, don olish va chorva mollariga ozuqa sifatida eqishadi. O'zbekistonda makkajo'xori keng tarqalgan ekin. U barcha viloyatlarda (sug'oriladigan maydonlarda) ekiladi. Ilg'or xo'jaliklarda har gektardan 50-60 sentner don, 1300-1400 sentner ko'k poya olinadi. 1998 yilda mamlakatda 140,5 ming tonnadan ko'p makkajo'xori doni yetishtirildi.

Makkajo'xori bilan birga katta maydonlarda **oq jo'xopi** (doni va silos hamda ko'k poyasi uchun) ham ekiladi. Oq jo'xori ko'p hollarda Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm, Buxoro viloyatlari hamda Markaziy Farg'onaning sho'rxok erlarida ekiladi (20-30 s\ga don, 650 s\ga ko'k poya).

Sholikorlik. O'zbekiston g'allachiligida sholikorlik ham muhim o'rin tutadi. Sholi qimmatli oziq-ovqat ekinidir. Garchi O'zbekiston suv resurslari bilan yaxshi ta'minlangan bo'lmasada, uning ayrim daryo qayirlarida sholikorlik yaxshi rivojlangan. Sholi asosan suv ichida o'sadi, etiladi. Sholi o'simligi sho'rxok tuproqlarni yoqtiradi. Ayni paytda issiqsevar bo'lgan mazkur ekin Amudaryo, Sirdaryo, Surxondaryo va boshqa yirik daryolar qayirlarida yaxshi hosil beradi. U ayniqsa, Amudaryo etaklarida ko'p etishtiriladi. Xorazm viloyatiga respublikamiz sholi ekin maydonlarining va yalpi hosilining 43,2 foizi, Qoraqalpog'iston respublikasiga 37 foizi to'g'ri keladi. Shuningdek, sholi Toshkent, Sirdaryo, Surxondaryo, Andijon, Namangan viloyatlarida ham keng maydonlarda etishtiriladi.

Kartoshka, sabzavot, poliz ekinlari. Respublikaning iqlimi, unumdor tuprog'i, sug'orma dehqonchilik sharoitlari sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkadan hosil olishga imkon beradi. Bu tarmoqda sabzi, piyoz, lavlagi, sholg'om, turp,

pomidor, karam, bodring, sarimsoq, baqlajon, qovun, tarvuz, qovoq, bargli sabzavotlar (kashnich, ukrop, petrushka va b.), kartoshka ekiladi.

O'zbekistonda sabzavot va polizchilik qishloq xo'jaligining qadimiy tarmog'idir. Asrlar davomida mamlakat sabzavot va polizchiligida ekinlarning tur tarkibi boyib bordi. Masalan, 19 asrning 2 yarmidan Rossiya orqali pomidor, kartoshka, gulkaram, chuchuk (bolgar) qalampir, Xitoydan esa rediska va poliz ekinlarining ayrim turlari kirib keldi va asosiy ekinlar qatoridan joy oldi.

Ayni paytda O'zbekistonda har yili o'rtacha 5,0-5,5 mln tonna sabzavot va poliz ekinlari etishtiriladi. Sabzavot mahsulotlari etishtirishda Toshkent viloyati (716,5 ming t), Samarqand (625,0 ming t) va Andijon viloyatlari (461,7 ming t) etakchi. Qoraqalpog'iston Respublikasi va Navoiy viloyatlariga esa mamlakatda yetishtirilgan sabzavotlarning mos holda 1,4 va 2,4 foizi to'g'ri kelgan (2005 y). Polizchilik Sirdaryo (109,9 ming t) va Jizzax viloyatlarida (107,4 ming t) eng yaxshi rivojlangan. Umuman olganda, O'zbekistonda yetishtirilgan poliz mahsulotlarining 1/3 qismidan ortiqrog'i Mirzacho'l iqtisodiy rayoniga to'g'ri keladi.

Kartoshka hosili bo'yicha Samarqand viloyati Respublikada 1-o'rinda turadi. 2005 yilda mamlakatda yetishtirilgan kartoshkaning 22,6 foizi (208,7 ming t) mazkur viloyat hissasiga to'g'ri kelgan. Shuningdek, Toshkent (15,5 %), Farg'ona (10,6 %), Surxondaryo viloyatlarida (9,4 %) ham kartoshka nisbatan ko'p ekiladi.

Mevachilik va uzumchilik. O'zbekistonning agroiklim resurslari har qanday meva va uzum donasining qandlilik darajasini oshirishga qodir. Shuning uchun serquyosh diyorimizda etishtiriladigan turli mevalar va uzum navlari shirin-shakar, o'ta lazizli bo'ladi.

5-jadval. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi

Xo'jalik toifalari	Ishlab chiqarilgan mahsulotlar foizda
Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklar	70,0
Fermer xo'jaliklari	27,3
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	2,7

6-jadval. Dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish barcha toifadagi xo'jaliklarda

Dehqonchilik mahsulotlari	Ming.t.
Don ekinlari	6375,4
Kartoshka	2750,1
Sabzavotlar	9635,1
Poliz	1904,9
Mevalar va rezavorlar	2589,7
Uzum	1564,5

O'zbekiston hududida meva daraxtlari haqidagi dastlabki ma'lumotlar miloddan avvalgi bir ming yillik o'rtalariga to'g'ri keladi. Asrlar davomida xalq seleksiyasi asosida shaftoli, o'rik, olma, yong'oq, bodom, anor, tut hamda tokning juda sarxil navlari yaratilgan. XX asr boshlarida hozirgi O'zbekiston hududida 24 ming ga bog', 30,6 ming ga tokzor bo'lgan. Respublika bog'larida meva va rezavor meva beradigan 20 turga mansub daraxt, buta va o't o'simliklar o'stiriladi.

Urug'li meva daraxtlari (olma, nok, behi), danakli meva daraxtlari (o'rik, shaftoli, olxo'ri, gilos, olcha), subtropik o'simliklar (anor, anjir), yong'oq mevalilar (yong'oq, pista, bodom), rezavor mevalilar (qulupnay, malina, smarodina (qoraqat)) asosiy o'rinni egallaydi.

Tokchilik qadimdan Samarqand, Toshkent viloyatlari va Farg'ona vodiysida taraqqiy etgan. Mevachilikda Andijon (20 %), Samarqand, Namangan, Farg'ona, Toshkent (11-12 %) viloyatlarining, uzumchilikda esa Samarqand (27 %) viloyatining salmog'i kattadir. Mamlakatimizning janubiy mintaqalarida, xususan Surxondaryo viloyatida subtropik va sitrus mevalar etishtiriladi.

Respublikamiz qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik-53,2 % ulushni tashkil etadi. Dehqonchilik salohiyatini quyidagi jadvallardan ham ko'rishimiz mumkin (**5-6-jadvallar**).

2018 yil 2,3 mln t. paxta xom ashyosi olindi. Shundan 96,2% fermer xo'jaliklariga, 3,8% boshqa toifadagi xo'jaliklarda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 19 sentyabrdagi "Paxta to'qimachilik mahsulotini yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi qarori bilan 2019 yilda paxta to'qimachilari klasteri 300 ming gektar ekin maydonga va soni 44 taga ko'paydi.

4.3. Chorvachilik tarmog'i

Chorvachilik qishloq xo'jaligining chorvachilik mahsulotlari etishtirish maqsadida chorva mollarini urchitish bilan shug'ullanadigan tarmog'i. Chorvachilikning asosiy mahsuloti go'sht, sut, tuxum, jun, teri va mo'ynadir. Chorvachilik quyidagi tarmoqlardan iborat: qoramolchilik, qo'ychilik, echkichilik, cho'chqachilik, yilqichilik, parrandachilik, asalarichilik, pillachilik, baliqchilik va darrandachilik.

Qoramolchilik. O'rmon va o'rmon-dasht zonalarida sersut qoramol boqiladi, chunki bu erlarda yem-xashak ko'p. Dasht va pampalarda sut-go'sht qoramolchiligi rivojlangan. Bu yerlarda mollar tabiiy yaylovlarda boqiladi, yaylovlarda o'tlar qurib qolgandan keyin molxonalarda boqiladi. Quruq dasht, chala cho'l va cho'llarda go'sht beradigan mollar boqiladi.

Jahonda qoramollarning soni 1,3 mlrd ga yaqin bo'lib, ularning soni bo'yicha jahonda Hindiston, AQSH, Rossiya va Braziliya yetakchi. AQSH, Argentina va Avstraliyada qoramolchilikka ixtisoslashgan hududlar vujudga kelgan. Ushbu hududlarda eksport qilinadigan go'shtlar yetishtiriladi (masalan, Argentinada Pampa rayoni).

Jahonda qo'ylar soni 1,2 mlrd ga yaqin. Qo'ychilik dasht, chala cho'l, cho'l va tog'larda rivojlangan. SHimoliy rayonlarda qo'ylar teri va go'sht etishtirish uchun,

janubiy rayonlarda mayin jun olish uchun, cho'l va chala cho'llarda dag'al jun va qorako'l teri olish uchun boqiladi. Subtropik va tropik qumli cho'llarda (O'zbekiston, Turkmaniston, Eron, Afg'oniston va boshqalar) qorako'l qo'ylari boqiladi.

Avstraliya qo'ylar soni bo'yicha jahonda birinchi o'rinda turadi (165 mln bosh), Xitoy (110 mln bosh), Yangi Zelandiya (85 mln bosh), Rossiya (58 mln bosh). Bu mamlakatda yirik qo'ychilik stansiyalari tashkil qilingan. Ular 10 ming va hatto 100 minglab ga maydonni egallaydi va bu stansiyalarning har birida 50-100 ming boshgacha mayin junli «Merinos» qo'ylari boqiladi. Jahondagi qo'ylar sonining yarmi rivojlanayotgan mamlakatlarga to'g'ri keladi (Turkiya, Eron, Tojikiston, Afg'oniston, Efiopiya, Sudan va boshqalar).

Jahonda cho'chqalar bosh soni 900 mln. Cho'chqachilik eng mahsuldor va tez ko'payadigan tarmoq bo'lib, bu sohada Xitoy jahonda yetakchi o'rinda turadi. Keyingi o'rinlarda AQSH, Braziliya, Yevropaning asosiy yirik davlatlari.

Yilqichilik va tuyachilik. Cho'l, chala cho'l va tog'larda rivojlangan. Otlardan juda uzoqdavr mobaynida asosiy tansport vositasi sifatida foydalanib kelindi. Hozirgi davrda esa sport maqsadlarida hamda go'shti va suti (qimiz) uchun boqiladi. Tuyachilik asosan cho'l rayonlarida (Afrika va Osiyo cho'llari) rivojlangan. Hozirgi paytda ular asosan go'shti, suti va juni uchun boqiladi.

Bug'uchilik asosan shimoliy o'lkalarda rivojlangan. Go'sht va terisi uchun boqiladi, transport maqsadlarida ham foydalaniladi. Evrosiyo va SHimoliy Amerikaning qutbiy o'lkalarida tarqalgan.

Parrandachilik cho'chqachilikka o'xshab chorvachilikning sermahsul tarmog'i hisoblanadi. Asosan go'sht va tuxum etishtirib beradi. Yirik shaharlar atrofida rivojlantiriladi.

Darrandachilik deganda yovvoyi hayvonlarni go'shti, terisi, shoxi va mo'ynasi uchun ko'paytirish tushuniladi. Hozirgi paytda kumush rangli qora tulki (shimoliy rayonlarda), havo rangli shimol tulkisi, nutriya va norka ko'paytirilmoqda.

Ipakchilik (pillachilik). Shoyi beradigan ipak qurti boqishga asoslangan. Markaziy Osiyo davlatlarida tut bargini iste'mol qiladigan, Osiyo davlatlarida (Xitoy) esa eman daraxti bargini iste'mol qiladigan ipak qurti boqiladi.

Asalarichilik, o'rmon, o'rmon-dashtlarda va tog'larda rivojlangan. O'tloq, dasht o'tlari, bargli daraxtlar (tol, zarang, terak, tokterak, lipa) asalarichilik uchun oziqa manbai bo'lib hisoblanadi.

Baliqchilik. Dengiz, daryo, ko'l va sun'iy suv havzalari baliqchiligi ajratiladi. Yiliga okeanlardan 100 mln tonnadan ortiqroq baliq tutiladi. Dunyo okeanida uchta baliq ovlash zonasi ajratiladi:

- a) shimoliy (30° sh.k. dan shimolda);
- b) tropik (30° sh.k.- 30° j.k.);
- v) janubiy (30° j.k. janubda).

Asosiy maxsulotni shimoliy zona beradi.

Baliqchilik xo'jalikning eng qadimiy tarmoqlaridan biri. Baliqchilik bo'yicha okeanlar orasida Tinch (okeanlarda ovlanadigan baliqning 66 %) okean, dengizlar orasida esa Norvegiya, Bering, Oxota, Yapon dengizlari peshqadamlik qiladi. Davlatlar orasida esa Xitoy (jahon baliq ovlash hajmining 1/3 qismi to'g'ri keladi), Indoneziya, Hindiston kabi davlatlar yetakchi hisoblanadi.

O'zbekiston-chorvachilikning qadimiy markazlaridan biri. Chorvachilik yalpi qishloq xo'jaligi mahsuloti hissasida-46,8 % tashkil etadi. Respublikaning qulay tabiiy va iqlimiy sharoitlari hamda hosildor tuprog'i chorvachilikni rivojlantirish uchun mos. O'zbekistonning sug'oriladigan erlari, bepoyon qir-adirlari, dashtu-cho'l hamda tog' oldi yaylovlari chorvachilikni rivojlantirish uchun o'ta qulay. Sug'oriladigan erlarda asosan qoramolchilik, pillachilik, cho'chqachilik, parrandachilik rivojlangan bo'lsa, qir-adirlar, cho'l va tog' oldi yaylovlarida esa qo'ychilik (qorako'lchilik), echkichilik, yilqichilik, tuyachilik, suv havzalarida esa baliqchilik rivojlangan. Chorvachilikdan keladigan daromad doimiy ravishda o'sib bormoqda (7-8-jadvallar).

7-jadval. Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish barcha toifadagi xo'jaliklarda (2018 yil)

Go'sht	2417,4 ming tonna
Sut	10480,7 ming tonna
Tuxum	7360,5 mln dona
Qorako'l teri	1082,6 ming dona
Jun	35,0 ming tonna
Pilla	17,9 ming tonna

8-jadval. Chorva soni barcha toifadagi xo'jaliklarda (2018 yil)

Yirik shoxli qoramollar	12726,6 ming bosh
Shundan sigirlar	4522,2 ming bosh
Qo'y va echkilar	21287,4 ming bosh
Parranda	81538,9 ming bosh

Qoramolchilik - respublika chorvachiligining etakchi tarmoqlaridan biri. U respublikada etishtiriladigan go'shtning to'rt dan uch qismini va sutning deyarli hammasini beradi. Mamlakatda qoramolchilikning sut, sut-go'sht, go'sht, go'sht-sut yo'nalishlari rivojlangan. Sut va sut-go'sht yo'nalishidagi qoramolchilik yirik shahar atrofi xo'jaliklarida hamda yaqinda o'zlashtirilgan mintaqalarda, go'sht-sut, go'sht yo'nalishidagi qoramol zotlari esa tog' va tog'oldi mintaqalarida nisbatan ko'proq boqiladi.

Hozirda Respublikamizda 12726,6 ming bosh qoramollar boqilmoqda. Shularning 35,5 foizi yoki 4522,2 ming boshi sog'in sigirlardir. O'zbekiston mintaqalarida qoramolchilikning hududiy joylashishi bir xilda emas. Eng ko'p qoramollar Samarqand va Qashqadaryo viloyatlariga to'g'ri keladi. Jumladan, mamlakatdagi jami qoramollarining 14,9 foizi Samarqand, 10,7 foizi Qashqadaryo viloyatida boqiladi.

Qo'ychilik va echkichilik. Respublikada qorako'l, hisori va jaydari qo'ylar ko'p boqiladi. Ularning soni echkilarni ham qo'shib hisoblaganda 21287,4 ming boshdan ko'p. Shundan yarmidan ortig'i qorako'l qo'ylaridir.

Qorako'l qo'y zoti respublika qo'ychiligining faxri hisoblanib, u mamlakat eksportida alohida o'rin tutadi. Qorako'l qo'ylari ko'p xil tovlanadigan sifatli

qorako'l terisi, go'shti hamda jun olish uchun katta-katta cho'l yaylovlarida boqiladi. Qorako'l qo'y zoti Zarafshon vohasida yashagan chorvadorlar yaratgan zot hisoblanadi.

Hozir Janubiy Afrika (Namibiya), Afg'oniston, Rossiya (Qalmaq Respublikasi), Moldova va Markaziy Osiyoning boshqa davlatlarida boqilayotgan qorako'l qo'ylarining asl vatani O'zbekistondir. Mamlakatimizda qorako'l qo'ylari boqiladigan asosiy yaylovlar - Qizilqum, Qarshi va Ustyurt cho'llaridir, qisman tog' oldi mintaqalaridir. Umuman olganda, O'zbekistonda Toshkent va Farg'ona vodiysidan tashqari barcha mintaqalarda qorako'l qo'ylari boqiladi.

Respublikada go'sht va jun etishtirish maqsadida dag'al jun va go'sht-yog' beruvchi hisori va jaydari qo'y zotlari boqiladi. Mamlakat qo'ychiligi ayniqsa, go'sht etishtirish bo'yicha ancha mahsuldor. Dumbali hisori qo'ylar asosan tog' va tog' oldi mintaqalarida (Surxondaryo, Qashqadaryo va Jizzax viloyatlarida) boqiladi. Hisori qo'chqorlardan har birining tirik vazni 190 kg. ga yetib, sof 140-150 kg. gacha go'sht-yog' beradi.

Echkichilik go'sht, serqaymoq va shifobaxsh sut, jun, teri hamda tivit uchun boqiladi. Mamlakat echkichiligida serjun angor, tivitli Orenburg, jundor O'zbekiston zotlari keng tarqalgan. O'zbekistonda yiliga 60-85 t echki juni, 40-45 t. tivit, 15-20 ming dona echki terisi tayyorlanadi.

Echki ob-havoning noqulay sharoitlariga chidamli. Echkilar asosan respublikamizning baland tog'li va tog' oldi zonalarida boqiladi. Echkichilik Surxondaryo, Qashqadaryo, Namangan, Samarqand viloyatlarida rivojlangan.

Cho'chqachilik asosan rusiy zabon aholi yashaydigan shaharlar va ularning atrofi hamda g'allachilik mintaqalarida nisbatan rivojlangan. Cho'chqachilik Markaziy (O'rta) Osiyoda Rossiya imperiyasi bosib olgandan keyin vujudga keldi.

Cho'chqa go'shtidan kolbasa ishlab chiqarishda foydalaniladi. Yilda har ona cho'chqadan 18-20 tagacha cho'chqa bolasi olinadi. Ularni bo'rdoqiga bogib 1,5-2,0 t go'sht olish mumkin. O'zbekistonda cho'chqalarning Yirik oq, Landras, Shimoliy Kavkaz va Dyurok zotlari boqiladi. Cho'chqachilik Toshkent (27,2 ming bosh), Navoiy (15,4 ming bosh) va Samarqand (10,3 ming bosh) viloyatlarida yaxshi taraqqiy etgan. Mazkur viloyatlarga O'zbekistondagi jami cho'chqalarning 60,9 foizi boqilmoqda.

Yilqichilik xalq xo'jaligida muhim ahamiyatga ega. Otlarning eng asosiy mahsuldorligi ularning ish layoqati bilan belgilanadi. Sut, go'sht, teri va boshqalar esa ulardan olinadigan qo'shimcha mahsulotlardir. Qorabayir Markaziy Osiyo, jumladan O'zbekistondagi asosiy mahalliy ot zotidir. Bu otdan minishga, yuk tasishda, harbiy ishlarda, qishloq xo'jaligi ishlarida, sport musobaqalari (ayniqsa ko'pkari) da va go'sht-sut ishlab chiqarishda foydalaniladi.

Tuyachilik. Tuyalarni 2000 yilcha ilgari xonakilashtirilgan. Ularning bir o'rkachli (dromedar) va ikki o'rkachli (baktriya) turlari mavjud. Tuyachilik cho'l, chalacho'l va quruq dasht zonalarida mavjud. Tuyachilik O'zbekistonda Qoraqalpog'iston Respublikasi, Navoiy, Buxoro va Qashqadaryo viloyatlarida yaxshi rivojlangan. Tuyalardan asosan ulov sifatida (200-400 kg yuk ko'taradi), shuningdek, go'sht, sut va jun tayyorlashda foydalaniladi. O'rtacha bir bosh tuya 300-350 kg go'sht, sog'in davridagi har bir biyadan 1500-5300 kg sut olish mumkin. Bir

o'rkachli tuyalardan 2-4 kg, ikki o'rkachlilaridan 5-10 kg jun olish mumkin. Tuya juni to'qimachilik sanoati va gilamchilik uchun xom ashyo hisoblanadi. Tuya junining 75 foizini tivit tashkil qiladi.

Parrandachilik ham tez ko'payadigan va serdaromad tarmoqdir (tovuq yetti xazinaning biri). Bu tarmoq keyingi davrda Respublikaning barcha mintaqalarida asosan shaxsiy va fermer xo'jaliklarda tez rivojlanib bormoqda. Parrandalar-81538,9 ming boshni tashkil etadi.

Pillachilik. Qishloq xo'jaligining qadimiy va istiqbolli tarmoqlaridan biri bo'lgan pillachilik ham mamlakatimiz iqtisodiyotida katta o'rin tutadi. O'zbekiston hududida ipak qurti juda qadimdan boshlab boqilgan. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra ipak qurti boqish milodning IV asrida Xitoydan O'rta Osiyoga tarqalgan. 1913 yilda O'zbekistonda 4 ming tonnaga yaqin pilla yetishtirilgan bo'lsa, uning 90 foizi Farg'ona vodiysiga to'g'ri kelgan.

Pillachilikning O'zbekiston iqtisodiyotida katta o'rin tutishini e'tiborga olib 1998 yil 30 martda O'zbekiston Prezidenti "Respublika pillachilik sohasini boshqarish tizimini takomillashtirish to'g'risida" gi farmonga imzo chekdi. Ushbu farmonga ko'ra Respublikada pillachilik sohasini rivojlantirish borasida qator tadbirlar belgilandi va ular amalga oshirilmoqda.

Baliqchilik O'zbekistonda tabiiy va sun'iy suv havzalarida rivojlantirilmoqda. O'zbekistonning daryo va ko'llarida 62 baliq turi yashaydi. Shulardan zog'ora baliq, do'ngpeshona, sudak, oqcha (leshch), ilonbosh, cho'rtan, qizilko'z xo'jalik ahamiyatiga ega. Yirik baliqchilik xo'jaliklari Jizzax, Sirdaryo (Aydarko'l, Arnasoy), Toshkent (Damachi), Xorazm viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasidadir. Arnasoy suv havzasida yiliga 2 ming t, Qoraqalpog'iston Respublikasining Orolbo'yi ko'llarida esa 3 ming tonnagacha baliq ovlanmoqda.

Respublikadagi suv omborlari ham baliqchilikni rivojlantirishda ma'lum ahamiyatga ega. Har yili To'dako'l suv omboridan 500, Chimqo'rg'on va Jizzax suv omborlaridan 70-100 tonnagacha baliq ovlanadi.

Darrandachilik. Respublika chorvachiligining an'anaviy tarmoqlari qatorida darrandachilik ham rivojlanmoqda. Asosan muskulli kalamush (ondatra), suv bobri (nutriya), tulki, norka kabilar Quyi Amudaryo, Mirzacho'l hamda Surxondaryo mintaqalarida boqiladi.

Shuningdek, mamlakat chorvachiligida quyunchilik va asalarichilik kabi tarmoqlar ham mavjud. Mazkur tarmoqlarining mamlakat chorvachilik mahsulotlari etishtirishdagi salmog'i uncha katta bo'lmasada, o'ziga xosligi bilan ajralib turadi.

4.4. Qishloq xo'jaligi rayonlari tiplari

Tabiiy sharoit va aholi ehtiyojlari turlicha bo'lganligi sababli, qishloq xo'jaligi hamma joyda bir xil emas. SHuning uchun ham tabiiy sharoitga qarab, ma'lum bir joyning qishloq xo'jaligi muayyan mahsulot etishtirishga ixtisoslashadi. Ixtisoslashishga tabiiy sharoitning zonalar bo'yicha o'zgarishi ta'sir ko'rsatadi. Har bir tabiat zonasida qishloq xo'jaligining muayyan bir tarmog'i yetakchi hisoblanadi va boshqalaridan keskin farq qiladi:

1. Arktika va Antarktikaning muz cho'llari zonasi. Bu yerlarda hozircha qishloq xo'jaligining hech qanday tarmog'i rivojlanmagan.

2. Subarktika mintaqasining tundra va o'rmon-tundra zonasida qishloq xo'jaligi asosan bug'uchilikka ixtisoslashgan. Bug'uchilik bilan birga ovchilik qilinadi va baliq tutiladi. Iqlim sharoiti murakkab hamda noqulay, tuproq qoplami yupqa, botqoqlashgan, o'rtacha yillik harorat past bo'lganligi sababli bu yerlar dehqonchilik uchun yaroqsiz. Subarktika mintaqasi deyarli okean suv yuzasidan iborat bo'lganligi uchun (Antarktika yarim orolining shimoliy qismidan tashqari) asosan mavsumiy baliqchilik rivojlangan.

3. Shimoliy mo'tadil mintaqaning o'rmon zonasida chorvachilik, daryo vodiylarida va ochiq joylarda hamda kesilgan o'rmonlar o'rnida dehqonchilik rivojlangan. Shimoliy Amerikaning igna bargli o'rmonlarida asosan yirik shoxli qoramolchilik rivojlangan. Markaziy tekislikdagi aralash va keng bargli o'rmonlarning o'rnida hozirgi paytda dehqonchilik va chorvachilik rivojlangan. O'rmonlar faqat Appalachi tog'larida va Ogayo daryosining yuqori oqimida saqlanib qolgan. Aralash va keng bargli o'rmonlarning shimoliy qismida bog'dorchilik, markaziy va janubiy qismlarida esa makkajo'xori yetishtiriladi.

Dehqonchilik bilan birga qoramolchilik va cho'chqachilik yaxshi rivojlangan. Yevropaning igna bargli o'rmonlar zonasining (Skandinaviya yarim oroli) shimolida bug'uchilik, janubida qo'ychilik va qoramolchilik rivojlangan. Ayrim yerlarda orol ko'rinishida dehqonchilik rayonlari joylashgan. Bu rayonlarda yaylov va o'tloqlar bo'lgani uchun qoramolchilik ham yaxshi rivojlangan. Yevropada aralash va keng bargli o'rmonlar o'tgan asrdayoq kesib tashlanib o'rnida dehqonchilik (bug'doy), qand lavlagi etishtirish, bog'dorchilik yaxshi rivojlandi. Chorvachilikning qoramolchilik va cho'chqachilik tarmog'i etakchi.

Yevropada igna bargli o'rmonlarning janubiy qismida va aralash o'rmonlarda (Boltiqbo'yidan Uralgacha) zig'ir, o't va yem-xashak ekinlari etishtiriladi, shuning asosida bu yerlarda sut chorvachiligi rivojlangan. Sanoat shaharlari atrofida, shuningdek, aralash o'rmonlar zonasining Belorussiya qismida kartoshka yetishtiriladi. Sut va kartoshkani qayta ishlash chiqindilari asosida cho'chqachilik rivojlangan.

Osiyo igna bargli o'rmonlarining g'arbiy qismining (G'arbiy Sibir) janubida katta maydonlarda donli ekinlar etishtiriladi, yem-xashak ekinlari kam, shuning uchun chorva mollari tabiiy yaylovlarda va pichanzorlarda boqiladi. Sut chorvachiligi yaxshi rivojlangan. Osiyoning sharqiy qismida (Markaziy Yoqutiston), igna bargli o'rmonlar zonasida chorvachilik bilan dehqonchilik yaxlit hududda olib boriladi

Mo'tadil mintaqaning o'rmon-dasht va dasht zonasida asosan eng hosildor qora tuproqlar tarqalganligi uchun bu zona hududi hamma materiklarda deyarli o'zlashtirilgan hamda asosiy dehqonchilik rayoni hisoblanadi. Ushbu hududlarda (Shimoliy Amerikada-Buyuk tekisliklar) asosan bug'doy va makkajo'xori etishtiriladi. Chorvachilikning qoramolchilik va cho'chqachilik tarmog'i keng miqyosda rivojlangan. Bu rayon Shimoliy Amerikada bug'doy mintaqasi deb ataladi. Yevrosiyoning o'rmon-dasht zonasida donli ekinlar bilan almashlab ildiz mevali yem-xashak ekinlar, dukkakli don ekinlari, kartoshka yetishtiriladi. Kartoshka va

g'alla chiqindilari asosida qoramolchilik, cho'chqachilik va parrandachilik rivojlangan.

O'rmon-dasht zonasining iliq va sernam janubi-g'arbiy qismida qand lavlagi etishtiriladi va unga almashlab kuzgi bug'doy hamda makkajo'xori ekiladi. Bog'dorchilik yaxshi rivojlangan Sharqiy Yevropa tekisligining dasht zonasida bug'doy va makkajo'xori ekiladigan yerlar katta maydonlarni egallaydi. Makkajo'xori asosida go'sht-sut chorvachiligi va parrandachilik yaxshi rivojlangan. Moyli ekinlardan kungaboqar ko'p ekiladi. G'arbiy Sibir va Qozog'iston dashtlarida asosan bahorgi bug'doy ekiladi. Qoramollar tabiiy yaylovlarda, qurg'oqchil janubiy qismida esa qo'y boqiladi. G'arbiy Sibirning suv bosadigan o'tloqlarida sut-go'sht qoramolchiligi rivojlangan. Uzoq Sharqda esa donchilik, soyachilik va sut-go'sht chorvachiligi rivojlangan.

Mo'tadil mintaqaning cho'l va chala cho'llarida go'sht-jun va teri etishtiriladigan qo'ychilik rivojlangan. Qo'ylar bahorgi cho'l yaylovlaridan tog' yaylovlariga haydab boqiladi, kuzda yana cho'lga qaytarib kelinadi. Turkiston (Markaziy Osiyo) cho'llarida qorako'lchilik bilan shug'ullaniladi.

4. Turkistonning (Markaziy Osiyoning) cho'llari va tog' hamda tog' oralig'idagi yirik daryo vodiylarida (Farg'ona, Zarafshon, Mirzacho'l, Surxon, Sherobod, Xorazm, Chu va boshqa vodiy va vohalar), Kavkazning sharqiy qismida sug'orma dehqonchilik rivojlangan Janubiy mo'tadil mintaqaning juda katta qismi okean suvlaridan iborat. Ushbu mintaqada janubiy baliqchilik zonasi joylashgan. Orollar asosan o'rmonlardan iborat. Janubiy Amerikaning mo'tadil mintaqasi qismida asosan qo'y boqiladigan yaylovlar va ayrim joylarda shudgor qilinadigan yerlar uchrab turadi (sharqiy qismi Patagoniyada), g'arbiy qismi o'rmon bilan qoplangan.

Shimoliy subtropik mintaqaning dasht va mavsumiy nam hamda musson o'rmonlari zonasida don ekinlari, paxta, janubiy qismlarida araxis etishtiriladi (Shimoliy Amerikada). Janubiy yarim sharning subtropik dashtlarida makkajo'xori, bug'doy etishtiriladi, ular asosida qoramolchilik rivojlangan (Argentina pampalarida). G'arbiy Yevropaning sernam subtropik mintaqasida bog'dorchilik, uzumchilik, sitrus ekinlari etishtirish rivojlangan. Chorvachilikning qo'ychilik tarmog'i yaxshi rivojlangan. Osiyo cho'llarida qo'ychilik va tuyachilik yaxshi rivojlangan. Afrikaning shimolida sitrus ekinlari yetishtiriladi, janubida esa makkajo'xori ko'proq ekiladi. Avstraliyaning subtropik mintaqasida bog'dorchilik mahsulotlari etishtiriladi.

5. Tropik mintaqaning shimoliy va janubiy yarim shardagi qismlarida cho'l, chala cho'l va savannalar ko'proq tarqalgan. Dengiz bo'ylarida esa nam tropik o'rmonlari tarqalgan. Markaziy Amerikaning tropik qismida shakarqamish, banan, sholi, kofe, tamaki, makkajo'xori etishtiriladi. Qirg'oqlar o'rmon bilan qoplangan. Janubiy Amerikada esa paxta, shakarqamish, banan etishtiriladi. Afrikaning tropik cho'llarida asosan cho'l yaylovlari keng tarqalgan. Vohalarda xurmo daraxti, daryo vodiylarida paxta etishtiriladi. Osiyodagi tropik cho'llarda qo'ychilik, tuyachilik rivojlangan, vohalarda xurmo etishtiriladi. Avstraliyaning tropik cho'llarida qo'ychilik yaxshi rivojlangan. Shimoliy va shimoliy-sharqiy qismida qo'ychilik bilan birga qoramolchilik ham rivojlangan. Avstraliyaning sharqiy qirg'oqlarida nam tropik o'rmonlar tarqalgan, bu yerlarda shakarqamish, tamaki, bug'doy, ananas etishtiriladi.

6. Subekvatorial iqlim mintaqasida savanna va siyrak oʻrmonlar hamda mavsumiy nam oʻrmonlar zonasi joylashgan. Janubiy Amerikaning savanna va siyrak oʻrmonlarida tabiiy kauchuk, kakao, paxta, kofe va banan etishtiriladi. Chorvachilikning qoramolchilik tarmogʻi rivojlangan. Shimoliy subekvatorial mintaqada banan, shakarqamish va kofe etishtiriladi. Qirgʻoqboʻyi rayonlarida baliqchilik rivojlangan. Afrikaning subekvatorial mintaqasida ham dehqonchilik yaxshi rivojlangan. Bu yerlarda paxta, kofe, banan, kakao, araxis etishtiriladi. Osiyoda ham asosan dehqonchilik yaxshi rivojlangan (Hindiston va Xindixitoy yarim orollari). Bu yerlarda asosan shakarqamish (Shimoliy Hindistonda), sholi, sulii, tabiiy kauchuk, choy, paxta etishtiriladi.

7. Ekvatorial mintaqaning doimiy yashil nam oʻrmonlar zonasida asosan tabiiy kauchuk etishtiriladi (Amazoniya, Kongo havzasi, Sumatra, Kalimantan, Sulavesi orollari).

8. Togʻli rayonlarning katta qismida chorvachilik, oʻrmonlarning ochiq, qishloq xoʻjaligi uchun yaroqli, sernam va issiq etarli joylarda qisman dehqonchilik rivojlangan. Xitoyda togʻ oldi va qiyaligi, uncha katta boʻlmagan togʻlarda asosan sholi ekiladi.

9. Yirik shaharlar atrofida shahar atrofi qishloq xoʻjaligi tarkib topgan. Dehqonchilikning sabzavot va polizchilik, chorvachilikning koʻproq parrandachilik tarmogʻi yaxshi rivojlangan.

Masalan, Sobiq Ittifoqda hududida quyidagi oʻziga xos va mos boʻlgan, qishloq xoʻjalik rayonlari tiplari ajratilgan edi:

1. Chekka shimolning qishloq xoʻjalik rayonlari:

Bugʻuchilik rayoni. Bugʻuchilik xoʻjaliklari yaylov chorvachilik xoʻjaligining eng ekstensiv tipidir. Bu esa tundra va shimoliy tayga yaylovlarining juda kam mahsulligi va chorva mollarini butun yil davomida yaylovlardagi yem-xashak bilan boqish zarurligi oqibatidir. Bugʻuchilikda yaylovlarning mavsumlar davomida almashilib turishi, podalarni bir landshaftlardan ikkinchi bir landshaftlarga yuzlarcha kilometr masofalarga haydab borilishining sababi shundaki, tundra va oʻrmon tundradagi yalang oʻtli va butazor yaylovlar yashil oʻsimliklarning vegetatsiya davrida, yaʼni yozda 2-3 oylardagina ozuqa bera oladi. Yilning ana shu davrida bugʻular semirib vazni oshadi. Tayga landshaftlari qishki yaylovlardir, bu yerlarda bugʻulardan bir qismigina yil davomida boqiladi. Yilning sovuq davrida xilma-xil lishayniklar asosiy yem-xashak hisoblanadi. Bunday lishayniklarning muhim xususiyati shundaki, ularning toʻyimliligi yil fasllariga qarab kam oʻzgaradi.

Qishloq xoʻjalik faoliyatining bugʻuchilikdan tashqari rayoni. Bugʻuchilik xoʻjalik tipining janubiy chegarasida shimoliy bugʻu ekologiyasi bilangina emas, chorvachilikning boshqa tarmoqlari taraqqiyoti bilan ham cheklangan. Bunday tarmoqlar yem-xashak resurslaridan foydalanadi va oziq-ovqatning mahalliy manbalarini bunyod etadi. Bugʻular oʻrnini, asosan, qoramollar olishi tabiiy muhit xoʻjalikni yuritishning intensivroq usullarining rentabelligiga yordam beradigan joylardan boshlanadi, yaʼni pichan tayyorlash va uzoq qishga chorva mollarini taʼminlash uchun boshqa yem-xashaklar hozirlanadigan joylardan boshlanadi. Chekka Shimolda chorvachilik bilan dehqonchilikning rivojlanishiga issiq mavsumning qisqaligi, hududning botqoq bosganligi, tuproqlarning noqulay xossalari

monelik qiladi. Issiqlik yetarli bo'lgan shimoliy va o'rta tayganing katta-katta maydonlarida yem-xashak yetkazib beradigan dehqonchilik uchun sharoit mavjud bo'lganidan qishloq xo'jaligi orollar kabi tarqalgan.

Ob daryosi o'rta oqimidagi qayir (bu erda 6 mln. gektarga yaqin o'tloq bor) kabi juda katta ozuqa manbalaridan foydalanishga daryo suvlarining kechroq toshib hamma yoqni suv bosib ketishi, shuningdek har yili bo'lmasa ham o'tlarni kuzgi suv bosib ketganidan pichan tayyorlash imkoniyati kamligi xalaqit beradi. Dehqonchilik bilan shug'ullanmagan hududlardagi o'tloqlardan pichan tayyorlash va qayta ishlashning ixtisoslashtirilgan yem-xashak xo'jaliklari tomonidan amalga oshirish istiqboli katta. Bunday xo'jaliklar tayyorlangan yem-xashaklarni janubiy rayonlarga jo'natib turishi mumkin.

Yakutiyaning chorvachilik rayoni. Hududning pastqam qismlarida qishloq xo'jaligining o'ziga xos tipi tarkib topdiki, bu esa tog'lar bilan o'ralgan iqlimi quruq va o'ta kontinental bo'lgan ko'p yillik muzloq tarqalgan tabiiy landshaftlar kabi o'ziga xosdir. Qisqa vegetatsiya davrida (sovuq bo'lmaydigan davr o'rta hisobda 90 kunga yaqin) havoning issiqkelishi ertapishar g'alla ekinlaridan yuqori hosil olishga imkon beradi, bu ekinlardan eng muhimlari arpa bilan bug'doydir. Qurg'oqchilik va qora sovuqlar tufayli ekinlarning hosili har yili har xildir. Gruntning ko'p yillar davomida tungib yotishi relyef shakllariga, namgarchilik va tuproq qoplami xossasiga ta'sir etib, orollar kabi dehqonchilik o'choqlarining paydo bo'lishiga sabab bo'lgan, bu erlarda botqoq bosgan hududlarning yaylov va pichanzor maydonlari orasida unda-bunda dehqonchilik qilinadigan uchastkalar uchraydi.

Aksari tabiiy o'tloqlarga asoslangan qoramolchilik xo'jalik negizidir, bu erlarda chorva mollari uzoq vaqt yaylovlarda o'tlab yuradi. Uyur yilqichiligi Markaziy Osiyo chorvachiligining an'anaviy tarmog'idir. Yoqutlar XIII-XIV asrlarda ana shu hududga yilqichilik bilan birga kirib kelgan. Yilqichilik tabiiy yem-xashak resurslaridan to'laroq foydalanishga imkon beradi. Qishning kam qor kelishi yilqilarni yaylovlarda boqishga imkon beradi. Bug'uchilikning ahamiyati kattagina. Asosiy tovar mahsuloti-go'sht bilan sut.

2. Dehqonchiligi rivojlangan yem-xashak etishtirishga moslashgan intensiv chorvachilik rayonlari:

Yevropaning shimol va shimoli-g'arbidagi katta-katta maydonlarda ko'proq chorvachilikka ixtisoslashgan qishloq xo'jaligi tarkib topgan. Buning sababi shundaki, bu yerda iqlim sernam bo'lib, issiq davr qisqa, yozda harorat u qadar yuqori bo'lmaydi. Bu esa, chorvachilikka yem-xashak bo'ladigan o'simliklar yetishtirish uchun qulaydir. Ekinzorlarga ekilgan, shuningdek madaniylashtirilgan o'tloqlardagi ko'p yillik va bir yillik o'tlar, xashaki ildiz-mevalar va rezavor mevalar, silos bostirish uchun mo'ljallangan o'simliklar, boshoqli g'alla ekinlari moyli ekinlarga nisbatan mahalliy iqlim resurslaridan to'laroq foydalanishga imkon beradi.

Bundan tashqari tuproq hosil bo'lish xarakteri bu hudud qishloq xo'jaligiga kuchli ta'sir etadi. Hozirgi vaqtda bu yerdagi chimli-podzol va podzol gleyli tuproqlarning mahsuldorligiga, avvalo, ularning tarkibida ozuqa moddalar yetishmasligi, tuproq fizik xossalari yomonligi, reaksiyasining kislotaligi xalaqit beradi. Bu yerdagi tuproqlar tabiiy hoida yuqori hosil berishga qodir emas. Bu yerlarda dehqonchilikda ana shu tuproqlarning asl tabiiy xossalari doimo engib

borishga to'g'ri keladi. Ommaviy ishlab chiqarish tajribasi shuni ko'rsatadiki, tuproqlarni madaniylashtirish (tabiiy holatdagi dastlabki tabiiy landshaftlardagiga nisbatan foydalanadigan erlarda moddalar almashinishining o'zgarishi) yerlarga o'g'it solishni va tuproqni organik moddalar bilan boyitadigan o'simliklarni zaruriy mutanosiblikda almashlab ekib turishni taqozo qiladi.

Ana shu juda muhim omillar bilan bir qatorda (bu omillar noqoratuproq zonadagi omillarga o'xshab ketadi) zaxkash joylarni quritish, tuproqlarga ommaviy tarzda ohak solish muhim ahamiyatga egadir. Dehqonchilikning tipi, shuningdek tabiiy yem-xashak maydonlarining sifati go'sht chorvachiliginigina emas, balki asosan sut chorvachiligining rivojlanishiga sabab bo'lgan. Janubiyroq rayonlarda tabiiy sharoit sut chorvachiligi uchun u qadar qulay emas, chunki yoz u qadar seryomg'ir bo'lmaydi, o'tlar esa ertaroq dag'allashib qurib qoladi.

Yem-xashakka ixtisoslashgan dehqonchilik bilan birga sut-go'sht chorvachiligi, cho'chqachilik rayoni. Bu rayonga noqoratuproq zonaning shimoli-g'arbi-Litva, Estoniya, Kaliningrad, Belorussiya bilan Sankt-Peterburgning bir qismi kiritiladi. SHarqroqda joylashgan rayonlardaniqlimining kamroq kontinentalligi, vegetatsiya davri yetarli darajada uzoq bo'lgan holda namgarchilik bilan muhim ta'minlanganligi bilan farq qiladi. Bu esa yem-xashak yetishtirishning intensiv shakllarini rivojlantirishga, tuproqlarni madaniylashtirishga qulaylik tug'dirgan. Namgarchilik ortiqcha bo'lgan, pastqam yerlarni botqoqliklar bosgan katta-katta maydonlar zovur sistemalari barpo qilinishi oqibatida ekinzorlarga va ko'p yillik o'tlar ekiladigan yaylovlar va pichanzorlarga aylantirilgan.

Noqoratuproq zonaning ana shu qismi madaniy o'tloqchilik taraqqiyotiga ko'ra boshqa qismlardan ancha oldindadir. Ekin maydoni tarkibida ana shu xilma-xil o'simliklar nisbati almashlab ekish tipiga to'g'ri keladi, bu yerlarda ko'p yillik xashaki o'tlar ham va choshiq qilinadigan ekinlar ham (kartoshka, silosbop ekinlar, xashaki ildiz-mevalar) ulushi har doim bir xilda bo'ladi. Bu rayonda noqoratuproq zonaning boshqa rayonlariga nisbatan oldinroq asosiy dala ekinlariga ko'plab mineral o'g'itlar solinib yuqori hosil olindi. Kartoshka, kichikroq maydonlarda uzun tolali zig'ir, qand lavlagi ekiladi. Bu rayonlarda sharqroqdagi rayonlardagiga nisbatan chorva mollarning zichligi (1 ga ekinzorga to'g'ri keladigan chorva mollari soni) kattaroqdir.

Sut-go'sht chorvachiligi, cho'chqachilik, kartoshkachilik va zig'irchilik rayoni. Xuddi o'sha tuproq zonasining janubi-g'arbi-Belorussiyaning katta qismi va Ukraina Polesesini qamrab oladi. Bundan oldingi rayon kabi intensiv dehqonchilikka ega. Lekin bu yerlarda ekinzorlarda ekiladigan o'tlar ko'p yillik ekma yaylovlar va pichanzorlar bilan band maydonlar kamroq, silosbop ekinlar va uzun tolali zig'ir, kartoshka bilan band yerlar esa ko'proqdir.

Ana shu asosiy tovar tarmoqlariga ega bo'lgan qishloq xo'jaligi Karpat oldida o'ziga xos xususiyatlariga ega. Bu yerda zig'irchilik bilan bir qatorda unumdorroq yerlarda qand lavlagi ekiladi. Belorussiya Polesesining juda botqoq bosgan hududlarida hozirgi vaqtda dehqonchilik asosan quritilgan torf tuproqli erlarda rivojlangan bo'lib, o'tlar-g'alla ekinlari-chopiq qilinadigan ekinlar bilan almashlab ekiladi.

Sut-go'sht chorvachiligi va zig'irchilik rayoni. Sharqqa borgan sari chimli-podzol tuproqlar zonasi hududida sovuq bo'lmaydigan davr va vegetatsiya davri qisqaradi. Bahorgi va yozgi qurg'oqchiliklar ko'payadi. Havo harorati bir xil bo'lgan hududlarda bu yerda namgarchilik kamroq bo'ladi. Iqlim potensialining pasayishi asosiy dalaekinlari hosildorligining darajasiga, dehqonchilik sistemasiga va turli ekinlar nisbatiga ta'sir qiladi. Bu yerlarda chopiqqilinadigan ekinlar maydoni kamroq, qora shudgorlar esa ko'proqdir. G'alla-o'tlarni almashlab ekish, shuningdek yerlarga ekin ekmasdan dam berish sistemasida uzun tolali zig'ir muhim o'rin tutadi. Ko'p yillik o'tlar zig'irdan oldin ekilsa yaxshi natija beradi.

Rayonning g'arbiy qismlarida iqlim zig'irchilik uchun ayniqsaqulaydir. Yengil tuproqlar tarqalgap joylarda (muzlik suvlari jinslarni tunlab ketgan hududlarda) zig'ir ekilmaydi, bunday yerlarda ko'p yillik o'tlar maydoni kamroq, kartoshka tovar beradigan ekin hisoblanadi. Chorvachilikning yem-xashak bazasi g'arbroqda joylashgan rayonlardagiga nisbatan u qadar intensiv emas, quritilgan o'tloqlar, ko'p yillik ekma pichanzorlar, yaylovlar kamroq.

Go'sht-sut chorvachiligi, kartoshkachilik, cho'chqachilik, g'alla xo'jaligi rayoni.Rossiyaning Yevropa qismidagi chimli-podzol tuproqlar zonasining janubiy qismidagi anchagina katta maydonlarda zig'irchilik rivojlangan emas. Bu esaiqlim sharoitiga bog'liqdir. Bahor vayoz paytlarida yog'in-sochin yetishmaydigan va havo temperaturasi baland bo'lgan yillar tez-tez takrorlanib turadi. Rossiyaning Markaziy iqtisodiy rayonning yirik shaharlaridagi qishloq xo'jaligi qaymog'i olinmagan sut etkazib berishga, kartoshka vasabzavot yetishtirishga ixtisoslashgan. Tovarahamiyatiga ega bo'lgan asosiy tarmoqlari: sut yetishtirish ustun turgan qoramolchilik, kartoshkachilik, cho'chqachilik. Tovar beradigan tarmoq hisoblangan g'alla xo'jaligi katta maydonlarda rivojlangan.

Dehqonchilik intensiv rivojlangan kartoshkachilik, sut-go'sht chorvachiligi rivojlangan sabzavotchilik o'choqlari rayoni. Moskva aglomeratsiyasiga yondosh hududlar qishloq xo'jaligining o'ta intensivligi, chorvachilikning sutga ixtisoslashishi, parrandachilik va cho'chqachilikka, asosan yem-xashak etishtiriladigan dehqonchilikka ixtisoslashganligi, chopiq qilinadigan ekinlar, jumladan kartoshka katta o'rin tutishi bilan keskin farq qiladi. Melioratsiya qilingan (quritilgan, shuningdek, sug'orilgan) erlar maydoni katta. Ko'plab organik vamineral o'g'itlar ishlatiladi.

Sut-go'sht chorvachiligi, cho'chqachilik kartoshkachilik, sabzavotchilik rayoni.Sankt-Peterburga yondosh bu hudud qishloq xo'jaligi ham yuqoridagi kabi ixtisoslashgan bo'lib o'ta intensivdir. Lekin hudud dehqonchilik taraqqiy etgan maydonlarning shimoliy chekkasida bo'lganligidan, yerlar kuchli botqoqlanganligidan xo'jalik intensiv yem-xashak ishlab chiqarishga-ko'p yillik va bir yillik ekinlar, silosbop ekinlar, kartoshka, kamroq miqdorda g'alla ekinlari etishtirishga ixtisoslashgan. Ekinzorlar, ko'p yillik ekma pichanzorlar, yaylovlar aksari quritilgan yerlardadir.

Tabiiy pichanzorlar va yaylovlar katta rol o'ynaydigan sut-go'shtchorvachiligi rayoni. Shimoliy va o'rta tayga zonachalaridagi morena relyefli tekisliklarda kamdan-kam dehqonchilik qilinadi, bu yerlarda sut-go'sht chorvachilik xo'jaligi tipi tarkib topgan. Bu erlarda yaqin vaqtlarda ham chorva mollari Shimoliy

Dvina va boshqa katta daryolarning qayirlaridan hamda tabiiy yaylovlardan o'rib olingan pichanlar bilan boqilar edi. Hozirgi vaqtda ham qayir o'tloqlari qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlarning juda muhim qismi hisoblanadi, lekin o'tloq o'tlari bilan bir qatorda yem-xashak ekinlari etishtiriladi, shuningdek janubroqdagi rayonlarda konsentratsiya qilingan (omuxta) yemlar keltiriladi.

Sut-go'sht va qisman go'sht-sut chorvachiligi hamda g'alla xo'jaligi rayoni. Iqlim kontinentalligining orta borishi, zonaning yog'in-sochin etarli bo'lgan hamda chimli-podzol tuproqlar tarqalgan shimoliy rayonlarida bo'lganligi dehqonchilikda o'z aksini topgan. Bu yerlarda intensiv va namlikni xush ko'radigan ekinlarning roli kam. Yem-xashak bazasining strukturasi o'zgaradi. Tabiiy yem-xashak beradigan joylarning roli orta boradi. Bu yerlarda 1 ga qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yer hisobiga chorva zichligi kamroq. Sharqiy Yevropa tekisligining ana shu qismi to'rtlamchi davrdagi muzliklar bilan qoplanmagan, shuning uchun bu yerlarda tuproq g'alla ekinlari etishtirish uchun xiyla qulay (Vyatka dalasi, Perm oblastining janubi). Xarakterli almashlabekishlar: g'alla-o'tlar-qora shudgor.

3. Sobiq ittifoqning Yevropa qismining dehqonchilik-chorvachilik rayonlari:

Asosiy tarmoqlar nisbatidagi muhim o'zgarishlar, qishloq xo'jaligining o'zgacha ishlab chiqarish tipiga o'tishi, zonal tuproq tiplari, chimli-podzol tuproqlar va kamroq yuvilgan sur o'rmon tuproqlari, so'ngra podzollashgan va ishqori yuvilgan qora tuproqlar chegarasiga to'g'ri keladi. Bu yerda o'tloq qishloq xo'jalik maydonining asosiy qismini tashkil etadi. Tuproqlar uchun zarur bo'lgan xossalarni tarkib toptirish uchun ketadigan xarajatlar kamayadi.

Neytral suv balansiga yaqin bo'lgan ana shu rayonlarda ayrim ekinlar orasida, ya'ni mahalliy tabiiy sharoit optimal hisoblangan ekinlar orasida texnika ekinlari (g'arbroqda joylashgan qismlarda-qand lavlagi, shimoliy qismlarda kartoshka, janubiy qismlarda kungaboqar) asosiy o'rin tutadi. Hamma joyda g'alla ekinlari (kuzgi bug'doy), silos ekinlari (birinchi galda makkajo'xori), xashaki ildiz mevalilar, dukkakli em-xashak ekinlari (beda) uchun sharoit qulay. Yuqorida biz ko'rib chiqqan rayonlarga nisbatan bu yerlarda yilning iliq faslida mollarni yaylovlarda boqish uchun sharoit kamroq. Bu esa haydash uchun yaroqli yerlarning kam ekanligigagina bog'liq emas.

Xalq xo'jaligi nuqtai nazaridan bu zonalarda haydash uchun yaroqli bo'lgan yerlarni ko'p yillik madaniy o'tloqlarga aylantirish chimli-podzol tuproqlar zonasidagiga nisbatan iqtisodiy jihatdan kamroq rentabeldir. Ayni vaqtda bu yerlarda mollar molxonalarda boqiladigan davrda chorvani shirali yem-xashak bilan ta'minlaydigan ekinlar etishtirish uchun ketadigan xarajatlar kamroqdir (silos uchun makkajo'xori, xashaki ildiz mevalilar, tunganak mevalilar) va texnika hamda g'alla ekinlarining yem-xashak bo'ladigan chiqindilari massasi katta. O'simlik xom ashyosini texnikaviy jihatdan qayta ishlashda chiqadigan chiqindilarning bir qismi-turp, barda, ichki po'stloq-mavsumiy yem-xashaklardandir. Bularning hammasi sut chorvachiligiga nisbatan go'sht chorvachiligining intensiv formalariga qulaylik tug'diradi. Yaylovlar kam bo'lganda hamda yem-xashak resurslari ko'p va xilma-xil bo'lgan yerlarda qoramollarni go'sht uchun yaylovlardan foydalanilmaydigan mavsumda boqish maqsadga muvofiqdir.

Bu esa tabiiy yem-xashaklar serob bo'lgan boshqa zonalarda chorva mollarini

yaylovlarda semirtirish bilan baravardir. Chorva mollarini go'sht uchun semirtirish mavsumiy ish. Sut chorvachiligida esa mollarni yil bo'yi bir tekisda boqishga to'g'ri keladi. Buning ustiga chorva mollarning soni ham kam o'zgaradi. Yaylov maydonlari kichik bo'lgan rayonlarda qoramollar orasida sigirlarning kam bo'lishiga sabab ana shu.

Muayyan darajada umumiy bo'lgan sharoitda o'rmon-dasht zonasida tarmoqlarning ana shunday mutanosibligi bu zona ayrim qismlari orasida xo'jalikning intensivligi ixtisosidagi tafovutlarda ko'rinadi. Bu esa shimoldan janubga borgan sari iqlim va tuproq sharoitining almashinib borishi, tabiiy o'rmonlar landshaftidan o'tloq-dasht landshaftiga o'tilishi xuddi ana shunday tuproq zonalarida g'arbdan sharqqa tomon iqlim kontinentalligining kuchaya borishiga bog'liqdir. Bu esa vegetatsiya davrida issiqlik va namgarchilikning kamaya boriishda o'z aksini topgan.

Lavlagichilik, don xo'jaligi, go'sht-sut chorvachiligi, cho'chqachilik rayoni. Chopiq qilinadigan ekinlar chopiq qilinmaydigan g'alla ekinlari bilan taxminan bir xil maydonni egallaydi. Bu erda boshqa biron-bir rayondagi ekinlarga nisbatan qand lavlagining salmog'i katta. Rayonning shimoliy qismlarida, shuningdek Volin-Podoliya qirlarining sernam hududlarida tovar kartoshka ham etishtiriladi. Em-xashak bazasi strukturasi o'ta intensiv. SHirali va yashil em-xashaklar katta rol o'ynaydi. YAylovlar maydoni juda kichik. Maydon birligi hisobida qishlotq xo'jaligi mahsulotining qiymatiga ko'ra bu rayon mamlakatimizda eng oldingi o'rinlardan biridadir. Qand ishlab chiqarish chiqindilariga asoslangan qoramollar boqish taraqqiy etgan.

Don xo'jaligi, kartoshkachilik, sut-go'sht chorvachiligi va cho'chqachilik rayoni. O'rmon-dasht zonasining shimolroqda joylashgan sharqiy qismlarida sur o'rmon tuprog'i, ishqori yuvilgan qora tuproq, podzollashgan tuproqlarda almashlab ekishda qand lavlagining salmog'i kamaya boradi. O'simlikchilikda tovar mahsulot tarkibida g'alla ekinlari birinchi o'rinda turadi. Intensiv ekinlar orasida kartoshkaning ahamiyati katta, qand lavlagi, nasha ekiladigan yerlar ko'p emas. Bu yerlarda almashlab ekishda yuqorida ko'rib chiqilgan rayonga nisbatan chopiq qilinadigan ekinlar qancha kam bo'lsa, shudgorlar shuncha ko'p. Yem-xashak bazasining strukturasi ham intensiv, qoramollar boqish, cho'chqachilik juda taraqqiy etgan.

Don xo'jaligi, go'sht-sut chorvachiligi rayoni. Yuqoridagi ikkita rayondagi kabi shimoldan janubga tomon tuproq tiplari almashina borishi bilan xarakterlanadi, lekin bu yerda yog'in-sochin kam va temperatura yig'indisi ham pastroqdir. Dehqonchilik ko'proq g'alla ekishga ixtisoslashgan (bunda bahori bug'doy ko'proq ekiladi, chunki qattiq keladi). Chopiq qilinadigan ekinlarning ahamiyati bu yerda undan ham kam. G'alla ekinlari almashlab ekiladi va erlar shudgor qilinadi. Bu rayonga kungaboqar ekiladigan arealning shimoliy chekkasigina kirib kelgan. Qand lavlagi maydoni katta emas va kichikroq maydonlarni ishg'ol qilgan. Bu erlarda kartoshka maydoni ham ko'p emas.

4. Asosiy don xo'jaligi rayonlari:

Dasht zonasida yog'in-sochinning etishmasligi ishlov berilgan yerlardagi ekinlarning mahsuldorligini cheklab turadigan asosiy omil buo'lib qoladi. Ekinlar tarkibining o'zgarishi ham asosan yog'ingarchilikning kam bo'lishi bilan bog'liq. Bu erlarda ham yerlar ko'p haydalgan, faqat qoramtir kashtan tuproqlar hamda

shoʻrtoblar uchraydigan joylarda, asosan rayonning sharqida yerlar kamroq haydalgan. Shirali va yashil yem-xashak beradigan oʻsimliklar ekin maydonlarining kattagina qismini egallaydi (20-30%). Biroq asosiy gʻalla ekinlariga nisbatan bu ekinlarning hosildorligi uchun zarur boʻlgan iqlim sharoiti u qadar qulay emas.

Bu joylarda sugʻoriladigan yerlarda yem-xashak ekinlari etishtirish iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqdir. Hozirgi vaqtda sugʻoriladigan katta-katta maydonlarda xoʻjalikning ixtisoslashtirilgan ishlab chiqarish tiplari, masalan, sholikorlik, lavlagikorlik-gʻallachilik, mevachilik-uzumchilik, sabzavotchilik tiplari tarkib topdi (shimolroqda joylashgan rayonlar uchun janubiy sabzavot ekinlari etishtiriladi).

Don xoʻjaligi, uzumchilik va mevachilik, sabzavotchilik, goʻsht-sut chorvachiligi rayoni. Dasht zonasining eng gʻarbiy qismida kattagina hududni oʻz ichiga olgan bu yerda gʻalla hamda chopiq qilinadigan ekinlar almashlab ekiladigan, kuzgi bugʻdoy, arpa, makkajoʻxori almashlab ekiladigan dalachilik bilan bir qatorda uzumchilik, mevachilik, sugʻoriladigan yerlarda sabzavotchilik taraqqiy etgan. Bular Rossiyaning-Odessa, Nikolaev, Xerson oblastlarining Qora dengiz sohiliga yaqin qismlari, Qrim yarimorolining tekislikdan iborat maydonlaridir. Bu yerda iqlim moʻʼtadil quruq boʻlib, vegetatsiya davri uzoq koʻp yillik ekinlarning qishdan eson-omon oʻtishi uchun sharoit qulay. Bu rayonda sugʻoriladigan yerlar maydoni katta, kelajakda obikor dehqonchilikning yanada rivojlantirilishi oqibatida qishloq xoʻjaligining xarakteri oʻzgarishi mumkin.

Gʻalla ekinlari, kungaboqar, sabzavot ekinlari, sut-goʻsht chorvachiligi, choʻchqachilik rayoni. Ukraina hududida dashtzonasining qolgan qismini egallaydi. Bu rayonning umumiy xususiyatlari, yerlarning koʻp haydalganligi, ekinlar orasida chopiq qilinadigan ekinlar ekilganligi (don uchun makkajoʻxori, kungaboqar), kuzgi bugʻdoy, arpa katta oʻrin tutishi, em-xashak bazasi intensiv tipda rivojlanganligi. Sabzavotchilik va sut etishtirish Ukrainaning industrial qismida shahar aholisi salmogʻining katta oʻrin tutishiga bogʻliqdir.

Gʻalla ekinlari, kungaboqar, goʻsht-sut chorvachiligi rayoni. Dasht zonasining sharqroqda joylashgan qismlarida iqlimning quruq boʻlishi, yozning qisqa kelishi va qishning sovuq boʻlishi oqibatida qishloq xoʻjaligining intensiv darajasi sezilarli ravishda kamaya boradi. Bu esa ekinlar tarkibini cheklab qoʻyadi. Chopiq qilinadigan ekinlar salmogʻi kamroqdir. Haydaladigan yerlar strukturasi almashlab ekishning koʻproq gʻalla bilan chopiq qilinadigan ekinlarni almashlab ekish tipiga toʻgʻri keladi. Rayonning sharqiy qismida kuzgi bugʻdoy bahori bugʻdoydan keyinda turadi, makkajoʻxori don uchun emas, faqatsilos uchun ekiladi. Koʻp yillik daraxtlar ahamiyati kamroq, tabiiy yem-xashaklarniki-koʻproqdir.

Qand lavlagi, don xoʻjaligi, kungaboqar, goʻsht-sut chorvachiligi, choʻchqachilik rayoni. Kavkazoldi dashtlarida orografik omilning iqlimga taʼsir etishi natijasida nisbatan kichik maydonda qishloq xoʻjaligining xilma-xil tiplari tarkib topgan. Rayonning gʻarbiy qismida sutkalik oʻrtacha temperatura yigindisi 3400° dan yuqori boʻlib, suvbalansi neytral holatga yaqin. Bu yerlarda sugʻormasdan ekiladigan qand lavlagining katta areali joylashgan. Qand lavlagi bilan gʻalla ekinlari (asosan kuzgi bugʻdoy va makkajoʻxori), kungaboqar, yem-xashak ekinlari almashlab ekiladi. Mevachilik va sabzavotchilik taraqqiy etgan. Chorvachilik haydaladigan

erlarda etishtiriladigan yem-xashakka ko'proq asoslanganki, boshqa bironta rayonda bunday emas.

Don xo'jaligi, kungaboqar, go'sht-sut chorvachiligi, mayin junli qo'ychilik rayoni. Kavkazoldi dashtining sharqida g'arbidagiga nisbatan iqlim ancha quruq. Qishloq xo'jalik intensiv tipda, katta-katta maydonlarda tabiiy yem-xashak etishtiriladi. Namgarchilik ko'proq talabqiladigan ekinlar maydoni ko'p emas. Yerlarga dam berish uchun shudgor qilinadi. Shunga qaramasdan, bu yerda ham ekinlar orasida chopiq qilinadigan ekinlar anchagina (makkajo'xori, kungaboqar). Chorvachilikning asosiy tovar tarmog'i mayin junli qo'ychilikdir. Sobiq ittifoqning mayin junli qo'yzotlarining eng yaxshi asosiy zotdor fondi ana shu yerdadir. Manich botig'idagi va Kaspiybo'yi pasttekisligidagi chalacho'l yaylovlarda mayin junli qo'ylar boqiladi.

Don xo'jaligi, go'sht-sut chorvachiligi, mayin junli qo'ychilik rayoni. Sobiq ittifoqning Yevropa qismining dasht zonasidagi Manich bo'yi va Volganing sharqidagi qismlarida namgarchilik kamroq bo'lib, g'alla ekinlari dehqonchilikda ajralib turadi. Bu erlarda tez-tez qurg'oqchilik bo'lib turganidan oldingi rayonlarga nisbatan chopiq qilinadigan ekinlar kamroqdir. Qishda harorat minimumi past bo'lganidan kuzgi bug'doy ekib bo'lmaydi. Asosan g'alla bilan shudgor qilingan erlarmashinib turiladi. Bir tomonlama g'allachilikka ixtisoslashgan dehqonchilik barcha qora tuproqli dasht zonasini o'z ichiga oladi. Zavoljega (volga ortiga) kirib borib, o'rmon-dasht chegarasigacha davom etadi. SHO'rtob tuproqlar keng tarqalgan, Janubiy Uralda esa toshloq tuproq ko'p uchraydi. Natijada qishloq xo'jaliligida foydalaniladigan erlar orasida yaylovlar katta o'rin tutadi. Demak, chorvachilikda qo'ychilik muhim ahamiyatga ega.

5. G'arbiy Sibir tekisliklari va Qozog'iston shimoliy qismlarining qishloq xo'jalik rayonlari:

G'arbdan sharqqa borgan sari qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi tiplarining o'zgara borishi tendensiyasi G'arbiy Sibirda ham ko'zga tashlanadi. Bu yerlarda issiqligi bir xil bo'lgan xuddi shu zonalardagiga qaraganda yog'in-sochin miqdori kamaya boradi. G'arbiy Sibir tekisligining suvi oqib ketmaganligidan qishloq xo'jaligi uchun o'ziga xos sharoit vujudga keladi. Tabiiy muhitning o'ziga xosligidan tashqari qishloq xo'jaligi tiplarining tarkib topishiga Sibirning iqtisodiy va ijtimoiy tarixi xususiyatlari ham ta'sir etgan. Bu yerda Sobiq Ittifoqning Yevropa qismidagi xuddi ana shu zonalardagiga nisbatan qishloq xo'jaligida band bo'lgan bir xodimga to'g'ri keladigan yer maydoni ancha katta.

Qishloq xo'jaligining intensivligi ancha past va uning tiplari zonalar bo'ylab katta farq qilmaydi. Igna bargli o'rmonlar va podzol hamda botqoq tuproq zonasida Rossiyaning Yevropa qismidagi o'rmon zonasining rayonlaridagi xo'jaliklarga o'xshash xo'jaliklar, ya'ni ixtisoslashishi, dehqonchiligi sistemasi, mol boqish xususiyatlari unumli bo'lgan xo'jaliklar tarkib topgan emas. G'arbiy Sibir tekisligidagi chimli-podzol tuproqlar zonasida dehqonchilik asosan yirik daryolarning vodiylaridagi kichik-kichik maydonlardagina rivojlangan. Daryolar bo'yidagi kambar polosadan tashqarida hamma joyni botqoqlik bosib yotadi. Qayin-tog'terak o'rmonlari zonasidagi yerlar ko'proq o'zlashtirilgan.

Go'sht-sut chorvachiligi va G'arbiy Sibirdagi don xo'jaligi rayoni. Aralash o'rmonlar zonasining janubiy chekkasini (chimli-podzol va botqoq tuproqlar), mayda bargli o'rmonlar (bu yerning zonal tuproq tipi sur o'rmon tuproqlari) va o'tloq dashtlarni (tuproq'i qora tuproq) o'z ichiga oladi. Biroq daryolar o'rtasidagi tekisliklarda zonal tuproqlar intrazonal tuproqlarga nisbatan kichikroq maydonni egallaydi. Qishloq xo'jaligining ixtisoslashishi butun rayonda katta farq qilmaydi. Rayonning shimolroqdagi qismlarida xo'jalik ko'proq chorvachilikka ixtisoslashgan. Yerlari quruq bo'lgan uchastkalarda haydalgan maydonlar katta o'rin tutadi. Tabiiy yem-xashak bilan band yerlar hamda ekinzorlar nisbatiga ko'ra G'arbiy Sibir o'rmon-dashti Rossiyaning Yevropa qismidagi janubiy tayga va chimli-podzol tuproqlar zonasiga o'xshab ketadi.

Bu yerlarda o'simlikchilik yuksak tovar beradigan tarmoq bo'lib, ahamiyatga ko'ra chorvachilikdan keyinda turadi. Shu bilan birgalikda dehqonchilik ekinlar tarkibi va sistemasiga ko'ra Rossiya Yevropa qismidagi o'rmon-dasht dehqonchiligiga emas, balki dasht zonasining dehqonchiligiga o'xshab ketadi. Bu bir tomonlama g'alla dehqonchiligi bo'lib, ekinlar orasida bahori bug'doy asosiy o'rin tutadi va yerlar ekin ekilmasdan shudgor qilib tashlanadi.

Don xo'jaligi, go'sht-sut chorvachiligi, qo'ychilik rayoni. G'arbiy Sibir tekisligining janubiy qismlarida taxminan o'tloq dasht bilan dasht chegarasidan boshlab qishloq xo'jaligining strukturasi boshqacha tarkib topgan. Bu joyda yerlar ko'proq haydalgan, yem-xashak bilan band maydonlar xarakteri boshqacha, ekin maydonlari tarkibida g'alla ekinlari ulushi kattaroq. Dasht g'allachiligining sharqiy varianti Rossiyaning Yevropa qismidagi tarmoqlardan farqli o'laroq, yog'in-sochin etishmaydigan sharoitda olib boriladi. Kechki yoz oylari ayniqsa sernam bo'ladi. Bahor paytlarida qurg'oqchilik bo'lib, shamol eroziyasi avj oladi.

Qishloq xo'jaligining elektroenergiyasi bilan ta'minlanishi, agrotexnika, yuqori unumli mashinalar ishlatilishi natijasida bu yerlarda dehqonchilik rentabelli tarmoq hisoblanadi. Ayniqsa qattiq bug'doy navlarining sifati yuqori. Dasht zonasining boshqa rayonlarga nisbatan ekin maydonlari tarkibi bir xil, bahori g'alla ekinlari, bug'doy va arpa asosiy o'rin tutadi. Tuproqda nam saqlash uchun yerni shudgor qilish birinchi darajali ahamiyatga ega. Shamol eroziyasiga qarshi kurashning asosiy usuli tuproqning ustki qatlamini ag'darmasdan yer haydash hisoblanadi. Rayonning yem-xashak resurslari tuproq qoplami kompleks bo'lgan (sho'rtoblar ko'p bo'lgan), shuningdek, qumli va toshloq tuproqlar tarqalgan joylarda yaylovlarning ko'pligi sababli bu rayon em-xashak resurslari bilan yaxshi ta'minlangan. Bu yerda dasht zonasining g'arbiy rayonlaridagiga nisbatan chorvachilik ko'proq go'sht etishtirishga ixtisoslashgan. Mayin junli va yarim mayin junli qo'ychilik rivojlangan.

6. Cho'llar, chalacho'llar va tog'li oblastlardagi yaylov chorvachiligi rayonlari:

Yaylovlarda qo'y, qoramol, yilqi, tuya boqish hozirgi vaqtda umuman yoki deyarli dehqonchilik qilinmaydigan hududlarda asosiy o'rin tutadi. Quruq dashtlar, chalacho'llar va cho'llardagi ko'pgina o'simliklar chorva uchun qimmatli em-xashakdir. Mollarni deyarli yil bo'yi dalalarda boqish, qorning qalinligiga yoki qor qoplaminin oz-ko'p vaqt yotishiga shuningdek qish paytida quruq iqlim zonalaridagi o'simliklarning to'yimli xususiyati saqlanishiga bog'liqdir. Xo'jaliklarning chorvachilikka ixtisoslashishi va aksari yaylovlarda mol boqilishi boshqa tog'li

rayonlar uchun ham xarakterlidir. Bunday rayonlarda iqlimning quruq bo'lishi dehqonchilikka xalaqit bersa, boshqa rayonlarda issiqlikning etishmasligi, uchinchi rayonlarda esa, shuningdek relyef va tog' jinslarining xususiyatlari xalaqit beradi.

Bir vaqtlar yaylov chorvachiligining xilma-xil shakllari, aksari ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi shakllari ustun turar edi. Bunday xo'jaliklarda chorva mollari yaylovlarda yilning ma'lum mavsumlarida bir tabiat landshaftidan boshqa tabiat landshaftiga chorva mollarni haydab o'tish yo'li bilan boqilar edi. Ana shu tabiiy landshaftlar o'simliklar taraqqiyotining mavsumiy ritmiga ko'ra qanchalik katta farq qilsa, chorva mollarini yaylovlarda boqish imkoniyatlari shuncha keng bo'ladi. Podalar cho'l va chalacho'llardan yoz paytida baland tog'larga yoki tekisliklarda dasht zonasiga haydab borilar edi.

Bunday paytlarda mollarni yuzlab kilometrga haydab borishga to'g'ri kelar edi. Qishda esa yoz paytida suv bo'lmaganida mol boqish mumkin bo'lmagan yaylovlardagina foydalanilar edi. Hozirgi vaqtda ham mavsumlarga qarab yaylovlarni o'zgartirib turish usulidan foydalaniladi. Lekin bunda boshqa sabablar muhim o'rin tutadi va bu usul keng taraqqiy etgan emas. Chorva mollarini asrashning yillik rejimi ko'proq sug'oriladigan yerlarda qurg'oqchil zonalarda etishtiriladigan yem-xashakka bog'liq, bo'lib qoldi. Chorva mollari qish paytida muayyan davr davomida dehqonchilik rayonlarida boqiladi yoki ma'lum tipdagi yem-xashak bu joylardan qishda mol boqiladigan joylarga yetkazib beriladi.

Dehqonchilik qilinadigan hududlarda, ya'ni o'tloq chorvachilik rayonlarida buzoqlarni og'ilxonalarda boqish ahamiyat kasb etmoqda. Xo'jalik xususiyatlarining o'zgarishi transport vositalarining takomillashganligiga, yem-xashakka turlicha yo'llar bilan ishlov berishga bog'liqdir. Ana shunday qilinganda em-xashak tashish qulay bo'lib, ularning to'yimliliigi uzoq saqlanadi. Yaylov chorvachiligini intensivlashtirish uchun ketgan xarajatlarning rentabelligi chorva mollari zotlarining yaxshilanishi, jumladan, mayin junli qo'ychilik va qorako'lchilikning rivojlanishi bilan orta bormoqda. Ko'chmanchilarning o'troq hayot tarziga ko'chishi yaylov chorvachiligidagi iqtisodiy va tashkiliy-texnikaviy shakllarning o'zgarishi oqibati bo'ldi.

Yaylov chorvachiligi, qo'ychilik, go'sht qoramolchiligi va g'alla dehqonchiligi rayoni. Dasht va quruq dashtlardagi g'alla dehqonchiligi bilan chalacho'l va cho'llardagi yaylov chorvachiligi orasida oraliq polosa, boshqacha qilib aytganda, yerlardan foydalanishning ana shu turli usullari bir-biri bilan tutashgan zona joylashgan. Bu yerlarda ekinzorlar bilan birgalikda yaylov massivlari ham uchraydi. G'alla dehqonchiligining qurg'oqchil landshaftlar tomon tarqalish chegarasi iqlimgagina emas, balki tuproq hosil qiluvchi jinslar va tuproqlarning xossalari ham bog'liqdir. Ana shu iqlim sharoitida qulayroq tuproqli yerlar ekinzorlar bilan band, sho'rtoblarda, sho'rtobsimon tuproqlarda, toshloq yonbag'irlarda yaylovlar saqlanib qolgan. Ayrim joylarda erlarni bostirib sug'orish yoki oddiy sug'orish bilan dehqonchilik qilinadi.

Chalacho'l va cho'llardagi yaylov chorvachiligi rayoni. Biz yuqorida ko'rib chiqqan rayonga bevosita yondashadi. Bu yerlarda qishloq xo'jaligi shimoliy chalacho'llardagi turli tipda xo'jalik yuritiladigan erlarda olib boriladi. Lekin sug'orma dehqonchilik katta o'rin tutmaydi (Volga, Ural, Sirdaryo, Irtish, Ili kabi

yirik daryolarning suvlari bilan sug'oriladigan katta-katta maydonlar bundan mustasno). Yem-xashak resurslarining o'zlashtirilishiga bevosita bog'liq bo'lgan ikkita shartdan yaylovlarga qo'shimcha ravishda boshqa yem-xashak berish yo'li bilan chorva mollarini ta'minlash va suvloqlar shoxobchalarini yaratish muhim rol o'ynaydi. Bulardan birinchisi ikkinchisiga nisbatan osonroq bo'lib, kamroq mablag' talab qiladi. Bu tadbirlardan har biri bir vaqtda va bir me'yorda amalga oshirilganda samarali bo'ladi.

Chalacho'llar zonasida shuvoq-boshoqli o'tlardan mexanizatsiya yordamida pichan tayyorlash usuli keng tarqalgan bo'lsa ham, hosil kam va doimiy bo'lmaganidan yozgi va qishki yem-xashak resurslarini tenglashtirish vazifasini qismangina hal qiladi. Yerlarni bostirib sug'orish qishga yem-xashak zapasini tayyorlashga yordam bersa ham, rayondagi kichik-kichik hududlardagina samara beradi. Umuman chalacho'llar bahorgi va kuzgi paytlardagina mol boqish uchun yaroqlidir. Biroq qumloq, qumli, gilli, toshloq maydonlar, to'qay va sho'rak landshaftlarning o'simliklari xilma-xil bo'lganidan ulardan ko'pincha yilning $\frac{2}{3}$ qismidan $\frac{3}{4}$ qismigacha foydalaniladi.

Qozog'iston va Quyi Volgabo'yidagi chala-cho'llarning shimoliy qismlarida chorva mollarini bir joyda boqish 4-5 oy davom etadi. Chorva mollari qishlaydigan joylar qishda pichan tayyorlashga imkon beradigan o'simlik tiplari bor-yo'qligiga qarab tanlanadi. Ana shunday joylarga yaqin yaylovlardan yilning sovuq paytida foydalaniladi. Mavsumiy em-xashak resurslarini yaratishning boshqa tadbirlari ham mavjud. Masalan, qishda qishlovda saqlanadigai mollar sonini kamaytirish (yaylov mavsumini oxirida chorva mollar sonining ancha qismini go'shtga topshirish), turli yaylovli hududlarda xilma-xil yoshlardagi chorva mollarni boqish shular jumlasidan biridir. Xo'jalikni rivojlantirish hamda yem-xashak resurslaridan yanada samarali foydalanish uchun sug'oriladigan maydonlarda maxsus yem-xashak yetishtirish kerak bo'ladi.

Janubiy chalacho'llarning qorako'lchilik asosiy rol o'ynaydigan yaylov chorvachiligi rayoni. Bu yerda qish shimoliy cho'llardan farq qilib, kamroq davom etadi va u qadar sovuq emas, yoz oylarida yog'in umuman yog'maydi. Yaylovlardagi o'simliklar taraqqiyotining mavsumiy ritmi va tarkibi xiyla boshqacha. Yilning yarmida, ya'ni sovuq bo'ladigan davrida ham vegetatsiya davom etadi. Bahorgi efemer o'simliklar yem-xashak resurslarining eng mahalliy yem-xashagidir. Chorva mollarining tarkibiga iqlim sharoiti bevosita ta'sir etadi. Bu erlarda qorakul qo'ylar va tuyalar asosiy chorva mollaridir. Mayin junli yoki go'sht va yog' beradigan qo'ylar u qadar ahamiyatli emas. Bir-birlaridan anchagina uzoqda joylashgan mineral suvli, suvloqlari bo'lgan yaylovlardan foydalaniladi. Qorako'lchilik yaqqol ekologik chegaraga ega. Markaziy Osiyoning tog'li va tog'oldi oblastlarida tarqalmagan (mayin junli va go'sht- yog' beradigan qo'ychilikdan farqi ana shunda).

Tog'li oblastlarning yaylov chorvachiligi rayonlari. Tog' yaylovi chorvachiligi tekislikdagi chorvachilikka nisbatan xilma-xildir. Yem-xashak resurslari balandroqdagi vertikal mintaqalarda dasht yaylovlarnigina emas, o'tloq dasht yaylovlarni, bo'liqo'tloqlar, subalp va alp yaylovlarni ham o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, tabiiy-geografik sharoitlarning vertikal zonalligi turli landshaftlarni

va binobarin, turli tiplardagi yaylovlarni go'yo bir-biriga yaqinlashtiradi. Ana shu yaylovlarda turli mavsumlarda chorva mollari boqlishi mumkin.

Bu esa yillik yaylov sikli davomida (ya'ni yilning sovuq yarim davrida quyi mintaqalarda, yozgi oylarda esa baland mintaqalarda) mol boqish, chorva mollarning yem-xashakka bo'lgan ehtiyojini yil davomida bir me'yorda va tularoq qondirishga imkon beradi.

Yaylov chorvachiligi tog'li hududlarning ayrim qismlaridagina tarkib topgan. Birinchidan o'rmonlar emas, balki o't o'simliklar o'sadigan joylarda. Ikkinchidai, turli vertikal mintaqalardagi yaylovlar maydoni me'yorini butun yil davomida yoki yilning aksari qismida chorvani yaylovlarda boqish imkonini beradi. Bu ikkita iqlim sharoiti xiyla nam bo'lgan sharoitda, masalan, Karpat tog'larida, shuningdek Kavkazning g'arbiy qismlarida tog' yaylov chorvachiligini rivojlantirishni sharqdagidan farqli o'laroq cheklab qo'yadi. Oltoyda bunday chorvachilik faqat qurg'oqchil tog' oraliqlaridan soyliklarda uchraydi, lekin tog'li o'lkaning chekka kismalarida uchramaydi.

Tog' yaylov chorvachiligining asosiy tarmog'i turli yo'nalishlardagi quychilik bo'lib, mayin junli qo'ylardan tortib jun-go'sht beradigan va go'sht-yog' beradigan qo'ylargacha boqiladi. Sut-go'sht chorvachiligi Kavkaz va Oltoyda, Zakavkaze va Markaziy Osiyoning tog'li rayonlaridagi sernam joylarda rivojlangan.

Tog'li o'lkalalar qurg'oqchil tekisliklarga yondashib kelgan joylarda yaylov chorvachiligining tog'-tekislik oraliq tiplari taraqqiy etgan. Bunday chorvachilik tiplarining iqtisodiy jihatdan katta ahamiyatga ega ekanligi shu bilan izohlanadiki, tog'lardagi yaylovlar bilan tekisliklardagi yaylovlar bir-birlarini to'ldiradi. Bunday yaylovlar Qozog'istonning janubiy oblastlari uchun xarakterlidir.

7. Tor ixtisoslashgan dehqonchilik xo'jaligi rayonlari:

Bunday rayonlar ayrim o'simliklar uchun tabiiy muhit va iqtisodiy sharoit eng qulay bo'lgan joylarda, ya'ni o'sish uchun shu joyning iqlim, tuproqlariga moslashgan va ularni ekish uchun sharoit hozirgi zamon qishloq xo'jaligining negizini tashkil etadigai ko'pchilik boshqa ekinlardan keskin farq qiladigan joylarda tarkib topgan. Bunday o'simliklarni etishtirish qiyosan kichik-kichik areallarda uchraydi. Bular jumladan, ko'pincha o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan ko'p yillik daraxt va buta o'simliklari (mevali daraxtlar, uzum, rezavor mevali butalar, choy o'simligi va boshqa texnikaviy daraxtsimon o'simliklar), shuningdek ko'pgina o'tsimon o'simliklar-sabzavot, poliz, texnika ekinlaridir.

Qisman bunday ekinlar tarqalgan joylar boshqa o'simliklar bilan band bo'lgan dalalarning o'rtalarida kichik-kichik maydonlarni ishg'ol qilgan bo'lib, tamomila boshqa sohalarga ixtisoslashgan rayonlarda qo'shimcha tarmoq hisoblanadi. Biroq sharoit eng yaxshi bo'lgan joylarda xuddi ana shu o'simliklar xo'jalik sistemalarining asosiy elementi bo'lib, boshqa yordamchi tarmoqlar ana shu sohaga qo'shimcha hisoblanadi. Quyida ana shunday tor sohaga ixtisoslashgan rayonlariing asosiy tiplari xarakterlanadi. Kartaning masshtabi shu gruppadaagi rayonlardan ayrimlarnigina ko'rsatishga imkon beradi.

Sabzavotchilik rayonlari. Ixtisoslashgan sabzavotchilik xo'jaliklari maydoni jihatidan yaxlit katta areallar hosil qilmaydi. Bunday xo'jaliklarning kam bo'lishi-qisman asosiy sabzavot ekinlarining biologik xususiyatlari, mahsulotning tashish

uchun qulay emasligi, shuning uchun ham bunday xo'jaliklarni shaharlarga, mevasabzavot konserva zavodlariga yaqin joylashtirish zaruriyati natijasidir. Sabzavotchilik qadimdan juda unumdor, qisman allyuvial tuproqli erlarda rasm bo'lgan. Zamonaviy yirik va ixtisoslashgan sabzavotchilik xo'jaliklarining joylashishi ko'p jihatdan janubiy qismdagi sug'orish sistemalari bilan, shimolroqdagi rayonlariing botqoq bosgan qayir yerlari melioratsiyasi bilan bog'liqdir.

Ayrim sabzavot ekinlari yetishtirish samaradorligidagi katta tafovutlar mahalliy xususiyatlari va namgarchilik sharoitigagina emas, balki iqlimga ham bog'liqdir. Fan-texnika taraqqiyoti munosabati bilan sabzavotchilik xo'jaliklarining territorial tafovutida katta rol o'ynaydigan iqlimning ahamiyati yanada ortadi. Transport vositalari, sabzavotlarni saqlash va qayta ishlash usullarining takomillashishi ularni uzoqroq joylarga etkazib berish, shimoliy rayonlar aholisini uzoq vaqt davomida sabzavot bilan ta'minlash imkonini beradi. Sabzavotchilik xo'jaliklarida tarmoqlar uygunlashuvi quyidagi xususiyatlarga ega. Sabzavot va poliz ekinlari, odatda, asosiy almashlab ekishda qatnashmaydi. Bunday ekinlar yem-xashak ekinlari bilan almashlab ekiladi. Bu ekinlar ekiladigan erlarga ko'plab o'g'it solinadi va bir tekisda sug'orib turiladi. Ko'pincha sabzavotchilik bilan bir qatorda sut yoki sut-go'sht chorvachiligi ham rivojlangan bo'ladi.

Mevachilik va uzumchilik rayonlari. Bu rayonlarda xilma-xil ekinlar va chorvachilik tarmoqlarining bo'lishi foydalaniladigan hududning ko'p jihatdan bir xil emasligiga bog'liqdir. Relyefi, yon-bag'irlar ekspozitsiyasi, tuproq hosil qiluvchi jinslariga ko'ra urug'li, danakli, yong'oq mevali o'simliklarning ayrim turlari va navlari uchun, uzumning turli navlari uchun qulay bo'lgan yerlar bilan bir qatorda boshqa o'simliklar uchun yoki chorva mollari boqish uchun qulay bo'lgan erlar ham uchraydi. Mevachilik va uzumchilikda maydon birligida hisoblaganda juda ko'p mehnat va katta mablag'lar sarf qilinadi. Shuning uchun bunday sohalar rivojlangan joylarda qishloq aholisi odatda zich joylashgan. Bu esa shunga olib keladiki, mehnatni ko'p talab qiladigan intensiv ekinlar, masalan, tamaki, sabzavot o'simliklari qo'shimcha tarmoqlarga aylanadi.

Sertepa va tog'li hududlar reliefi bog'dorchilik va uzumchilikda ba'zi bir ijobiy xususiyatlarga ega. Bunday yerlarda ekinlar qora sovuqdan ko'p zarar ko'rmaydi. Xoxlagan yonbag'irda ekin eksa bo'ladi. Tuproqning namlik sharoiti ham qulay. Tog'oldilaridagi qiya tekisliklarda erlarni sug'orib dehqonchilik qilinadi, tog'lardan oqib tushadigan daryolardan foydalaniladi.

Bu rayonlarda relyef past-baland bo'lganidan ekinzorlar maydoni ko'p emas: intensiv ekinlar kattagina o'rin tutadi. Zakarpate (Karpatoriti), Moldaviya, Qrimda, Kavkazning shimoliy yonbag'ridagi g'arbiy rayonlarda, Zakavkazeda (Kavkazortida) tamakining qimmatli navlari yetishtiriladi.

Bog'dorchilik-uzumchilik xo'jaligi rayonlarida chorvachilikning yem-xashak bazasi cheklangan, biroq tog'larning o'zlashtirilgan yerlarga yaqin bo'lgan balandroq yonbag'irlari yoki Shimoliy Zakavkaze va Dog'istondagi sug'orilmaydigan qurg'oqchil joylar kattagina yaylov hisoblanadi. Bu yerda mollarni yaylovlarda haydab boqish chorvachilikning negizidir. Qoramolchilik, qo'ychilik, ayrim rayonlar uchun ipakchilik chorvachilikning muhim tarmoqlaridir.

Ko'p yillik subtropik ekinlar rayonlari. Kavkazning Qora dengiz sohili, Kaspiy dengizi sohilida esa Talish tizmasining tog' oldilari sovuqqa chidamsiz ko'p yillik o'simliklar etishtiriladigan rayonlardir. Musbat haroratlarning ko'p bo'lishi va uzoq davom etadigan vegetatsiya davri davomida yog'in-sochinning mo'l bo'lishi ayni vaqtning o'zida qurg'oqchilikka chidamsiz issiqsevar va namsevar o'simliklar etishtirishga imkon beradi. Vegetatsiya davrida o'rtacha sutkalik temperatura yig'indisi 4000° dan yuqori, sovuqbo'lmaydigan davr 240-250 kun. Hududning kichik bir qismida, xususan, tog' yonbag'irlari o'rmonlar bilan qoplangan baland erlarda dehqonchilik qilinadi. Endilikda ko'p yillik issiqsevar o'simliklar bir yillik ekinlar kabi salmoqqa ega. Ularning iqtisodiy ahamiyati esa ancha yuqori.

O'simlikchilik tarmoqlari orasida choy etishtirish birinchi o'rinda turadi. Choy plantatsiyalari tog' yonbag'irlarini dengiz sathidan 700-800 m balandlikkacha ishg'ol qilgan va tekisliklarda katta-katta massivlarni egallagan. Choy sitrus o'simliklarga nisbatan sovuqqa chidamliroq bo'ladi. Subtropik ekinlar orasida sitrus ekinlar maydoniga ko'ra ikkinchi o'rinda turadi. Choydan farqlio'laroq, bu ekinlar karbonatli tuproqlarda yaxshi o'sadi, lekin bu o'simliklarga iqlim sharoiti, birinchi galda qishki sovuqlar kuchliroq ta'sir etadi. Sitrus ekinlar dengizga yaqin joylarda tarqalgan. Shu bilan birgalikda qishki sovuq kam bo'ladigan aksari tik yonbag'irlarda ham o'stiriladi.

Tung daraxti sovuqqa bardoshlilik jihatidan choy o'simligidan keyin, lekin sitrus o'simliklaridan oldinda turadi, ammo bu daraxt u qadar ko'p mehnat talab qilmaydi. Bir yillik o'simliklar orasida tamaki ayniqsa ahamiyatlidir. Bu o'simlik tuproq tanlaydi. Efir moyli o'simliklar (asosan yorongul) rayonning hamma joyida emas, balki tekislik qismida tarqlagan.

Keyingi paytlarda shimoliy hududlarga jo'natish uchun ertapishar sabzavotlar yetishtirishning ahamiyati ortib bormoqda. Asosiy don ekini makkajo'xori ko'pchilik xo'jaliklarning deyarli birdan-bir don ekinidir. Bu hududda tabiiy yem-xashak kam. Lekin xo'jaliklarning bir qismi podalarini yozda tog' yaylovlarida boqadi.

Paxtachilik rayonlari. Sug'oriladigan yerlarda paxtachilik asosan issiqlik rejimiga bog'liq. O'rtacha sutkalik haroratlar yig'indisi vegetatsiya davrida 3800° va undan ortiq, sovuq bo'lmaydigan davr esa 180 kundan kam bo'lmasligi kerak. O'tmishda paxtachilik geografiyasi bulardan tashqari suv manbalariga ham bog'liq bo'lgan. Qorlardan to'yinadigan mavsumiy daryolar bahorda va yoz boshlarida sersuv bo'lsa ham, issiq oylarga kelib sayozlashib qolgan. Bu esa paxtachilik uchun zaruriy sharoit hozirlamagan. Tog' daryolarining suvlarini tartibga solish va irrigatsiya sistemalarini yiriklashtirish sohasidagi tadbirlar paxtachilik xo'jaligining maydonini kengaytirdi. Ariq-zovurlar bilan yaxshi ta'minlangan yerlarda paxtaning ulushi ekin maydonining 65-70 % ini tashkil etadi. Paxta bilan asosan em-xashak ekinlari-beda, makkajo'xori va silos uchun jo'xori ekiladi. Paxtachilik vohalarida xo'jalikning ba'zi bir boshqa tovar tarmoqlari ham rivojlanmoqdaki, bunday tarmoqlar katta maydonlarni ishg'ol qilmagani holda paxtachilik bilan birgalikda olib boriladi, bular ipakchilik, mevachilik va uzumchilikdir.

Sug'oriladigan yerlar ba'zi bir joylarda katta yaxlit massivlarni egallagan, boshqa joylarda esa sug'orilmaydigan yerlar bilan yonma-yon joylashgan. Yaqin o'tmishda paxtachilik rayonlarida birgina xo'jalik sug'oriladigan yerlarni va bunday

yerlar yaqinidagi tog' oldi bahorikor maydonlarni (bunday yerlarda asosan don ekinlari ekilgan), shuningdek tog' oldilaridagi, tog' yonbag'irlaridagi yoki tekisliklardagi yaylovlarni ham o'z ichiga olgan. Ixtisoslashishning kuchayishi bilan tarmoqlar bir xil bo'lgan xo'jaliklar tarkib topa boshladi. Yaylovlar asosida chorvachilik xo'jaliklari tashkil etildi. Bunday xo'jaliklarga qo'shimcha yem-xashak ishlab chiqarish uchun bahorikor yoki obikor yerlar ajratib berildi.

Sholikorlik rayonlari. Sholikorlik xo'jaliklari ishlab chiqarishning alohida tipi sifatida Krasnodar o'lkasida, Kuban daryosi etagidagi sug'oriladigan yerlarda, Sirdaryoning quyi va o'rta oqimidagi sug'orish sistemalarida, Qizilo'rda va Chimkent (Janubiy Qozog'iston) oblastlarida vujudga keldi. Ili daryosining bo'yidagi erlarga sholi ekilmoqda. Sholi bilan asosan yem-xashak ekinlari almashlab ekiladi. Sholikorlik ko'pchilik hollarda ixtisoslashgan xo'jalikdir. Go'sht, sut chorvachiligi chorvachilikning asosiy tarmog'idir.

Tog' va tog'oldi hududlardagi dehqonchilik-chorvachilik xo'jaligi rayonlari. Sobiq ittifoqning janubidagi tog'li o'lkalarda yaylov chorvachiligi xo'jaliklari uchungina emas, balki dehqonchilik rivojlangan xo'jaliklar uchun ham turli balandlik mintaqalaridagi yerlardan foydalanish xarakterlidir. Bu esa yillik yaylov sikli nuqtai nazaridan ham va o'simlikchilikda erlardan samaraliroq foydalanish nuqtai nazaridan ham maqsadga muvofiqdir.

Tog'oldilarida va past tog'larda, tog'lar orasidagi soyliklarda sug'orib yoki sug'ormasdan olib boriladigan dehqonchilik imkoniyatlari xilma-xildir, yaylovlar ancha kam. Relif balandlashgan sari madaniy o'simliklarning tarkibi ham qisqara boradi, vegetatsiya davri kamayadi, dala ishlarini mexanizatsiyalash uchun sharoit noqulayroq bo'la boradi, tabiiy yem-xashak o'sadigan maydonlar va ularning mahsuldorligi orta boradi. Buni o'rtacha balandlikdagi tog'larda ko'rish mumkii. Bu yerda yaylov mavsumi qisqa bo'ladi. Subalp mintaqasidan boshlab baland tog' maydonlari faqat yoz faslida 2-3 oy davomidagina mollarni boqish uchun xizmat qiladi. Bu yerda yilning sovuq yarmida chorva mollarini yem-xashak bilan ta'minlash zaruriyati shundan kelib chiqadiki, bunda yaylovlarning anchagina qismi pastroqdagi tog' mintaqalarida joylashgan dehqonchilik-chorvachilik xo'jaliklarining chorva mollarini boqish uchun ajratib berilgan.

Dehqonchilik-chorvachilik xo'jaliklarining ixtisoslashishi va ular o'rtasidagi tarmoqlarning o'zaro aloqalari juda xilma-xildir. Muhim tovar ekini hisoblangan tamaki u qadar katta maydonni egallamasada, shu erdagi xo'jaliklar daromadining ancha qismini beradi. Qirgizistonda Chu daryosining suvi bilan sug'oriladigan yerlarda, shuningdek Janubiy Qozog'istonning sug'oriladigan yerlarida tovar mahsulot beradigan qand lavlagi ekiladi. Qand lavlagi boshqa ekinlar bilan almashlab ekiladi. Bahorikor yerlarda, asosan bug'doy va arpa, sug'oriladigan yerlarda makkajo'xori ekiladi.

8. Sharqiy Sibirning dehqonchilik-chorvachilik va chorvachilik rayonlari:

Bu yerlarda vegetatsiya davrining qisqaligi dehqonchilik imkoniyatlarini cheklab qo'yadi. Sharqiy Sibirning janubiy qismidagi tog' oralig'idagi pastliklarda orolsimon joylashgan o'rmon-dasht va dasht maydonlardagina o'rtacha sutkalik temperatura yig'indisi 1400° dan ortadi. Yillik temperatura yig'indisi ana shunday bo'lganda g'alla ekinlari ekish mumkin bo'ladi. Ichkariroq yoki janubroqda

joylashgan tog' oralig'i pastliklarida dasht va quruq dasht landshaftlari: Minusinsk soyligi, Selenga vodiysi, Chita oblastidagi Shilka va Argun daryolari bo'ylarida ana shunday landshaftlar uchraydi. Tabiiy muhitning ana shu xususiyatlari Sharqiy Sibirning zamonaviy qishloq xo'jaligi xususiyatlarini belgilab beradi. Qo'ylar soni va jun yetishtirish ma'lim bir ko'rsatkichga ega, sug'oriladigan yerlar maydoni anchagina.

G'alla ekinlari va go'sht-sut chorvachiligi rayonlari. Dehqonchilik xo'jaligining eng katta «o'choqlari»-Chulim buyi-Achinsk va Kansk o'rmon-dashtlari, Minusinsk soyligidagi dasht va o'rmon-dashtlaridir. Balagan-Irkutsk o'rmon-dashtida, shuningdek Buryatiya respublikai va Chita oblastida haydaladigan yerlar maydoni kamroqdir.

O'rmon-dasht rayonlarida dehqonchilik bilan birgalikda sut-go'sht chorvachiligi, qurg'oqchilroq joylarda esa qo'ychilik ham rivojlangan. Ekinlar asosan ertapishar ekinlardan iborat bo'lib, ko'pincha bahorgi bug'doy, arpa va suli ekiladi. Almashlab ekish qora shudgor va oddiy shudgorga asoslangan. Chorvachilik uchun tabiiy pichanzorlar va yaylovlar katta ahamiyatga ega. G'arbiy Sibirga qaraganda, bu yerda hosil miqdori u yildan bu yilga, kam farq qiladi.

Qo'ychilik, go'sht chorvachiligi va Sharqiy Sibirning janubiy qismlaridagi g'alla dehqonchiligi rayonlari. Ko'pchilik joylarda dehqonchilik xalaqit beradigan tog' reliefi, iqlimning ancha quruq kelishi va qishning kamroq bo'lishi chorva mollarini yaylovlarda boqishga qulaylik tug'diradi (xususan, qattiq iqlim sharoitiga bardosh beradigan chorva mollari uchun). Qo'ychilik asosiy o'rin tutadigan eng xarakterli chorvachilik tarmog'i Chita oblastida, Buryatiya va Tuva respublikalarida, Minusinsk soyligida esa Xakasiya avtonom oblastida tarkib topgan. Yaylovdan olinadigan yem-xashak chorvachilikda foydalaniladigan barcha yem-xashak miqdoriniig $\frac{1}{3}$ qismidan $\frac{1}{2}$ qismigachasini tashkil etadi. Tabiiy yem-xashak maydoni Tuva respublikasida haydaladigan yerlardan 6 marta, Chita oblastida 2,2 marta, Buryatiya respublikasida 1,8 marta ortiqdir. Yerlarni sug'orib dehqonchilik qilish ayniqsa Buryatiya va Tuva respublikalarida va Minusinsk soyligida rivojlangan.

Uzoq Sharqning dehqonchilik-chorvachilik rayonlari. Tog' relyefi xo'jalikning dehqonchilik tipi taraqqiyotini cheklab qo'yadi, biroq musson ta'sirida iqlim sharoitining o'ziga xosligi, vegetatsiya davrining uzoq davom etishi va namgarchilikning etarli bo'lishi Uzoq Sharq janubi qismi qishloq xo'jaligining o'ziga xos xususiyatlarini belgilab beradi. Bu yerlarda ancha issiqsevar ekinlar yetishtirish mumkin. Bahorning quruq kelishi va yozda yog'in-sochinning keragidan ortiqcha bo'lishi asosiy g'alla ekinlari bo'lgan bahori bug'doydan, suli, arpadan, shuningdek soyadanyuqori hosil olish uchun qulaylik yaratmaydi. Qishning sovuq va kamqor bo'lishi kuzgi ekinlar yetishtirishga imkon bermaydi.

Uzoq Sharqning eng muhim dehqonchilik rayonlarida ekin maydonlarining o'ziga xos strukturasi tarkib topgan. Chopiq qilinmaydigan don ekinlarining ulushi ancha kichik (Zeya-Bureya tekisligida bunday g'alla ekinlari 40-50 % ga etadi, boshqa joylarda esa barcha ekinlarning atigi $\frac{1}{3}$ qismini tashkil qiladi), chopiq qilinadigan ekinlar (shaharlarga yaqin rayonlarda soya, kartoshka) va yem-xashak ekinlarining salmog'i anchagina. Sholikorliklar maydoni katta emas. Soya bo'yicha

bu rayon Sobiq Ittifoqdagi eng muhim rayon hisoblanadi. Issiqlik kam bo'ladigan dehqonchilik hududlari don va em-xashak ekinlari bilan band va bu yerda sut-go'sht chorvachiligi rivojlangan. Sabzavotchilik, kartoshkachilikning ahamiyati katta.

Yuqoridagi manbalar asosida qaraydigan bo'lsak, qishloq xo'jaligini rayonlashtirish va rayonlar asosi joyning geografik o'rnini, reliefi, iqlim sharoitlariga chambarchas bog'liq. Masalan, O'zbekistonning reliefi bir xil bo'lmay, uning g'arbiy va janubi-g'arbiy qismlari asosan tekisliklardan iborat. Mamlakatimiz hududini tabiiy sharoiti va xo'jalikdagi ahamiyatiga ko'ra cho'l, adir, tog', yaylovlarga bo'lish mumkin.

Dengiz sathidan 400 metr balandlikkacha bo'lgan joylar cho'l mintaqasi hisoblanadi. Dengiz sathidan 400-1200 metrgacha baland bo'lgan qismi adir mintaqasini tashkil etadi. Tog' mintaqasi adirdan baland joylarga, ya'ni dengiz sathidan 1200 metrdan baland bo'lgan joylarga to'g'ri keladi. Baland tog'larning yonbag'irlarida, past tog'larning tepa qismida yaylov mintaqasi mavjud.

Mazkur holat doirasida qaraydigan bo'lsak, respublikamizda o'ziga xos qishloq xo'jaligi ixtisoslashuvi shakllangan: sug'oriladigan erlardagi dehqonchilik; lalmi erlardagi dehqonchilik; cho'l-yaylov zonasi; tog'-yaylov zonasi; qo'riqlanadigan erlar.

Modul bo'yicha xulosa o'rnida qaraydigan bo'lsak, 2019 yildan qishloq va suv xo'jaligi sohasida chuqur tarkibiy islohotlar boshlandi. Qishloq xo'jaligida fermer va dehqonlarning manfaatdorligini oshirish borasidagi o'rganish va izlanishlar davom ettirilib, sohaga ilg'or texnologiyalar va klaster tizimi joriy etildi. 2020 yil iqtisodiyotimiz rivojini, aholi bandligi va daromadlari o'sishini ta'minlaydigan eng muhim sohalardan biri bo'lgan qishloq xo'jaligini strategik yondashuvlar asosida taraqqiy ettirish zarurligi belgilangan.

Tarmoqdagi hozirgi o'sish sur'atlari bizni mutlaqo qoniqtirmasligi, bu borada bozor mexanizmlarini keng joriy etib, fermer va dehqonlar manfaatdorligini oshirmasdan, kutilgan sezilarli o'zgarish bo'lmasligi aytilgan. Shu bois, paxta va g'alla etishtirishga davlat buyurtmasini bekor qilib, ushbu mahsulotlarni bozor tamoyillari asosida xarid qilish tizimiga bosqichma-bosqich o'tish belgilangan. Agar bu yo'ldan bormasak, fermer va dehqonlarimiz mahsulot etishtirishda erkin bo'lmasligi, ular o'zlari kutganlaridek manfaat ko'rmasligi, hokimlarning esa ish uslubi o'zgarmasligi aytilgan.

Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash jamg'armasini isloh qilib, agrar sohaning boshqa tarmoqlariga ham arzon kreditlar ajratish yo'lga qo'yilishi, kelgusida Qishloq xo'jaligi vazirligi soha korxonalariga ko'rsatma berish, resurslarni taqsimlash, reja belgilash kabi eski ish usullaridan mutlaqo voz kechishi zarurligi belgilangan. Buning o'rniga vazirlik servis tashkilotiga aylanishi, xususiy agrosanoat tashkilotlariga er holatini aniqlash, ekin turlari va urug'ni to'g'ri tanlash, zararkunandalarga qarshi kurashish, moliyaviy ko'maklashish, mahsulot bozorini topish bo'yicha xizmat ko'rsatishi kerakligi aytilgan. Agrar tarmoqda fermerlik harakatini qo'llab-quvvatlash bilan birga, paxta va g'alla etishtirishni klaster shakliga bosqichma-bosqich o'tkazish bo'yicha izlanishlar davom ettirilmoqda.

Meva-sabzavot, sholichilik, chorvachilik, ipakchilik kabi boshqa tarmoqlarda ham bugungi kun talabiga javob beradigan klasterlarni tashkil etish ishlarini davom ettirish belgilangan. 2020 yil 2 milliard dollarlik, keyingi 5-7 yilda esa 3-4 barobar

ko'p meva-sabzavot mahsulotlarini eksport qilish uchun mahsulot etishtirishni keskin ko'paytirish choralarini ko'rish zarurligi uqtirilgan.

Parlament ushbu islohotlarning huquqiy asosi bo'lgan "Kooperatsiya va klasterlar to'g'risida"gi yangi qonunni tezroq qabul qilishi aytilgan. 2020 yil meva-sabzavotchilik, uzumchilik, urug'chilik, chorvachilik, agro-logistikani rivojlantirish, suvni tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish, ilmiy-tadqiqot ishlari, soha uchun malakali kadrlarni tayyorlashga 3 trillion so'm mablag' yo'naltirilishi, chorvachilik, qorako'lchilik, baliqchilik, parrandachilik kabi sohalarda naslchilikka alohida e'tibor qaratilishi, uni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning yangi mexanizmlari tatbiq etilishi aytilgan.

2020 yilda 44 ming gektar erda yoki 2019 yilga nisbatan qariyb 4 barobar ko'p maydonda suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etish, buning uchun davlat byudjetidan 300 milliard so'm subsidiya ajratilishi ko'rsatilgan. Shuningdek, suv xo'jaligi ob'ektlarini boshqarish jarayonlarini, suvni nazorat qilish va uning hisobini yuritish tizimini avtomatlashtirish zarurligi uqtirilgan. Ushbu masalalar Suv xo'jaligini rivojlantirish kontseptsiyasida o'z aksini topishi, Vazirlar Mahkamasi 2020 yil 1 aprelga qadar ana shu kontseptsiya loyihasini tasdiqlash uchun ish jarayonini kuchaytirishi aytilgan¹⁰.

¹⁰O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning Oliy majlisga murojaatnomasi. "O'zbekiston ovozi"- gazetasi. №08. 2020-yil, 25-yanvar.

GLOSSARIY:

Agrar munosabatlar (latincha *agrarius*-er)-qishloq xo'jaligida kishilar o'rtasida bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar.

Agrar-sanoat majmuasi-muayyan hududda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaradigan, qishloq xo'jaligi uchun texnikalar ishlab chiqaradigan va yetkazib beradigan, hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlaydigan bir-birlari bilan bog'langan korxonalar yig'indisi.

Agroiqlimshunoslik (yunoncha *agros*-dala)-iqlimni qishloq xo'jaligining, asosan dehqonchilikning muhim omili sifatida o'rganuvchi fan.

Agrotexnika-ekinlarni parvarishlash, ulardan yuqori va sifatli hosil olish usullarining majmui.

Almashlab ekish-iqlimi va tuproq sharoitiga qarab qishloq xo'jalik ekinlarini navbat bilan ekish.

Birlashma-bu bir tarmoqqa kiruvchi yirik korxonalar yoki aksariyat hollarda turdosh bo'lgan korxonalar turkumi, majmua esa bir emas, ikki va undan ortiq tarmoqlarning uyushmasi, ularning uyg'un holda rivojlanishi demakdir.

Diversifikatsiya-korxonalar va tarmoqlar faoliyat sohalarini kengaytirish, mahsulot va xizmat turlarini yangilash, mahsulot va xizmat turlarini ko'paytirish;

Donli ekinlar-eng muhim g'alla ekinlari, asosiy oziq-ovqat mahsuloti, chorva mollari uchun yem, shuningdek, qog'oz sanoati uchun xomashyo beradi.

Darrandachilik-chorvachilik tarmog'i, qimmatbaho mo'yna va pant (bug'u shoxidan olinadigan modda) uchun mo'ynali hamda tuyoqli hayvonlar urchitish bilan shug'ullanadi. Mo'yna olish uchun qora-kumush rang tulki, havo rang qutb tulkisi, amerika norkasi, nutriya, sobol boqiladi.

Dasht-o'tlar bilan koplangan o'rmonsiz territoriya. Dasht iqlimi cho'llarga nisbatan yumshoqroq bo'ladi.

Dehqonchilik-qishloq xo'jaligining ekinlar etishtirish bilan shug'ullanadigan muhim tarmog'i. Shuningdek, qishloq xo'jalik o'simliklarini etishtirish usullarini o'rganuvchi fan (agronomiyaning bir bo'limi).

Yem-xashak ekinlari-mol va parrandalarga ko'kat, pichan, yem, silos uchun ekiladigan o'simliklar.

Yengil sanoat-turli xom ashyolardan (asosan paxta, zig'ir, kanon tolasi, hayvon terisi, jun, sun'iy charm, sun'iy tolalardan) keng iste'mol buyumlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan sanoat tarmoqlari.

Yoqilg'i sanoatitog'-kon yoki qazib oluvchi sanoati toifasiga kiradi va yoqilg'i turlari, qazilma boyliklarning joylanishi, tabiiy, geoximik qonuniyatlarga asoslanadi. Sababi-ko'mir, neft, gaz, yonuvchi slanets, torf kabi tabiiy boyliklarning paydo bo'lishi va er yuzida (ostida) tarqalishi o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Industriyalash (latincha *industrii*-faoliyat)-hozirgi zamon korxonalarini qurish va fan-texnika yutuqlarini ishlab chiqarishning barcha tarmoqlariga joriy qilish yo'li bilan rivojlangan sanoatni bunyod etish.

Irrigatsiya (latincha *irrigatio*-sug'orish), sug'orish - qurg'oqchil erlarga suv keltirish, dalalarni sug'orish, tuproqning o'simlik ildizlari oziqlanadigan qatlamida suv zapasini rostlash. Melioratsiya turlaridan biri.

Ixtisoslashish-kishilarning biron-bir mashg'ulotda band bo'lishi yoki mehnatning ayrim vazifalarga bo'linishi.

Ixtisoslashuv-ishlab chiqarishni tashkil etishning muhim shakli bo'lib, u mehnat taqsimoti va iqtisodiy rayonlarni tarkib topishi bilan chambarchas bog'liq.

Ishlov beruvchi sanoat-kon sanoati, qishloq xo'jaligi, o'rmon xo'jaligi, baliq tutish, ovchilikdan keladigan, shuningdek, sintetik yo'l bilan olinadigan xom ashyoga ishlov beradigan yoki uni qayta ishlaydigan sanoat tarmoqlari.

Iqlimlashish-o'simlik va hayvonlarning yangi sharoitga moslashishi.

Iqtisodiy rayonlashtirish-mamlakatni uning iqtisodiy jihatdan o'ziga xos hududiy qismlari hisoblanadigan hamda iqtisodiy hayoti, ishlab chiqarish ixtisosi, kattagina ichki ishlab chiqarish aloqalari umumiy bo'lgan qismlarga bo'lish.

Iqtisodiy rayon-o'zining iqtisodiy-geografik o'rni, ixtisoslashishi va ishlab chiqarishining proporsionalligi hamda o'zaro bog'liqlik darajasi bilan farq qiladigan hudud.

Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash-ishlab chiqarishni zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash, tarkibiy jihatdan texnik va texnologik qayta tuzish, ishlab chiqarishni ma'naviy jihatdan yangilash;

Intensiv taraqqiyot yo'li-mazkur korxonalarda yangi texnika va mehnatni tashkil etishning yangi shakllarini joriy etish hisobiga ishlab chiqarishni kengaytirish.

Intensiv qishloq xo'jalik yuritish -agar qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtirish ekin maydonlarini kengaytirmasdan va chorva mollarini sonini oshirmasdan ko'paytirilsa.

Konsentrat (latincha *konsentratus*-to'plangan)-foydali qazilmalarni boyitish (konsentratsiya qilish) yo'li bilan olingan mahsulot.

Konsentratsiya-predmet, hodisa-voqealarning bir joyga to'planishi, yig'ilishi, birlashishi.

Korxonalar-ijtimoiy talablarni qondiruvchi va sof foyda olish maqsadida mahsulot ishlab chiqaruvchi, ishlar bajaruvchi, xizmat ko'rsatuvchi mustaqil xo'jalik yurituvchi iqtisodiyot sub'ektidir.

Konsern-umumiy manfaatlarga ega hamda shartnomalar, kapital va qo'shma faoliyatda ishtirok etish bilan bog'liq bo'lgan korxonalarining yirik birlashuvini aks ettiradi.

Konsorsium-kompaniya va banklarning vaqtinchalik birlashuvi natijasida, yirik kapital talab qiluvchi loyihalarni amalga oshirish yoki mablag'ni birgalikda joylashtirish maqsadlari uchun umumiy kelishuvlar asosida yuzaga keladi.

Kartellar-ishlab chiqarish masalalari, narxlar, tovarlarni sotish, ishchi kuchini yollash va shu kabi masalalar bo'yicha kelishuvga asoslanib faoliyat yuritadi.

Klaster-tushunchasini (ingliz tilida cluster-to'planish, bog'lam) ma'lum bir xususiyatlarga ega bo'lgan va mustaqil birlik sifatida qarab chiqilishi mumkin bir nechta bir turli elementlarning yig'indisi yoki birikishi sifatida talqin qilish mumkin.

Korporatsiyalar-umumiy maqsadlarga erishish, hamkorlikda faoliyat yuritish maqsadida birlashib, mustaqil huquqiy sub'ekt-huquqiy shaxsni tashkil qiluvchi shaxslar yig'indisini tavsiflaydi.

Kooperatsiya-pirovard natijada muayyan bir mahsulot yaratish uchun turli korxonalarining hamkorligidir.

Kombinatsiya-kooperatsiyaga o'xshab korxonalar birlashmasidan iborat. Ammo bu erda tarqoq holda joylashgan birlik emas, balki ularning hududiy umumiyligi tushuniladi.

Kabotaj-(o'z mamlakati portlari orasida) yuk tashish. Kabotaj 2 xil bo'ladi: katta kabotaj-turli dengizlar orqali yuk tashish; kichik kabotaj-bir dengizda yoki yonma-yon dengizda yuk tashish.

Moddiy ishlab chiqarish sohasi-ishlab chiqarish faoliyatining barcha turlari majmui bo'lib, buning oqibatida mahsulotlar, energiya shaklidagi moddiy ne'matlar yaratiladi va yuklar tashiladi, mahsulotlar saqlanadi, navlarga ajratiladi, qadoqlanadi, o'rab bog'lanadi, joylanadi va muomala sohasidagi vazifalar amalga oshiriladi.

Mahalliy lashtirish-ishlab chiqarish jarayonida mahalliy xomashyo va resurslardan kengroq foydalanish, milliy korxonalar uchun butlovchi qismlarni mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan yetkazib berish, importni qisqartirish evaziga valyuta resurslarini tejash.

Melioratsiya (latincha *melioratsio*-yaxshilash)-qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlarning holatini tubdan yaxshilash maqsadida amalga oshiriladigan agrotexnik va gidrotexnik tadbirlar.

Metallurgiya (metall va yunoncha *ergon*-ish)-ruda va tarkibida metall bo'lgan materiallardan metall olish, metall va qotishmalarning ximiyaviy tarkibini, strukturasi o'zgartirish jarayonlarini o'z ichiga olgan fan, texnika va ishlab chiqarish sohasi.

Moyli ekinlar-moy olish uchun ekiladigan o'simliklar. Kungaboqar, zig'ir, kunjut, kana-kunjut, maxsar, yeryong'oq, soya, gorchitsa, konoplya, paxta va boshqalar.

Monokultura xo'jaligi (yunoncha *monos*-bitta va latincha *kultura*-ekish)-birgina joyning o'zida bir xil ekinni uzluksiz ekish.

Mujassamlashuv-yoki ishlab chiqarishning to'planishi, yig'ilishi xalq xo'jaligining barcha tarmoqlariga tegishlidir.

Manufaktura-(lotincha - manus qo'l, fakyerye- qilmoq) – iste'mol buyumlari yoki gazlamani ommaviy miqyosda ishlab chiqarish, muayan tarmoq yoki sanoat ishlab chiqarish shakli.

Oziq-ovqatsanoati-aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilantaminlaydigan sanoat korxonalarining umumiy nomi.

Oltinrudalari-tarkibida oltin bo'lgan tog' jinslari.

Og'irmashinasozlik-mashinasozlikniig detallari katta va zalvarli mashinalar ishlab chiqaradigan tarmog'i.

Og'irsanoat-aksari ishlab chiqarish vositalari: mashina va asbob-uskunalar, yoqilg'i, energiya, metallar, ximiyaviy mahsulotlar, qurilish materiallari va boshqalarni ishlab chiqaradigan sanoat tarmoqlari.

Oykumena-(yunoncha-oyko-yashayman, turaman so'zidan olingan)-yer yuzasining aholi yashaydigan va ular tomonidan o'zlashtirilgan qismi.

Polimetall rudalar-(yunoncha *poli*-ko‘p)-tarkibida bir necha metall, ya‘ni qo‘rg‘oshin, rux, shuningdek, kumush, mis, oltin, vismut, kadmiy, indiy, qalay, kobalt va boshqalar bo‘lgan rudalar.

Rayon-(fransuzcha *rayon*-bir nuqtadan taralgan)-biron-bir xususiyatlariga qarab ajratiladigan hudud: iqtisodiy, tabiiy geografik, ma‘muriy rayonlar bo‘ladi.

Rangli metallurgiya-rangli metallarni qazib chiqarish, boyitish, eritish hamda qotishmalar ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.

Sanoat–moddiy ishlab chiqarishning eng yirik etakchi tarmog‘i bo‘lib, unda mehnat qurollari (vositalari), mehnat buyumlari va xalq iste‘mol tovarlarining ko‘pchilik qismi yaratiladi.

Sanoatni rayonlashtirish-turli katta-kichiklikdagi hududiy-ishlab chiqarish kombinatsiyalarini (uyg‘unligini) ajratish va asoslab berishdan iborat.

Sanoat rayoni-sanoat-ishlab chiqarish ixtisosi yaqqol ko‘rinib turadigan iqtisodiy rayon.

Sanoat markazi-bir yoki bir necha sanoat tarmoqlari bo‘lishi bilan ajralib turadigan shahar yoki posyolka.

Sanoat korxonasi-xalq xo‘jaligi rejasiga muvofiq ravishda mahsulot tayyorlash, ishlab chiqarish xizmatlari ko‘rsatish bilan shug‘ullanadigan ayrim ishlab chiqarish xo‘jalik birligi.

Sindikat–tijorat faoliyatini (ta‘minot, sotish, narxning paydo bo‘lishi) hamkorlikda tashkil qilishga aslangan birlashmadir.

Sanoat siyosati-sanoatni joylashtirish va rivojlantirishga qaratilgan davlat tomonidan olib boriladigan siyosat.

Sanoat uzeli-mehnat va moddiy xom ashyo resurslaridan foydalanadigan aholi manzilgohlari tizimiga injenerlik-kommunikatsion va transport inshootlari bilan xizmat ko‘rsatadigan o‘zaro bog‘liq sanoat korxonalarini guruhi joylashgan hudud.

Sellyuloza (fransuzcha-sellyuloza asli latincha *sellyula*-katak so‘zidan), *клетчатка* - o‘simlik hujayralari po‘stlog‘ining suvda erimaydigan eng asosiy tarkibiy qismi, tabiatda eng ko‘p tarqalgan polimerlardan biri.

Transport (lotincha *transporto*-tashiyman)-xalq xo‘jaligining yuk va passajir tashiydigan tarmog‘i hisoblanadi.

Tabiiy resurslar, *табиат ресурслари* (fransuzcha *resurs*-mablag‘)-insoniyat uchun yashash vositasi bo‘lib xizmat qiladigan va xo‘jalikda foydalaniladigan tabiat elementlari (moddiy boylik va energiya turlari).

Tarkibiy o‘zgarishlar-iqtisodiyotning muhim tarmoqlarini rivojlantirish, yangi o‘zak tarmoqlarni barpo etish, samarali va mustaqil iqtisodiyotni shakllantirish.

Tranzit-(latincha *tranzitus*-o‘tish)-biron stansiya, rayon, davlat orqali yuk yoki passajir olib o‘tish.

Tuproq-yer po‘stining o‘simliklar o‘sa oladigan darajada unumdor bo‘lgan eng ustki yumshoq qismi.

Texnika ekinlari-sanoatning turli tarmoqlari uchun xom ashyo beradigan qishloq xo‘jalik o‘simliklari. Qanday mahsulot olinishiga qarab bir necha guruhga bo‘linadi: kraxmalli ekinlar (kartoshka, batat-shirin kartoshka va b.), qandli ekinlar (shakarqamish, qand lavlagi va b.), moyli ekinlar (kungaboqar, yeryong‘oq, soya, kanakunjut, kunjut, zig‘ir, gorchitsa, zaytun, tung va b.), efir moyli ekinlar (yalpiz,

geran, atirgul, lavanda, koriandr va b.), tolali o'simliklar (paxta, uzun tolali zig'ir, jut, kanop, kanoplya va b.), bundan tashqari, dorivor, oshlovchi, narkotik, bo'yoq beruvchi va hokazolar.

Trestlar-yuqori darajada markazlashganligi bilan ajralib turadi. Uning tarkibiga kiruvchi korxonalar ishlab chiqarish, tijorat va huquqiy mustaqilliklarini yo'qotib, yagona reja asosida faoliyat yuritadi.

Undiruvchi sanoat-xilma-xil xom ashyo va yoqilg'i undirish, qazib chiqarish bilan shug'ullanadigan ishlab chiqarish sohasi. Kon sanoati, yog'och tayyorlash, baliq ovlash, ovchilik va boshqalar undiruvchi sanoatning asosiy tarmoqlaridir.

Ferroqotishma-(latincha *ferrum*-temir)-temirning marganets bilan (ferromarganets), kremniy bilan (ferrosilitsiy), xrom bilan (ferroxrom), volfram bilan (ferrovolfam), molibden bilan (ferromolibden) va boshqa elementlar bilan qotishmalari. Ferroqotishma po'lat eritib olish, erigan metallardan kislorodni chiqarib tashlash va metallga biron xossa berish uchun ishlatiladi.

Fraxt-suv transportida tashiladigan yuk evaziga olinadigan kira haqi.

Flyus-domna pechda ruda bilan yoqilg'i qatlamlari orasiga solinadigan modda ohaktosh, qum, dolomit va boshqalar qorishmasi. Flyus solinganda ruda orasidagi turli aralashmalar (bekorchi jins) bilan birga metallardan oson ajraladigan shlak hosil qiladi.

Xom ashyo-ishlab chiqarish uchun mehnat sarf bo'lgan, lekin hali ishlov berilmagan yoki qayta ishlanmagan material yoki mahsulotlar.

Xo'jalik assotsiatsiyasi-jismoniy yoki huquqiy shaxslarning o'zaro hamkorlik yuritish maqsadida ko'ngilli ravishda birlashuvini anglatadi va unda birlashuvga kiruvchi sub'ektlar o'z mustaqilligini saqlab qoladilar.

Xoldinglar-ishtirokchilarning moliyaviy imkoniyatlarini birlashtirish va muvofiqlashtirish hamda ishlab chiqarish quvvatlari bilan vaizifalarni tezkor ravishda amalga oshirish imkonini beruvchi boshqaruvning samarali shaklini ifodalaydi.

Xom ashyo-(xom materiallar)-oldindan mehnat ta'siriga uchragan va yanada qayta ishlashga muhtoj bo'lgan mehnat mahsulotlari (masalan qazib olingan ruda va hokazo).

Xom materiallar-sanoatda hali qayta ishlanmagan mehnat predmeti (ko'mir, neft, ruda, paxta, jun va hokazo)

Chorvachilik-qishloq xo'jaligining chorvachilik mahsulotlari etishtirish maqsadida chorva mollari urchitish bilan shug'ullanadigan tarmog'i. Chorvachilik aholini oziq-ovqat (sut, go'sht, yog', tuxum va b.), engil sanoatni xom ashyo (jun, xom teri, qil va b.) bilan ta'minlaydi va ot-ulov (ot, eshak, ho'kiz, xachir, bug'u, tuya) va organik o'g'it (go'ng) etkazib beradi.

Shartli yoqilg'i-issiqlik berish quvvati 7000 *kcalG/kg* ga baravar deb qabul qilingan yoqilg'i.

Elektron transport-elektr energiyasi, tovush (telefon), tasvir (internet) va turli xil belgilar tashiladigan transport turi.

Energiya ishlab chiqarish sikli-ishlab chiqarishning muayyan energiya va xom ashyo turini olish uchun asosiy bo'lgan jarayoni atrofida bir-birini to'ldirib turishi asosida vujudga kelgan tipik barqaror kombinatsiyasi.

Ekstensiv qishloq xo'jalik yuritish-agar qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtirish ekin maydonlarini kengaytirish va chorva mollarini sonini oshirish hisobiga ko'paysa.

Yarim fabrikat-ishlov berilgan, lekin hali tayyor mahsulot hisoblanmagan (tayyor mahsulotga aylanishi uchun yanada ishlanadigan) xom ashyo. Yarim fabrikat, yarim mahsulot-iste'mol qilish uchun hali tayyor bo'lmagan va qo'shimcha ishlov talab qiladigan mahsulot (sellyuloza, kalava ip, quyma po'lat va boshqalar) qisqasi xom ashyo.

Qishloq-xo'jaligi-moddiy ishlab chiqarishning asosiy tarmoqlaridan biri bo'lib, aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan va sanoatni (oziq-ovqat va engil sanoatlarni) xomashyo bilan ta'minlaydi.

Qishloq xo'jaligi rayoni-tabiiy sharoitga qarab, ma'lum bir joyning qishloq xo'jaligining muayyan mahsulotini yetishtirishga ixtisoslashuvi.

Hududiy ishlab chiqarish majmualari-jamiyatning ishlab chiqaruvchi kuchlarini hudud bo'ylab joylashtirish shakli bo'lib, fan-texnika inqilobi sharoitida ishlab chiqaruvchi kuchlarni taraqqiy ettirish vazifalariga mos tushadi.

Hosildorlik-bir *ga* ekin maydonidan *s* hisobida olingan qishloq xo'jalik mahsuloti miqdori.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh.Mirziyoev Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent-"O'zbekiston"-2016. 56 b.
2. Sh.Mirziyoev Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent-"O'zbekiston"-2016. 488 b.
3. Sh.Mirziyoev Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent-"O'zbekiston"-2016. 488 b.
4. Sh.Mirziyoev Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Toshkent-"O'zbekiston"-2017. 104 b.
5. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning Oliy majlisga murojaatnomasi. "O'zbekiston ovozi"-gazetasi. №08. 2020-yil, 25-yanvar.
7. Abirqulov Q. Iqtisodiy geografiya.-Toshkent., "O'zbekiston" 2004.
- 8.Asanov G.A. Sotsial-iqtisodiy geografiya: termin va tushunchalar. T.:O'qituvchi. 1990. -114 bet.
9. Asanov A., Nabixonov M., Safarov I. "O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi". Toshkent, O'qituvchi, 1994.
10. Akramov V.Sh., Umedov Sh.X. "Neft qazib olish bo'yicha ma'lumotnoma". T.: "Fan va texnologiya"-2010 y.-368 b.
11. Maksakovskiy V.P. Geograficheskaya kartina mira. Kn. I: Obshaya xarakteristika mira. Moskva, Drofa, 2008, 4-e izd., 495 str.
12. Mahmudov E.X. «Korxonalar iqtisodiyoti» - T.: TDIU 2004. - 208 bet.
13. Maxmudov N.N., Yuldashev T.R. va boshqalar "Konlarda neft, gaz va suvni yig'ish va tayyorlash texnologiyasi". T.: Qarshi universiteti, 2014 y.-318 b.
14. Ortiqov A.. "Sanoat iqtisodiyoti" (darslik). -T.: TDIU. 2004.
15. O'zbekiston hududlarining yillik statistik to'plami. Toshkent. 2019. -242 bet.
16. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 4-tom. "O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent.-2005 yil.-249-250-betlar.
17. Rodrigue, J-P (ed) . The Geography of Transport Systems. UK, London: 2013.
18. Saushkin Yu.G. Geograficheskoe mishlenie. – Smolensk: Oykumena, 2011.
19. Soliev A., Mahamadaliev R. Iqtisodiy geografiya asoslari-T.:O'zbekiston, 1996.
20. Soliev A., Yanchuk S. Razmeshenie proizvoditel'nykh sil i polyarizovannoe razvitiye ekonomiki Respubliki Uzbekistan.-T.:2005.
21. Soliev A., Nazarov M., Qurbonov SH. O'zbekiston hududlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi.-T:Mumtoz so'z. 2010.
22. Soliev A.A., Maxamadaliev R. Iqtisodiy va sotsial geografiyaning asosiy muammolari (o'quv qo'llanma). Toshkent – 2002.-45 bet.
23. Soliev A.S., Ahmedov E., Maxamadaliev R.Y. va b. Mintaqaviy iqtisodiyot. O'quv qo'llanma. – T.: Universitet, 2003.
24. Soliev A., Safarov I. "Iqtisodiy va siyosiy geografiya asoslari". Toshkent. Universitet, 2003.

25. Soliev A. O'zbekiston geografiyasi (O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi). – T.: «Universitet», 2014.
26. Safarova N., Amanbaeva Z., Gapparov A. Moddiy ishlab chiqarish asoslari. Toshkent. Universitet. 2013.-94 bet.
27. Xrushev A.T. Geografiya promishlennosti.-M.:Visshaya shkola. 1990.
28. Yuldasheva Sh.M. «Sanoat tarmoqlari texnologiyasi» - (o'quv qo'llanma) - T.: TDIU 2004. - 304 bet.
29. Qurbonniyozov R. “Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti asoslari”. Toshkent-1995.
30. Hasanov I.A., G'ulomov P.N. O'zbekiston tabiiy geografiyasi. – T.: O'qituvchi, 2007.
31. www.gov.uz. - Hukumat sayti.
32. www.stat.uz.
33. www.ziyonet.uz.
34. [www.geografyia. Ru](http://www.geografyia.Ru).

MUNDARIJA:

SO‘Z BOSHLI.....	3
1-MODUL. “TRANSPORT, SANOAT VA QISHLOQ XO‘JALIGI GEOGRAFIYASI” KURSI MAZMUNI. ISHLAB CHIQRISH TARMOQLARINING SHAKLLANISHI VA ULARNI IJTIMOIIY TASHKIL ETISH SHAKLLARI.....	4
1.1. “Transport, sanoat va qishloq xo‘jaligi geografiyasi” fani maqsadi va vazifasi. Ob‘ekti va predmeti, boshqa fanlar bilan aloqadorligi, asosiy tushuncha va qonuniyatlari.....	4
1.2. Ishlab chiqarish tarmoqlarini shakllanish va rivojlanish bosqichlari.....	20
1.3. Ishlab chiqarishni ijtimoiy tashkil etish shakllari.....	29
1.4. Ishlab chiqarishni joylashtirishga ta’sir etuvchi omillar.....	38
2-MODUL. TRANSPORT TARMOQLARI GEOGRAFIYASI.....	51
2.1. Transport tizimi va uning rivojlanish xususiyatlari.....	51
2.2. Quruqlik transporti tarmoqlari.....	59
2.3. Suv transporti tarmoqlari.....	63
2.4. Zamonaviy transport tarmoqlari.....	67
3-MODUL. SANOAT TARMOQLARI GEOGRAFIYASI.....	70
3.1. Sanoat tarmoqlarini tashkil etish va rivojlantirish asoslari.....	70
3.2. Yoqilg‘i-energetika majmuasi.....	85
3.3. Metallurgiya majmui.....	96
3.4. Mashinasozlik majmuasi.....	103
3.5. Kimyo majmuasi.....	108
3.6. O‘rmon va qurilish materiallari ishlab chiqarish majmuasi.....	111
3.7. Yengil va oziq-ovqat sanoati.....	115
3.8. Sanoatni rayonlashtirish asoslari.....	120
4-MODUL. QISHLOQ XO‘JALIGI TARMOQLARI GEOGRAFIYASI.....	129
4.1. Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish asoslari.....	129
4.2. Dehqonchilik tarmog‘i.....	134
4.3. Chorvachilik tarmog‘i.....	141
4.4. Qishloq xo‘jaligi rayonlari tiplari.....	145
GLOSSARIY.....	166
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	172

СОДЕРЖАНИЕ:

ПРЕДИСЛОВИЕ.....	3
МОДУЛЬ 1. СОДЕРЖАНИЕ КУРСА«ГЕОГРАФИЯ ТРАНСПОРТА, ПРОМЫШЛЕННОСТИ И СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА». ФОРМИРОВАНИЕ ПРОИЗВОДСТВЕННЫХ ОТРАСЛЕЙ И ИХ ФОРМЫ СОЦИАЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ	4
1.1. Цель и задачи курса «География транспорта, промышленности и сельского хозяйства». Объект и предмет, отношение к другим дисциплинам, основные понятия и закономерности	4
1.2. Этапы формирования и развития отрасли производство	20
1.3. Формы социальной организации производства	29
1.4. Факторы влияющие на размещение производства	38
МОДУЛЬ 2. ГЕОГРАФИЯ ТРАНСПОРТНЫХ ОТРАСЛЕЙ	51
2.1. Транспортная система и особенности ее развития	51
2.2. Наземные транспортные сети	59
2.3. Водные транспортные сети	63
2.4. Современные транспортные сети	67
МОДУЛЬ 3. ГЕОГРАФИЯ ПРОМЫШЛЕННЫХ ОТРАСЛЕЙ	70
3.1. Основы организации и развития промышленных отраслей.....	70
3.2. Топливо-энергетический комплекс	85
3.3. Металлургический комплекс	96
3.4. Машиностроительный комплекс	103
3.5. Химический комплекс	108
3.6. Комплекс по производству лесных и строительных материалов	111
3.7. Легкая и пищевая промышленность	115
3.8. Основы промышленного районирования	120
Модуль 4. ГЕОГРАФИЯ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ ОТРАСЛЕЙ....	129
4.1. Основы развития сельского хозяйства	129
4.2. Отрасли земледелия	134
4.3. Отрасли животноводства.....	141
4.4. Типы сельскохозяйственных районов.....	145
ГЛОССАРИЙ	166
ИСПОЛЬЗУЕМЫЕ ЛИТЕРАТУРА	172

CONTENTS:

PREFACE.....	3
MODULE1. THE COURSE "GEOGRAPHY OF TRANSPORT, INDUSTRY AND AGRICULTURE". FORMATION OF PRODUCTION NETWORKS AND THEIR FORMS OF SOCIAL ORGANIZATION.....	4
1.1. The purpose and objectives of the course "Geography of Transport, Industry and Agriculture". Object and subject, relation to other disciplines, basic concepts and patterns	4
1.2. The stages of formation and development of the manufacturing branches.....	20
1.3. Forms of social organization of production	29
1.4. Influencing production deployment factors	38
MODULE 2. GEOGRAPHY OF TRANSPORT NETWORKS	51
2.1. The transport system and its development features	51
2.2. Land transport networks	59
2.3. Water transport networks	63
2.4. Modern transport networks	67
MODULE 3. GEOGRAPHY OF INDUSTRIAL NETWORKS	70
3.1. Fundamentals of organization and development of industrial networks....	70
3.2. Fuel and energy complex	85
3.3. Metallurgical complex	96
3.4. Machine-building complex	103
3.5. Chemical complex	108
3.6. Complex for the production of timber and building materials.....	111
3.7. Light and food industry	115
3.8. Fundamentals of industrial zoning	120
MODULE 4. GEOGRAPHY OF AGRICULTURAL NETWORKS.....	129
4.1. Fundamentals of agricultural development	129
4.2. Network agricultural.....	134
4.3. Livestocknetwork	141
4.4. Types of Agricultural lands	145
GLOSSARY	166
LINKS.....	172

**XIDIRALIYEV KOMIL ESANOVICH
KARSHIBAYEVA LOLA KLICHOVNA**

**“TRANSPORT, SANOAT VA QISHLOQ XO’JALIGI GEOGRAFIYASI”
5110500-“Geografiya o‘qitish metodikasi” ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun
darslik**

Guliston-2021



Xidiraliyev Komil Esanovich-geografiya fanlari nomzodi, Guliston Davlat universiteti Ekologiya va geografiya kafedrası dotsenti. 70 ortiq ilmiy ishlar, jumladan, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya, aholi geografiyasi va demografiya asoslari fanlari yo'nalishida 30 dan ortiq o'quv-uslubiy majmualar, 1 o'quv qo'llanma, 1 darslik muallifi.



Karshibayeva Lola Klichevna-geografiya fanlari nomzodi, Guliston Davlat universiteti Ekologiya va geografiya kafedrası mudiri. 85 ortiq ilmiy ishlar, jumladan, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya, tabiatshunoslikni o'qitish metodikasi fanlari yo'nalishida 20 dan ortiq o'quv-uslubiy majmualar, 5 o'quv-uslubiy qo'llanma, 2 darslik muallifi.